

*Zet /*  
I.SH. ALQAROV,  
R. MAMATQULIVA, H.D. NORQULOV

# SHAXS VA OILA TARBIYASINING PEDAGOGIKASI




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**I.ALQAROV, R.MAMATQULOVA, X.NORQULOV**

**SHAXS VA OILA TARBIYASINING  
PEDAGOGIKASI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



**TOSHKENT – 2009**

I.Alqarov, R.Mamatqulova, X.Norqulov. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2009, 224 ber.

*Psixologiya fanlari doktori, professor  
V.Karimova tahriri ostida*

O'quv qo'llanmada barcha oliy ta'lim muassasalarida birinchi blok «Pedagogika» fani dasturi doirasida yozilgan. Shuningdek, «Pedagogika» kursining «Yosh avlod tarbiyasining maqsad va vazifalari», «Ta'lim qonuniyatları va qoidalari», «Tarbiya qoidalari», «Axloqiy tarbiya», «Iqtisodiy tarbiya», «Estetik tarbiya», «Talabalarni oilaga tayyorlash» kabi mavzularning mohiyatini ochib berishda foydalanishi mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma barcha ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-gumanitar fanlari bo'yicha dars berib faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari, mutaxassislar va ta'lim-tarbiya bilan shug'illanadigan xodimlar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

**Taqrizchilar:** S.X.NOSIRXO'JAYEV – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, t.f.d., professor;  
**D.R.XOLIQOV** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**ISBN 978-9943-10-210-1**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009.

## KIRISH

O‘quv qo‘llanmada Turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi «Avesto», «O‘rxun Enasoy bitiklari»da, shuningdek, Aflatun, Arastu, Konfutsiy, Farobiy, Ibin Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Abdurouf Fitratdan tortib hozirgi zamon faylasuflari va buyuk ajdodlarimizning ijtimoiy faol shaxs shakllanishida oila tarbiyasining ahamiyati haqidagi bildirgan fikr va mulohazalari asosida oila tarbiyasining tarixiy ildizlari va manbalari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

O‘quv qo‘llanmada, shuningdek, e‘laning vazifalari, oila a’zolarining huquqlari, ota-onalarning farzand oldidagi va aksincha, farzandlarining ota-ona oldidagi burchlari, qaynonakelin munasabatlari, bolalar tarbiyasida me’yorning bo‘lishi kabi bir qator mavzularda atroflicha to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, bunda oila tarbiyasiga tegishli bir qator pedagogik uslublari ko‘rsatib o‘tilganki, bu esa ushbu qo‘llanmaning dolzarbligini yanada oshiradi.

Ayniqsa, ota-onalarning oilada komil insonni tarbiyalashdagi rolini oshirishning dolzarb masalariga to‘xtalib o‘tar ekan, bunda oilada bolalarni ma’naviy- axloqiy, g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirishning bir qator vositalari va uslublari ko‘rsatib o‘tilgan.

Jumladan, ushbu o‘quv qo‘llanma uzlucksiz ta’lim tizimida barkamol shaxsni tarbiyalash texnologiyasi va tizimini yaratishda dasturilamal sifatida xizmat qilishi mumkin. Bundan tushqari, o‘zbek xalqining milliy-tarbiyaviy tajribasi, yosh avlodning ma’naviy madaniyatini yuksaltirish, sog‘lom avlod tarbiysi, milliy fazilatlar tizimi, eng qadimgi davrlarda shaxsda ulug‘langan sifatlar, axloqiy kamolot haqida bat afsil ilmiy

fikrlar bayon etilgan.

O'quv qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlar «Pedagogika» dasturining tarbiya bo'limidagi «**Talabalarni oilaga tayyorlash**» qismining mazmunini aniqlashga tatbiq qilinishi mumkin. Shuningdek, «Pedagogika» kursining «Yosh avlod tarbiyasining maqsad va vazifalari», «Ta'lim qonuniyatları va qoidalari», «Tarbiya qoidalari», «Axloqiy tarbiya», «Iqtisodiy tarbiya», «Estetik tarbiya», «Talabalarni oilaga tayyorlash» kabi mavzularning mohiyatini ochib berishda foydalanishi mumkin.

O'quv qo'llanmaning amaliy ahamiyati esa mavzuda tadqiq etilgan nazariy va amaliy xulosalar, ilmiy-uslubiy tavsiyalardan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, komil inson muammosi bo'yicha darsliklar, dasturlar, rejalar tayyorlashda keng foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan respublikamizda olib borilayotgan demokratik siyosatga oid masalalarni ilmiy o'rganishda, jamiyatimiz yangilanishiga kuchli ta'sir etayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada rivojlantirishda, madaniy-mafkuraviy ishlar va tadbirlar, «Oila» markazlari faoliyatida, shuningdek, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarda hamda aholi orasida olib boriladigan targ'ibot va tashviqot ishlarida keng foydalanish mumkin.

---

## **1. BUYUK AJDODLARIMIZ IJTIMOIY FAOL SHAXSNING SHAKLLANISHIDA OILA TARBIYASINING AHAMIYATI HAQIDA**

1997-yil 27-avgustda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda yangi tahrirdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingach, ta’lim-tarbiyada katta o‘zgarishlarga yo‘l ochildi. Ta’lim sifatiga katta e’tibor qaratilib, maktablar darslik va qo‘llanmalar, yangi texnika vositalari bilan ta’minlandi. Respublikamizda «Oila» kodeksining qabul qilinishi, O‘zbekiston qonunchiligi uchun yangilik bo‘lgan nikoh shartnomasi, qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash, alimentlar to‘lash to‘g‘risida kelishish, bolalarning oiladagi huquqlari va ota-onalarini moddiy ta’minlash to‘g‘risidagi majburiyatlar, ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kabi muhim qoidalar oila tarbiyasida axloqiy madaniyatni qonunlashtirish, huquqiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

«Oila yili» (1998), «Ayollar yili» (1999), «Sog‘lom avlod yili» (2000), «Onalar va bolalar yili» (2001), «Qariyalarni qadrlash yili» (2002), «Obod mahalla yili» (2003), «Mehr va muruvvat yili» (2004), «Sihat-salomatlik yili» (2005) va nihoyat «Shifokorlar va homiylar yili» (2006) dasturlarida ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar qamrab olindi. Oilaning ma’naviy-axloqiy asoslarini va manfaatlarini takomillashtirish ham nazarda tutildi.

1998-yil 2-fevralda Respublika xotin-qizlar qo‘mitasi huzurida «Oila» ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi oilaga taalluqli milliy an’analarni, umumbashariy qadriyatlar bilan

uyg‘unlashtirish, oila a’zolarining huquqiy savodxonligini oshirish yo‘lida katta qadam qo‘yildi.

## **1.1. Oila tarbiyasining tarixiy ildizlari va manbalari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov oilaning jamiyat hayotidagi roli haqida to‘xtalib: «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor», – deb ta’kidlagan edi. Reproduktiv salomatlik markazining bergen ma’lumotiga asosan, O‘zbekistonda har yili 520000 dan ko‘proq bola tug‘iladi. Demak, dunyoga kelayotgan ana shu farzandlarimizning jismonan, aqlan, ruhan va axloqan sog‘lom bo‘lishlari haqida g‘amxo‘rlik qilish, ularini milliy urf-odatlarimiz va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Oila tarbiyasining o‘ziga xosligi, uning mohiyati, an‘anaviyligi, milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar tizimida tutgan o‘rni, ular bilan uzviy aloqadorligi, o‘zaro ta’siri, oila muhitining barkamol avlod va komil insonni tarbiyalashdagi roli klassik va hozirgi zamon falsafiy tafakkur taraqqiyotida muhim o‘rinni egallab turibdi. Mazkur masala bo‘yicha jahon falsafasida g‘oyat muhim va ibratli fikrlar mavjud bo‘lgan. Turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi «Avesto», «O‘rxun-Enasoy bitiklari»da, shuningdek, Aflatun, Arastu, Konfutsiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojibdan tortib hozirgi zamon faylasuflarigacha o‘ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir.

Kaykovus, Nizomiy Aruziy, Abu-Lays Samarqandiy, Sa’diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning ilmiy-nazariy asarlarida

oila munosabatlaridagi tarbiya tarixiylik va vorisiylik nuqtayi nazaridan bayon etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning yirik faylasuf olimlari ilmiy ishlarida madaniyat taraqqiyotidagi milliylik va umuminsoniylikning tarbiya jarayoniga o'tkazgan ta'siri, oila, ma'naviyati masalalari haqida ko'plab asarlarida to'xtalib o'tgan. *Bolalar tarbiyasida* mavjud bo'lган oila muammolari, unda yuritiladigan ta'lim-tarbiya masalalari azal-azaldan ilmu ijod ahli diqqat-e'tiborini jalb etib kelgan. Oilaning turmushi va hayoti, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, uning tabiiy asoslarini nima tashkil etadi. Oila tarbiyasi qanday qonuniyatlar asosida vujudga keladi degan savollarda kishilik tarixining barcha davrlarida dolzarb masala bo'lib kelgan. Millatimiz va xalqimizning 3000 yil avvalgi ko'hna madaniyati va boy ma'naviyati uan saboq beruvchi, ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal ulug'langan «Avesto» yozma yodgorligining ilg'or g'oyalari haqida alohida fikr yuritishga to'g'ri keladi. «Bu nodir kitob, - deydi I.Karimov tarixchi olimlar bilan qilgan suhbatida, – bundan XX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosdir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi».

«Avesto»da zardushtiylikning oltin qoidalaridan biri—oilani muqaddas sanalgani bois, boshqa ayrim sabablarga ko'ra, masalan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligi, ota-onal bilan murosa-madora qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikohning bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan. Zardushtiylikning axloq-odob qoidalariga ko'ra, ayollar masalasi «Avesto»da alohida o'rinn tutadi. Jumladan, ayollar hayz ko'rgan va homiladorlik paytlarida marosimiyl makruh hisoblanganlar va ular boshqa pok narsalar, ayniqsa, suv, olov, oziq-ovqatdan uzoqlashtirilganlar. Jumladan,

bunday ayollar o‘z oila a’zolari bilan bir dasturxon atrofida o‘tqizilmagan, o‘zaro munosabat va muloqotlarda cheklangan, ovqat pishirmagan, non yopmagan, hovli supurmagan, sigir sog‘magan, marosimlarda qatnashmagan, ro‘zg‘or yumushlariga aralashtirilmagan. Odatda, bu kabi «cheklash-chegegaralash davri» farzand tug‘ilgandan yetti kundan to‘qqiz kungacha, ba’zan esa kichik chillasi tugagunga qadar davom etgan.

Chilla davrida qo‘llaniladigan ta’qiqlar zamirida ikki xil ma’no yotadi:

– birinchidan, bu davrda ayol kishi yomon ruhlar ta’siriga tez chalinadigan bo‘ladi;

– ikkinchidan, u suvni, nonni, o‘choq-olovini, ovqatni, sigir sutini nopol etishi mumkin. Bu so‘zlar muqaddas kitobimiz Qur’oni karimning «Baqara» surasi, 223 oyatidagi «Xotinlaringiz ziroatgohingizdirlar» hukmi bilan mohiyatan birdir. Farqi shundaki, «Avesto»da insonga rizq-ro‘z berayotgan er va inson umrining davomiyligini ta’minlovchi oila hayotning uzviy tutash nuqtalari etib ta’riflanadi. Er ham, oila ham inson zoti baxti-saodati uchun xizmat qilishi lozimligi, chunki ular shunga safarbar qilinganligi uqtiriladi.

Ajdodlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan «Ilk bitigi»da «Ayol kishi-kosa-piyolalarini tashlab qayerga boraman, der, yana qaytib keldi, kosa-piyolalarini sog‘-salomat topdi, u sevinib, xursand bo‘lar, der, shunday bilinglar: yaxshidir bu» – deb yozilishida ramziy ma’no mavjud bo‘lib, keltirilgan lavhalarda oila hayotining turli manzaralari, baxt va baxtsizlik tushunchalari tahlil etiladi. Garchi ba’zi manzaralar oddiy, sodda tuyulsa-da, lekin ularda qadimgi davr odamlarining oila muhitidagi ma’naviy axloqiy prinsiplar aks etadi. Kosa-piyolalar ayol kishining taqdiri, ro‘zg‘ori, oilasi ramzi, binobarin, ushbu parchada odamlar, xususan, ayollarni sabr-toqatli bo‘lishiga da’vat qilinmoqda. Ma’lum bir sabablarga ko‘ra o‘z oilasidan sovish, hatto undan voz kechishga intilish istagi sodir bo‘lishi

mumkin. Biroq bu—ayol uchun ham, oilaning boshqa a’zolari uchun ham, jamiyat uchun ham salbiy holat bo‘lib, uni oqlab bo‘lmaydi. Ayol kishining qadr-qimmati, burchi, jamiyatda tutgan mavqeyi, yaratuvchilik salohiyati, eng avvalo, oiladagi o‘rni bilan belgilanadi.

Islom dinining muqaddas kitobi «Qur’on»da «Alloh sizlarni onalaringiz qornidan biron narsa bilmagan holingizda chiqardi va shukur qilishingiz uchun sizlarga qulqoq, ko‘zlar va dillarni berdi». «Erkaklar xotinlari ustida rahbardirlar. Bunga sabab Alloh ularning birovlarini birovlaridan (ya’ni erkaklarni ayollardan) ortiq qilgani va erkaklar (xotinlari va oilalari uchun) o‘z mol-mulklaridan sarf-xarajat qilganlaridir. Ibodat-itoatli va erlari yo‘qligida Allohning hifzu-himoyati bilan (erlarining mol-mulklarini va o‘z iffatlarini) saqlovchi xotinlar yaxshi xotinlardir».

Islomdan oldingi zamонларда erkak va ayolning oila va jamiyatda tutgan o‘rni tubdan farq qilib, ko‘pincha ayollar jinsiga past nazar bilan qaralgанини eslasak, «Qur’on»da keltirilgan ushbu ilohiy so‘zlarning naqadar katta ahamiyatga molik ekanini payqash qiyin emas. Yuqoridagi oyatlarda oiladagi er va xotinning shar’iy o‘rni belgilab berilgan. Shariat hukmiga ko‘ra, er birinchi navbatda oilaning barcha moliyaviy va ma’naviy masalalariga mas’ul bo‘lgan, shuningdek, uni turlituman xurujlardan himoya qilishi tadbirkorlik, vazminlik, og‘ir-bosiqlik kabi xislatlari tufayli oilaning boshlig‘i er hisoblanadi, yaxshi xotin esa iffat va diyonatli, o‘z erining xonadonini obod qiluvchi hamda unga bir umr sodiq bo‘lgan pok umr yo‘ldoshidir.

Shuningdek, oilaning jamiyatda tutgan o‘rni, oila tarbiyasi, ota-onasi va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda oilaning pokligi va mustahkam bo‘lishiga oid qimmatli fikrlar hadislarda muhim o‘rin egallaydi: «Xotin kishi qovurg‘adan yaratilgan. Agar sen qovurg‘ani to‘g‘rilayman desang sindirasan, murosa

qilu u bilan yasha»; «Xotin kishiga eng haqqi ko‘p kishi eridir, erkak kishiga eng haqqi ko‘p kishi onasidir»; «Agar bir shaharda loaqal bir ayol bir marta buzuqlik ko‘chasiga kirib haromi orttirsa, bu shahardan qirq yil fayzu barakat ko‘tarilib ketadi»; «Ayollarni faqat ulug‘ odamlar hurmat qiladi. Ularni faqat pastkash odam xo‘rlaydi».

Hadislarda nikohning ilohiyligi, oilaning muqaddasligi ta’kidlanadi, er va xotin o‘rtasidagi burch, poklik, iffat, o‘zaro bir-birini hurmat qilish tuyg‘ulari ulug‘lanishi islom diniga xos insonparvarlik va adolat mezonlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Inson bu yorug‘ dunyoga yomon odam bo‘lib tug‘ilmaydi, uning yomon yoki yaxshi odam bo‘lib shakllanishiga oila tarbiyasi, mahalla-ko‘y, lo‘nda qilib, aytganda, jamiyatdagi mavjud muhit tufayli yuzaga keladi. Avval boshdan bolani to‘g‘ri tarbiya qilib voyaga yetkazish kerak. Xalqimiz hayotidagi turli marosimlar, rasm-rusumlar, an’analarning tashkil etilishiga chuqurroq razm solsak, ishontirish, isbotlash, namuna ko‘rsatish, ta’sir etish, tasdiqlash kabi pedagogik usullar orqali barkamol insonni tarbiyalashni pirovard maqsad qilib olinganiga ishonch hosil qilamiz. Hatto ana shunday turli-tuman marosim va to‘yhashamlarda ko‘pchilik bilan qilinadigan duoyu fotihalarda ham katta tarbiyaviy maqsadlarga yo‘naltirilgan xohish-iroda borki, ularning ta’sir kuchi g‘oyat kattaligini alohida ta’kidlash zarur bo‘ladi.

«Kalila va Dimna», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilik», Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk», Kaykovusning «Qobusnom», Nizomulmulkning «Siyosatnom», Nosir Xisravning «Saodatnom», «Ro‘shnoyinoma», Sa’diyning «Guliston», «Bo‘ston» kabi asarlari ham borki, ularda oila tarbiyasi ijtimoiy turmushning eng muhim masalalari sifatida talqin etiladi. Jumladan, «Kalila va Dimna»da majoziy, allegorik obrazlar vositasida hayotdagi salbiy ko‘rinishlarga qarshi kurashadi, insonparvarlik, aql-idrok ulug‘lanadi. Ibtidoiy jamoa

davridan hozirgi kungacha bo‘lgan davrlarning qaysi bosqichini olib qaramaylik, xiyonat va jinoyat, pastkashlik, ig‘vo, fisq-fasod, zolimlik, munofiqlik inson zotini ulug‘lagan emas. Aksincha, bunday axloqqa zid nuqsonlar inson va jamiyat taraqqiyot yo‘liga to‘g‘anoq bo‘lgan, ayrim hollarda tuzilmaning, oilaning, jamiyatning tanazzulga yuz tutishga sabab bo‘lgan. «Kalila va Dimna» ana shunday teran tarbiyaviy xulosalari, falsafiy qarashlari bilan asrlardan asrlarga o‘tib kelib, oila tarbiyasini shakllantirdi, yuzlab avlodlarning to‘g‘ri tarbiya topishiga ko‘maklashdi, minglab odamlar qalbiga ezgulik urug‘ini ekishda muhim mакtab vazifasini o‘tadi va ziyolilar, hatto oddiy insonlar o‘rtasida ushbu kitobning g‘oyatda mashhur bo‘lgani, masallar ichida masallardan iborat xalqchil va mazmunli fikrlar kitobxonlarda zavq-shavq uyg‘otib, ularni ma’naviy jihatdan boyitgani ham mazkur go‘zal hikmatlarning hayot masalalariga uzviy bog‘liqlik xususiyatlariga borib taqaladi.

Kaykovusning «Qobusnoma» hamda «Kalila va Dimna» kabi tarjima qilingan asarlardan bo‘lib, bu asar ham turkiy xalqlar madaniyatining buyuk bir durdonasi sifatida qabul qilindi. Tarixiy dalillarning shohidlik berishicha, asar muallifi Kaykovus «Qobusnoma»ni o‘z o‘g‘liga atab yozadi va kitobining nomini bobosi, Somoniylar davri hukmdorlaridan biri bo‘lgan Shamsul Maoliy Qobus ibn Vushmagir nomi bilan ataydi. Otaning o‘z o‘g‘li tarbiyasi va kelajagi uchun dasturilamal bo‘luvchi maxsus pandnoma asar yozishi hamda uni bobosi nomi bilan atashida ham o‘ziga xos sharqona oilaviy tarbiya tamoyili bor.

«Ey farzand, umidim shuki, sen bu pandlarni qabul qilgaysan. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan bo‘lurman, — deydi ma’rifatparvar ota Kaykovus. Bilgilki, xalqning rasmi, odati shundayki, yugurib-yelib, qidirib-axtarib dunyodan biron narsa hosil qiladilar va bu topgan narsalarini o‘zlarining yaxshi ko‘rgan kishisiga qoldirib ketadilar. Men

dunyoda mana shu so‘zlarni hosil qildim, sen mening uchun eng qimmatbahosan. Menga safar vaqtı yaqinlashdi, dunyodan nima hosil qilgan bo‘lsam, sening oldingga qo‘ydim, toki o‘zingga bino qo‘ymagaysan va o‘zingga nomunosib ishlarni qilmagaysan».

Kaykovus o‘z o‘g‘lining kelajagi haqida qayg‘urib, uning kelgusida har jihatdan barkamol, toksis inson bo‘lib yetishishini istagan holda o‘z o‘git va pand nasihatlarini qoldirib ketgan. Kaykovus «Ota-onani hurmatlash haqida» nomli asarining V bobida oilaviy tarbiya xususida alohida to‘xtaladi. Yoshlarni ota-onani hurmat qilishga chaqiradi, ularning o‘z farzandlari uchun «o‘limga ham tayyor» turishlarini ta’kidlaydi. Ota-onsa ko‘nglini ranjitmaslik, ularni izzat-ikrom qilish, hamisha shirin so‘zlar bilan muomalada bo‘lish zarurligini uqtiradi: «...o‘z farzanding seni hurmat qilishni istasang, sen ham ota-onangni hurmat qil, chunki ota-onang haqida nima ish qilsang, farzanding ham senga shunday ish qiladi».

Farzandning aqli, dono, o‘qimishli, ya’ni ma’rifatli bo‘lishi shu bilan bir qatorda ota-onani hurmat qilishi bilan bog‘laydi: «Har bir farzand aqli va dono bo‘lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado qilishdan bosh tortmaydi».

Kaykovus farzand parvarishi haqida so‘z yuritar ekan, hech narsani nazaridan qochirmaydi. Yangi tug‘ilgan farzandga avvalo yaxshi ot qo‘yish, so‘ng uni aqli, mehribon doyalarga berish, katta bo‘lib, es-hushi kirgach, hunar va kasb o‘rgatish, o‘qitib ilmli qilish kabi vazifalar ota-onaning, birinchi navbatda otaning ezgu burchi ekanligini ta’kidlaydi. «Otalik shartin bajo keltirgilki, farzanding vujudga kelgandagidek hayot kechirsin, ya’ni har odam vujudga kelgan kunidan boshlab xulqi, odati unga hamroh bo‘ladi, ammo kuchsizlikdan, yumshoqligidan va zaifligidan uni namoyon qila olmaydi. Katta bo‘lgan sari, jismi va ruhi quvvat topadi, hamma fe’li-atvori namoyon bo‘ladi, kamolga yetgandan so‘ng hamma yaxshilik va yomonligini

zohir qiladi. Sen esa adab, hunar va bilimni unga o'zingdan meros qilib qoldirgin, toki uning haqqini bajo keltirgan bo'lasan».

Forobiyning «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishish haqida ko'rsatmalar», «Baxt-saodatga erishish haqida», «Fuqarolik siyosati», «Davlat arbobining aforizmlari» kabi asarlarida jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida falsafiy ta'limot yaratdi, inson jamoalarining jamiyatda tutgan roli, davlat va oila, ularni boshqarish haqidagi ilmiy bilimlar tizimini yaratdi.

Farobiyning falsafasiga ko'ra inson jamoalari va jamiyat kishilarning yashashi va kamolotga erishishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun intilishlari natijasida kelib chiqqan. Binobarin, inson yakka holda hech qachon asl ma'noda baxtli bo'lolmaydi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi; u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoji tug'iladi».

Inson va jamiyat, insonning tabiat va jamiyatdagi o'rni. Komil insonni shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning roli, oilada axloqiy madaniyatni takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy ta'limotlardagina emas, balki falsafiy didaktik va badiiy asarlarda ham keng talqin qilindi. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u-bilik» asarida Oytundi o'g'li O'gdulmishga bir qator nasihatlar beradi: – Mening yagona tashvishim, – deydi u, – sening keyingi hayotingdir. Otaning ish-amali o'g'liga singsa, uning xulqida jilvagar bo'ladi. Bolani tergab-nazorat qilish ota-onha yuzining yorug'ligini ta'minlaydi. Nazoratdan tashqaridagi bola bebosh va yaramaslik sari og'adi. Erka bo'lib o'sgan o'g'il-qizlar xatti-harakati ota-onaga mung va alam keltiradi. Bundan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ota-onaning burchi, avvalo, farzandga ta'lim-tarbiya berish va

barkamol bo'lib yetilishi uchun sharoit va imkoniyat yaratib berishdir.

Amir Temur davriga oid tarixiy manbalar mazmun-mohiyatida oila tarbiyasi jamiyatdagi tarbiya jarayonining eng muhim, eng nozik nuqtalaridan ekani yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Buyuk davlat barpo etgan Temur uni oqilona va odilona boshqarishda ham adolatli yo'l tutgani, hududi nihoyatda katta bo'lgan mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlagani, obodonchilik ishlariga katta ahamiyat bergenini tasdiqlovchi manbalar bugun ko'pchilikka tanish. Sohibqiron jamiyatni olg'a yetaklovchi, rivojlantiruvchi eng katta kuch ichki omil-oila ekanini juda teran his etgan. El-yurt va oddiy fuqaro tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, mamlakat ichkarisi va tashqarisida tinchlik-osoyishtalikni saqlash, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish Sohibqiron Amir Temurning davlatni boshqaruvida asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Ayrim manbalarda Amir Temur o'g'illari va nabiralarini uylantirish ishlari bilan jiddiy shug'ullangani haqida xabar berib, ayniqsa, kelin bo'lguvchi qizning avlod-ajdodini atroficha surishtirgani, pokligi va sog'lig'ini obdon aniqlabgina, so'ng to'y-tomoshaga ruxsat bergenini aytib o'tilgan: «O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoqchi tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'lik-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan holi bo'lsagina el-yurtga katta to'y tomosha berib, kelin tushurdim».

Sog'lom avlod mamlakat kelajagini ta'minlovchi asosiy omil ekanini yaxshi anglagan Amir Temur raiyatining tinch-osuda hayot kechirishini, xonadonlarning daxlsizligini, yangi barpo

bo'layotgan oilaning har jihatdan benuqson va poklik asosiga qurilishini davlat ahamiyatiga molik masala deb qaragan.

«Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish; buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham, kam bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi!».

Navoiy farzandning ota-onasi oldidagi burchini «majburiyat» deb atash muhimroq deb hisoblaydi. Ulug' shoir yashagan davrda ham, undan oldingi asarlarda ham shu kabi yuqori mezonlar bilan o'lchangan va hamisha muqaddas bir mavzu kabi yetilib kelgan. Navoiyning fikricha, farzand ushbu oddiy hayotiy haqiqatni chuqur anglab, ota-onasi hurmatini joyiga qo'yishi, ular xizmatini qilishni farzandlik vazifasi deb bilishi, magar ota-onadan xato o'tsa, hatto uni fazilat o'mida qabul qilishi lozim. Muhimi shundaki, Navoiy bu g'oyalarni badiiy ifodalash ustidagina bosh qotirmaydi, balki hayotning ziddiyatlarga to'la voqealari Navoiyni ushbu mavzuni qayta-qayta tilga olishga majbur etadi. «Munshoat» asaridan shahzoda Badiuzzamonga yozgan xatidan o'qiyimiz: «Payg'ambar... buyurubdurkim, tangri taolo rizosi ota rizosiga vobastadur (qo'shilib ketadi, barobardir)» va tangri taolo g'azabi ham ota g'azabiga vobastadur. Bas, kishi ota rizosini hosil qilsa, tangri taolo rizosini ham hosil qilmish bo'lg'ay va ota g'azabiga uchrasa, tangri taolo g'azabiga uchramish bo'lg'ay. Mundoq bo'lg'andin so'ngra kishi nechuk ota rizosidan ayru dam urg'ay yo qadam qo'yg'ay. Va mashoyix (ulug' kishilar) so'zidurkim: «Otang – parvardigoringdur», bu jihatdinkim, tangri taolo seni yo'qdin bor qilmoqqa vasila (vositachi) uldur va tufulyatdin shabob sinnig'acha ul. Va Hakim Sulaymon ... so'zidurkim, ota-qodiri qayyum (qudratli tarbiyachi) va ona roziqi marsum (qonuniy rizq beruvchi)! – deb aytadi.

Jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga

bog‘liqligi Jadidchilik namoyandalarini Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar tomonidan e’lon qilingan bir qator maqolalarda atroficha tahlil etildi. Ma’rifatchilar shundan kelib chiqib, jamiyat taqdiri oilalar muhitiga bog‘liq bo‘lsa, oila ma’naviyatining o‘zi kimga yoki nimaga bog‘liq, degan haqli savolni o‘rtaga qo‘ydilar. Ularning fikricha, agar oilada sog‘lom turmpish tarzi ustuvor bo‘lib, farzand har jihatdan to‘g‘ri tarbiya topgan bo‘lsa, u shubhasiz o‘zidagi ijobiy fazilatlarni xizmat jarayoniga ko‘chiradi, ijtimoiy mehnat faoliyatida qo‘llaydi, natijada jamiyatdagi barcha munosabatlarga ta’sir o‘tkazadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Sag‘irlar haqinda», «Hifzi sihati oila» («Oila sog‘lig ‘ining himoyasi»), Abdusalom Azimiyning «Ta’lim va tarbiya», Ibratning «Millatni kim isloh etar?», Fitratning «Buxoro hukumatining islohhorona qadamlari», Mirmuhsinning «Ahvoli zorimiz» kabi «Oyina» jurnalida chop etilgan maqolalari oila tarbiyasiga oid muhim muammolarni ko‘tarib chiqqanini ta’kidlash zarur.

Jumladan, A.Azimiyning «Ta’lim va tarbiya» maqolasidan shunday satrlarni o‘qiyimiz: «...bolaga ona birinchi omil va murabbiyidir. Onani ta’siri bolaga, otani ta’siridan ziyodadur. Chunki ona bolani bir necha oylar qani birla g‘izolandurur. Va ba’daz tavallud sanalarcha suti birla parvarish etar. Va muddatlarcha og‘ushi mushfiqonasiga tarbiya etar. Bu sababli bola ona tarbiyasida bo‘lg‘usi ovonlarda muhitiga muvofiq holda tabiatlanur, ki bul tabiat va odat agar, noma’qul holda bo‘lunsa, katta bo‘lganidan so‘ng islohi mushkuldir».

Jadidchilik namoyandalarining fikricha yangi davr va yangi tuzum uchun kurashishda, eng avvalo, oilani isloh qilishdan boshlamoq zarur, deb hisobladilar. Ularning fikricha, oila asosini to‘g‘ri qurmay turib va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir-

oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq.

Fitratning 1916-yilda e’lon qilgan «Oila» asarida ushbu g‘oya o‘z ifodasini topdi. Fitrat nuqtayi nazariga ko‘ra farzandning har jihatdan to‘laqonli inson bo‘lib shakllanishi uchun unga jismoniy, aqliy va ma’naviy yo‘nalishlarda ko‘p tarkibli tarbiya berish lozim bo‘ladi. Fitrat bu o‘rinda yuqoridagilar bilan kifoyalananmay, bola ruhi ham tarbiyalanishga muhtoj ekanligini alohida uqtiradi: «Odamning fe’l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim, – deb yozadi. Bolalarni o‘ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o‘z qadr-qimmati, shaxsini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga, yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o‘rgatmoq kerak. Bolalarni shunday tarbiya etmoq lozimki, baxtga bo‘lgan intilishlari hech qachon xazon bo‘lmasisin, so‘nmasin, balki ko‘karsin».

Milliy istiqlol g‘oyasi kitobida madaniyat, ma’naviyat, axloq, ma’rifat buning hammasi oila tarbiyasining asosi, negizidir. Madaniyat tushunchasi keng ma’noni anglatadi. Oila tarbiyasi ma’naviy-madaniy faoliyat tizimida mavjuddir. «Agar madaniyat inson zotining sifatiy ta’riflanishi bo‘lsa, ma’naviyat uning o‘z-o‘zini yaratish va o‘zgartirish faoliyatining mazmunidir. Bas, shunday ekan, insonning faoliyati va ongi orqali madaniyat bir butunlikni tashkil etadi va madaniyat-voqelik, ma’naviyat esa mohiyat ko‘rinishini oladi. Ma’naviyat madaniyatda «moddiylashadi», mujassamlashadi, to‘planadi va avloddan-avlodga uzatiladi» A.Erkayevning fikriga qo‘shilgan holda shuni ta’kidlamoqchimizki, agar ma’naviyat madaniyatda moddiylashsa, oila tarbiyasi esa ma’naviy faoliyatda moddiylashadi. Oila tarbiyasida ruhiy-ma’naviy kechinmalar hissiyotlar, orzu-umidga to‘lgan bo‘ladi. Oila tarbiyasi ham milliy-madaniy merosning uzviy bir qismi bo‘lib, mchiyatan jamiyatning eng mukammal, ayrii paytda boy ijtimoiy

mazmunga ega bo‘lgan o‘ziga xos bo‘g‘ini yoki tarixiy birligini ifodalaydi.

Oila tarbiyasi – bu umumiy ijtimoiy tarbiya jarayonining shunday bosqichiki, u insonning keyinchalik butun umri davomida oladigan ma’rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin, poydevor vazifasini o’taydi. Oila tarbiyasi ota-onva farzandlar, shuningdek, bir necha avlodga mansub shaxslarning o‘zaro qon-qarindoshchilik munosabatlari asosiga quriluvchi o‘ziga xos betakror ma’naviy-ruhiy jarayondir.

Oila tarbiyasi bir umr davom etadigan uzluksiz jarayon sifatida – ijtimoiy tarbiyaning bir turi bo‘lib, oilaning barcha a’zolari unda faol ishtirok etadilar, bir-birlariga o‘z bilim, tajribalarini o‘rgatadilar. Oilada shakllanadigan farzandlik, aka-uka, opa-singillik ikki tirik vujudning, ikki olamning o‘zaro ittifoqidan paydo bo‘lgan uchinchi bir olamdir. Ittifoq iborasida, shubhasiz, ahillik, totuvlik degan ma’nolar ham mujassam bo‘lib, agar oila chindan-da tinch-totuv, ahil bo‘lsa, oilaviy turmush mustahkamlanib boraveradi. Aks holda turmush-do‘zaxga aylanadi, er va xotin bir-biriga adovatli raqiblarga aylanib, farzandlar taqdiri va tarbiyasini mavjud bir holatga olib kelib qo‘yadi, qarindosh-urug‘chilik munosabatlariga putur yetkazadi. Natijada jamiyatga moddiy va ma’naviy zarar yetadi.

Xulosa qilib aytganda, oila faqat er va xotinning o‘zidan iborat emas, balki oila-er-xotin, ularning farzandlari, eng yaqin tug‘ishganlari, qon-qarindoshlik ipi bilan bog‘langan kishilardan iborat guruh, so‘z bilan ibora etganda, xonadondir. Binobarin, oila odamlarning xohish-istik va maqsadlari asosida birlashgan tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir.

**Oilanning vazifalari:** iqtisodiy-xo‘jalik, reproduktiv (naslni davom ettirilishi), tarbiyaviy (mehnat, jismoniyl, aqliy, axloqiy, estetik, ruhiy, diniy), nazorat etish, himoya etish, dam olishni tashkil etish, yosh avlodni oila qurishga tayyorlash, yordam

berish, muloqot (kommunikativ), qari bobolar-momolar haqida g‘amxo‘rlik.

G‘.Shoumarov va Sh.Shoumarovlarning «**Muhabbat va oila**» asarlarida oilaning quyidagi funksiyalari: reproduktiv iqtisodiy-xo‘jalik, tarbiya, kommunikativ, dam olishni to‘g‘ri tashkil etish ko‘rsatilgan xolos. N.Saydaliyevning tadqiqotida oilaning an‘anaviy funksiyalari: reproduktiv, tarbiyaviy, xo‘jalik yuritish, iqtisodiy, nazorat qilish, o‘z mavqeyiga ega bo‘lish, dam olishni to‘g‘ri tashkil etish, emotsiyal, yoshlarni jinsiy hayotga tayyorlashlarga bo‘lingan bo‘lib, oilaning funksiyalarini klassifikatsiya etishda uning muhim ikkita funksiyalariga: nazorat etish hamda qariyalar haqida g‘amxo‘rlik qilish, ularni avaylab-asrash, parvarish etishga ahamiyat yetarlicha berilmagan.

Oila keyingi yillarda qariyalar haqida g‘amxo‘rlik qilish, ularni avaylab-asrash, parvarish etish kabi o‘zining muhim funksiyalarini bir oz unutib qo‘ymoqda yoki yetarli darajada e’tibor bermayapti. Oilaning bu vazifasini bajarishi oila tarbiyasining muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Bolgariyalik faylasuf, siyosiy arbob P.Kubadinskiy aytganidek: «Bir necha avlod birga yashaydigan oilalarda qarilik boy, qiziqarli, ishonchli va foydali kechadi. Qari insonning ish qobiliyati susayadi, ayrim paytlarda ishga qobiliyatsiz bo‘lib qolishi mumkin. Uyda farzandlar va nabiralar bo‘lsa qariyalarga doimo ish va ovunchoq topiladi. Bu davrda qariyalar yashab o‘tgan hayotining sermahsul davrini va hayot davomida bajargan ishlarini analiz qiladilar, shaxsiy tajribalarini o‘z ildizidan bo‘lgan avlodga yetkazadilar».

Oila funksiyalarining «xilma-xilligining o‘ziyoq oila tarbiyasining murakkabligidan dalolat beradi. Bu tarbiyada, avvalo, ota-onaga xos ma’naviy xususiyatlar qarindoshurug‘chilik, qo‘ni-qo‘shnichilik omillari ham borki, ularsiz oila tarbiyasini to‘la-to‘kis tasavvur etib bo‘lmaydi. Oila taroiyasini

oilaviy munosabatlar shakllantiradi. O‘z navbatida, oilaviy munosabatlar jamiyatdagi bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boraveradi».

«Oila dunyosi» bir qator ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, axloqiy rishtalar bilan uzviy bog‘langan yaxlit «dunyo» bo‘lib, bunda butun boshli tarix, millat, davlat o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Dunyoga kelib ilk bor ko‘z ochgan yangi vujud birinchi marta ushbu murakkab olam bilan oilada tanishadi, binobarin, uning uchun dunyoda eng zukko, yetuk, bilimdon inson ota va onasi hisoblanadi, uning uchun eng obod, fayzli va ko‘rkam xonadon u tavallud topgan uydir. Shu sababli, yosh avlodning barkamol bo‘lib tarbiya topishida ota-onaning tutgan o‘rni, ijtimoiy roli, tadbirkorligi, sog‘-salomatligi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, el-yurt va vatanga mehr-muhabbati, sadoqati g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, «oila dunyosi» atamasi, ko‘rib turganimizdek, o‘ziga xos betakror, individual falsafiy ma’no-boshqacha aytganda, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham oila tarbiyasi milliy-ma’naviy qadriyatlarning, milliy tarbiya usullarining o‘zi bilan kifoyalanib qololmaydi.

Binobarin, oila va oilada bola tarbiyasi ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy-tarbiyaviy jihatdan g‘oyat muhim masalalardan biri bo‘lib, unda milliy qadriyatlardan va ayni chog‘da umuminsoniy qadriyatlar tamoyillaridan chuqur va har tomonlama foydalanish bilan bog‘liq jihatlarni ilmiy-nazariy tadqiq etish mustaqillik va islohotlar davrining muhim talabidir.

Jumladan, zamонавиј оила тарбијасида болаларни милий mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘urur, milliy ong va o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishni taqozo etadi. Bolaga, vatanga mehr g‘oyasini singdirish, millat va xalq o‘tmishiga, uning qadriyatlariga bo‘lgan hurmat-ehtirom hissini tarbiyalashdan kelib chiqadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ota-onaning bolaga, bolaning

ota-onaga bo‘lgan muhabbat vatan va millatga bo‘lgan mehrmuhabbat bilan yo‘g‘rilgan bo‘lmog‘i lozim. Mustaqillik sharoitida oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya masalalariga yangicha yondoshishi zaruratining mohiyati ana shunday muhim sabablar bilan izohlanadi.

«Mendan eng katta boylik nima deb so‘rashsa, bilimli, aqli, odobli, ertangi kunini o‘ylaydigan farzand ota-onaning eng katta boyligi deb aytgan bo‘lar edim, – deydi Prezident I.Karimov «Oila farovonligi–millat farovonligi» maqolasida. Bunday boylikka ega bo‘lganlarni jamoa boy-badavlat ota-onsa, boybadavlat oila deb tan oladi. Bunday oila hech qachon xor bo‘lmaydi».

Hech bir oila tabiiyki, bunday yuksak mavqega o‘z-o‘zicha erisha olmaydi. Buning uchun sog‘lom oilaviy muhit, ota-onaning ulkan murabbiylik xizmati, ularning ajdodlar o‘giti, pand-nasihatni va an‘analariga sodiq holda yuritgan, keng qamrovli olib borgan tarbiyasi tufayli bama’ni, ziyoli, madaniyatli, aqli solih farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazish mumkin. Bu farzandlar faqatgina oilaning emas, balki shu oilada istiqomat qilayotgan jamoa, mahalla-ko‘y va nihoyat millatning ham betakror boyligi hisoblanadi. Shuning uchun ham tarixiy manbalarda dunyodagi eng murakkab va ayni chog‘da mas‘uliyatli kasb va vazifa nima, degan savolga ota-onsa vazifasi va murabbiylik kasbi deb javob berishi bejiz emas.

«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanida oila omiliga alohida e’tibor qaratilgani muhim ahamiyat kasb etdi. Chunonchi, «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasining «Milliy istiqlol mafkurasi xalqimiz qalbi va ongiga singdirish» bobida oilaga mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri deb baho beriladi. Uning jamiyat negizi sifatida ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega ekanligi ta‘kidlanib, milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila

muhitida singishi, bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshishi uqtiriladi. «Oiladagi sog'lom muhit, – deyiladi mazkur risolada, – sog'lom mafkurani shakllantirish manbayidir. Jamiyatda har bir oilaning mustah-kamligi, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash-milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi».

Zamonaviy oila bilan uzviy bog'liq ravishda o'zini-o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla omiliga, inson umrining asosiy qismi o'tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabatini shakllantiradigan o'ziga xos ijtimoiy-ma'naviy muhit bo'lgan mehnat jamoalari omiliga ham alohida ahamiyat beriladi. Chindan ham zamonaviy oila-mahalla bilan yaxlit bir butunlik kasb etadi.

O'zbek oilasi hech qachon mahalladan ayri holda yashagan emas. Oilaning oilalik fazilatlari hamisha mahalla hayotida namoyon bo'lgan. Mahalla-xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an'analariga tayangan holda, ulkan vazifani bajargan. «Keksalarning pand-nasihatni, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezzulik g'oyalari singdirib boriladi. Mahalla-avvalo, sog'lom ijtimoiy muhit maskanidir»

Bugungi zamonaviy o'zbek oilasi jahonda sodir bo'layotgan barcha ijobiy o'zgarishu yangiliklardan o'z vaqtida boxabar bo'lib borayotgan, taraqqiy topgan mamlakatlar oilalari tarbiyasiga aloqador bo'lgan ilg'or tendensiyalar xususida o'z vaqtida eshitib, anglab tushunib olayotgan oila ekanligini ta'kidlash joiz. Hozirgi zamon aloqa vositalarining o'ta takomillashuvi, aloqa kommunikatsiyalarining haddan ziyod kengayishi natijasida yuksak rivojlanish yo'liga tushib olgan mamlakatlar oilalarining madaniyati, ichki ma'naviy muhiti, ota-oni va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, xorijiy mamlakatlar jamiyatida ayollarning tutgan o'rni va mavqeyiga

aloqador muhim fakt, lavha, tadqiqot, kuzatish va safar xotiralari respublikamiz ommaviy axborot vositalarida keng yoritilmogda, ular haqidagi fikr-mulohazalar ko‘pchilik diqqat-e’tiborini tortmoqda.

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayoni jamiyatning barcha qatlamlari, ijtimoiy institutlari qatori oilaviy muhitiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, oilaviy tarbiya omillarini isloh qilmoqda, unga yangicha ma’no-mazmun kiritmoqda. Masalan, Yaponiyada milliy urf-odat va qadriyatlar, jumladan, mehnat ko‘nikmalarini oila tarbiyasidan boshlab yoshlar ongiga singdirib borishning mukammal tizimi ishlab chiqilgan. Shu bois: kunchiqar mamlakatda ko‘plab oilaviy do‘kon, badiiy ustaxona, kichik restoran hamda minglab oilaviy korxonalar faoliyat yuritadi. Chunki oilaviy biznesga uning barcha a’zolari yoshligidanoq jalb etiladi hamda bu boradagi an’analar avloddan-avlodga o‘tib boradi. Shu sababli yapon oilalari asosan o‘z mehnati evaziga topgan pulga o‘qiydi, uylanadi, oilaviy turmushda ota-onasiga og‘irligi tushmasligiga intiladi.

Binobarin, jahondagi taraqqiyparvar mamlakatlarda oila va ayol masalasiga oid muammolar bo‘yicha to‘plangan tajribalar, shuningdek, milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongiga singdirishda, azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo‘lgan hamda ma’naviyatimizning uzviy bir qismi bo‘lib kelgan komil inson g‘oyasini ro‘yobga chiqarishda zamonaviy oila va mahallaning tutgan o‘rnini hamda qadr-qiymati beqiyosdir. Zero, milliy mafkurada ko‘zda tutilgan ulug‘vor maqsadlardan biri yuqorida aytilganidek, oilada sog‘lom muhitni shakllantirishdan iborat bo‘lib, ana shu sog‘lom muhit, oqibat natijasida jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi va nihoyat o‘zaro hurmat hamda ahillikdadir.

Axloqiy madaniyatning eng muhim elementlaridan biri muomala odobidir. Muomala jamiyat, inson uchun zarurat, ehtiyoj, usiz rivojlanish bo‘lmaydi. Muomala odobi barcha

odamlarni hurmatlashni, qadr-qimmatini joyiga qo‘yib milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyat qoidalariga rioya etishini talab etadi.

Muomala salomlashishdan boshlanib, salom berish odobiga rioya etishni taqozo etadi. Bu xususda Xusayn Voiz Koshifiy bunday degan: «Agar salom berish odobi nechta deb so‘rasalar yettita deb aytgil: birinchidan, salom beruvchi kishi pok bo‘lishi kerak, ikkinchidan, suvoriy kishi yayov odamga salom bersin, to‘rtinchi, salom berayotgan odamning chehrasi ochiq va xursand bo‘lsin, beshinchi, ishora yoki imo (boshini qimirlatib, qo‘lini ko‘krakka qo‘yib) emas, balki ovoz chiqarib: «Assalomu alayka» yoki «Salomu alayk» desin va agar jamoat bo‘lsa «Assalomu alaykum» deb aytsin. Yettinchidan, ikki kishi bir-biriga yaqinlashganda, qo‘l berib ko‘rishsin, bu odobga kiradi».

Salomga javob berish odobi: ochiq chehra bilan xursand bo‘lib «Va alaykumus salom» (ma’nosи arabcha «sizga ham tinchlik bo‘lsin degani») deb javob berish, salom berganga rahmat aytish, salomga imo-ishora bilan emas, balandroq ovozda alik olish, salom bergen odam javobingizni eshitishi lozim, boshqa millat vakili o‘z tilida salom bersa shu tilda javob berish. Muomala, avvalo so‘z, nutq vositasida amalga oshadi. Shuning uchun so‘zlashish, suhbatlashish, boshqalarning so‘zini tinglay bilish muomala odobining muhim sharti hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, suhbatlashish odobi quyidagilar: muloyimlik bilan tabassum qilib, ochiq, samimi gapiresh, ovozni baland ko‘tarmasdan, ma’noli, foydali, har kimning qiziqishiga, ahvoliga, yoshiga munosib so‘zlarni gapiresh, insonni masxara qiladigan, dilini og‘ritadigan kinoyали, g‘arazli so‘zlarni so‘zlamaslik, odamlarning gapini bo‘lmaslik, betgachoparlik qilmaslik, o‘ylab gapiresh, ko‘p gapirmaslik, ya’ni oz bo‘lsa ham soz gapiresh, ilmli, tajribali, hurmatli insonlar bilan suhbatlashish.

Oila tarbiyasida nutq madaniyatini bolaning tili chiqayotgan

**paytdan** shakllantirib, asta-sekin rivojlantirish lozim. Buning uchun bolani so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishga, ma’noli so‘zlarni bog‘lab gapirishga va nutqi boy bo‘lishi uchun yoshiga mos kitoblar o‘qishga, o‘qigan kitobini ma’nosini gapirib berishga, ijobjiy va salbiy obrazlarga mustaqil fikr bildirishga katta e’tibor berish, ya’ni axloqiy tarbiyani aqliy tarbiya bilan bog‘lab olib borish lozim, ertaklar o‘qib berish, bola bilan ko‘proq suhbatlashish, bergen savollariga vazminlik bilan o‘ylab javob berish, bolaga yoshligidan nutq madaniyatini, suhbatlashish odobini o‘rgatish, so‘z boyligi boy bo‘lishi uchun kitoblar o‘qish, she’rlar yod oldirish. Ma’lumki, inson qancha ko‘p she’r yod olsa, uni xotirasi shuncha kuchli bo‘ladi.

Muomala odobida nigoh, ya’ni insoniy qarash muhim rol o‘ynaydi. «Ma’lumki, odamning qarashi: la, yuz ifodasida, qo‘l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so‘zga aylanmagan hissiyoti, talablari o‘z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo‘l siltab ketish-muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba’zan qarab qo‘yishning o‘zi so‘zdan ham kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi».

Oila tarbiyasida insonlarga chiroyli va ma’noli, beg‘araz insonlarga qarashni shakllantirish va rivojlantirishga, har qanday muammo, kayfiyat yomon bo‘lishiga qaramasdan boshqalarga o‘qrayib, yomon qaramaslikka o‘rgatishga katta ahamiyat berish zarur.

Muomala odobini quyidagi: er va xotin, ota-onha va farzandlar, erkaklar, ayollar, yoshlar, qariyalar, kasbdoshlarning muomala odoblari kabi turlarga bo‘lish mumkin.

Muomala odobining bu turlari har bir odamning burch va vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshadi.

**Erning oiladagi burchlari:** xotinni sevish, hurmatlash, u bilan maslahatlashib ish olib borish, oilani moddiy mablag‘ bilan ta’minlash, xotini va farzandlarini boqish, parvarishlash, oilani boshqarish, tarbiyalash, nazorat va himoya qilish, oilaga,

xotinga vafodorlik, farzandlarni ilmli, hunarli qilish, barcha farzandlarni teng ko‘rish, xotinining ota-onasi, yaqinlarini hurmat qilib, yaxshi muomalada bo‘lish.

**Xotinining oiladagi burchlari:** erni sevish, hurmatlash, unga itoatli bo‘lish, farzand tug‘ish, parvarishlash, tarbiyalash, ro‘zg‘or ishlari, tartib, gigiyena qoidalariga riousha etish, saranjom-sarishtalik, ernen topib kelganini qadriga yetib, tejamkorlik bilan ishlatish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, har bir ishda er bilan maslahatlashish, roziligin olish, erga vafodorlik, ernen ota-onasini, yaqinlarini hurmat qilib, yaxshi muomalada bo‘lish, sabr-qanoatli bo‘lish, erga, farzandlarga doimo e’tiborli bo‘lib, xushyorlik, talabchanlik bilan ularning xatti-harakatlarini, o‘y-fikrlarini kuzatib borish. «Ona farzandlari ruhiga eng go‘zal axloqni naqsh etadi. Boshqalarni yaxshi ko‘rmoqni, yaqinlariga xushmuomala, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat ko‘rsatmoqni, zaif va zaiflarga yordam bermoqni o‘rgatadi. Ishlarni chiroyli va go‘zal bajarishni, to‘g‘ri so‘zli bo‘lishni uqtiradi. Ahdiga vafo qilishni, hukmlarida odil bo‘lishni, shunga o‘xhash odob-axloqqa doir narsalarni farzand ongiga, qalbiga soladi va oqibatli, xushxulq inson bo‘lishiga tinimsiz yordam beradi».

**Farzand tug‘ilgunga qadar:** moddiy va ma’naviy shart-sharoit yaratish. Tug‘ilajak farzandni parvarishlash, tarbiyalashda zarur bo‘ladigan bilimlarni egallash. Buning uchun ajdodlarimiz yozib qoldirgan merosni va hozirgi davrda yozilgan maxsus kitoblarni o‘qib o‘rganish, ijtimoiy shart-sharoitlar yaratish, homilador ayol parvarishiga katta e’tibor berish, vitaminlarga boy ovqatlar yeb, ovqatlanish madaniyatiga riousha etish, mutaxassis akusher-ginekologlardan maslahatlar olib turish, tajribali doyalarni topish, ular bilan bog‘lanib turish, yosh oilaning ota-onalari, aka-uka, opa-singillari, qarindosh-urug‘lari tushunib, ularga g‘amxo‘rlik qilib hurmatlarini joyiga qo‘yishlari, oilada tinchlik, osoyishtalik bo‘lishi, urush-janjal

bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, uyni ozoda, pokiza, tartibda tutish.

**Farzand tug‘ilganidan keyin:** farzandni parvarish qilish uchun yosh onaga birinchi kunlari tajribali doya-hamshira yordam berib turishi zarur, moddiy sharoit bo‘lsa 1–2 oy yosh onaga malakali hamshira uyda ham yordam berib tursa ma‘qul bo‘ladi, aqiba, chiroyli, ma’noli ism qo‘yish, farzandni yoshiga qarab, bosqichma-bosqich tarbiyalab berish, bolaga yoshligidan kitobga ixlosmandlikni o‘rgatish, qiziqarli kitoblarni, ayniqsa, o‘zbek xalq ertaklarini o‘qib berish, 3–4 yoshga kirganda o‘qib berilgan ertakni qanday tushunganini so‘rash, ertak bo‘yicha qinqa savollar berish va bolani shu savolga javob berishga asta-neklilik bilan shoxhmasdan o‘rgatish, ota-onha har kungi odat bo‘ylcha anhr-toqat, diqqat, hurmat, mehribonlik, talabchanlik bilan farzandlariغا munosabatda bo‘lisnlari zarur, oilada turli mavzularda farzandlari bilan suhbatlashish, axloq, odobni o‘rgatish, ilm berish, hunar o‘rgatish, mustaqil fikrlashga o‘rgantish, go‘daklikdan tozalikka o‘rgatish.

**Farzandning burchlari:** ota-onani hurmat qilish, ularning nasihatlariga qulop solish, ularga ozor bermaslik, har ishda ota-onu bilan maslahatlashib, ularni rizoligini olish, uy-ro‘zg‘or ishlariiga yordam berish, ilm olish, kasb-hunar egallash, turmush qurib alohida ro‘zg‘or yuritsa ham ota-onani, aka-uka, singillarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab turish.

**Kiyinish odobi:** axloqiy madaniyatning muhim elementlaridan biridir. Kiyim kiyish issiq-sovuqdan saqlanish, badanni va uyat joylarni berkitish uchun zarurdir. Kiyim: uy kiyimi, tungi ko‘ylak, ish kiyimi, sport kiyimi, to‘ylarga, bayramlarga kiyiladigan kiyim, ta’ziyada kiyiladigan kiyim, milliy va yevropa kiyimlari turlariga bo‘linadi. Odamlarning kiyinislari jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, sotsial, diniy ma‘naviy rivoji bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zgarib boradi. Kiyim insonning yoshiga, kasb-hunariga, jinsiga, modaga mos kelishi, yurish-turishiga qulay bo‘lishi, o‘ta tor, uzun yoki kalta

bo‘lmasligi, rang kishilarni o‘ziga o‘ta darajada jalb qilmasligi, yupqa bo‘lib, badanni bilintirmasligi lozim. Kiyim tabiiy matodan tikilgan bo‘lishi zarur. Ma’lumki sun’iy matodan tikilgan kiyim insonni tanasiga, ruhiyatiga yomon ta’sir ko‘rsatadi. Kiyinish odobiga ko‘ra ko‘ylak, shim, lozimni kiyishdan avval o‘ngini kiyish, yechishda chap qo‘ldan, oyoqdan boshlash kerak, kiyim toza, tekis dazmollangan bo‘lishi zarur. Kiyimni ko‘p olishdan ko‘ra me’yorga rioda qilgan ma’qul. Kiyim kiyganda ko‘ylak, oyoq kiyim, sumka, taqinchoqlar rangi mos tushishi insonning yuqori did egasi ekanligidan dalolat beradi.

Oyoq kiyimni pokiza saqlash, bo‘yoqlab yurish, yirtilsa ta’mirlash, eskirgan bo‘lsa kiymaslik, oyoq kiyim qulay bo‘lishi, katta yoki kichik bo‘lmasligi lozim, oyoq kiyim faqat teridan tikilgan bo‘lishi kerak, rezinka yoki boshqa sun’iy matodan tikilgan oyoq kiyimlar insonni oyog‘iga, qolaversa, butun tanasiga ziyon bo‘lib, turli kasalliklarga olib keladi. Shuning uchun narxi qimmatroq bo‘lsa ham sog‘liq uchun tabiiy teridan tikilgan oyoq kiyim kiygan ma’qul.

Axloqiy madaniyatning elementlaridan biri mehmonga borish va mehmon kutish odobidir. **Mehmonga borish odobi:** yaxshi, halol, pok insonlarning uyiga mehmon bo‘lib borish, o‘g‘ri, kissavur, axloqsiz insonlar uyiga mehmonga bormaslik, mehmonga taklif etishsa, band bo‘lsangiz ham, boshqa uzrli sabablar bo‘lsa ham, rad javobini bermaslik, ochiq chehra, muloyimlik bilan xursand bo‘lib, qabul qilib, rahmat aytish kerak, qanday taomlar tayyorlashni, yana kimlar taklif etilganini so‘ramaslik, mehmonga borganda quruq bormasdan mezbonga yoqadigan, kerakli, ma’qul hadya bilan borish, mehmonga borganda mezbon bilan samimi, ochiq chehra bilan salomlashish, olib kelingan hadyani boshqa mehmonlarga ko‘rsatmasdan berish, uyga o‘ng oyoq bilan kirish, uyga kirganda o‘tirganlarga salom berish, mezbon qaysi joyni

ko'rsatsa, o'sha joyga borib o'tirish, atrofga hadeb qaramaslik, ovqat uzatilganda rahmat deb olish, ovqatni idishning bir chekkasidan, og'izni yumib, ovoz chiqarmasdan, gapirmasdan yeyish, taomdan mezbon xursand bo'lguncha eyish, oldiga qo'yilgan taomni u yoq bu yoqqa ko'tarib qo'ymaslik, o'zidan ortib qolgan idishdagi ovqatni boshqalarga yeng deb taklif etmaslik, taom eb bo'lingandan keyin mezbondan ketishga ijozat so'rash, ruxsat berilgandan keyin mezbonga rahmat aytib, uning uyiga fayzi baraka tilab duo aytish.

**Mehmon kutish odobi:** halol, pokiza, yangi, chiroyli, soydali taomlar tayyorlash, toza, oppoq dasturxon, sochiq, salsetkalarni tayyorlash, mehmonlarga qulay bo'lishi uchun xontaxtaga yoki stolni ustiga dasturxon solish, dasturxonga did bilan taomlarni qo'yish, mehmonni ochiq chehra, samimi y xursandchilik, ta'zim bilan o'ng qo'lni chap ko'krakka qo'yib kutib olish, yaxshi, qulay joyga o'tkazish, mehmon qancha ko'p kelsa xursand bo'lish, mehmonlarning barchasiga teng iltifot ko'rsatib, hurmat, e'tibor berish, taom qo'yishdan avval suyuq ovqat, keyin quyuq ovqat, undan keyin shirinlik (disert)lar berish, har bir mehmonga alohida idishda ovqat bergen ma'qul, mehmonlarni ovqatdan oling deb 2–3 marta aytilsa bas, mehmon ketishga ruxsat so'rasha darrov javob bermasdan, uch marta so'ragandan keyin ruxsat etish, mehmonni orqasidan yurib ko'chagacha chiqib kuzatish, taklifimizni rad etmasdan kelganingiz uchun rahmat deyish, agar mehmon piyoda bo'lsa, shuroit bo'lsa mashinada manziliga olib borib qo'yish.

**Ovqatlanish odobi:** axloqiy madaniyatning muhim elementlaridan biridir. Ovqatlanish odobini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: uyda ovqatlanish odobi, jamoatchilik: choyxona, restoran, kafe, oshxonalarda ovqatlanish odobi, mehmondorchilikda, maraka, to'ylarda, bayramlarda ovqatlanish odoblariga bo'lish mumkin.

**Ovqatlanishning umumiy odobi:** tayyorlangan taom halol,

pokiza, yangi bo‘lishi, taom yeyishdan oldin qo‘llarni sovunlab tozalab yuvish, taomni dasturxonga qo‘yish, hamma dasturxonni atrofiga kelib o‘tirgandan keyin, avval kattalar ovqat yeyishni boshlab berishlari, taomni yeyishni boshlashdan oldin «Bismillahir rohmanir rohim» deyish, taomni o‘ng qo‘l bilan yeyish, ovqatlanish paytida suyanmaslik, taomni idishning bir chetidan yeyish, boshqalarning ovqat yeyishini kuzatmaslik, og‘zida ovqat bilan gapirmaslik, ovoz chiqarmasdan, og‘izni yumib ovqatlanish, taomni oz-ozdan yeyish, tez emaslik, yaxshilab chaynash, ovqatlanish paytida boshni qashimaslik, burunni artmaslik, og‘izning suvini oqizmaslik, hammani ovqat yeb bo‘lishini kutish, ovqatlanib bo‘lgandan so‘ng qo‘lni yuvish, ovqat tayyorlaganga rahmat aytib duo qilish.

Axloqiy madaniyatning muhim elementi kasbiy odob hisoblanadi. Hamma kasblarning umumiyligi odob qoidalari mavjud bo‘lib, insonparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, jamoatchilik, tenglik, adolatlilik tamoyillariga asoslanadi.

**Barcha kasblarga taalluqli odoblar:** o‘z kasbini nazariy, amaliy chuqur bilish, izlanish, o‘zini ustida doimo ishslash, malakasini oshirib borish, kasbga oid yangiliklarni o‘z vaqtida tahlil etish, ishda xato-nuqsonlarga yo‘l qo‘ymaslik, mas’uliyatli, halol, pok vijdon bilan ishslash, jamoa a‘zolari, kasbdoshlar, mijozlar bilan samimiy, ochiq chehra bilan munosabatda bo‘lish, jamoaning ichki tartib qoidalariga rioya etish, intizomli bo‘lish, ishga vaqtida kelib, vaqtida ketish.

Bundan tashqari har bir kasbning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda kasb odobi ham mavjud, masalan, tibbiyot xodimlari odobi, o‘qituvchi odobi, sotuvchi-tijoratchi odobi, harbiylar odobi, muhandislar odobi va boshqalar.

Axloqiy madaniyatning yorqin ko‘rinishidan yana biri etiketdir.

**Etiket** – insonlarning o‘zaro munosabatlari ko‘rinishini

tartibga soladigan, takallufning mayda-chuyda jihatlarini ham e'tiborga olgan holda ishlab chiqilgan xatti-harakat qoidalari yig'indisidir.

Etiketni milliy, umuminsoniy, diniy, erkaklar, ayollar, erkak va ayol muomalasi, kattalarga munosabat, mehmon kutish va kuzatish, mehmonda o'zini tutish, kasbiy, suhbatlashish, kiyinish, maishiy xizmat va boshqa jamoat joylarda o'zini tutish turlari mavjud.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, axloq qonunlari, axloqiy madaniyatning tartibiga kiruvchi: milliy urf-odatlar, shaxsnинг eng oliy sifatlari, muomala odobi, kiyinish odobi, mehmon kutish va mehmonga borish.

Oila inson haq-huquqlarining ibtidosiçir. Chunki bola ko'z ochib ko'rgan ilk dunyo-oilada ota-onalar va aka-ukalar, qo'nish-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar munosabati mavjud bo'lib, bola ularni kuzatish va o'rganish davomida kimning qanday mavqega egaligini ko'radi, o'zi ham shu munosabatlar bag'riga singib ketadi, uning ishtirokchisiga aylanadi. O'zbek oilalarining qon-qoniga singib ketgan odob-axloq, or-nomus, uyat-andisha, mehmonnavozlik qonuniyatlarini o'zlashtiradi. Oilaning milliy qiyofasini belgilaydigan bu kabi xususiyatlar boshqa xalq va mamlakatlarda bo'lmasligi yoki o'ziga xos bo'lishi ham mumkin. Jumladan, qonun ustuvor bo'lgan mamlakat – AQSH da zamonaviy oilaviy madaniyatning o'z qiyofasi, o'z afzalliliklari va tabiiyki, o'z muammolari ham bor. Bu haqda adib va shoir Muhammad Alining «Jahon adabiyoti» jurnalida chop etilgan «Men ko'rgan Amerika» esesi keng ma'lumot bera oluvchi manbalardandir. Ya'ni texnik taraqqiyotda mo'jizalar yarata olgan bu mamlakatda, tabiiyki, turmush, hayot tarzi o'zgacha. Bola esini taniboq o'z-o'zini idora etishni o'rganadi.

Istiqlol qo'lga kiritilgach, bu borada ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, oilaning jamiyat tayanchi, ma'naviy tarbiya o'chog'i sifatidagi roli e'tirof etildi, uning farovonligi-

milliy farovonlik asosi ekani asosiy qonun O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilab qo'yildi. Shu munosabat bilan Prezidentimiz I.A.Karimovning «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan majlisda so'zlagan nutqidagi ushbu jumlalar g'oyat ibratlidir: O'zbekiston Konstitutsiyasi Oila jamiyatining asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish hujumiga ega deb yozilgan. Ta'bir joiz bo'lsa, oila jamiyatimizning asosiy bo'g'inidir. Oila jamiyatimiz va davlatimiz muhofazasida, himoyasida bo'lishi shart, deb yozardim. Nega deganda bugungi zamon shuni taqozo etayapti, bizning ko'zimizni ochib, hayotga boshqacha qarashni talab qilyapti».

O'z navbatida Abu Rayhon Beruniy ham yaxshi odob yoki yomon xulq-odatlar, asosan, oila tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanligini ko'p ta'kidlagan. Agar oilada tarbiyaning oljanob, ezgu yo'l-yo'rqliklari ko'proq berilsa, oila fazilatli bo'ladi, bunda tarbiyada bir xil maqsad talab qilinmog'i g'oyat muhim. Ko'rinishdagi go'zallik va tuzilishidagi barkamollik har bir odam uchun sevimli, der ekan, olim turmushdagi tabiiy go'zallikni axloqda, fe'l-atvorda, oilaviy hayotda ko'rish istagi borligini nazarda tutadi. Ayni chog'da Beruniy ota-onani, oilani barpo etuvchilar ekani, ular orasidagi kuchli hurmat va muhabbat albatta bolalar fe'l-atvori va tarbiyasiga ta'sir etajagi haqida fikr yuritadi. Oilada xotin-qizlarning tutgan o'mni esa beqiyosdir. Olimning fikricha, oilada ayol bilimi, jasurligi, sharm-hayosi, eriga iltifotu hurmati, kamtarligi va farosati, shirin muomalasi, pokizaligi, ishbilarmonligi, tejamkorligi bilan namuna bo'la olishi zarur. U «Mineralogiya» asarining kirish qismida otalarning balog'atga yetgan qizlarini turmushga berish chog'ida bergen hayotiy maslahatlarini keltirib, ularni qo'llab-quvvatlaydi.

## **1.2. Farzand tarbiyasiga oiladagi omillarning ta'siri**

Ma'lumki, har bir oila sotsiumning ajralmas elementi sifatida o'z o'rni va roliga ega bo'lib, u ma'lum funksiyalarini bajarish bilan xarakterlanadi. Shu ma'noda, oilaning o'z funksiyalarini bajarishi nafaqat uning ichki barqarorligiga, balki o'z navbatida jamiyatdagi boshqa sotsial institutlar faoliyati barqarorligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ilm ahlining keng tarqalgan qarashlarga ko'ra, oila reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, iqtisodiy, kommunikativ, reguliyativ funksiyalar bilan bir qatorda nasjni davom ettirish, tarbiyaviy, xo'jalik va o'zaro yordam kabi funksiyalar ham hozirgi zamon oilasining muhim funksiyalari sifatida ko'rsatib o'tilgan. Ayrim sotsiolog olimlar (U.M.Sverdlov, V.A.Ryasenov, V.P.Kluchnikov) inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo'jalik funksiyalarini farqlab ko'rsatadilar; S.D.Laptenok xo'jalik-maishiy, aholi sonini qayta tiklash, tarbiyaviy va oila a'zolari dam olishi, ya'ni hordiq chiqarishini tashkil etish; N.G.Yurkevich esa ma'naviy muloqot, seksual, bolalarni dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta'minlash, dam olishni tashkil qilish, o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash; A.G.Xarchev – aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, xo'jalik, iste'mol va dam olishni tashkil qilish funksiyalarini farqlab ko'rsatadilar.

M.R.Bo'riyevning fikriga ko'ra oila funksiyasi uch yo'nalishdan iborat, jumladan, oilaning demokratik vazifasi, oilaning ijtimoiy vazifasi va oilaning iqtisodiy vazifasi. Oilaning reproduktiv funksiyasi tufayli uning davomiyligi, to'laqonligi ta'minlanadi va bu oila barqarorligida muhim ahamiyatga ega bo'lib, insonlarning kichik guruhi va jamiyatning muhim sotsial instituti sifatidagi mavjudligi tarbiyaviy funksiya bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Zero, bolalarning ijtimoiylashuvi,

ularning aqliy, jismoniy, ma'naviy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinar ekan, ularning ko'ngildagiday voyaga yetishi har bir oilaning obro'siga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va shu orqali oila a'zolarining mavqeyini mustahkamlaydi. Aksincha, o'z a'zolarini maqbul tarzda tarbiyalay olmagan oilani mustahkam deb bo'lmaydi.

Oila kichik ijtimoiy guruh sifatida doimo o'z a'zolariga o'zaro muloqot va o'zaro tushunish vazifalarini qo'yadi. Busiz oila mustahkam bo'la olmaydi. Oilaning ichki barqarorligiga xizmat qiluvchi iqtisodiy funksiya «oila – jamiyat» tizimida ham amal qiladi hamda oila o'zining shu vazifasi tufayli jamiyatga katta iqtisodiy foyda keltiradi. Chunki inson resursi jamiyat va davlat uchun zarur ekan, bola tarbiyasi, bolani iqtisodiy ta'minlash borasida oila davlat funksiyasining sezilarli qismini o'z zimmasiga olishi, oilaning barqaror bo'lishi, avvalo, davlat manfaatlariga mosdir.

Ma'lumki, oila a'zolarining salomatligini mustahkamlash, dam olishini tashkil etish, oila a'zolarining bo'sh vaqtlarini o'tkazishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Oilaning o'z a'zolari ma'naviy-psixologik himoyalanganligini ta'minlashdagi roli beqiyosdir. Chunki inson o'z oilasida va o'z yaqinlari qurshovida oladigan xotirjamlik, erkinlikni hech bir narsa bilan almashtira olmaydi. Shu ma'noda oilaning rekreativ funksiyasi uni mustahkamlikka olib boruvchi eng asosiy yo'ldir.

Oilanning nazorat funksiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek, birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada yetakchilik va obro'ni amalgaloshirishni o'z ichiga oladi.

Siz yaxshi bilasizki, oilada nazorat tizimi uning mustahkamligini ta'minlovchi muhim omil bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Chunki oiladagi o'ziga xos nazoratning izdan chiqishi oila hayotining ham izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Oila vazifalari va funksiyalarini o'z vaqtida

muvaffaqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog‘lomligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, jamiyatni sog‘lomlashtirish uchun, eng avvalo, oilaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, oilaning ijtimoiy muammolarini ham hal qilishga e’tibor qaratish zarurdir. Sotsiologiyada sotsial munosabatlar inson faoliyatining eng universal namoyon bo‘lishi deb baholanadi.

Kishilar orasidagi asosiy munosabatlar o‘zaro muloqotlarga kirishish, ya’ni so‘z, imo-ishora, xatti-harakatlar orqali bir-biriga ta’sir o‘tkazishga asoslanadi. Oila inson hayotiy faoliyatining o‘zagi sifatida ekan, aynan oiladagi muloqot va munosabatlar uning keyingi xatti-harakatlari va boshqa insonlar bilan o‘zaro kirishadigan munosabatlarining mazmunini belgilab beradi. Aytish mumkinki, har bir shaxs oiladan boshlab insonlararo ijtimoiy munosabatlarga kirishishning boshlang‘ich maktabini o‘taydi.

Hozirgi kunda insoniyat o‘rtasidagi barcha munosabatlar (insonlararo munosabatlardan tortib, to davlatlararo munosabatlargacha) nihoyat darajada murakkablashib, o‘zaro muloqot va ommaviy axborot vositalari yordamida yanada taranglashtirilgan murakkab bir davrga to‘g‘ri kelmoqda. Bu holat oila ichki hayotiga ham xosdir. Insonlar har daqiqada kirishadigan muloqot va aloqalarning nihoyatda jadallahushi, axborotlashgan tizimlarning misli ko‘rilmagan darajada ortishi, turmush tarzidagi o‘ta asabiy holât, hayot intensivligidan kelib chiqadigan emotsiyal zo‘riqishlar oilaning o‘rnini yanada oshiradi. Jumladan, jamiyatdagi o‘ta murakkab jarayonlardan toliqqan insonlar uchun oila ishonchli boshpana, o‘zini har tamonlama erkin sezadigan boshpana hisoblanadi. Shuningdek, oilaning o‘zi jamiyatdagi munosabatlarning ta’sirida bo‘lganligi sababli o‘z a‘zolariga, ularning o‘zaro munosabatlariga nisbatan o‘ta nozik muloqot madaniyatini talab etadi.

1997-yildan boshlab faoliyat yuritayotgan «Ijtimoiy fikr»

jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi o'tkazayotgan amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari bunda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Xususan, ushbu markaz tomonidan «Oila va ma'naviyat» mavzusida o'tkazilgan so'rov natijalari diqqatga sazovordir.

Mamlakatimiz fuqarolarining ko'pchiligidagi har tomonlama rivojlangan shaxsni, shuningdek, inson ma'naviyatining shakllanishiga aynan oila eng ko'p darajada ta'sir ko'rsatishi so'rov natijalariga asosan yana bir bor o'z isbotini topdi.

R.Umirzakovaning «Sizning fikringizcha, bizning jamiyatda inson ma'naviyatining shakllanishiga nima eng ko'p darajada ta'sir ko'rsatadi?» – mavzusida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasini ilova qilamiz.

<b>Nº</b>	<b>Ta'sir ko'rsatuvchi omil</b>	<b>1999-y</b>	<b>2003-y</b>
1.	Oila	76,9	77,1
2.	Mahalla	58,1	43,2
3.	Ta'lim muassasalari	48,2	43,2
4.	Ijtimoiy muhit, kasbdoshlar	45,3	36,9
5.	Televideniye	30,1	28,1
6.	Matbuot	19,5	7,2
7.	Din	10,6	6,8
8.	Adabiyot	8,7	3,4
9.	Kino, teatr	3,8	2,2

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra «iqtisod-oila-milliy qadriyatlar» tizimiga oid dolzarb muammolar borligi ko'rindi. Jamoatchilik fikriga asosan ma'naviy qadriyatlarning moddiy qadriyatlarga nisbatan ustuvor baholanishiga sabab, oilaning va u asosida quriladigan jamiyatning ma'naviy jihatdan sog'lom ekanligi va barqaror ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolayotganligini ko'rsatuvchi muhim dalildir. Xususan,

so‘ralganlarning deyarli 45,5% iqtisodiy qiyinchiliklarni vaqtinchalik, ma’naviy qadriyatlarni abadiy deb hisoblasa, 27,5% esa «moddiy boyliklar ma’naviy boyliklardan qadrliroq bo‘lishi mumkin emas», deb hisoblashadi. Respondentlarning ko‘pchiligi (63,6%), «moddiy jihatdan badavlat, ammo ma’naviy qashshoq» odamlarni yoqtirmasliklarini ham aytganlar.

So‘rovnomada ishtirok etganlarning fikriga ko‘ra, baxtli oila tuzishning muhim sharti o‘zaro muhabbat (52,6%) hamda erxotining o‘rtasidagi o‘zaro ishonchdir (48,9%). Shuningdek, so‘rovda ishtirok etganlarning har uchinchisi (34,9%) fikriga ko‘ra, mustahkam oila – bu hayotdagি qoniqishdir. 27,7% o‘zbekistonliklar mustahkam oila deganda, avvalo, oilada farzandlarning mavjudligini tushunadilar. Shunisi ham e’tiborga molikki, fuqarolarimizning ko‘pchiligi nikohga kirishning bosh sababi sifatida oila qurish, farzand ko‘rish (70,6%), avlod davomiyligini ta’minalash istagi (48,1%)ni ko‘rsatganlar. Ushbu dalillar aynan farzand omili o‘zbek oilalarida mustahkamlikning bosh bo‘g‘ini sifatida baholanayotganligini ko‘rsatadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning oila mustahkamligiga ta’siri masalasida ham jamoatchilik fikrida yuz berayotgan muhim tendensiyalarni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan kim shug‘ullanishi zarur? degan savolga ko‘pchilik ota va onani ko‘rsatganlar (72,1%). Shunisi qiziqliki, 2000-yildagi so‘rovda oilada «bosh tarbiyachi» sifatida onalar ko‘rsatilgan bo‘lsa, (10,2%), 2003-yildagi so‘rovda bu ko‘rsatgich pasaygan (8,9%), shu vaqtning o‘zida otaning roli 7,8% dan 10,9% ga, shuningdek, buvilar va buvalar roli 8,0% dan 12,1% ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, farzandlarni ota va ona birgalikda tarbiyalashi farzand tarbiyasiga har tomonlama ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni so‘rov natijalari ham tasdiqlaydi. «Qanday oilalarda me’naviy sog‘lom va har tomonlama rivojlangan farzandlar tarbiyalash

mumkin?» degan savolga ko‘pchilik, ya’ni 49,8 foizi ota va onaning birgalikdagi tarbiyasini ko‘rsatganlar. Shu bilan birga 15,3 foiz so‘rovnoma ishtirokchilari otaning, 12,3 foiz so‘rovnoma ishtirokchilari esa onaning farzand tarbiyasidagi muhim rolini ajratib ko‘rsatganligini R.Umirzakova o‘z tadqiqotlarida alohida ta’kidlab o‘tadi.

So‘rov natijalariga ko‘ra, oilaning turlari va farzandlarning ma’naviy tarbiyasi o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjud.

R.Umirzakova tomonidan «Qanday oilalarda ma’naviy sog‘lom, Vatanga sodiq farzandlar tarbiyalanadilar?» – mavzusida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra aniqlangan ma’lumotlarga asosan quyidagilar ma’lum.

(Natijalar % hisobida)

Nº	<b>Oilalar turlari</b>	<b>Shahar</b>	<b>Qishloq</b>	<b>Jami</b>
1.	Mehnatsevar va halol oilalarda	46,9	54,3	50,7
2.	Inoq va tinch oilalarda	37,7	40,0	38,9
3.	Ma’naviy sog‘lom oilalarda	41,4	34,3	37,8
4.	Ziyoli oilalarda	25,6	17,2	21,3
5.	Ko‘p bolali oilalarda	3,2	4,5	3,9
6.	Dindor oilalarda	4,3	2,4	3,3
7.	Javob berishga qiynalaman	0,4	1,7	1,0

Oilada har xil ziddiyatlarning bo‘lmasligi yaxshi oilaning belgisi va aksincha. Ziddiyat, nifoq va kelishmovchiliklar qancha ko‘paysa, oila mustahkamligi shuncha darz ketadi. So‘ralganlarning 55,7 foizi o‘z oilalarida janjallar bo‘lmasligini ta’kidlashganlariga qaramay, ularning yarmiga yaqini janjallar bo‘lib turishini aytib o‘tgan. Bu esa bola tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

Sizga ma’lumki, oiladagi janjallar yo‘q joydan yuz bermaydi,

ularning ma'lum sabablari bor. So'rovnoma da ishtirok etganlarning javoblariga ko'ra, oilalardagi janjal va keskin ziddiyatlar sabablari orasida moddiy qiyinchiliklar (48,5%), oila a'zolarining o'z majburiyatlarini bajarmasliklari (21,7%), dunyoqarashning mos kelmasligi (17,9%), bolalar tarbiyasiga oid fikrlarning mos tushmasligi (16,75%), o'z fikrida qat'iy turib olish (15,5%), shuningdek, narkomaniya va alkogolizm kabi omillar ustuvorlik qilishini bildirishgan. Oiladagi bunday nosog'lom muhit o'z-o'zidan farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilaning barcha yoki bir necha a'zolarining xohishlari, qiziqliklari, ehtiyojlari sohasida doimo to'qnashuvlar, kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan oilalar nizoli oilalar deb ataladi. Bunday oilalarda er-xotin yoki oila a'zolari bir-biriga nisbatan cheksiz hurmatsizlik, shuningdek, davomli qoniqarsiz emotsiyonal holatni his qiladilar. Nizo – bunday oilaning surunkali holatidir.

Lekin ayrim nisbiy xulosalar, mulohazalar asosida maxsus adabiyotlarda oilaviy nizo - janjallarning sabablarini aniqlash va oldini olish masalalarini ijobiy hal qilishda birinchi navbatda ularning kimlar o'rtasida sodir bo'layotganligiga qarab R.Umirzakova quyidagi asosiy turlarga ajratganlar:

- er-xotin o'rtasidagi nizolar;
- qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar;
- qaynona-kuyov o'rtasidagi nizolar;
- ovsinlar o'rtasidagi nizolar;
- ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar va h.k. Er-xotinlar o'rtasidagi nizolar asosan ularning ehtiyojlari qondirilmaganligidan kelib chiqadi. Er-xotin o'rtasidagi nizolarining aksariyati:
  - er-xotinlarning psixoseksual jihatdan mos kelmasligi;
  - o'z «Men»ining ahamiyatliligin anglashga nikoh jufti bilan qadr-qimmatga, e'tiborga bo'lgan ehtiyojning qondirilmasligi;

- ijobjiy emotsiyalarga; g’amxo’rlik, erkalash, e’tibor va o’zaro tushunishga bo‘lgan ehtiyojning qondirilmasligi;
- nikoh juftidan birining o‘z ehtiyojlarini qondirishga juda ko‘p e’tibori (alkogol, giyohvand moddalar, faqat o‘zi uchun moddiy mablag‘larni sarflashi va boshqalar);
- uy-ro‘zg‘or ishlari, farzandlar tarbiyasi, ota-onaga bo‘lgan e’tiborda o‘zaro yordam, o‘zaro hamkorlikka bo‘lgan ehtiyojning qondirilmasligi;
- dam olish, qiziqishlar ehtiyojlardagi tafovutlar asosida kelib chiqishini qayd etib o‘tgan.

Yuqorida qayd etilgan ehtiyojlarning surunkali qondirilmasligi shaxsning psixik va jismoniy holatiga salbiy ta’sir etadi. Ajralishlarga sabab bo‘luvchi omillar turlichadir, lekin ajralishayotganlarning ko‘pchiligi, ajralish sababi to‘g‘risida hamma uchun standart bo‘lib qolgan xarakterlarining mos kelmasligi, o‘zga shaxsning aralashuvi, qo‘pollik, moddiy qiyinchilik, ichkilikbozlikka berilish, yashash sharoitining noqulayligi, ota-onalarning noo‘rin aralashuvi va boshqa sabablarni ko‘rsatar ekanlar.

Oilada er-xotinning ajralishi, ya’ni nikohning bekor etilishi birinchi navbatda oilaning tarkibiga ta’sir etadi, ya’ni oila to‘la oiladan tugal bo‘lmagan oilaga aylanadi. Oilada farzandlar tug‘ilishi ma’lum darajada kamayadi. Bu esa o‘z navbatida, oilani davom ettiruvchi avlod yaratilishiga, farzand tarbiyasining bekamu ko‘st bo‘lishiga oilaning demografik rivojlanishiga salbiy ta’sir etadi.

Oila mustahkamligiga ta’sir etuvchi quyidagi omillar mavjud:

- 1) Farzand;
- 2) Nikoh subyektlarining o‘zaro mos kelishlari: a) ijtimoiy mos kelish; b) psixologik mos kelish;
- 3) Nikoh yoshi;
- 4) Oilada ayol va erkakning o‘mi;
- 5) Xarakterlarning to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligi;
- 6) Davlat tomonidan oilalarni ijtimoiy himoyalash;
- 7) Oilada huquqning o‘mi;
- 8) Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlari (qaynona, qayinsingillar,

ovsinlar); 9) Oila a'zolarining (subyektlarining) sotsial xulq-atvori (masalan, narkotik moddalarni iste'mol qilishi, alkogolizm); 10) Asossiz yoki asosli rashk; 11) Er yoki xotinning kasallikka chalinishi; 12) Oiladagi moddiy yetishmovchilik; 13) Oilada qariyalarning borligi; 14) Nikoh subyektlarining ma'lumotlilik darajasi. [2]. Bu esa o'z navbatida bolalar tarbiyasiga, jumladan, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi.

Albatta, ajralish oila beqarorligining eng oxirgi ayanchli ko'rinishi bo'lib, shu oila a'zolarining shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etadi. «Ijtimoiy fikr» Markazida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijasiga ko'ra, o'zbekistonliklarning mutlaq ko'pchiligi (94,8%) ajralishlarga nisbatan salbiy munosabatda. Buni tushunsa bo'ladi. So'rovda fuqarolarimizning ajralishlarga nisbatan salbiy munosabati sabablari ham yuzaga chiqdi. Bular: oilaning barbod bo'lishi (34,2%), bolalarning yetim bo'lib qolishlari (33,8%), ajralishlarning bolalar ruhiyatiga, ta'lim olishlariga va tarbiyasiga salbiy tasir ko'rsatadi. Bu holatdagi noxushlik bor oilalarda istaymizmi yo'qmi shaxsning tarbiyalanish jarayonida ma'llim bir og'ishlarga olib keladi. Natijada shaxs psixikasidagi ma'lum g'alayonlar ta'sirida o'z nuqtai nazarini to'g'ri ifodalash va qaror qabul qilish jarayonida ikkilanishlarga olib kelishi mumkin. Bunga albatta tashqi muhit va shaxsning irodasi, o'zini tutabilishi, fikrlash qobilyati kabi bir qator omillarning holati katta ahamiyatga ega. Tassavvur qilaylik, bir oilada surinkali kelishmovchilik natijasida oila buzildi. Buzilgan oilada albatta kattalarga nisbatan bolalar ko'proq jabir ko'radilar, ya'ni yoki otaning, yoki onaning mehridan mahrum bo'ladilar. Bu holatda hammamizga ma'lumki farzand tarbiyasiga e'tibor susayganligi sababli, ya'ni yo otaning, yo onaning tarbiya jarayonida ta'siri yo'qligi, farzandning tarbiya jarayonida bo'shliq bo'lishiga olib keladi. Farzandning shaxsiy faoliyatidagi bu bo'shliq,

farzandning har xil oqimlarga, guruhlarga yoki boshqa yomon yo'llarga kirib ketishiga sabab bo'ladi. Ota-onas farzandining bunday nomaqbul yo'lga kirganidan ozgina bo'lsa-da, yuragi achishadi, lekin endi bu kech bo'lganligini, farzandining ko'ngli singanligini, uni qaytib tiklash mushkul ekanligini tushinib yetishmaydi, aks holda ajralishmagan bo'lar edi. Biz o'z manfaatimizni emas, balki farzandlar oldidagi burchimizni, jamiyat va ona yurt oldidagi burchimizni ustin qo'y mog'imiz darkor.

## **2. OILADA IJTIMOIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-AXLOQIY, HUQUQIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

*Farzandingni baxtli va boy ko 'rishni istasang,  
uning qalbini pok, aqlini o 'tkir qilib tarbiyala.*  
**(Hadisdan)**

Olib borilgan izlanishlar va turli oilalar hayotini kuzatishlar asosida komil farzand tarbiyalashning asosiy omillari ishlab chiqildi. Bu omillarga tayangan holda farzand tarbiyalagan har bir oila kutilgan natijalarga erishish tabiiy.

Mazkur omillarni ishlab chiqishda milliy ma'naviy merosdan, xalqimizning boy tarixiy tajribasidan, an'analari, urfatlaridan foydalanildi. Ulug' bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy farzand tarbiyasida muhim o'rincutuvchi quyidagi uch jihatni ta'kidlab o'tadilar:

- irsiyat
- muhit
- tarbiya

Bobomiz Amir Temur ham farzand tarbiyasida Beruniyning shu omillariga tayanganlar. Ul zot o'g'illariga kelin tanlash masalasini davlat ishi va siyosati darajasiga ko'targan. Kelin bo'lmishning yetti pushtigacha tekshirib, surishtirganlar. Ular hatto qizlarining, kelinlarining, kelin bo'lmish qizning badanlarini ko'rishni buyurganlar. Bu nafaqat o'g'limning rohatfarog'ati uchun kerak, balki bo'lg'usi surriyotlarimning salomatligi, naslimning buzilmasligi uchun zarurdir, – deganlar.

Farzand tarbiyasida ijtimoiy muhit alohida rol o'ynaydi. Bunda ichki muhit hisoblanuvchi oilaviy muhitni (shaxsiy

oilaviy muhit qarindosh-urug‘lar muhiti, quda-andalar muhiti), tashqi muhitlardan **bog‘cha, maktab, mahalla, ko‘cha-ko‘y, yor-do‘sstar, radio, televideniyeni** tafovut qilish lozim.

Bu sanab o‘tilgan muhitlar ichida *oilaviy muhit*, ayniqsa, shaxsiy oilaviy muhit (ota-onा, aka-uka, opa-singillar muhiti) farzand tarbiyasida eng asosiy, hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu muhit farzand tarbiyalashda faol ish olib borish uchun eng katta imkoniyatlar mujassamlashgan alohida muhitdir. Bu imkoniyatlar oila farzand tarbiya oluvchi dastlabki makon ekanligi, farzand umri asosiy qismining oilada o‘tishi, muloqot va nazoratning bevositaligi, xo‘jalik yuritishning umumiyligi va boshqa bir qator shu muhitga xos bo‘lgan jihatlar bilan belgilanadi. Shaxsiy oilaviy muhit sharoitida farzand tarbiyasini bevosita boshqarish mumkin. Farzand tarbiyasida boshqa oilaviy muhitlarning ham ta’sirini inobatga olib borish lozim. Bunda nazorat qilish, kuzatib borish, bahslar tushuntirishlar olib borish usullaridan foydalanish lozim.

**Bog‘cha** farzand tarbiyasidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Unda bolaning rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan ovqatlanish, dam olish tartibi joriy qilinganligi, tashqi dunyo haqidagi dastlabki tasavvur va bilimlarning berilishi katta ahamiyatga ega. Oilada bu ko‘nikmalar, bilimlar mustahkamlanib rivojlantirilib borilishi lozim. Bog‘cha sharoiti bilan tanishib farzand haqida, uning yurish-turishi, o‘zini tutishi, o‘ziga xos xususiyatlari haqida tarbiyachilar bilan suhbatlashib, maslahatlashib turish lozim.

**Ta’lim muassasasi** yosh bo‘g‘inning ta’lim va tarbiyasida eng muhim o‘rin tutuvchi ulug‘ makondir. Bu muhitda bola o‘zining insoniylik xislatlariga ega bo‘lib, shakllanib borishi bilan birga aql-zakovat, idrok, egasi bo‘la boradi, hayotda o‘z o‘rnini topa boshlaydi, kelajakda mustaqil hayot sari o‘z yo‘lini qo‘ya boshlaydi. Ota-onaning farzand tarbiyasi borasida bu bosqichdagi vazifa va burchlari o‘z jigargo‘shasining kelajakda

barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun uning har bir qadamini kuzatib, tahlil qilib borish, oilada mакtabda olgan bilim va hayotiy ko‘nikmalarini to‘ldirib, lozim bo‘lganda izga solib, tuzatib borish, normal bilim olishi, rivojlanishi uchun yetarli ma’naviy, kitobdiy va milliy sharoitlar yaratib berish, sodir bo‘ladigan hayotiy muammoli masalalar yuzasidan atroficha tushuntirish ishlarini olib borish, shu bilan birga unga o‘z faoliyatini muayyan reja asosida olib borishi, o‘z muammolarini iloji boricha o‘zi hal qilishi, mustaqil ravishda to‘g‘ri va maqbul qarorlar qabul qilish borasida ko‘nikmalar hosil qilib borishi uchun erkinlik berish lozim. Ana shundagina u istiqbolda o‘z aql-idroki, bilimi, hayotiy ko‘nikmalari asosida turmushda surinmay, adashmay jamiyatning va albatta ota-onaning ham to‘laqonli, ilg‘or, suyukli farzandlaridan biri bo‘lib yetishadi, baxtli, o‘z hayotidan mammun bo‘ladi, hurmat-izzat, obro‘-etiborga sazovor bo‘ladi.

### **Mahalla, ko‘cha-ko‘y, yor-do‘sstlar, radio-televideniye**

Inson kamolotga erishuvining, mukammalligining buyuk allomalarimiz katta ahamiyat bergen uchinchi omili tarbiya jarayoni bo‘lib, u insonning butun hayoti davomida uzuksiz ravishda olib boriladigan maxsus faoliyatlar majmuidir. Bu faoliyat uning ona qornida hayotining boshlanishidan tortib to umrining oxirigacha davom etadi. Bu yerda shu narsani ta’kidlab o‘tish lozimki, aksariyat hollarda tarbiya deganda go‘daklar, yoshlar, o‘smirlar tarbiyasi nazarda tutiladi. Lekin tarbiya tom ma’noda barcha yoshdagи insonlarga taalluqli bo‘lgan, barcha insonlarga suv va havodek zarur bo‘lgan bilimlar majmuidir. Chunki har bir insonning hayotda bosgan har bir qadami uning uchun bu hayotda bosilgan birinchi qadamdir. Inson o‘zinig shu bosgan har bir qadamida hayotdan o‘zi uchun yangi bilim oladi. Oliy zotning mana shu olgan

bilimlarining o‘ziga, jamiyatga, davlatga xizmat qilishi uchun bu borada olib boriladigan har bir sa’y-harakat muayyan maqsad sari yo‘naltarilgan bo‘lishi lozim. Shu bois tarbiya insonning yoshi, jinsi, bilimi, kasbi, mavqeyidan qat’i nazar, jamiyatda yashab turgan har bir inson bilan har onda, har soniyada turli yo‘nalishda (kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy) turli insonlar (ota-onas, tarbiyachi, murabbiy, ustoz rahbar, kattalar), jamoalar (qo‘ni-qo‘shni, mahalla, ko‘cha-ko‘y, yoru birodar, o‘rtoq-do‘sit davra, mehnat jamoasi), maxsus ta’lim-tarbiya institutlari (bog‘cha, maktab, oliy va o‘rta maxsus ta’lim o‘choqlari), davlat va nodavlat tuzilmalari (Davlat hokimiyati, qonun chiqaruvchi, nazorat va ijro organlari, ma’naviyatma’rifat markazlari, radio, televideniye, matbuot) tomonidan olib boriladigan keng qamrovli faoliyatdir.

## **2.1. Oila, uning mazmuni va vazifalari**

O‘zbekistonda har yili 520000 dan ko‘proq bola tug‘iladi. Demak, ana shu dunyoga kelayotgan farzandlarimizning jismonan, aqlan, ruhan va axloqan sog‘lom bo‘lishlari haqida g‘amxo‘rlik qilish har birini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bola tarbiyasi va sog‘lig‘i haqida u tug‘ilmasdan ancha oldin, homiladorlik davridan oldin va homilaning dastlabki kunlaridanoq qayg‘urmoq zarur. Butun dunyoda har yili homiladorlik va tug‘ruq asoratlaridan 500 000 ga yaqin ayol nobud bo‘ladi. Shuning uchun oilada homilador ayollarga zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, homilani parvarishlashda ajdodlarimiz o‘gitlariga tayangan holda tarbiya bermoq zarurdir.

Oilada kelishmovchiliklar, o‘zaro nizolar, ajralishlar soni tobora ko‘paymoqda. Buning natijasida hozirgi davrda noto‘liq oilalar soni ortib bormoqda. Sotsiologik ma’lumotlarga qaraganda balog‘atga yetmagan jinoyatchilarning 61 foizini

noto‘liq oilada o‘sigan o‘smirlar sodir qilmoqdalar. Buning ham sabablarini aniqlash va bartaraf qilishning nazariy - metodologik asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ota-onaning kundalik tirikchilik bilan bandligi bola tarbiyasi uchun bo‘sh vaqtning kamligi, buning natijasida farzandlarning nazoratsiz qolishlari, tele-video ko‘rsatuvlar orqali axloqsizlik, zo‘ravonlik, vahshiylikni targ‘ib qiluvchi filmlarni tomosha qilishlari, ularning axloqiga yomon ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlar bo‘sh vaqtlarini oilada samarali o‘tkazishlarini tashkil etish muhim bo‘lib qolmoqda,

Ayollar jamiyatning barcha sohalarida faol ishlamoqdalar, shu bilan birga oilaning reproduktiv funksiyasini bajarib, farzand ko‘rib, uni parvarishlash, tarbiyalash, uy-ro‘zg‘or yumushlari ham ularning zimmasiga tushmoqda. Natijada ular jismonan, ruhan charchab toliqmoqdalar. Bugungi kunda erkaklarning yashash umri tobora qisqarayotgani g‘oyat achinarli hol. Bu ijtimoiy muammolar oiladagi muhit, munosabat va axloqiy tarbiyaga ta’sir ko‘rsatishini atroficha tadqiq etish, konstruktiv-ratsional amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqish jamiyatimiz taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Ko‘rinib turibdiki, qadimdan ham, bugun va ertaga ham, bundan keyin ham aqli, farosatli, tafakkuri chuqur – bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy faol farzand tarbiyalash muammosi dolzarbdir. Xalq bunday xayrli ishda o‘z kuchini ayamagan fazilatli insonlarni, ota va onalarni sevadilar, e’zozlaydilar va hurmat qiladilar.

Bunday tafakkurga boy, kamolotli farzand tarbiyasining sarchashmasi oiladan boshlanadi. Oila ana shunday tabarruk qal’adir. U qanday qurilishi lozim. Oila o‘zi nima, uning maqsad va vazifalari nimadan iborat bo‘lishi kerak.

Oila – voyaga yetgan ikki jinsning sevish, ardoqlash, hurmat

qilish asosida, ixtiyoriy ravishda, qalb og'ushi ila tuzilgan qonuniy ittifoqidir. Mo'jazgina bir qal'a qurildi. Endi bu qal'ada bekinmachoq o'ynalmaydi. Yoshlikdagi o'yinqaroqlik, beboshlik, erkalik, loqaydlik o'rnini sezgirlik, mas'uliyat, andisha, javobgarlik kabi fazilatlar egallay boshlaydi. Bunga har bir yosh tayyorlanib, mas'uliyat ko'nikmasini his qilib, oila maqsadi va vazifalarini tushunib, uqib bormog'i lozim.

**Oila maqsadi** – ikki jinsning o'zaro kelishuvi asosida farzandni dunyoga keltirish hamda tabiat va jamiyatning davomiyligini ta'minlash.

**Oila vazifasi** – er-xotinning birgalikda xo'jalik yuritish asosida oilani ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan ta'minlash hamda jamiyatga sog'lom, aqli, har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash.

## **2.2. Ota-onaning farzand oldidagi va aksincha farzandning ota-ona oldidagi burchlari**

Komil farzandli bo'laman, baxtli oila quraman degan maqsad bilan oila qurdingiz. Ammo bu maqsadga erishish farzand tarbiyalashdagi muhim omillarni, farzand oldidagi burchlarni bilib ish ko'rishni taqozo qiladi.

### **Ota-onaning farzand oldidagi burchlari**

- farzandga chiroyli ism qo'yish (farzandingiz o'z ismini o'zgalarga aytishga orlanmasin);
- chaqaloqligida qulog'iga azon ayttirish;
- savodini chiqarish, iqtidoriga qarab bilim berish, imkoniyatiga yarasha o'qitish va kasb-hunar o'rgatish;
- uylantirish, turmushga chiqarish;
- uyli-joyli qilish;
- farzandlar orasidagi meros taqsimotidaadolatli bo'lish;

- farzandlarni hamisha halol topilgan luqma bilan boqish.

## **Farzandning ota-onasi oldidagi burchlari**

- ota-onanining pand-nasihatlariga qulqoq osishga ularga har doim yordam berish, mehribon, e'tiborli bo'lish, oila ishlariga ham ma'naviy, ham iqtisodiy yordam berish;
- har bir farzand o'z singil va ukalariga mehribon, yo'lboshchi va yo'ldosh, odobda, axloqda, ishda, ilm-hunar o'rghanishda o'rnatish;
- ota-onalarining nimaga muhtoj ekanliklarini qalban his qilish, ularga bu borada amaliy mehribonlik ko'rsatish;
- oilaga berayotgan ma'naviy va iqtisodiy yordamini minnat qilmaslik;
- tavallud, bayram va hayit kunlarida yo'qlab turishni kanda qilmaslik;
- keksa ota-onalariga alohida g'amxo'rlik ko'rsatish, shirin muomalada bo'lish, orzu-niyatlarining amalga oshishida yordam berish;
- vaqt-soati yetib, bandalikni bajo keltirsalar izzat-ikrom bilan oxirgi manzilga kuzatish, marakalarini kamtarona, dabdabasiz, qarindosh-urug'lar, uni bilgan, hurmat qilgan eng yaqin odamlar bilan o'gakzish.

### **2.3. Oila a'zolarining huquqlari**

Oilada va jamiyatda er-xotin teng huquqlarga ega. Bu yerda qonunda belgilangan huquqlar haqida gap ketmoqda. Bunday tenglik saylash, saylanish, kasb tanlash, ishlash, bilim olish, o'ziga yor tanlash va hokazo huquqlarda o'z ifodasini topadi. Lekin ikki jinsning biologik, ruhiy tuzilish nuqtayi nazaridan bunday tenglik yo'q. Shuning uchun ayol va erkakning oilada ro'zg'or tebratish, farzandlarni tarbiyalash, farzandlarning oila

yumushlari va vazifalaridagi mehnat taqsimoti masalalaridagi huquq va burchlarida birmuncha tafovutlar mavjud.

**Erkakning vazifasi** – oilani ma’naviy, iqtisodiy qo’llab-quvvatlash, ayoli va farzandlarining tashvishlariga sherik bo‘lish, oilaga soya solayotgan xavf-xatarlarga qalqon bo‘la bilish. Oila a’zolariga g‘amxo‘r bo‘la bilish.

**Ayolning vazifasi** – oilada farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanish, ularni oq yuvib, oq tarash, erkak tashib kelgan oziq-ovqatlarni pishirish, mehmon kutish, er va bolalarni ishga hamda o‘qishga kuzatish, kutib olish.

Er va ayolning vazifalari yuqorida sanab o‘tilganlardangina iborat emas, albatta. Bu vazifalarning barchasini sanab o‘tishning hech qanday iloji yo‘q. Oila sharoitidan kelib chiqqan holda, har bir ishni o‘z tafakkurini ishga solib, vazifalarini belgilab olmog‘i va ularni shunday bajarmoqlari lozimki, uyg‘a kelgan har bir mehmon tuz-nasibasini totib, qaytayotganida oila a’zolari orasidaga o‘zaro hurmat, ularning har birining aqlu farosatiga tasannolar o‘qib ketsin.

Oila deb atalmish aravani tortib borayotgan er va xotinning bir-biriga yelkadosh bo‘lishini, o‘zaro odoblarini, bir-biriga bo‘lgan mehribonliklarini ko‘rgan farzandlar ulardan o‘rnak oladilar va ularga o‘xshashga harakat qiladilar, chunki farzand aytgan nasihatingizni esidan chiqarib yuborishi mumkin, ammo ko‘rganini esidan chiqarmaydi. Oilada farzand tarbiyasining bu jihatini hech qachon esdan chiqarmaslik lozim.

## 2.4. Qaynonaning burch va vazifalari

Kasb taqozosi bilan Respublikamizning turli joylarida bo‘lgan vaqtlarimizda oilalardagi turli mojarolar, ulardan tushgan arz-shikoyatlarning tahlili hamda bir qator oilalarda bu sohada olib borilgan tekshirish va tadqiqotlar hamda boshqa ma’lumotlarning tahlili natijasi quyidagi xulosalarga olib keldi.

Oilaviy mojarolarning kelib chiqishi, ularning alanga olishi yoki bostirilishi; ahil, inoq oila qurish, tinch, osoyishta yashashda oila a'zolarining ta'siri quyidagicha ekan:

– oiladagi biron-bir janjalning kelib chiqishida oila a'zolarining hissaları:

qaynota – 10 %;

qaynona – 40 %;

kuyov (o'g'il) – 15 %;

kelin (qiz) – 35 %;

– oilaning ahil, inoq, tinch, osoyishta, farovon hayot kechirishlari uchun oilani boshqarish va uni iqtisodiy ta'minlashning ahamiyati katta bo'lib, bundagi oila a'zolarining lohtirolki:

qaynota – 43 %;

qaynona – 21 %;

kuyov (o'g'il) – 25 %;

kelin (qiz) – 7 %;

Oilaning osoyishtaligi iqtisodiy ta'minotning rejalanaganliga, tinch-totuv yashash qaynonaning og'ir-bosiqligiga, oqilligiga, dunyoqarashiga juda katta bog'liq. Shuning uchun bo'lg'usi qaynonalarimiz ham quyidaga burch va vazifalarni bilishlari soydadan holi emas deb o'ylaymiz.

### **Qaynona qanday bo'lishi lozim?**

Oila qurish – igna uchida qudiq qazishdek yoki oddiy qo'l bilan qasr qurishdek murakkab. Mustahkam, obro'-e'tiborli oila qurish juda katta fidoyilikni talab qiladi. Oilaning pastu balandiga ko'nib, sabr-qanoat bilan chidaganlargina baxtli oila qurib ketadilar.

Qaynona yaxshi bo'lsa, kelin ham oriyatli, iffatli, odobli bo'lsa, har ikkalasi bir yoqadan bosh chiqarib, bitta maqsad – oila farovonligi va baxti uchun bir-birini tushunib, bir-biriga kechirimli bo'lib, murosa-yu madora qilsa, oila baxtining shoh asosi qurildi desa bo'ladi.

Buning uchun qaynona va kelin, oila a'zolari bir-birlarini ayab, hurmat qilib, shirin muomalada bo'lishsa, yo'l qo'yilgan xatoliklar yotig'i bilan, ehtiyotkorona tushuntirilsa, olam charog'on va guliston bo'ladi. Aksincha, oila a'zolari orasida hummatsizlik, bir-birini kansitish, beandishalik, xudbinlik, kek saqlash, tengsizlik hukm sursa, bunday oilaning olami zimiston bo'ladi. Buni hech qachon yoddan chiqarmaslik kerak.

Qaynona ne-ne orzu-havas, ezgu umid-maqsadlar bilan olgan keliniga suyukli bolamning hayot yo'ldoshi, men kabi bir mushtipar onanining aziz bolasi deb qarashi, yetkazganiga shukur qilishi lozim. Balog'at yoshiga yetguncha boshqa tarbiya, boshqa tartib, boshqa ko'nikmalar bilan katta bo'lgan qiz o'zga xonadonga kelin bo'lib tushganidan keyin bu xonodon egalari talab qilganidek yoki xohlaganidek ishl'yuritolmasligi, ro'zg'or tebratolmasligi, o'zini tutolmasligi tabiiy, aniq va ravshan, bu esa inkor qilib bo'lmas haqiqatdir. Shunday ekan qaynona shu vaziyatdan kelib chiqqan holda sabr-qanoat bilan kelinga yo'l-yo'riq ko'rsatishi, o'z navbatida kelin ham qaynonani hurmat qilishi, ko'nglini qoldirmasligi lozim.

Yangi oilaning baxtli ostonasini yaratishdagi asosiy og'irlik qaynonaga tushadi, undan fidoyi, mehrli bo'lish talab qilinadi. Bu mushkul vazifani uddalay olgan qaynona har qanday tahsin va mukofotlarga sazovordir.

Ayrim qaynonalar kelinga, kelinlar esa qaynonaga mijoz, dunyoqarashi, bilimi, hayot tajribasi, ko'nikmalari nuqtayi nazaridan mos tushmasligi mumkin, bunday hollarda kelinlarga aytadigan gapimiz shuki, siz o'zingiz tanlagan oilaga kelin bo'ldingizmi bas – shu kundan boshlab o'sha yangi oilaning hayot tarzi, ish uslubi, ruhiyati bilan hisoblapping boshqa hayotni orzu qilmang, u sarobdir – sizga nasib qilmaydi va nasib qilganda ham vafo qilmaydi. Qaynonalar ham faqat o'z kelinining yaxshi oila qurib ketishi, baxtli bo'lishi haqida o'ylashlari va bu baxtni ro'yobga chiqarish uchun o'zidagi bor

ijobiy xislatlarni, ko'nikmalarni, tajribalarni ishga solishlari, boshqa ibratli oilalardan o'rnak olishlari, o'qib-o'rganishlari, bu borada tinmay izlanishlari, birovning yaxshi kelinidan foyda yo'qligini har doim esda tutishlari lozim.

Qaynona! Yangi kelin sizdek oila yuritolmasligi tabiiy. Siz bunga nisbatan sabr-qanoatli bo'ling, keliningizdan xato topishga intilmang, uning yumushlariga ko'maklashing, qilgan ishlarini maqtab, uni rag'batlantiring. Yo'l qo'ygan xatolarini og'ir-bosiqlik bilan tushuntiring. Umr bo'yi orttirgan hayot tajribangiz bilan o'zingiz ham ayrim hollarda xato qilishingiz muqarrar ekanligini unutmang! Inson umr bo'yi o'rganadi, uning har bir bosgan qadami yangidir – inson ikki marta dunyoga kelmaydi. Keliningiz esa hali yosh, sizning mehringizga, o'z onasidan endi har doim ham ololmaydigan mehrga zor. U o'zi kelgan yangi oilaning pastu balandini tushunib, bu oilaga ko'nikma hosil qilguncha siz uning mehrini qozonishdek ulkan bir vazifaning uddasidan chiqingki, keliningiz har on, har daqiqa sизsiz o'z hayatini tasavvur qilolmaydigan, sizga har doim sog'inch bilan intiladigan, shu oilani bir umrga o'z oilasi deb biladigan bo'lsin.

Qaynonalarimiz quyidagi burchlarini bekamu ko'st ado etsalar, o'z xonadonini baxtli makonga aylantiradilar;

■ keliningizni o'z bolangizday ko'rib, uni «qizim-bolam» deb uy-ro'zgor ishlarini erinmay o'rgating;

■ er-xotin bir-biringizga samimiyl munosabatda bo'ling. Sizlarning bir-biringizga bo'lgan hurmat-izzatlarining farzandlaringizga, o'g'il-keliningizga o'rnak bo'lsin, ular oldida bir-biringizni obro'sizlantirmang. Sizlarning o'zaro muomala, obro'laringiz ular uchun andazadir;

■ keliningizga o'g'lingizning, o'g'lingizga keliningizning yaxshi jihatlarini topib maqtang. Ikkalasining bir-biriga bo'lgan mehrini oshiring, keliningiz ustidan qo'ni-qo'shniga, boshqalarga aslo shikoyat qilmang. Vaqt(soati kelib, bu

shikoyat keliningizning qulog‘iga kelib yetadi. Natijada oraga sovuqlik tushadi, keliningizning sizdan mehri qochadi, dili darz ketadi. Sekin-asta siz bilan keliningiz orasida jarlik paydo bo‘la boshlaydi;

■ oila a’zolaringiz orasida keliningizning obro‘sini ko‘tarishga harakat qiling. Boshqalarning keliningazga muomalasi sizning keliningizga bo‘lgan muomalangizga qarab bo‘ladi;

■ o‘g‘lingiz keliningiz bilan gap talashib qolsa, keliningizning yonini oling. Chunki o‘g‘il o‘zingizniki – qattiq gapisangiz, tanbeh bersangiz botmaydi. Keliningiz esa yangi nihol, hali dili nozik, ko‘ngli yarimta: bir og‘iz qattiq gap dilini xira; ko‘nglini xijil qiladi, boshlangan arzimas, vaqtinchalik kelishmovchilik hech qachon yaxshilikka olib kelmaydigan janjalga zamin yaratadi;

■ yosh kelin ota-onasini qumsaydi. Keliningizni tez-tez unib-o‘sgan oilasiga yuborib turing, bu keliningizning yangi oilaga bo‘lgan mehrini oshiradi, yangi sharoitga hali ko‘nikmagan kemtik bo‘lgan ko‘nglini to‘ldiradi. Oilangizga ko‘nikib, farzandli bo‘ganidan keyin o‘zi bilan o‘zi bo‘lib, o‘z o‘chog‘idan chiqmay qoladi;

■ keliningiz oldida boshqa kelinlarning husnini, kiyim va taqinchoqlarini, sarpolarini aslo maqtamang. Bu bilan siz keliningizni kamsitgan bo‘lasiz. Keliningizda sizga nisbatan norozilik paydo bo‘ladi, ko‘ngli cho‘kadi;

■ keliningizning qilgan ishidan, tayyorlagan taomidan, yurish-turishidan ayb topavermang. Boshqalar gapirganda ham siz keliningizning yonini oling – aybsiz, bekam - ko‘st, mukammal inson yo‘qdir. Keliningizning yutuqlarini hamma oldida maqtang, kamchiliklarini esa hammaning oldida ro‘kach qilmang, ularni o‘zingizga oling; adasi, bugun ovqatni keliningizdek shirin, mazali pishirolmadim-da, uzr, deb qo‘ying. Bu bilan keliningizning sizga mehri ortadi va yo‘l qo‘ygan

kamchiliklarini tuzatishga harakat qiladi. Agar keliningazda bunday harakat bo'lmasa, uning bu xatosini o'ziga hech kim yo'g'ida yotig'i bilan malol kelmaydigan qilib, shirin so'zlar bilan samimiy tushuntiring;

■ turmush yo'ldoshingiz o'z kelinini maqtaса, buni siz boshqa narsaga yo'yib yurmang, bundan xursand bo'ling. Odatda, qaynotalar qaynonalarga nisbatan kelinlariga ko'proq mehribon bo'ladilar va ko'proq himoya qiladilar. Bu qaynotaning, har qanday erkakning oilada tutgan o'rni bilan izohlanadigan tabiiy holdir;

■ hech qachon kelinim yomon chiqdi, boshqa kelin olaman, deb o'ylamang. Xalqimizning «Bir nonning yuzi bilan pishirsin», «Ko'z ochib ko'rganim – ko'z qorachig'im, keyin ko'rganim – loy-balchig'im» kabi maqollarini unutmang. Buning o'rниga o'g'il va keliningizning bir-biriga bo'lgan mehrini oshirishga, yangi oilani mustahkamlashga harakat qiling, kattalar yoshlар uchun ko'prikdir.

Qo'shnimiz kelin tushirdi. Endi hamma ishlarni kelin qilsin, deb tashlab qo'ymadi. U bilan bирgalikda saharlab turib kelin hovli supursa, qaynona nonushta tayyorladi. O'g'il-qizi, kelinlarini o'z yumushlariga jo'natib, uyni saranjomladi. Kelinining yumushdan kelib, ovqat tayyorlashini kutib o'tirmasdan, u ham birovning aziz farzandi, o'zi horib keladi, deb ovqatni imkonи boricha o'zi pishirdi. Uy yumushlarini buni kelin qilish kerak, buni men qilishim kerak, deb ajratmadи. Kelinining yoniga tushib uni ham yetakladi, ham o'rgatdi. Natijada kelin hamma yumushlarda mahallaga o'rnak bo'ldi, yangi oila oyoqqa turdi, mustahkamlandi. Qaynona esa o'z xizmatidan mammun bo'ldi, rohat topdi, qo'ni-qo'shnilar orasida obro' orttirdi.

Qaynona kelin va qizlarini teng ko'rib, «tur qizim, kelinoying uni qildi, sen buni qilgin, ertaga sen ham kelin bo'lasan, deb kelinga nisbatan hurmat hissini uyg'otish lozim» O'g'illarini

ham kelinga har ishida yordam berishlariga o'rgatib borish kerak.

Aksincha, agar qaynona o'g'il va qizlariga qo'yaver kelin bo'lgandan keyin qiladi-da, deb ularni boqimandalikka, tayyorga ayyorlikka o'rgatsa, bunday tarbiyaviy «meros» shu o'g'il-qizlarning o'zining baxtini bog'laydi. Uzukun supir-sidir, kir yuvish, ovqat tayyorlash, yig'ishtirish, bolali bo'lgandan keyin esa chaqaloqqa qarash kabi yumushlar bilan band bo'lgan kelin vaqtida ovqatlanolmaydi, holdan toyadi, sog'ligini yo'qotadi, oila besaranjom bo'ladi, baraka ketadi, oiladagi baxtni tundlik, qo'pollik, o'zaro humatsizlik, bemehrlik, hayotdan bezish, ruhiy xastalik va boshqa bir qator noxushliklar egallaydi. Bu holatdan esa baxtsizlikkacha bo'lgan yo'l bir qadamdir. Boy berilgan imkoniyatni qayta yaratish esa boshidan to'g'ri tarbiyani yo'lga qo'yishdan ko'ra hiyla murakkabdir.

## **2.5. Oila tejamkorligi – mustahkam, farovon oila qurish garovi**

Ro'zg'orga maosh, oila jamg'armasini reja va tejamkorlik bilan hisob-kitob qilib ishlatilsa, oila yuritish tartibga tusha boshlaydi. «Hisobini bilmagan hamyonidan ayrilur», – deydi xalqimiz. Ha, oila jamg'armasini aql bilan hisob-kitob qilib ishlatmasangiz, biringiz ikki bo'lishi qiyin. Qayerda hamma narsa tejab-tergab ishlatilsa, topilgan pul tejamkorlik bilan sarflansa, unday joyda «moliyaviy inqirozlar» sodir bo'lmaydi.

Hozir ko'pincha ota-onalar bolalariga qimmatbaho mebellar hatto mashinalar sovg'a qiladilar uy qurib beradilar. Lekin oilaning moliyaviy ahvolini qanday yaxshilash, qanday ro'zg'or tebratish, maoshni qanday tasarruf etishni yetarli darajada o'rgatmaydilar. Shuning uchun yoshlar ko'pincha hayron bo'ladilar: «Dadamlarning bir o'zlarining maoshlari oilamizni boqishga yetar edi, men esa dadamdan uch baravar ko'p maosh

olsam ham oilamga yetmaydi», Xo'sh, bu haqda hech o'ylab ko'rganmisiz? Nima uchun bunday?

Oilaga kelayotgan daromadni rejali sarflash muhim ahamiyatga ega. Peshona teri to'kib topilgan sarmoyani har birimiz to'g'ri sarflayapmizmi? Pulni tejab-tergab ishlatish, jamg'arish teran aql va fahm-farosatni talab qiladi.

Ro'zg'or rejasiz olib boriladigan xonadonlarda maosh olingan kuni bayram. O'sha kuni bolalariga qimmatbaho o'yinchoqlar xarid qiladilar, katta-katta sarf-xarajatlar qiladilar, xuda-behuda turli yig'inlar, chaqiriqlar qiladilar. Uy bekasi o'ziga oxirgi moda qimmatbaho kiyim-kechak, oyoq-bosh kiyim, atir-upa tilla taqinchoqlar oladilar. Qarabsizki, maosh, uncha-muncha jamg'arma ham keyingi oylikka yetmasdan tugab turibdi.

Tejamkorlik juda keng tushuncha bo'lib, uni pul tejamkorligi kiyim-kechak tejamkorligi, oyoq-bosh kiyim tejamkorliga, oziq-ovqat mahsulotlari tejamkorligi kabi bir qancha jabhalarga bo'lish mumkinki, ularning har birining o'ziga xos jihatlari mavjud. Tejamkorlikka olib keluvchi muhim jihatlardan biri asrab-avaylashlikdir. Uy-ro'zgor buyumlari idish-tovoqlar, ko'rpa-yostiqlar, mebellar, uy-ro'zg'or asboblarini asrab-avaylab ishlatish pirovard natijada oila iqtisodining umumiyligi tejamkorligiga olib keladi. Oiladagi tejamkorlik birinchidan, daromadning barakali bo'lishiga, ikkinchidan, ortiqcha xarajatlarning kamayishiga, uchinchidan, zarur bo'lgan yangi xarajatlarga, xaridlarga imkon yaratadi. Natijada oilanining umumiyligi osoyishtaligi ta'minlanadi, moddiy va ma'naviy saviyasi, nufuzi ortadi.

Shu narsani ta'kidlash lozimki, tejamkorlik, ko'pchilik o'ylaganidek va tushunganidek, faqat nochor yoki o'rta hol oilalarga xos bo'lishi lozim bo'lgan xislat emas. Davlatingiz, boyligingiz qanchalik bisyor bo'lgani bilan uni tejab-tergab sarflamasangiz, bir kuni kelib xor-zor bo'lishingiz, o'z paytida

botmonlab sarflagan narsangizning bir misqoliga ham muhtoj bo‘lib qolishingiz hech gap emas. «Yotib yeganga tog‘ ham chidamas», deydi xalqimiz. Shunday ekan, doimo borini asrab-avaylash tejab-tergab sarflash, yo‘g‘ini tejamkorlik bilan bor qilib yashash hayot madaniyatining muhim bir bo‘lagidir.

Qanday tejash, nimada tejash masalasini hal qilish uchun oila daromadi va buromadining hisobini olib borish, ularni tahlil qilib turish lozim. Ro‘zg‘orga bir oyga nimaga qancha sarf qilindi? Keyingi oygachi? Farqi qancha? Qaysi oyga ko‘proq xarajat qilingan, nega? Bularning hammasini aniqlab, sarhisob qilib, umumiyl xulosa asosida keyingi oyning rejasini tuzib olish lozim. Shu tarzda oila budgeti mukammallahib, izga tushib boradi. Madaniy, rejali oila tebratish, hayot kechirish tamoyillari shakllanib boradi, ro‘zg‘orga baraka kiradi, umr mazmuni boyib boradi.

Kiyim-kechaklarni, oyoq kiyimlarni asrab-avaylab kiyish, ularning qaysi birini qayerga, qachon, qanday kiyish umumiyl tejamkorlikka olib keluvchi madaniy xislatlardan biridir. Qayerga, nima va qanday kiyinishingiz sizning umumiyl ichki nafosatingizdan dalolat beradi. To‘yga xos kiyinish, o‘zni tutash lozim bo‘lganidek, azaga, ko‘chaga, uyga, dam olishga, ishlashga ham shu narsalar xosdir. Bu yerda maqsadga muvofiqlik tamoyiliga amal qilish katta rol o‘ynaydi. To‘ylarga, tug‘ilgan kunlarga, umuman xursandchilik yig‘inlariga kiyadigan kiyimlaringiz, masalan, zarli yoki qimmatbaho bo‘lishi, taqinchoqlar taqishingiz mumkin. Lekin bunday asnoda ishga borib bo‘lmaydi. Xizmatchi bo‘lsangiz, bu bilan kasbdoshlaringiz, xodimlaringiz orasida hasad, adovat, kibr-havolik, meshchanlik, mensinmaslik vaziyatini vujudga keltirasiz, o‘zingizga nisbatan hurmatsizlik munosabatini qaror toptirasiz. Tarbiyachi bo‘lsangiz esa sizning bunday kiyinish madaniyatning umuman kasbiy burchlaringiz bilan bir qolipga sig‘maydi. Agar bevosita ishlab chiqarish sohasida ishlasangaz

bu haqda gapirib o'tirishning ham hojati yo'q.

Uy-ro'zg'or asboblarini ishlatishning ham o'ziga xos tamoyillari mavjud. Kundalik ro'zg'orga, mehmonga, alohida tantanali kunlarga ishlatiladigan asboblar boshqa-boshqa bo'lgani ma'qul. Shuningdek, har bir ne'mat, masalan, choy, shirinliklar, tuz-namaklar (tuz, qalampir, murch, rayhon, gorchitsa, zira, tomat va h.k.) va boshqalar uchun utiladigan asboblarning alohida-alohida va but bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ular ishlatilib bo'lgandan keyin yaxshilab yuvilib, artilib, yana joy-joyiga avaylab qo'yilishi kerak.

Har bir oilada ko'rpa-to'shak, choyshab-yostiq, gilam-polas, yumshoq mebellar, stol-stul, oyna-javon, devor-javon, idish-javon kabi qattiq mebellarning bo'lishi tabiiy. Ularning qay darajadaligi, qanday joylashtirilganligi, tozaligi, qanday ishlatilishiga qarab shu oilaning turmush madaniyatiga baho berish mumkin. Shunday ekan, turmushda bu masalalarga jiddiy ahamiyat berish lozim. Tutiladigan o'rin-ko'rpalarning choyshabga kiydirilgan bo'lishi va ularning toza bo'lishi, kam tutiladiganlarining tez-tez yoyilib, shamollatib turilishi, gilam-palaslarni tez-tez changyutgich bilan tozalab, kimyoviy usulda yoki uy sharoitida yuvib turilishi, mavsumga qarab ularni ishlatish va saqlash masalalariga katta ahamiyat berib turilishi lozim. Qattiq mebellarni ham vaqtি-vaqtি bilan yuvib-artib turish buzilgan eshik, oshiq-moshiqlarini, ko'chgan, qirilgan joylarini o'z vaqtida ta'mirlab turish kerak bo'ladi.

Har bir narsada me'yor bo'lganidek tejamkorlik masalasida ham muayyan qolipdan, chegaradan chiqmaslik lozim. Tejamkorlik xasislik amaliga aylanib ketmasligi kerak. Organizm uchun yetarli bo'lgan darajada oziqlanmasdan, tananing zaiflanishi hisobiga mol-dunyo yig'ish, oila a'zolarining, farzandlarning yotib-turishlari, rivojlanishlari, bilim olishlari uchun sharoit yaratmasdan iqtisod qilish hisobiga boylik orttirish borib turgan xasislikdir. Shuningdek, mavjud

boylikni nokerak, me'yoridan ortiq maraka, to'y-hashamlarga, kiyim-kechaklarga qo'sh-qo'sh imoratu, chet el mashinalariga sarflash meshchanlik, o'zni ko'rsatish, dabdababozlik, o'zni o'zgadan ustun qo'yish, xudbinlikdir. Qolaversa, madaniy saviyaning yetishmasligi, nodonlikdan dalolatdir.

## 2.6. Farzandlar orasida meros taqsimoti masalalari

Bir oila farzandlari orasidagi ko'pgina kelishmovchiliklar ota-oni merosini bo'lishi negizida yuzaga keladi. Meros taqsimoti oldida ko'ndalang bo'lib turgan ota-onalar va bo'lajak ota-onalarning mazkur masalada o'z mustaqil bilimlariga ega bo'lishlari har bir oilaning adolat tarozisi asosida yo'l tutishlari, oilaning mustahkam bo'lishining omillaridan biridir.

Ota-onalarning hayot paytlarida ularga tegishli bo'lgan mol-mulkning farzandlar orasida taqsim qilinmaganligi ko'pgina fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin. Hayotdan bunday misollarni afsuski, anchagina keltirish mumkin.

O'g'il otasidan qolgan «Gaz-24» yengil mashinaning kalitini onasidan 2-3 bor so'raydi. Ona o'g'lining bejo yurish-turishidan, yengil, havoyi hayotga berilganligidan xavotirlanib, «mehnat qilib, o'zing pul topib, mashina ol», – deydi va kalitni o'g'liga bermaydi. Bir necha bor qilgan murojaatlari, do'q-pupisalari zoye ketgan badbaxt o'g'il maqsadiga erishish uchun oxiri o'z onasining qotiliga aylanadi. Mol-mulki bisyor bo'lgan ota har gal o'g'li pul so'raganda, uning xohishini oz-ozdan qondirib turar edi. Otasining boyligiga birdaniga ega bo'lish istagida yurgan nodon o'g'il undan qutilish payiga tushadi. Bir kuni u yollagan odam otasining joniga qasd qilayotganining ustiga onasi kelib qoladi. Uning ham umriga zavol bo'lishadi. Voqeanning ustiga kelib qolishgan ikki singlisi ham shu zaylda hayotdan ko'z yumishadi.

Bu mudhish oqibatlarni ko'rib, eshitib, uning sodir bo'lishi

mumkinligiga aql bovar qilmaydi. Lekin bu bor haqiqat. Albatta mazkur achinarli voqeliklarning orqasida eng avvalo, ma'naviyatning naqadar tubanligi yotsa, ikkinchidan meros masalasining uzil-kesil hal qilinmaganligi yotadi. Shuning uchun har bir ota-onan qo'shimcha qanotiga kirib, oilani iqtisodiy ta'minlashga yordam bermog'i lozim. Shuning uchun har bir ota-onan qo'shimcha qanotiga kirib, oilani iqtisodiy ta'minlashga yordam bermog'i lozim. Shuning uchun har bir ota-onan qo'shimcha qanotiga kirib, oilani iqtisodiy ta'minlashga yordam bermog'i lozim. Shuning uchun har bir ota-onan qo'shimcha qanotiga kirib, oilani iqtisodiy ta'minlashga yordam bermog'i lozim.

Farzand 14 yoshga to'lganidan keyin, agar u o'g'il bo'lsa, o'zini- o'zi ta'minlashga harakat qilishi, ota-onaga qaram bo'lmasligi va aksincha, ularning qanotiga kirib, oilani iqtisodiy ta'minlashga yordam bermog'i lozim. Bu narsa respublikamizning qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan. Ikkinchidan, farzand aqli va insofli bo'lsa, u ota-onaning mol-mulkini ko'paytirib, tejab-tergab ishlataladi.

Ota-onannig mulkiga bo'lgan vorislik qonun hujjatlarida quyidagicha belgilangan. Ota-onaning mulki birinchi navbatda uning farzandlariga teng hissalarda taqsimlanadi. Agar turmushga chiqqan qizi bo'lsa, u yoki uning eri nogiron bo'lgan hollarda, unga ham meros ajratiladi. Agar ota-onaning farzandlari bo'lmasa, ularning mol-mulki tog'a, jiyan va ulardan keyingi qarindoshlarga meros qilib beriladi. Ota-onani boqish, parvarish qilishdan bosh tortgan, ularni xo'rلانган farzandlar qonun asosida vorislik huquqidан mahrum etilishlari mumkin.

Ota-onan o'z mulkini vasiyat orqali istalgan boshqa bir shaxslarga ham qoldirishi mumkin. Mol-mulkni kimga vasiyat qilish ota-onaning o'z xohishidir.

## **2.7. Farzand tarbiyasida oila, mакtab va jamoatchilik hamkorligi**

Farzand tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilikning faoliyati bir maqsadga qaratilgan bir-biriga mutanosib birlashtirilishi mumkin. Farzand tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilikning faoliyati bir maqsadga qaratilgan bir-biriga mutanosib birlashtirilishi mumkin.

qolganlarini to‘ldirmog‘i, o‘zaro hamkorlikda bo‘lmog‘i lozim. Shundagina bu faoliyat bir butun holda kutilgan natijalarni beradi.

Ota-onada farzandiga ilm olishning zarurligi, ilm tufayli inson kamolot cho‘qqisiga erisha borishini uqdirib borishi lozim. Har qanday sohaning kaliti ilm, aql va mehnatda. Agar inson tirishqoqlik bilan mehnati qilib ilm olsa, uni amaliyotda qo‘llay olsa, fikrlab tafakkurini charxlab borsa, u albatta maqsadiga erishadi, Shunday ekan ota-onalarimiz bolalarining o‘qishlariga, ilm bilan shug‘ullanishiga imkoniyat va oilaviy muhit yaratib berishi lozim.

Maktabdagisi odobi, ilm o‘rganishga ishtiyogi, uning qiziqishlaridan xabardor bo‘lishi kerak. Do‘stlari kim, kimning farzandlari bilan o‘ynayapti? Yaxshi bolalarmi ular?

Farzandingizning vazifa bajarishida biror fandan yordam bera olsangiz, beg‘araz, siltamasdan tushuntiring, aks holda bola keyingi gal sizdan hech narsa so‘ramay qo‘yadi, dars qilgisi kelmaydi.

Bolangiz, agar o‘qituvchisining ustidan kulta yoki uni mensimay tilga olsa, siz ham unga qo‘silib hech qachon o‘qituvchisining kamchiligini qidirmang. Chunki farzandingiz ertaga u o‘qituvchini nazar-pisand qilmaydigan va uning faniga qiziqmaydigan bo‘lib qoladi.

Har kuni kechqurun, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda farzandingizning dars qilishini kuzatib, surishtirib borish va unga ko‘maklashish zarur. Har kuni dars qilishga ko‘nikkan bola keyinchalik nazoratni susaytiribroq qolganingizda ham o‘zi dars qilishga odatlanib qoladi. Yuqori sinflarda ham hafta ichida vaqt topib, so‘rab-surishtirib tursangiz bolangiz sizning qachon nazorat qilib qolishingizni bilmaganligi uchun darsga har kuni tayyor bo‘ladi va bora-bora har kuni o‘z vaqtida dars qiladigan bo‘ladi.

Agar ota-onada farzandiga porloq kelajaging faqat bilim

olishingda, tijorat bilan shug‘ullanasanmi, muhandis bo‘lasanmi, olim bo‘lasanmi, shifokor yoki konstruktor bo‘lasanmi, bironbir firmani boshqarasanmi – hammasi uchun bilim kerak, tafakkur kerak, aql-idrok kerak deb tushuntirsa, bola ilm olishga tirishadigan, o‘zi uchun o‘zi harakat qiladigan bo‘ladi. Agar bola yengil-yelpi chuqur bilimga asoslanmagan yo‘llar bilan pul topishga o‘rgansa, bolaning ilm olishdan ko‘ngli soviydi, hayotga yengil qaraydigan, qiyinchiliklarga chidamsiz, hayotning murakkab sinovlariga bardosh bera olmaydigan, dangasa, kelajakda oila boshqara olmaydigan, tekinxo‘r bo‘lib o‘sadi.

Agar bolangizga amallab mактабни bitirib attestat olsang, o‘qishga kiritish mening bo‘ynimda desangiz, u hech qachon dars qilmaydigan, dangasa, yaxshi o‘qiydigan o‘rtoqlarini mensinmaydigan, kibru havoga beriladigan, do‘stlarining ustidan kuladigan odatlarni chiqara boshlaydi. Siz amallab o‘qishga kiritgan taqdiringizda ham u bola o‘qimaydi, mehnat qilmay osonlikcha pul topadi. Endi uning mehnat qilishga bo‘yni yor bermaydi. Amallab o‘qishni bitirib olishni o‘laydi. Diplom olsam, ota-onam yaxshi ishga joylashtirib qo‘ysa, ishlab ketaveraman deb o‘laydi. Bolangiz o‘sha ishga joylashgandan keyingina faqat bilim orqali ko‘p narsaning uddasidan chiqish mumkin ekanligi, har qanday hayotiy inqirozdan chiqib ketishning yo‘li faqat bilim orqali ekanligini tushunib yetadi. Lekin endi kech bo‘ladi. Qilingan xatoni tuzatish uchun, agar u mumkin bo‘lsa, endi yana qanchadan-qancha mehnat qilishga, o‘tkazilgan vaqt dan ham ko‘ra ko‘proq vaqt sarf qilishga to‘g‘ri keladi. Farzand ota-ona bergen noto‘g‘ri tarbiyaning qurboni bo‘ladi.

Farzand tarbiyasi bir qarashda juda jo‘n mashg‘ulotday tuyuladi. Lekin farzand, inson tarbiyasidek murakkab ish yo‘q. Tarbiya jarayonining murakkabligi va o‘ziga xosligi shundan iboratki, uning natijasi, hosili darrov namoyon bo‘lmay, yillar

o‘tishi bilan sekin-asta ro‘yobga chiqa boshlaydi, ma’qul tarbiya bergen bo‘lsangiz, uning yaxshi, shirin, serhosil mevalaridan bahramand bo‘lib, qariganda hayotingiz rohat-farog‘atda o‘tadi, yomon tarbiya bergen bo‘lsangiz, achchiq, bemaza mevalarni totib, hayotingizdan norizo bo‘lib, bu dunyodan armonda ketasiz.

## 2.8. Ijobiy o‘rnak – farzand tarbiyasining muhim omili

Xalqimiz: «Ota-oná – andaza» yoki «Onasini ko‘r-u, qizini ol», «Molini ko‘r-u, bo‘zini ol», – deb bejiz aytishmagan. Agar ota-oná o‘zi yaxshi tarbiyalangan bo‘lsa, ularning har bir harakati bolalar uchun ko‘rgazmali qurol bo‘ladi.

Agar ona har kuni otani ochiq chehra bilan ishga kuzatib qo‘ysa, ishdan qaytganda esa qanday ish bilan band bo‘lishidan qat‘i nazar ishini bir daqiqaga to‘xtatib; adajonisi yaxshi keldingizmi, charchamadingizmi, – deb qo‘llaridagi narsalarni, ustki kiyimlarini olib, joyiga qo‘yib, tamaddi hozirligini ko‘rsa, kayfiyatiga qarab muomalasini joyiga qo‘ysa, ota ham onaga shunday mehr-e’tibor bilan muomalada bo‘ladi.

Agar xonadonda ayol hokimlikni davo qilsa, adang undoq, adang mundoq deb, bolalar oldida otani yomonlayversa, oilada otaning obro‘sí qolmaydi, farzandlar unga qulqoq osmay qo‘yishadi. Natijada farzandlarning tarbiyasi darz ketadi. Bunday oilada tarbiyalangan qiz ham tushgan joyida hokimalik qilgisi keladi; qush uyasida ko‘rganini qiladi.

Ota sigaret cheksa-yu bolasiga: papiros chekma, uning foydasi yo‘q – sog‘ligingga zarar – desa, o‘zi yolg‘onchi bo‘lsa-yu, bolalariga yolg‘on gapirma, desa, o‘zi noma’qul ishlarni qilsa-yu, bolasiga ularni taqiqlasa. Bunday oilada shunga o‘xshash og‘zaki tarbiyaning samarasi bo‘lmaydi: farzand yoki taqlid qilib, yoki qiziqib, ota qiladigan, lekin taqiqlaydigan odatlariga, qiliqlariga, turmush tarziga o‘rganadi. Maktabda o‘qituvchi o‘zi kalta yubka

kiysa, yelkasiga tushadigan uzun zirak taqib, ko'k, qizil bo'yoqlarni didsiz, me'yoridan ortiq chaplab olsa-yu, o'quvchilarga did bilan kiyinish, zeb-ziynatga berilmaslik, haddan ziyod bo'yanmaslik haqida va'z qilsa. Tarbiya amali bilan go'zal. O'qituvchining o'zi sipo, ozoda, o'ziga yarashgan kiyimlarni kiysa, me'yorida bezansa, shundagina uning bu ma'naviy qonun-qoidalarni o'quvchilardan ham talab qilishga, ularni bu ko'nikmalarga da'vat qilishga haqqi bor. O'z kasbining mohiri, muomalasi kiyinishi, yurish-turishi go'zal bo'lgan bunday o'qituvchi tarbiyalagan o'quvchi hech qachon kam bo'lmaydi.

Ustozlar ham ota-onalar ham o'z yurish-turishlari, muomalalari, ota-onaga, boshqalarga bo'lgan izzat-hurmatlari, mehmon kutish fazilatlari bilan o'rnak bo'lsalar – shuning o'zi katta bir mактабdir.

Demak, bugungi mustaqil jamiyatimiz talab-ehtiyojlariga monand farzand tarbiyalash omillaridan biri oilada va mактабda ota-onalarning va tarbiyachilarning ijobiy o'rnak bo'lishdir.

## **2.9. Ota-onaning farzand tarbiyasida bamaslahat ish tutishi va bir xil ta'sir ko'rsatishi**

Farzand tarbiyasida ota-onaning bir yoqadan bosh chiqarishi, ularning bu borada hamjihat bo'lishlari katta ahamiyatga egadir. Ota-onalar iloji boricha farzandlari mактабni tugatib, biron-bir kasb-hunar yoki oliv o'quv yurtiga o'qishga kirgunga, mustaqil hayotga qadam qo'yunga qadar ularning har bir xatti-harakatini ko'zdan qochirmay, ko'proq surishtirib, qiziqib turmoqlari talab qilinadi. Bunda tarbiyaviy o'gitlar, nasihatlar o'ta noziklik bilan bolaning shaxsiyatiga, nafsoniyatiga tegmaydigan tarzda olib borilmog'i lozim. Yoshligidan tarbiyasiga, qiladigan har bir ishiga ota-onasining befarq qaramaganini sezgan farzand astasekin ularga moyillik bilan qaraydigan, aytganlarini qiladigan bo'lib boradi.

Mahallalarda olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, farzandlar tarbiyasiga bo'lgan e'tibor qanchalik katta bo'lsa, uning hosilasi shunchalik ko'p bo'ladi. Farzandlarning 80–90 % tarbiyasi ayollar tarbiyasi bilan belgilanadi. Ayollarimizning ilmli, oqila, fidoyi, bolajon, hayotni kuzatuvchan bo'lishlari yaxshi farzand tarbiyalashning asosidir,

Nima sababdan ota-onaning tarbiya maqsadi, tarbiya birligi talab qilinadi? Aytaylik o'g'lingiz yoki qizingiz biror bir do'sti yoki dugonasining uyida yotib qolish uchun onasidan ruxsat so'radi. O'shanda ona: mayli, men qarshi emasman, lekin dadangdan ham so'ra, balki ular senga biron-bir ish mo'ljallab qo'ygandir, ruxsat bersa boraverasan, deyishi lozim. Aksincha, farzand agar birinchi bo'lib otadan ruxsat so'ragan bo'lsa, ota onangdan ham ruxsat olgin, deyishi kerak. Aksincha, hollarda farzandga ruxsat berish ota yoki onadan birining iznida bo'lsa, farzand ikkinchi tomonni mensimaydigan, ota va onaga ikki xil gapiradigan bo'lib qoladi. Demak, bunday oilada farzand ikki yuzlamachi bo'lib tarbiyalanib qoladi. Agar biron-bir joyga borishga ota-onadan biri ruxsat bermasa, ikkinchi tomon ham ruxsat bermasligi kerak. Bahsli hollarda esa bu masala muhokama qilinishi kerak.

Aytaylik, ota ishga ketishdan oldin farzandlariga ish buyurib ketdi. Ishdan qaytgach surishtirsa, buyurilgan ish bajarilmagan. Bu holat oldin ham bir necha bor qaytarilgan. Bundan jahli chiqqan ota farzandini koyisa yoki qattiqroq chora ko'rsa, ona oraga tushib farzandining yonini olishi kerak emas. Aksincha, otaning bekorga jahli chiqmayotganligini, farzandining noto'g'ri ish tutganini unga tushuntirishi kerak. Ona farzandlarini tartibga chaqirib koyiganda esa ota aralashmasligi kerak. Aks holda tarbiya buziladi.

Ota yoki ona farzandini noto'g'ri koyisa ham ikkinchi tomon bunga aralashmasligi, faqat bola yo'q paytdagina bu haqda bafurja gaplashishlari mumkin. Farzandiga esa nima uchun

dakki yeganligini yotig'i bilan tushuntirish, qanday yo'l tutganda to'g'ri bo'lishni aytishi lozim. Aks holda bola o'zini noto'g'ri jazolangan his qiladi va natijada uning ota-onadan ko'ngli soviy boshlaydi. Qo'rs, ichimdagini top deydigan, indamas bo'lib qoladi.

Jamshid dars qilib o'tirgan edi. Shohruh mashinasini olib kelib, uning oyog'i ostida «vang-vang»lab o'ynay boshladidi. Jamshid Shohruhgaga: Bor narigi uyda o'yna, menga xalaqit berayapsan, – deb ikki-uch bor iltimos qildi. Lekin Shohruh qulqoq solmadi. Bundan jahli chiqqan Jamshid Shohruhning mashinasini olib, narigi uyg'a qarab otdi. Shohruh dodlab, ota-onasidan himoya izlab ketdi. Agar bunda ota yoki ona katta o'g'lini urishib, ayblaydigan bo'lsa, katta o'g'il nohaq jazo olganligidan ranjiydi va unda ota-onasiga bo'lga mehr so'na boshlaydi, ularga nisbatan begonalik rivojiana boradi. Agarda ota yoki ona bu janjalning tub sababini bilib, aybning kichik o'g'ilda ekanligini aniqlaganida va kichik o'g'ilni akang to'g'ri ish qilibdi, nega akangning gapiga kirmading, haliyam seni ayabdi, men bo'lqanimda seni urar edim, endi bunday qilmagin, deb tanbeh bergenida edi, birinchidan, katta o'g'il endi o'zining katta bo'lib qolganini his qilgan, ukalarining oldida akalik obro'si borligini tushungan, o'zini to'g'ri tutish, yolg'on gapirmaslik lozimligini anglagan, oilada unga orqa qiladigan ukalari, singillari borligi bilan mag'rurlangan bo'lar edi. Aksincha, katta o'g'lingiz haq bo'lsa ham kichiginining tomonini olsangiz, ko'chadan biror narsa olib kelsangiz ham kichkinaga bersangiz, bir yilda kichkinanining ustini ikki-uch bor yangilasangiz-u kattaning yirtiq tuflisini ko'rmasangiz, farzandlar orasida hasadgo'ylik, mehsizlik paydo bo'la boshlaydi. Ular bir-biriga yordamlashmaydigan, faqat o'zini o'ylaydigan bolalar bo'ladilar. Natijada noahil, bir yoqadan bosh chiqarib ish ko'rmaydigan, bebosh bolalar bo'lib qoladi'ar.

Bozordan yegulik biror narsa xarid qilib kelsangiz, uni har

doim oila a'zolari orasida teng bo'ling. Agar oila a'zolarining birortasi bo'lmasa, unga ilinib, tegishlisini olib qo'ying. Bolalaringizning biri qiynganda boshqalarining unga yordam berishga o'rgating. Shunda ular keyin ham bir-birlariga yordam beradigan, bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan bo'ladilar, ota-onaning shu tarzda farzand tarbiyasida bamaslahat ish ko'rishlari, bir xil ta'sir ko'rsatishlari komil farzand tarbiyalashning asoslaridan biridir.

Quyidagi tarbiyaviy masalalar yechimini o'ylab ko'ring.

**1-masala.** Aka o'g'liga o'yinchoq mashina olib kelib berdi. O'g'li ko'chaga chiqib mashinasini ukaning o'g'li bilan o'ynay boshladi. Birozdan so'ng ular mashinaga talashib qolishdi. Ularning janjalini kuzatib turgan katta ovsin bu mojaroni qanday hal qilishi kerak?

**2-masala.** Otalarining qazo qilganiga ancha bo'lgan aka-ukalar onalarining yilini o'tkazishgandan keyin hovliga talashib, janjallahib qolishdi. Akada uch farzand bo'lib, kamxarj, ukaning esa bir qizi bo'lib, tadbirkorlik bilan shug'ullanar, o'ziga to'q edi.

Ovsinlar har kuni hovli mojarosini qilib, bir-birini haqoratlar, bu janjallar ba'zan yulishishgacha borib yetar edi. Aka har doim o'g'il farzandi borligini, qo'li kaltaligini, ko'chib chiqib ketish imkoniyati yo'qligini tushuntirar, ukasiga; sening uy olib chiqib ketishga qurbing yetadi uyni bizga qoldir yoki bizga uy olishimizga yordamlash, deb har kuni iltijo qilar edi. Uka esa: hovli menga qolishi kerak, chunki men kichik o'g'ilman, chiqib ketish kattaning yo'li deb turib olar edi. Har kuni janjal joniga tekkan aka boshqa chora topa olmay, bir kuni joniga qasd qilgan vaqtida, uni zo'r-bazo'r qutqazib qolishdi.

Masalani oilaviy tahlil qiling.

## **2.10. Ota-onalarning bolalar oldida obro'sini qachon bir-birlarini obro'sizlantirmasliklari haqida**

Ota-onalarning bolalar oldida obro'lari bo'lmasligining sabablaridan biri ota yoki onaning bu borada yetarli bilimga ega bo'lmasliklari. Bugungi kunda tijorat bilan shug'ullanayotgan ayollarimiz oilani iqtisodiy ta'minlashda erkaklarga nisbatan ko'proq hissa qo'shayotganliklari uchun biroz bosar-tutarlarini bilmay qolmoqdalar. Bolalari oldida otalarinng obro'sini to'kib, unga bo'lgan mehrning, obro'ning susayishiga olib kelayapti. «Otang erkakmi, erkakman deb yuribdi-da. Na ro'zg'orni ta'minlaydi, na kiyim usti-boshlaringni. Ko'chaga chiqsam erkakman, uyga kirsam ayol. Bunaqa erkakning boridan yo'g'i» kabi so'zlar bilan haqoratlaydilar. Bu holat har kuni takrorlanganidan bolalarning otasiga bo'lgan mehri sekin-asta soviy boshlaydi.

Ota ham bolalar oldida o'z ayolini hurmat qilmay, har qanaqangi laqablar qo'yib obro'sini to'ksa, buning oqibati yomon bo'ladi. Ba'zi oilalarda quyidagi munosabatlarni kuzatish mumkin: Ha, Nina Zaxarovna, egov, lampa shisha, ovqating haliyam pishmadimi? Olib kelmaysanmi? Tur o'rmingdan, yalpayib yotaverasanmi? Bunday muomalani ko'rgan bola onasini hurmat qilmaydi. Onasini mensimaydi. Uning aytganini qilmaydi. Otaning onaga qo'ygan laqabini qaytaradigan odat chiqaradi.

Otaning onani mensimasdan takabburlik bilan qilgan muomalasi bolaga ham ta'sir qiladi. Natijada bola ham onani mensimay qo'yadi. Aksincha, ota bolalarining onasini hurmat qilsa, har bir harakatini qo'llab-quvvatlasa, bunday holatlar bolalarga ijobiy ta'sir qilib, ular ham onalarini hurmat qiladi.

Xuddi shuningdek, ayol ham erini hurmat qilsa, «Assalomu alaykum, adajonisi, yaxshi keldingizmi?» deb qo'llaridagi

narsalarini olib kiyimlarini yechishga ko'maklashsa, ishga ketayotganlarida yaxshi borib keling deb mehr bilan kuzatib qolsa, buni ko'rgan qiz borgan joyida shu ishni takrorlaydi. O'g'il esa ota-onaga nisbatan hurmatli bo'lish kerakligini tushunib boradi.

Ana shunday muhit yaratilgan xonadonda tarbiyalangan bolalar erkin va quvnoq o'sadilar. \*

Kuzatgan xonadonlarimizning 8% savdo bilan shug'ullanadigan bo'lib, ularning ayrimlarida ayollar oilada hokim bo'lishga ulgurishgan. Toshkent shahrining Shayxontohur tumanida istiqomat qiluvchi N. ismli hamda «Aloqa» ko'chasida istiqomat qiluvchi X. ismli, Forobiy ko'chasida istiqomat qiluvchi S. ismli, Chimboy ko'chasida istiqomat qiluvchi K. ismli ayollarning o'z oilalalarida aytganlari-aytgan, deganlari-degan. Ular shaharlararo savdo ishlari bilan shug'ullanadilar, 4-5 oylab o'zga shaharlarda bo'lishadi. Erlari bolalariga qarab qolaveradilar.

Biz, ayollar umuman savdo ishlari bilan shug'ullanishmasin, demoqchi emasmiz. Shunday xonadonlar borki, erlari nogiron, og'ir ishga yaramaydi yoki boshqa bir sabablarga ko'ra oilani iqtisodiy ta'minlash uchun imkoniyatlari yo'q. Bunday ayollarimiz uchun savdo ishlari bilan shug'ullanish uzrli. Ammo tog'ni ursa talqon qiladigan, salomatligi joyida, to'rt muchasi sog' ba'zi erkaklarning ayollar shaharma-shahar kezib, biznes bilan shug'ullanib, oilani iqtisodiy ta'minlayapti. Bunday oilalarning anchaginasida ayollarimiz hokima, uning jilovi ayollar qo'lida. Endi bunday xonadonlarda ayolning ovozi balandroq chiqadi. Ayol erini mensimay muomala qila boshlaydi. Bu holat oiladagi bolalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida sanab o'tilgan xonadonlarimizdan birida X. ismli ayol eriga quyidagicha muomala qilayotganligining guvohi bo'ldik: «Adasi, Anvar bilan Hulkar bog'chaga kech qolmasin. Kiyimlariga, bantiklariga qarang – kir yurmasin. Kechqurun biror bir egulik narsa qilarsiz. Yana

ovqat kech qolib ketmasin». Yana falonni unday qiling, tugunni bunday qiling, deb uyidan chiqib ketadilar. Erkaklarimiz esa ayollarining buyurib ketgan ishlarini bajarib, uyda o'tiribdilar. Biz bu xonadon erkaklaridan «Xotiningizning o'rniga siz biznes bilan shug'ullansangiz bo'lmaydimi?», – deb so'raganimizda ular: «Yo'q erkaklarni reketchilar qo'ymaydi. Ayollarga esa tegishmaydi. Bunga o'rganib ham qoldik. Bizga shunisi ma'qul», – deb javob berishadi. Bu xonadonlarning ayollariga murojaat qilganimizda; «Men biznesni eplayotgan ekanman, xudoga ming bor shukur. Bolalarimning yegani oldida, yemagani ketida. Xohlaganini kiyib, xohlaganini yeyapti. Cho'ntagida pul, tagida mashina», – deb javob berishadi.

Albatta bolalarni moddiy jihatdan yetarli ta'minlash, yedirish, kiydirish yaxshi. Lekin ularning o'qishlari qanday, bo'sh vaqlarida nima bilan shug'ullanishayapti, do'stlari kim. Bu narsalar bilan ota-onalarining ishlari yo'q. Otaning bo'sh vaqt yo'q. Ona esa o'z biznesi bilan ovora. Natijada yaxshi ta'minlangan, ammo nazoratsiz qoldirilgan bolalar turli nojoiz yo'llarga kirib ketishi mumkin. Bolalar tarbiyasiga e'tibor bermagan ota-onalarimiz 10–15 yillardan keyin o'zlarining noto'g'ri ishlarining hosilasini ko'radir. Qo'ldan boy berilgan tarbiyaning natijasi keyin ko'rindi. Chunki tarbiyaning natijasi darrov ko'rindiydi. Bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan xato tuzatib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Farzandlarga onalar tomonidan beriladigan mehr va tarbiyani ota berolmaydi. Aksincha, ota tomonidan farzandlarga beriladigan mehr va tarbiyani ayol bera olmaydi. Oilada har birining o'mi o'zgachadir. Shuning uchun tabiat ayol va erkakni yaratgan. Farzandlarga otalar quyosh bo'lib o'z harorati, o'z mehri bilan ularga umr bag'ishlasa, onalarimiz oy kabi o'z nuri bilan ularning yo'llarini yoritib to'g'ri yo'lga undab, tarbiyalab boradilar.

Quyosh bilan oy inson salomatligi uchun qanchaik zarur

bo‘lsa, ota-onan mehri ham farzandlar uchun shunchalik zururdir. Bekorga xalqimiz «Onali yetim – gul yetim, otali yetim shum yetim»<sup>g</sup> – deb aytmagan.

Xulosa shuki, farzandlarimiz tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullansak, ota-onalar bir-birlariga mehrli, muomalali bo‘lsalar, ayrim oilaviy janjallarni momaqaldiroqsiz, bo‘ronsiz hal qilsalar. Ota oilada bir pog‘ona yuqori bo‘lib, oilaviy tarbiya hurmat-izzat asosiga qurilgan bo‘lsa, ana shunda har bir oila o‘z baxtli kelajagini ta’minlagan bo‘ladi va gullab-yashnaydi. Farzandlari erkin, sog‘lom xushchaqchaq o‘sadi.

Quyidagi masalalarni tahlil qiling.

**1-masala.** Rustamjon rafiqasi Feruzaning tug‘ilgan kuniga bir quti konfet, bir dasta gul, bir kiyimlik atlas sovg‘a keltirib, eshikdan kirishi bilan xursand holda Feruzani tabrikлади.

Rustamjon singlisining mehmon bo‘lib kelganidan va ichkarida o‘tirganidan xabari yo‘q edi. Singlisining ikki hafta oldin tug‘ilgan kuni bo‘lgan, lekin Rustamjon xizmat safarida bo‘lgani uchun uni tabriklay olmagan edi. Rustamjonning xotinini sovg‘alar bilan tabriklaganini ko‘rib onasining va singlisining qovog‘i solinib ketdi. Endi bu og‘ir vaziyatni kelinimiz Feruzaxon qanday hal qilishlari kerak? 2. Shaharda o‘sgan Ra’noxon qishloqqa kelin bo‘lib tushdi. U non yopishni va sigir sog‘ishni bilmas, ammo turli shirinliklar, tortlar, somsalar pishirishga pazanda edi. Lekin qaynona kelinining kamchiliklarini qo‘ni-qo‘shnilarga aytib bo‘lgan edi. Bir kuni Ra’noxon qo‘shnisining: «Qaynonangiz kelinim o‘qiyapman deb sumkasini ko‘tarib borib, ko‘tarib kelib yuravergan ekan – na non yopishni biladi, na sigir sog‘ishni deb aytdilar», – degan gapini eshitib juda xafa bo‘ldi. Bunday vaziyatda kelin qaynonaga nisbatan qanday munsabatda bo‘lishi kerak?

## **2.11. Farzandga beriladigan mehribonlik bilan unga bo‘lgan talabchanlikning me’yorini bilish**

Onamiz Bibioysha Ahmedovadan biz quyidagi hikoyani qayta-qayta aytib berishlarini iltimos qilar edik. Ulug‘ Vatan urushidan keyin mahallamizda erlari urushdan qaytib kelmagan ikki ayol bor edi, – deb hikoya qilib berardilar onamiz. Ularning bittadan o‘g‘illari bor edi. Bir ko‘z bilan boqishdi ularni. Bolamni o‘gay otaga turttirmayman deb hayotda yolg‘iz yashashdi. Bu ikki ayolni biz yaxshi tanir edik. Urushdan keyin hayot juda og‘ir kelgan. Kartochka tartibida non tarqatilgan. Haligi ayollar kartochkalariga olingan nonlarni oiladagi taqsimoti haqida mahallada hamma gapirar edi.

Beva ayollardan birining ismi Xayriiso bo‘lib u har kuni topib kelgan nonining hammasini kechqurun dasturxon ustiga qo‘yib, «Ol, sen e, bolam. Sen yesang men yegandek bo‘laman. Ilohim sog‘ bo‘lgin. Boshing toshdan bo‘lsin. Men seni deb yashayapman. Dadangdan qolgan yodgorimsan. Hayotimning ma’nosi, hamma orzu-niyatlарim sen. Sochim supurgi, qo‘lim kosov bo‘lib, bir umr xizmatingda bo‘lay, o‘g‘lim», – deb topganini bolasiga yedirar, oq yuvib oq tarar, o‘g‘lidan qolgan non ushoqlarini yeb kun ko‘rar edi.

Ikkinci beva ayol Xolisxon aya kuni bilan topgan nonini kechqurun dasturxon ustiga teng ikkiga bo‘lib qo‘yar, bu senga, bunisi menga deb ikkaloviga taqsimlab; «Seni oyoqqa turg‘azib katta qilgunimcha men omon bo‘lishim kerak. Sen ham sog‘-salomat katta bo‘lib, yaxshi o‘qib, katta ishlarning boshini tutib, qariganimda mening suyanchig‘im bo‘lishing kerak», – deb mehr bilan boqar, topganini birgalikda teng baham ko‘rar edilar. Mahalladagi ayollar bu ikki oilaning gohida unisining ishi to‘g‘ri desa, gohida bunisini oqlar edilar. Yillar ketidan yillar o‘tdi. Ikkala o‘g‘il ham katta bo‘ldi. Ularni uylantirdilar. Qo‘sh-qo‘s sh nevarali ham bo‘ldilar.

Birinchi oilada Xayriniso opaning o‘g‘li uylanganidan keyin ham onasiga boqimonda bo‘ldi. Faqat o‘zi emas, balki xotini, bola-chaqasi bilan bechora onaga qarab o‘tiradigan bo‘lishdi. Mushtipar ona ularni yemay yediradi, kiymay kiydiradi. Otasi borlar bolasiga velosiped olib berdi, mening bolam o‘kinmasin, – deb o‘g‘liga velosiped, keyin mototsikl undan so‘ng esa yengil mashina olib berdi. Tayyorini yeb o‘rgangan o‘g‘ilning esa ishlashga bo‘yni yor bermas, ichishni kanda qilmas, onasidan pul so‘ragani so‘ragan, uni hurmat qilmas, hatto vaqt kelganda uni haqoratlar, urar edi. Qariganimda orzu-havas ko‘raman, huzur-halovatda yashayman, deb o‘g‘liga keragidan ortiq mehribonchilik ko‘rsatgan ayol nihoyatda xor bo‘ldi. Farzandidan orzu-havas ko‘rish uyoqda tursin, bolasi oddiy farzandlik burchini ham bajarmadi.

Holisxon aya ham o‘g‘lini uylantirdi. Nevarali bo‘ldi. Kelini nihoyatda qaynonasini hurmat qilar uni o‘tqazgani joy topa olmas edi. O‘g‘li ham onasi yoshligida o‘rgatib, ko‘nikma hosil qilgan o‘sha odatlarini endi u onasiga qaytarar, nima topsa hammasini onasiga olib kelar, onasi esa avvalgiday ularning kelini, nevarasi, o‘g‘li va o‘ziga teng bo‘lib birga baham ko‘rishar edi. Mana shu o‘zlashtirish qiyin bo‘lmagan, tarbiyaga bo‘lgan oniy bir e’tibor tufayli oila a’zolari orasida mehr-oqibat, bir-biri haqida qayg‘urish, insonni hurmat qilish kabi ma’naviy xislatlar qaror topdi.

Farzandga beriladigan tarbiyaning shunday bir muhim jihatini ta’kidlab o‘tish lozimki, onaning o‘z o‘g‘liga bergen tarbiyaviy ko‘nikma va malakalari pirovard natijada uning o‘ziga munosib, aqlii-hushli, tarbiya topgan, mehrli turmush yo‘ldoshi topa olishiga olib keldi. Baxtli oila qurdi. U bir umrga hayotdan mammun yashaydi. Elda obro‘-e’tibor qozonadi. Boshqalarga ijobiy o‘rnak bo‘ladi. Undan ibrat, o‘rnak olgan boshqa yoshlari ham shunday baxtga erishishga harakat qilishadi, shu asosda tarbiyalanishadi. Shuning uchun to‘la asos bilan

aytish mumkinki, tarbiyaning asosiy poydevori oilada yaratiladi.

Har bir oila farzand tarbiyasidagi mayda bo‘lib ko‘ringan nuqsonlarning kelajakda nimalarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilishi lozim. Buning uchun har bir ota-onam a’naviy bilimlarini oshirib borishi, hayotdagi har bir ijtimoiy hodisa va voqelikni kuzatib, ulardan tegishli xulosalar chiqarib borishi va ulardan farzand tarbiyasida foydalananib borishi lozim. Oiladagi farzand tarbiyasidagi yutuq va kamchiliklar, yo‘l qo‘yilayotgan xatoliklar haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Kasbdoshimizning uyiga mehmon bo‘lib borgan edik. Shiringga nevarasi bor ekan. Biz uyga kirganimiz zahoti nevarasi buvisiga salom berdi. Kasbdoshimiz nevarasini bizga ham salom berishga undadi. Nevarasi qanaqa salom beray, buvijon, dedi. Biz bu shirin bolakayga qarab, salomning juda ko‘p turlarini bilar ekan, deb qiziqib turgan edik, shu orada amakisi kelib qoldi. Amakingga salom bermaysanmi, dedi buvisi. Xo‘p, deb salom bermoqchi bo‘lib turgan jiyaniga amakisi: «Menga 25 so‘mlik salom yetadi», – deb qoldi. Bolakay o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, g‘oz turgan holda: «Assalomu alaykum», – dedi. «Va alaykum assalom», – deb amakisi cho‘ntagidan 25 so‘mlik chiqarib jiyaniga uzatdi. Jiyani xursand, pulni olib, uyga kirib ketdi. Uydan chiqqan bolakayga yana qanday salom turlarini bilasan, deb so‘rasak ko‘rsatib berdi. 50 so‘mlik salom o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, yarim egilgan, holat ekan. 100 so‘mlik salom o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, boshi yerga tegay-tegay deb egilib salom berish holati ekan. Salom berib bo‘lganidan so‘ng bolakayning salom bergen odamiga jovdirab qarashidan «salomimga yarasha pul beradimi, yo‘qmi», – degan ta’magirlik sezilib turar edi. Ishonchimiz komilki, bu bolakay ko‘chaga chiqsa, biror kishiga tekinga salom bermaydi.

Yoki ba‘zi bir oilalarda uchraydigan boshqa bir tarbiyaviy

«usul»ni olaylik. Aytaylik bolangiz birinchi sinf o‘quvchisi, siz uning yaxshi o‘qishini xohlaysiz. Unga: «5» bahoga o‘qisang har bir olgan «5» bahoinga 50 so‘mdan beraman. Har kuni kechqurun hisob-kitob qilamiz», – deng. Bolangiz avvaliga yaxshi o‘qib «5» olishga harakat qiladi. Bugun bitta «5» oldi. Siz 50 so‘m berdingiz, Keyingi hafta ikkita «5» oldi. Siz 100 so‘m berdingiz. Undan keyingi hafta bitta ham «5» ololmadi. Bu unga alam qiladi. Chunki o‘tgan haftalarda u sizdan olgan pullariga muzqaymoq olib edi, bulochka oldi, o‘rtoqlarini mehmon qildi. Bu hafta sizning har doimgi beradigan 25 so‘m pulingiz unga kamlik qildi. Endi u kundaligiga o‘zi «5» qo‘yib, «o‘qituvchimiz olgan baholaringa kundaliklaringga o‘zlarining qo‘yib qo‘ninglar, haftaning oxirida hammasiga bir yo‘la qo‘l qo‘yib beraman» degan edi. Natijada naftasiga 4–5 ta «5» ni o‘zi qo‘yib kelib, kechqurun siz bilan hisoblashadi.

Ko‘rib turibsizki, tarbiyaning yuqoridagi «usuli» ma’qul emas. Farzand har bir ota-onaga birday aziz. Ular ko‘zimizning oqu - qorasi, hayotimiz mazmuni. Lekin «Men sen uchun yashayapman, bolam. Men yaxshi yemadim, sen yegin. Men durust kiyinmadim, sen yaxshi kiyin» deb farzandingizni haddan tashqari papalayversangiz, tarbiya borasida katta xatoga yo‘l qo‘yasiz. Natijada na yeyishda, na kiyishda, na hurmatda sizni yod oladi. Hamma narsa menga xizmat qiladi, deb faqat o‘zini o‘ylaydigan shaxsiyatparast bo‘lib qoladi. Farzandingiz voyaga yetib, o‘zingizning yoshingiz o‘ta borgan sari siz buni tobora chuqurroq his qila borasiz. Lekin endi boy berilgan vaqtini, imkoniyatni qaytarish qiyin, ba’zi hollarda esa umuman mumkin bo‘lmay qoladi.

Ushbu satrlarning muallifi o‘zining 22 yillik pedagogik faoliyatida bir qancha og‘riqli voqealar guvohi bo‘ldi. Mazkur kitobchani yozishdan maqsad o‘sha odamlar oyog‘iga kirgan zirapchalarning boshqa odamlarning oyog‘iga kirmasligi uchun ozgina bo‘lsa ham o‘z yordamini berish, ularni bu

zirapchalardan ogohlantirishdir. Albatta kitobxonlar orasida «hammaning aqli mening cho'ntagimda, mening bolalarim boshqalarning bolasiga o'xshagan emas. Ular yagona, hali hech kim mendek farzand tarbiyalay olmagan. Mening farzandim o'zgacha bo'lishi kerak. Men hech kim ko'rmagan nozik joylarni ko'ra olaman. Shuning uchun mening farzandlarim yagona bo'ladi», deb o'ylab yurganlar ham yo'q emas. Xizmat davomida bunday voqealardan ko'plarini ko'rish va kuzatishga to'g'ri keldi.

Toshkent Davlat universiteti huquqshunoslik fakultetining oxirgi bosqich talabalari amaliyot davrini respublikamizning prokuraturalarida o'tkazadilar. Bu davrda ular ochiq sudlarda qatnashib, sud jarayonini kuzatadilar, ayrim tergov ishlarini olib boradilar, turli taftishlar o'tkazadilar, sud-tergov hujjatlari bilan tanishib, ularni tuzish amaliyotini o'rganadilar. Bir necha yillar mobaynida talabalarning mana shunday ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish davrida ba'zi insonlardagi, oilalardagi ma'naviyatning, hayotiy bilimlarning yetishmasligi tufayli yuzaga kelgan hayot inqirozlarini, turmush qusurlarini ko'rish va kuzatishga to'g'ri keldi.

Bir kuni xizmat yuzasidan nufuzli bir tashkilot rahbarining oldiga kirib qoldim. Shu payt telefon jiringlab qoldi. Beixtiyor telefon orqali suhbatning shohidi bo'lishga to'g'ri keldi.

– A'lo.

– Kim aytди?

– Bekor aytibdi.

– Mendek odamning qizini kiyimini almashtirib kelishga majbur qiladigan odam hali tug'ilmagan. O'sha kiyiming bilan darsga kiraverasan. Darsing nechada tugaydi?

– Mashina jo'nataman. Qolganini uyda gaplashamiz.

Rahbar telefon trubkasini qo'yib, bosh telefonda raqamlarni teraboshchladi.

– Alo, kim bu? RayONO mudiri ...

maktabga yalpi komissiya jo'nating! Ayniqsa, maktab direktorining ishlarini yaxshilab tekshirtiring.

Yana bir gal shu rahbarning o'z taklifi bilan uning o'g'lining tug'ilgan kunida qatnashishga to'g'ri keldi. Uyda uchta katta-katta zalga joy qilingan. Stol ustida anqoning urug'idan boshqa hamma narsa bor. Besh-olti to'p san'atkorlar ham chaqirilgan.

Oila a'zolarining hammasi uy sharoitiga, vaziyatga mos bo'limgan holda bashang kiyinishgan. «Aybdor» o'g'ilning egnida qimmatbaho kostyum-shim, qo'llarida uzuk, bo'ynida tilla zanjir... Onalarining kiyimi va taqinchoqlari haqida gapirmasa ham bo'ladi. «Rahbar»ning o'zlari esa xuddi ishxonadagidek u zaldan bu zalga viqor bilan kirib-chiqib turar, boshqalarga buyruq berar, qaddini g'oz tutib, kelgan mehmonlarga sinov va o'zgacha takabburlik bilan birma-bir nazar tashlab qo'yari edi. Ularning o'zlarini bunday tutishlaridan; «Qo'lingdan kelsa menga yetib ko'r», – degan fikrni anglash mumkin edi.

Tug'ilgan kunning o'tishi ham juda ko'p narsalarni o'ylashga, mulohaza va tahlil qilishga majbur qiladi. Xalqimiz; «Boshliq laganbardori bilan tug'iladi», – deganidek, mehmonlarning ko'pchiligi boshliqni yeru ko'kka sig'dirmay maqtashar. «Dunyoda yagonasiz», – deb osmonu falakka ko'tarib, tilyog'malik qilishar, uning bor-yo'q xislatlarini aytib, og'iz ko'pirtirib ta'riflashar edi. Tug'ilgan kunga olib kelingan sovg'alarni ko'rib, yoqa ushlaysiz. Xorij ko'ylagi, tuflisi, kostyum-shimi, magnitofon, video, o'g'ilcha dam olib kelsin, deb dam olish uyiga yo'llanma, ...

O'sha kuni yuqoridagi telefon orqali suhbat xususida shu narsa ma'lum bo'ldiki, boshliqning qizi o'qiydigan maktab direktori unga oddiyroq kiyinib kelishini, maktabga bunday kiyimda kelish odobdan emasligini aytgan. Qizi bunga javoban kiyimini almashtirib kelish o'rniga ilmiy mudirning xonasidan dadasining ishxonasiga shikoyat qilib qo'ng'iroq qilgan. Men

rahbar qabuliga o'sha qo'ng'iroq ustiga borgan ekanman. Qiziga ko'y lagingni almashtirib kel degani uchun boshliqning qo'ng'iroq'iga va keyingi tazyiqi ostida maktab va direktorining faoliyati taftishchilar tomonidan obdon tekshirilgan hamda turli bahonalar bilan «jiddiy kamchiliklar»ga yo'l qo'yganligi uchun maktab direktori ishdan olingan.

Bir rahbarning oilasidagi turmush tarzining yuqoridaq qisqacha epizodik tafsiloti tarbiyaviy nuqtayi nazardan ko'pgina xulosalarni chiqarishni taqozo qiladi.

Boshliq tug'ilgan kunga aytilgan xodimlarning hammasi undan

uyalghanidan sovg'a olib kelishini biladi. Uning tug'ilgan kunning bunday dabdabali o'tkazishdan maqsadi o'zini oila a'zolari, qarindosh-urug'lari, tanish-ojishlari va qo'ni-qo'shnilar oldida kim ekanligini ko'rsatib qo'yish edi. Bu boshliqning shuhratparast, molparastligidan, manmanligidan, me'yorni bilmasligidan dalolatdir. Qolaversa, uning kaltafahmligidan, ma'naviy qashshoqligidan dalolatdir.

Oilada qaror topgan bunday dabdababozlik farzandlarning ma'naviy tarbiyasiga katta putur yetkazadi. Ular mehnatning qadriga yetmaydigan, yengil-yelpi, harom-xarish pul topishga ruju qo'yadigan, topganini esa tejab-tergamasdan, befoyda sarflaydigan, o'zgalarni mensimaydigan, keyinchalik hayotda qoqinsalar, ruhan tushkunlikka tushib ketadigan, irodasiz, hayot qiyinchilnklarida chidamsiz bo'lib o'sadilar.

Talabalar amaliyot kunlarining birida prokuratura binosining oldida bir onaxonning qibлага qarab iltijo qilayotganining, nihoyatda ezilib yig'layotganining guvohi bo'ldik. Bu hol bir necha kun davom etdi. Har gal militsionerlar onaxonni hovlidan tashqariga olib chiqib qo'yar ertasiga yana shu hol davom etar edi. Ma'lum bo'lishicha yuqoridaq biz tilga olgan rahbarning tanti o'g'li mashinada «gap» dan qaytayotib shu onaxonning 21 yoshli o'g'lini urib ketgan. Yigit nobud bo'lgan. Tergov

materiallarida ko'rsatilishicha o'sha kuni yigit g'irt mast bo'lib, uning o'zi mashinaga kelib urilgan. Onaxon esa har kuni prokuraturaga kelib: «Mening o'g'lim hech qachon ichkilikni og'ziga olgan emas, kunduz kuni institutda o'qib, bo'sh paytalarida temir yo'l vokzalida yuk tashuvchi bo'lib ishlar edi. Ishdan yarim kechasi, ba'zi paytlarda tongga yaqin uya kelar edi, men u kelguncha mijja qoqmay o'tirar edim, kelganidan keyin birga ovqatlanar edik, shuncha yildan beri biron marta ham ichkilik ichib kelganini eslay olmayman, hayotimning ma'nosi, ko'zimning oqu qorasi edi», – deb zorlanib, sochlarini yilib nola qilar edi. Bu holat 2–2,5 oy davom etdi. Keyinchalik onaxon ko'rinxay qoldi.

Bu voqeadan 5–6 oy o'tgandan keyin bir kuni ishxonaga borib, xunuk xabar eshitdir: o'sha boshiqning o'g'li «gap»dan mashinada qaytayotib, daraxtga urilib nobud bo'libdi. Hamma achindi. Ta'ziyaga bordik. Yettisi ham, yigirmasi ham o'tkazildi. Yili ham o'tkaziladi. Lekin xazon bo'lgan umrni qaytarib bo'lmaydi. Oila boshiga tushgan musibat dardidan rahbar insult bo'lib qoldi. Uzoq davolanishiga qaramasdan ish faoliyati tiklanmadı – ikkinchi guruh nogironi bo'lib qoldi. Ishdan bo'shadi.

Bir kuni rahbar hukumat kasalxonasida davolanib, yotganlarida uni ko'rgani bordik. Qizlari ham yonlarida ekan. Rahbarning ahvoli ancha og'irlashgan, o'zлari ovqat yeya olmas, bir qo'li va bir oyog'i ishlamay qolgan edi. Zo'rg'a gapirar, gapini anglab olish juda qiyin edi. Qizi siltab-siltab dadasingning og'ziga ovqat tiqar, dadasi esa ko'zida yosh aralash, g'udranib, og'zini olib qochar, qizi esa battar majbur qilib, uning og'ziga ovqat tiqar edi. Biz borganimizdan keyin qizi ketishga tayyorgarlik ko'ra boshladi. «Dada, tezroq tuzalib chiqib, ishga tushsangiz, odamlarni ko'rib, o'zingizga kelib qolasiz. «Xvatit» yotaverish. Uyda pul ham tugayapti. Pullarning hammasi akamning marakalariga sizning dori-darmonlaringizga ketayapti.

Ishlamasangiz «nishiy» bo‘lib qolamiz. Bo‘pti, men ketdim», – deb qizi chiqib ketdi. Qizi chiqib ketgandan keyin rahbar o‘ksinib-o‘ksinib yig‘ladi. Biz uning ko‘nglini ko‘targan bo‘ldik. Oldida ancha o‘tirdik. Xudo shifo bersa, ko‘rmaganday bo‘lib ketasiz, deb xayrashib yo‘lga tushdik.

Xash-pash deguncha hayit ham keldi. Shu munosabat bilan rahbarni yana ko‘rgani bordik. U bir joyda o‘tirib qolgan, shu kuni uydan chiqmagan ham ekan. Biz borganimizdan keyin iltimosimizga ko‘ra uni ikki yosh xodimimiz yordamida xonadan olib chiqishdi. Kresloga o‘tqazib qo‘ydi. Hol-ahvol so‘radik. Ular boshlarini qimirlatib javob berar, nimalardir der, lekin biz tushunmas edik. Shu orada erkatoy qizlari kelib qoldi. «Sizni kim bu yerga olib chiqdi. Ustingizga qarang. Siz jim xonangizda o‘tirsangizchi. Turing, yuring», – deb sudray boshladi. Rahbar bir oyog‘ini polga tirab olgan, ko‘zlaridan duvduv yosh tomar edi. Qizlariga «Hoy, ona qizim, bularni biz endi ko‘rib turganimiz yo‘q. Oldingi holatlarini ham, nima uchun bunday bo‘lib qolganlarini ham bilamiz. Hech kim ularning bu holatlaridan kulayotgani ham, ijirg‘anayotgani ham yo‘q. Siz bundan orlanmang va hijolat ham bo‘lmang. Inson o‘zining ertaga nima bo‘lishini bilmaydi. Qo‘ying o‘z hollariga, biz bilan biroz o‘tirsinlar. Biz ham ularni anchadan beri ko‘rmadik, sog‘inganmiz» deganimizdan keyingina u dadasini holi qo‘ydi. Yarim soatlar chamasi o‘tirganimizdan keyin biz ular bilan xayrashib tashqariga yo‘l oldik. Xayirlashayotganimizdagi ularning holatlarini, bizga qarab talpinishlarini, jovdiragan ko‘zlaridan oqayotgan yoshlarni siz kitobxonlarga yetkazib berish qiyin. Hech kim bunday holatga tushmasin, hech kimni hayot girdobi bunday holga solmasin.

Tilga olinayotgan oila hayotining yillar o‘tishi bilan bunday fojiali tarzda izdan chiqishi juda achinarli va saboq olarlikdir. Bu oilaning hayotida ildiz otib borgan ma’naviy inqiroz nafaqat shu oilani o‘zining fojasiga, balki boshqa bir baxtli bo‘lishi

mumkin bo‘lgan oilaning ham boshiga musibat bo‘lib tushdi. Xo‘sish bunga sabab nima, degan o‘rinli savol tug‘iladi. Bu yerda beixtiyor ushbu oila muhitida hukm surgan o‘zaro munosabat, ota-onalarning farzandlariga bo‘lgan munosabatlarining *tarbiya* deb atalmish muqaddas ilm talablariga mos kelmaganligi va umuman ushbu oilaning bu ilmdan yiroq ekanligi yodga keladi. Bu, xalqimizning «Ekkanini o‘rasan» degan naqlining hayotiy isbotidir. Shuning uchun bo‘lajak ota-onalar, yosh ota-onalarga quyidagi maslahatlarni, hayot saboqlarini bergimiz keladi:

- farzndlarni o‘ta erkatoy va tantiq qilib o‘stirmang;
- farzandga o‘ta qattiqqo‘l bo‘lmang;
- mehribonlik bilan qattiqqo‘llikning har bir vaziyatdagi, holdagi farzandingizning yoshiga mos me’yorini o‘rganib boring;
- farzandingizni bilimning, mehnatning, mol-dunyoning qadriga yetishga doimiy ravishda o‘rgatib boring; buning uchun uning o‘zini bilim olishga, mehnat qilishga, halol yo‘l bilan mol-dunyo topishga da’vat qilib, o‘rgatib boring;
- farzandingizni ta’magirlikka, birovning moliga ko‘z olaytirishga o‘rgatmang;
- farzandingizning salbiy xatti-harakatlari, jihatlarini o‘z vaqtida tuzatib, yo‘qotib borishga harakat qiling; ijobjiy xatti-harakat va xislatlarini har tomonlama turli usullar bilan rag‘batlantirib boring, yaxshi va yomonning farqini doimiy ravishda tushuntirib boring.

## **2.12. Bolaga beriladigan jazo bilan rag‘batlantirishning o‘rni va me’yorini bilish**

Jazo nima? Jazo bu bolaning noto‘g‘ri qilgan ishiga o‘zini iqror qildirishdir. Agar bola o‘zining noto‘g‘ri qilgan ishiga o‘zi iqror bo‘lib, tan olib tursa uni jazolashning hojati yo‘q, agar u xatoni tan olib, kechirim so‘rasa-yu, lekin yana 2–3 bor o‘sha

xatoga yo'l qo'ysa, unda albatta biror tarbiyaviy chora ko'rish kerak. Bolaga jazo berishdan oldin nima qilish mumkin, nima mumkin emasligini bilish kerak. Bunda ota-onalar pedagogika, psixologiya, biologiya fanlaridan boxabar holda ish ko'rsalar bu borada xatoga yo'l qo'yaydilar.

Aytaylik bolalaringizning kattasi kichigini urdi. U oldingizga yig'lab kedi. Qanday chora ko'rasiz?

Borib kattangizga ko'zingizni qisib, uni nomiga koyib, yolg'ondakam urib qo'yasiz. Kichigingiz bu ishingizdan xursand – o'zicha akasidan o'ch oldi, bunga siz yordamlashdingiz. Aslida u nohaq edi. Surishtirib ham o'tirmadingiz. Kattangiz esa ichidan zil ketdi.

Yoki aytaylik, bozordan shirinlik xarid qildingiz. Kelgan zahoti uni kichigingizga berdingiz. U esa bolaligiga borib, shirinlikni hamma akalariga ko'z-ko'z qilib chiqdi. Lekin ularga yo'q. Ular o'ksinishadi. Kichik bo'lgan yaxshi ekan deyishadi. Hamma narsa kichikka, sovga ham, shirinlik ham, erkatalish ham – deb bolalar orasida yakkalik, o'zini uzoq tutish kayfiyatları paydo bo'la boshlaydi, onaga bo'lgan sog'inch, mehr soviy boshlaydi. Bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, uyga biror narsa xarid qilib olib kelganingizda har doim uni adolatli taqsim qiling. Taqsimlash jarayonida ota-onsa o'zlarini ham unutmasliklari kerak. Bu juda muhimdir. Bolalaringiz bu jarayonni ko'rsa, vaqt kelib ular ham topib keladigan bo'lganlarida sizga ulush ajratishni unutmeydilar. Bolalar oldida qilgan bu adolatli taqsimingiz ular uchun eng katta saboq bo'ladi. Birinchidan, ular bir-birlariga ilinadigan bo'ladilar. Ikkinchidan, bora-bora bir-birlariga mehrlari orta boradi. Uchinchidan, doimo ota-onani eslab turadigan bo'ladilar. Aks holda olib kelgan narsalaringizni faqat bolalaringizga taqsim qiladigan bo'lsangiz, keyinchalik ular sizni eslamaydigan, faqat o'zlarini o'ylaydigan bo'lib qoladilar. Ayniqsa qarib, kuch-quvvatdan qolganingizda tarbiyada yo'l

qo‘ygan bu xatoingiz siz uchun juda katta azobga tuzatib bo‘lmas armonga aylanadi.

Yuqoridagi akasi urgan ukaga kelsak, siz buning sababini surishtirib o‘tirmadingiz. Nima uchun urganini adolatli aniqlab, so‘ng jazolamadingiz. Yuzaki, ahamiyat ham berib o‘tirmay, kichkinani himoya qilib qo‘ya qoldingiz. Bu juda katta xato.

Endi kichkinangiz, haqmi yo nohaqmi, sizning panohingizda akalarining aytganini qilmaydi. Ularni mazax qiladigan bo‘ladi. Ataylab ularning jig‘iga tegadigan bo‘ladi. Akalarining biri jahli chiqib ursa, siz akasiga: «Ho‘kizday bo‘lib shu kichkina bola bilan teng bo‘ldingmi», – deb koyisangiz natijada aka-uka orasida adovat, nafrat paydo bo‘la boshlaydi. Siz yo‘qligingizda ukani uradi yoki boshqa usullar bilan alamjni oladigan bo‘ladi. Kichkinangiz esa siz kelganingizda akani sizga chaqadi. Siz esa yana kichigingizning tomonini olib, kattangizni koyiysiz. Agar siz bolalaringizning qaysi biri haq ekanligini aniqlab, jazolaganingizda edi ular orasidagi mehrga darz ketmagan bo‘lar edi. Bolalaringizning sizga qilgan arzigaadolatli yondoshib: «Haliyam akang seni yaxshi ko‘rar ekan, yaxshilab urmabdi. Agar akangning o‘rnida men bo‘lganimda seni do‘pposlar edim», – desangiz, birinchidan, kichigingiz akasining uni yaxshi ko‘rishini tushunib olgan, ikkinchidan, akani hurmat qilish kerakligini bilib olgan bo‘lar edi.

Uchinchidan, ota-onasi, akalari, opalari bamaslhatli ish ko‘rishi, ularning unga hech qachon yomonlikni ravo ko‘rmasligini, akalari, opalari ota-onadan keyingi unga eng hurmatli, aziz insonlar ekanligini tushunib borgan bo‘lar edi. Ular orasidagi bir-biriga bo‘lgan mehrni siz mustahkamlab, bir-birlarini hurmat qilish ko‘nikmalarini hosil qilsangiz, kelajakda ular bir-birini hurmat qiladigan, bir-biriga mehr ulashadigan, bir-birini yo‘qlashadigan, bir-biriga yordam beradigan bo‘ladilar.

Siz barcha farzandlaringizga bir ko‘z bilan qarasangiz,

kattasini katta, kichigini kichik deb, shunga yarasha ish tutsangiz, shuningdek, kichiklari kattalari bilan maslahatlashib ish tutishlariga, kattalarining esa kichiklarini izzat qilishlariga va ularni himoya qila olishga odatlantirsangiz, ularning yaxshi ishlarini ma'qullab rag'batlantirib borsangiz, yomon ishlardan o'z vaqtida qaytarib, bu ishning nima uchun yomonligini yotig'i bilan tushuntirib borsangiz, farzandlaringizning kamoli, o'zingizning kelajakdagi rohat-farog'atingiz uchun juda muhim va katta tarbiyaviy ishni amalga oshirgan bo'lasiz. Ulardagi mehr-oqibatni, shu tufayli mahalla qo'ni-qo'shni, qavmi-qarindosh orasidagi orttirgan obro'larini ko'rib, o'z hayotingizdan mammun bo'lasiz, farzandlaringiz tarbiyasi bora-sidagi chekkan zahmatlaringiz, mashaqqatlarining unut bo'ladi.

Quyidagi tarbiyaviy masalalarni tahlil qiling.

**1-masala.** O'ziga to'q otaxonning uch qiz, bir o'g'li bor edi. Ota qariganlarida mehrni shu yagona o'g'lidan kutgan edi. Ammo kelini nobop chiqib, ular otaga qarashmadilar. Ikki katta qizi ham o'z oilalari bilan bo'lib, otadan xabar olmas edilar. Otaning kuniga faqat kenja qizi yaradi. Oq yuvib, oq taradi, ko'nglini ko'tarishga harakat qildi. Otaxon olamdan o'tganlaridan keyin kenja qizdan tashqari hamma meros talashib, yettisi o'tmasdan janjallashishdi.

Kelin va qizlarning otaga nisbatan munosabatlari va ko'rsatgan «karomat» lari haqida qanday fikr bildirasiz?

**2-masala.** Besh og'a-inining uchinchisi biznes qilaman deb katta qarzga botib qoldi. Nihoyatda ahvoli tang bo'lgan uka akalaridan qarz so'radi. O'ziga to'q akalari, qarzni qaytarib bera oladimi, yo'qmi, deb unga qarz berishmadi. Uka nima qilishini bilmay, o'zini har tomonga urdi. Oxiri noiloj bir qaltis ishga qo'l urib, qamalib ketdi.

Mahallada «Ukamning bolalarini biz boqayapmiz, hech narsaga muhtojlik joyi yo'q», – deb ko'kraviga urib yurgan akalarni qanday baholaysiz?

## **2.13. Bolani ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalash – to‘g‘ri tarbiyaning muqaddimasidir**

Hurmatli kitobxon!

Yuzlab xonadonlar hayotini kuzatish, ularning turmush tarzi va tarixini tahlil qilish shuni ko‘rsatayaptiki, 10–15 % oilalardagi otaxon-onaxonlar yemay yedirgan, kiymay kiydirgan, biror joyiga zirapcha kirsa, kipriklarini mo‘ychinak qilgan, kasal bo‘lsa qo‘silib iztirob chekib, ming mashaqqat bilan katta qilgan, voyaga yetkazgan farzandlarining mehrsizliklaridan nolishadilar. Nimaga unday chiqdi mening bolam, deb ko‘zlarida to‘la yosh bilan bizlarga savol nazari bilan qarashadi.

Bir onaxon shunday hikoya qiladi:

Urushdan keyingi yillar, yashash qiyin. Uch qiz, bir o‘g‘lim bor. Bolalarning dadasi boshqa ayolga uylanib ketib qoldi. Men bolalarni ming mashaqqatlar bilan katta qildim, qizlarni turmushga chiqardim. Qizlarimga: «Senlar turmushga chiqib ketasanlar. Mening chirog‘imni o‘chirmay, yoqib o‘tiradigan, issiqsovug‘imdan xabardor bo‘lib turadigan shu o‘g‘lim, deb qizlarimga berilgan mehrdan o‘n baravar ortiq mehrni o‘g‘limga berdim. O‘qitdim, hunarli bo‘lishiga imkoniyat yaratib berdim. Bitta o‘g‘lim, otasi borlardan kam bo‘lmasin, deb erta-yu kech mehnat qildim. Mol-hol boqib, ekin-tikin qilib, topganimni tejab-tergab uylantirdim. Endi ko‘zimdan nur, belimdan quvvat ketdi. Qarib, ishga yaramay qoldim.

Bir kuni o‘g‘limga; «Bolam, mana shu tovuqlardan bittasini so‘yib bersang, 1–2 kun qaynatma qilib ichar edim», – desam, «Nima qilasiz tuxum qilib turgan tovuqni so‘ydirib», – deydi. Indamadim, lekin ichimdan zil ketdim. Har doim bozorga tushganida u-bu narsa olib keladi, lekin oyi, mana buni yeng yoki mana buni ishlating, deb biror narsani menga qiyganini eslay olmayman. Men esa haligacha uning uyga omon-eson

kelishini mijja qoqmay kutaman. O‘g‘lim darvozani ochib, uyga kirib ketganini sezaman. Shundan keyingina xotirjam uxlayman.

Bir kuni kelinim manti qildi. Menga alohida suzib berishdi. Ko‘zim yaxshi ko‘rmaganligidan ovqatni menga alohida berishadi. Yesam, go‘shtsiz ekan. Go‘shtlari qolmagandir-da, deb o‘yladim. Ertalab kelinim qolgan mantini isitib olib keldi. Mening ko‘zim yaxshi ko‘rmaganidan o‘g‘lim mang, yeng, deb bitta mantini qo‘limga olib berdi. Yesam, bu mantining go‘shti bor. Keyinchalik zehn solib, kuzatsam, manti va shunga o‘xhash ovqat qilishganda bir qismiga go‘sht solishib, qolgan qismiga go‘sht solishmas ekan. Ovqat suzganda mening oldimga go‘shtsizini qo‘yar ekan. Men esa istihola qilib, o‘zim bir narsaga yaramaganimdan keyin nimani berishsa, shuni yeaveray-da, derdim. Buni qarang, bolam, pastkashlik ham shunchalik bo‘lar ekan. Bir umr orzu-havas qilib, bir ko‘z bilan boqib, yemay yedirib, kiymay kiydirib, yakka-yu yolg‘iz, ko‘zimning oq-u qorasi bo‘lgan o‘g‘limga olib bergen kelinimning ishi bu. O‘g‘limga buni aytSAM, ikkalasi urishib qolishadi, deb indamadim.

Kelinimning ko‘zi yordi. O‘g‘lim tovuqlardan birini so‘ydi-da, kelinimga qaynatma sho‘rva qilib, bankaga sola boshladi. «Bolam, menga ham bir piyola sho‘rvangdan berib ket. O‘zim ovqat qilolmasam. Yoshim 80 da bo‘lsa. Sen qachon kelasan. Qornim ochib turibdi. O‘zim choy qo‘yolmasam», – dedim. «E, oyi, banka yarim bo‘lib qoladi. Kasalxonadan kelgandan keyin choy qo‘yib beraman», – dedi-da kelinimning oldiga jo‘nab qoldi.

Ey, bolam, qaysi birini aytay. Ishqilib, har bir bandaning bolasi mehr-oqibatli bo‘lsin, ayniqsa, qariganda. Qariganimda bolalarimdan ko‘rarman, deb ularni umid bilan katta qilar ekansiz. Ota-onal xudo bergen bor farzandlarini katta qilib, barchasiga mehr bera olar ekanu, lekin farzandlar ota-onasini vaqtı kelsa, boqishga malol kelar ekan. Biz ota-onalar qarib

qolsak ham, sog' bo'lib, qimirlashga imkoniyatimiz bo'lsa, hassaga suyansak suyanamiz-u, lekin bolalarimizga zararimiz tegmasin, deb ularning xizmatini qilamiz. Lekin qarib, holing qolmagach, qorningga emas, qadringga yig'lar ekansan.

Onaizorning ko'z yoshlari shashqator bo'lib oqar, o'ksinib-o'ksinib yig'lar edi. «Onajon yig'lamang, hali nevarangiz katta bo'ladi. Bolangizdan qaytmagan mehr nevarangizdan qaytadi. Hammasi esingizdan chiqib, ko'rмагандай bo'lib ketasiz», deb yupatdik. Ular: «*E*, bolam, meni ko'p yashatib nima qilasan. Undan ko'ra tezroq, bundan battar xor bo'lmay, o'lganim yaxshi», – deb tarki dunyoga roziligini bildirdilar. Biz onaxonni nima deb yupatishni bilmas edik.

Onaxonning qolgan suhbatlarini siz kitobxonlarga yozib o'tirmadik. Bu suhbatdan yuragimizga og'riq turib, nihoyatda siqildik. Onaxonning bizga qilgan iltimosi shu bo'ldi: «Bolamni biror joyga yozib, obro'sini to'kib o'tirmanglar. O'zi ham farazand tarbiyalayapti-ku. Ishqilib, bolamdan menga qaytgan nonko'rlik, uning bolasidan bolamga qaytmasin».

Onasidan shunchalik mehr ko'rgan farzand, olgan mehrlarining hech bo'limganda bir qismini qaytarmasa, buni qanday baholash mumkin? Nima uchun ular bunday noqobil farzandlar bo'lib qoldilar?

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday farzandlar ko'p vaqtiko'chada o'tadigan, bilim olish, hunar o'rganish o'rniga yoshligidan bozor-o'charge o'rgangan, mol-dunyoga o'ch, yengil-yelpi hayotga, shohona kun kechirishga ruju qo'ygan bolalarning ichida ma'naviy qashshoq, harom yo'llar bilan pul topib, mehnatning qadriga yetmaydigan, farzand tarbiyasi bilan maxsus ravishda shug'ullanmaydigan, bu vazifani o'z holiga tashlab qo'ygan yoki tarbiyani shunchaki oddiy mashg'ulot deb tushunadigan oilalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ba'zi oilalar: «Mening farzandim boshqalarning farzandiga o'xshab noqobil bo'lmaydi, mehrli bo'ladi. Qariganimizda xor-zor qilib

qo‘ymaydi. Tinmay mehnat qilib, ularni boqayotganimni bolalarim ko‘rib turishibdi-ku» deb o‘zlariga ortiqcha ishonadilar, kalta o‘yaydilar. Ilohim shunday bo‘lsin! Lekin bolalarning ota-onalarining ertayu-kech mehnat qilib, ularni yedirib-kiydirayotganligi, o‘qitib, bilimli qilayotganligi, barcha sharoitlarni yaratib berayotganligini ko‘rib-bilib turganliklari ularning komil farzand bo‘lib yetishishlari uchun yetarli emas. Ota-onsa farzandlarini ona qornidan boshlab to umrlarining oxirigacha maxsus ravishda tarbiyalab bormoqlari lozim. Farzandingizning tarbiyasi bilan shug‘ullanganligingiz bu sizning farzandlaringizga qilgan yaxshililingiz, tarbiyani unutib, farzandlaringizni tashlab qo‘yishingiz esa sizning ularga qilgan yomonligingizdir! «Al qasosu minal haq», deyiladi muqaddas Hadislarda. Hali hech bir yaxshilik yoki yomonlik qaytimsiz qolib ketgan emas. Bu haqda bobolarimiz merosida shunday yozilgan: «Sen o‘zgalarga qilgan yaxshilik yoki yomonligingning qaytimini qirq daqiqa, qirq soat, qirq kun, qirq oy, qirq yilda kut. Insonlarga qilgan har bir yaxshilik yoki yomonliging shu vaqtlar mobaynida o‘zingga qaytadi. O‘zing hayotligingda senga qaytishga ulgurmasa, bolalaringga, bolalaringning bolalariga qaytishi mumkin». Shunday ekan har bir qilgan yaxshilimiz yoki yomonligimizni o‘zimiz uchun qilinayotgan yaxshilik yoki yomonlik deb qarashimiz lozim.

Aziz kitobxon! Biz qanchalik qiynalib farzand tarbiyalaymiz. Shirin orzular og‘ushida ularni asrab-avaylaymiz. Lekin bizni ham qiynalib katta qilgan ota-onalarimiz hol-ahvoldidan xabar olayapmizmi? Ularning dil yaralariga malham bo‘lib, mehr ko‘rsata olayapmizmi? Bizning har birimiz bu savollarga doimiy ravishda amaliy javob berib bormog‘imiz lozim. Zero

Otasini og‘ritgan el ichida xor bo‘lar,  
Onasini og‘ritgan parcha nonga zor bo‘lar!

## 2.14. Tarbiyaning asosi oilada shakllanadi

Ma’naviy merosimizdagи tarbiyaviy g‘oyalar rivojiga bir nazar soladigan bo‘lsak, qanchalik ma’naviy javohirlarga ega ekanligimizga ishonch hosil qilamiz. Ular tubsiz ummon, bitmas-tuganmas boylikdir. Har bir inson bu ummonga sho‘ng‘iganda o‘zining fe‘l-atvori, dunyoqarashi, bilim savyiasi va boshqa xususiyatlariga qarab ulush olib chiqishi muqarrardir.

Tabarruk manbalarimiz bo‘lmish «Qur’on», «Hadislar», ajdodlarimiz ma’naviy merosi hisoblangan «Qobusnama», «Shohnoma», «Temurnoma», «Boburnoma», «Guliston», «Bo‘ston», «Temur tuzuklari», «Qutadg‘u bilig», «Mahbub-ul qulub» kabi durdona asarlarni mutolaa qilgan har bir inson tarbiyaning inson shakllanishidagi muhim omil ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Tarbiyaning murakkabligi haqida Amir Temur: «Men farzand tarbiyalashda davlatni boshqarishdan ko‘ra chuqurroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerakligiga ishonch hosil qildim» – desa, Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida tarbiyaning ahamiyatiga: **«Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat, yo falokat masalasidir»**, – deb katta baho beradi, tarbiyani oiladan shakllantirib borish kerakligi, buning uchun ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerakligi haqida uqtiradi.

Bolalarga biror narsani va’da qilgan bo‘lsangiz va’daning ustidan chiqish kerak. Bola oldida obro‘yingizni to‘kmang. Chunki bolalar juda ishonuvchan va beg‘ubor bo‘ladilar. Sizning bergen va’dangizni sabrsizlik bilan kutadi. Vaqtini, daqiqalarni sanab o‘tkazadilar. Intazorlik bilan kutgan vaqt kelganda «Dada, bugun bizni parkka olib borasizmi?», desa-yu sizning bergen va’dangiz esingizdan chiqib ketgan bo‘lsa, mulzam bo‘lib qolasiz. Shunday hollar 4–5 marta qaytarilsa,

bolangizning sizga bo‘lgan ishonchi yo‘qoladi. Gapingizga ishonmay qo‘yadi. Obro‘yingiz ketadi. Shuning uchun o‘zingizga ishonmasangiz va’da bermang. Uddasidan chiqa oladigan ishga va’da bering. Bo‘lmasa, yaxshisi, bolaga va’da bermaganingiz ma’qul. Aks holda bola ham katta bo‘lganda odamlarga va’da berib, uni bajarmasa ham bo‘lar ekan, degan xulosaga kelib qolishlari mumkin.

Farzandlaringizning hammasining tug‘ilgan kunlarini bir xil mehr bilan ularni teng ko‘rgan holda o‘tkazishga harakat qiling. Birini ikkinchisidan kam ko‘rmasligingiz lozim. Bolalaringizning tug‘ilgan kunlarini oilaviy, sodda o‘tkazishga o‘rgating.

Farzandlaringizning tug‘ilgan kunida oila a’zolarining ishdan yoki o‘qishdan vaqtliroq kelishlariga odatlantiring. Oldindan kelishib, farzandingizni tug‘ilgan kuni bilan tabriklash uchun unga yoqadigan eng kerakli biron-bir sovg‘a xarid qiling. Yoki o‘zi anchadan beri olib bering, deb yurgan narsasini olib bering. Dasturxonga yaxshi ko‘radigan taomi, shirinliklari va mevalarini tayyorlang. Shu kuni tug‘ilgan kuni nishonlanayotgan bolangizni kundalik ishlardan ozod qiling. Qolgan farzandlaringiz barcha yumushlarda sizga yordam bersin.

Oila a’zolarining hammasining tug‘ilgan kunlarini shunday o‘tkazishga ko‘nikma hosil qilgan farzandalaringiz keyinchalik tug‘ilgan kунларни o‘zlari mustaqil ravishda o‘tkazadigan bo‘ladilar. Bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli bo‘ladilar. Bola-chaqali bo‘lganlarida bir-birlarini yo‘qlaydigan, bir-birlariga yordam beradigan bo‘ladilar.

Bolani yoshligidan mehnatga o‘rgatib boring. Inson birdaniga mehnatkash bo‘lib qolmaydi. Siz buyurib ketgan ishlaringizni bolalaringiz baholu qudrat bajarib qo‘yishibdi-mi, chala yoki kamchiligi bo‘lsa ham, eng avvalo, o‘z xursandchiligingizni bildiring, ma’qul usullar bilan rag‘batlantiring. Ishimni

qo‘limdan oladigan bo‘lib qolibsizlar, deb maqtang. Dadasi yoki oyisi, xudoga shukur, o‘g‘il-qizlarimiz katta bo‘lib qolishibdi. Endi bemalol ularga ishonib ishlarimizni topshiraversak bo‘lar ekan, deb bolalarni o‘zla-rining oldida ularga ishonch bildirib qo‘ying. Ishlaridagi kamchiliginu yotig‘i bilan ularning nafsoniyatiga tegmasdan, bafurja tushuntiring.

Farzandlaringizni iloji boricha muştaqil ishlashga, mustaqil fikr yuritishga o‘rgating. Masalan, ~~bir~~ fandan sizdan yordam so‘rasa, uni farzandingiz uchun ishlab bermang, faqat tushuntiring. Masalani mustaqil hal qilib bo‘lgandan keyin «Mana o‘zing bemalol yechsang bo‘lar ekan-ku», – deb ko‘nglini ko‘tarib qo‘ying. Ana shunda farzandingizda o‘ziga ishonch hosil bo‘la boradi.

Farzandlaringizni uy ishlariga o‘rgatib boring. Yoshiga qarab qo‘lidan keladigan ishlarni buyurib turing.

Mazangiz bo‘lmay qoldi, deylik. Bolalaringizning yoshiga qarab uy ishlarini taqsimlab bering. Sizning holingizdan xabar olib turishsin. O‘zingiz o‘rgatgan qo‘lidan keladigan ovqatni qilishsin. Buyurgan ishlariningizni o‘zlari rejalab, o‘zlari mustaqil ravishda qilishsin. Kichkinangiz bo‘lsa, uning boshingizni silab qo‘yishini ayting. So‘ngra ancha yengil tortganligingizni ayting. Sizning sog‘ayishingizga uning ham hissasi qo‘shilayotganidan bolangiz nihoyatda xursand bo‘ladi. Sizga nisbatan mehri ortib boradi. Sizning ham uning yordamiga, mehriga muhtoj ekanligingizni his etadi.

Ota-onaga, qaynona-qaynotaga bo‘lgan mehrni ham ota-onada tarbiyalaydi. Aytaylik bugun siz biror narsa xarid qilib keldingiz. Siz bu narsalarni ochib, bolalaringizga biror idish olib kelishlarini ayting va ulardan oldin ota-onangizga solib beringda, buving bilan buvangga olib borib ber, deng. Ota-onangiz buni ko‘rib bolalaringizni duo qiladi. Bolalaringiz esa bundan boshi osmonga yetadi. Buva-buvisiga yana mehribonlik qilgisi keladi. Bolalaringizga, shu bahonada, duo olish – bu o‘sishing

uchun kerak, u tabarruk narsa, inson qo‘lidan kelgancha boshqalarga yaxshilik qilib borishi kerakligini uqtiring. Shu yo‘sinda tarbiyalangan farzandingiz qariganingizda siz qilgan ishingizni qaytaradi. Chunki unga bunday tarbiyani yoshligidan singdirgansiz. Farzandlaringiz endi buva-buvilarning duosini duru javohirlarga, hech qanday boylikka tenglashtirib bo‘lmasligini tushunib boradi. Shuning uchun ham xalqimiz:

Taomning oldini ota-onangga bersang,

Ertaga sen ham oldini yeysan,

deyishgan.

Quyidagi masalada keltirilgan epizodlarni tahlil qiling.

**1-masala.** S. Rahimov tumanidagi qariyalar uyiga ikki onaxonning bir-biri bilan urushayotganligining ustiga borib qoldik. Yetnish olti yoshli Hosiyat xolaning hech kimi yo‘q. Eri urushda qurban bo‘lgan. Bitta o‘g‘li bo‘lgan, u ham vafot etgan. Oltnish yoshli Zamira ismli ayol yuqoridagi ayolni shaltoqlikda ayblab, u bilan turmasligini aytib janjal qilayotgan ekan. Zamira ayadan so‘rasak, u to‘rt o‘g‘li borligini ayttdi. Bolalari, kelinlari, nevaralarini hammasini qarg‘ab tilga oldi. Uning bu qarg‘ishlariga ilon po‘st tashlaydi. U bizdan o‘g‘illari, kelinlari ustidan yozib, sharmanda qilishimizni so‘radi. Ayaning aytishlaricha to‘rt o‘g‘il, to‘rt kelin, nevaralari – hammasi o‘ta mehrsiz, ahmoq, yaxshilikni bilmaydigan ekan. Gap orasida xonadoshi Hosiyat ayaga: yaxshi bo‘lsang, qariyalar uyiga olib kelib tashlasharmidi, deb qo‘yar edi.

Siz Zamira ayani qanday baholaysiz? To‘rt kelinini bir-biriga yomonlagan, kelinlarining yaxshi ishlarini ko‘rmay, uncha-muncha kamchiliklarini ro‘kach qilib, o‘g‘illariga yomonlagan qaynona oilasida o‘ziga nisbatan mehr uyg‘ota olarmidi?

Xalqimizning quyidagi hikoyatini tahlil qiling.

Tinglagin bu ikki inson qissasin:

Ne eksang olarsan shuning mevasin.

Yashardi bir uyda ota va farzand,

Ularda yo‘q edi boshqa hamdard.  
So‘ngra kelin keldi, o‘g‘il ulg‘ayib,  
Ota ham qaridi qaddi bukchayib.  
O‘z ishini qildi oxir shu jahon –  
Kelini ko‘tardi otaga isyon.  
Yigitga aytardi g‘azabla kelin:  
«Tiyib qo‘y otangning zaharli tilin,  
Na turar, na yurar – yotar bir joyda,  
Bu badbaxt odamdan bizga ne foyda?  
Gar uni yo‘qotsang baxtli bo‘lamiz,  
Undan so‘ng ikkimiz o‘ynab kulamiz.  
Yo‘qsa men ketaman boshqa bir yoqqa,  
Sening izing yetmas uzoq-uzoqqa! ».  
Ikki o‘t ichida yigit chekdi g‘am,  
Tushmasin hech boshga bundayin sitam.  
To‘xtatolmay ko‘zdan oqqan yoshini,  
Yarim tun ko‘tardi g‘amgin boshini.  
Turib opichdi bemor otani,  
Hech kim qaytarmasin bunday xatoni.  
Otaga yolg‘ondan «safarga» dedi,  
Lekin shum niyati xatarga edi.  
Otasin opichlab qirlardan o‘tdi,  
Oxiri sen ko‘rgan daraxtga yetdi.  
Bizni ko‘rmas, archa turar qo‘qqayib,  
Yigit qaytmoq bo‘ldi, otani qo‘yib.  
Bu ishdan padari qah-qahlab kului,  
Farzand bu holatdan hayratda qoldi:  
«Tashlab ketmoqdaman bugun seni men,  
Nega yig‘lamasdan kulding bunda sen?».  
Ota so‘z boshladi o‘g‘ilga qarab,  
Daraxt ostidagi suyakni silab:  
«Otamni shu daraxt ostiga o‘zim  
Tashlab ketgan edim seningdek, o‘g‘lim.

Boq, bosh suyagi kulmoqda menga,  
Go‘yo men kulgandek ushbu dam senga».  
Bu gapni eshitgach, o‘g‘il dod solib  
Jo‘nadi otasin ko‘tarib olib.

Shuni unutmaslik kerakki, bemorning kasalini davolash uning ruhiyatini va ma’naviyatini shakllantirishdan ko‘ra osonroqdir. Shu o‘rinda Mirzo Boburning quyidagi bayti beixtiyor esga tushadi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,  
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.  
Yaxshi kishi yomonlik ko‘rmagay hargiz,  
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir.

## **2.15. Me’yoridan ortiq ko‘rsatilgan mehribonlik nomehribonlik bo‘lib qaytadi**

Tarbiya inson tanasiga beriladigan hayotbaxsh ozuqaga o‘xshaydi. O‘simpliklarga solinadigan ozuqaning me’yorini oshirib yuborsangiz, u o‘sib, g‘ovlab ketadi va yaxshi hosil bermaydi. Aksincha, me’yoridan kam solinsa, yaxshi o’smaydi, hosil ham bermaydi. Ozuqaning me’yorini bilish uchun esa bilim, tajriba ko‘nikma, fahm-farosat talab qilinadi. Agar ekinga qaysi vaqtida ozuqa, qachon suv, ishlov berilishini ilman va aqlan idrok qilolsak, marra bizniki. «Qalovini topsang, qor ham yonadi», – deganlaridek mehnat, bilimingizga yarasha hosilni olaverasiz. Farzand tarbiyasida ham xuddi shunday: unga beriladigan mehrning me’yorini bilish lozim. Me’yoridan ortiq berilgan mehr ijobiylar ta’sirdan ko‘ra ko‘proq salbiy ta’sirga aylanishi mumkin.

Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida «Tarbiya ona vazifasidir, keyin ota, keyin maktab va jamoatchilik ishidir», – deydi. Olim bu asarida ota-onalar o‘zlarini

bilimli va tarbiyalı bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydi: «Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq, qo‘li to‘qmoq onalarnimi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qayerdan olib berurlar. Qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zi qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursiz-mi? Avval ularning o‘zlarini o‘qitmoq va tarbiya qilmoq lozimdir». Demak, farzand tarbiyasida chuqur mushohada, o‘tkir aql talab qilinár ekan. Biz, ota-onalar, tinmay izlanishimiz, o‘qishimiz, hayotni kuzatishimiz va uni uqishimiz lozimdir.

Ma’naviy merosimizdan olingen quyidagi rivoyatning mag‘zini chaqing. Ko‘chada o‘ynab yurgan bolakay mo‘jazgina hovlida ish bilan band onasining oldiga qo‘lida bir dona tuxum bilan chopib keladi.

Onasi: Qayerdan olding?

Bola: Ana u pichanning ustiga qo‘schnimizning tovug‘i tuxum qilibdi. Qarasam, hechkim yo‘q. Oldim.

Onasi: o‘rtoqlaring ko‘rmadimi?

Bola: Yo‘q.

Onasi: Qo‘ni-qo‘schnilar-chi? Hech kim yo‘q edimi?

Bola: Hech kim yo‘q edi.

Onasi: Yaxshi, hozir pishirib beraman.

Keyin bu odatiy holga aylanib qolibdi. Oxiri, tovuq tuxumdan qolgandan keyin, bola tovuqning o‘zini tutib, onasiga keltiribdi. Onasi yana: Hech kim ko‘rmadimi, – deb so‘rabdi. Bola esa: Hech kim ko‘rmadi, – deganidan keyin, yaxshi, hech kim ko‘rmagan bo‘lsa, hozir sho‘rva qilib beraman, –debdi.

Shunday qilib, bola boshqa qing‘ir ishlarga ham qo‘l uradigan bo‘libdi. Bora-bora qiyalmasdan, birovlarining haqidan qo‘rqmasdan, or qilmasdan yashashga o‘rganibdi. Kunlardan bir kuni shoh saroyiga o‘g‘irlikka kiribdi. Bu gal omadi yurishmagan yigit qo‘lga tushibdi. Shoh qo‘lga tushgan o‘g‘rini shahar maydonida ko‘pchilik oldida osishni buyuribdi.

Farmon bajarilishidan oldin shoh yigitga oxirgi so‘zga ruxsat bergen ekan, yigit: O‘limim oldidan onamni bir ko‘rsam, – debdi. Onasini olib kelibdilar. Onaizor yelib-yugurib, sochlari to‘zg‘igan, oyoq yalang holda hansirab farzandi oldiga ko‘tarilibdi: Voy, ko‘zimning oqu qorasi, umrimning mazmuni, hayotim quvonchi, nima savdolar tushdi boshimga. Sen o‘lguncha, men o‘lay, bolam! O‘g‘lining oldiga yaqinlashganida, o‘g‘li: Onajon, o‘limimdan oldin tilingizdan bir o‘pay, – deb iltimos qilibdi. Onasi: Voy, men o‘lay. Bu nima deganing? Mayli, bolam, – deb tilini chiqarib o‘g‘liga yaqinlashgan ekan, o‘g‘li onasining tilini tishlab, uzib olibdi-da, onasiga qarab: Onajon, meni bu dor tagiga olib kelgan sizning mana shu tilingiz bo‘ladi. Agar siz mening o‘g‘irliliklarimga boshida: Qo‘y, bolam, bu birovning mulki, peshona teri, halol mehnati evaziga kelgan. Birovning muikiga xiyonat qilgan odamning kuniga maymun yig‘laydi, – deb tushuntirganingizda, o‘zing mehnat qilgin, mehnat qilsang xor bo‘lmaysan, sabr-qanoatli bo‘l, xalq orasida obro‘ qozonasan, – deb noto‘g‘ri yo‘ldan qaytarib, tarbiyalaganingizda, bu yo‘lga kirib, hozir o‘lim oldida turmagan bo‘lar edim. Yig‘ilgan xaloyiq gaplarimni eshitsin, ikkalamizning ham yo‘l qo‘ygan xatolarimizni ko‘rsin, ulardan xulosa chiqarishsin. Bizning boshiimizga tushgan kulfat boshqalarning boshiga tushmasin, – degan ekan.

Bu rivoyatdan ko‘rinib turibdiki, agar onaning o‘zi tarbiya ko‘chasidan ozgina toyib ketsa, hosilasi afsus-nadomatdan boshqa narsa bo‘lmaydi.

Jasurbekning bir o‘g‘li bor. Endigina tili chiqqan, juda biyron, sho‘x. Buning ustiga ota-onasi uning ko‘ngliga qarab juda erka qilib qo‘yishgan. Uyga kelgan mehmonlarning hammasiga: bizning o‘g‘il so‘kishni juda boplaydi-da. Qani, o‘g‘lim bir so‘kib bergin, – deydi. Tanti o‘g‘il esa «faxr» bilan burab so‘kadi. Yigit xursand. Chunki o‘g‘illi bo‘lgan, sho‘x

go'yoki uning o'g'ligina so'kishni boplaydi. Yosh otaning ma'naviy bilimi, hayot tajribasi yo'qki, bu kelgan mehmonlarning izzat-nafsiiga tegishini bilsa. Buni hatto o'ylab ham ko'rmaydi. Uning nazarida boshqalarning bunday shirin, aqlli o'g'li yo'q.

Mana shunday ota-onalarga «Kalila va Dimna» asaridagi ushbu hikoyatni eslatab o'tish joizdir.

Bir kuni hayvonlar shohi sher olamdan o'tib qolibdi. Hammalarini boshqarib, ko'z-qulqoq bo'lib turguvchi boshqliqlari bo'lmanidan hayvonlar orasida tartib buzilibdi, ular orasidagi birlik, ahillik yo'qolibdi. Bu holatni sezgan keksa hayvonlar shoh tayinlanmasa xarob bo'lamiz, bundan battar bo'lmaslik uchun bu ishni tezlashtirish kerak, – deyishibdi. Natijada kimni shoh etib tayinlash kerak degan masala qo'yilibdi. Shunday qarorga kelishibdi. Shoh tanlash vazifasini kirpi bilan qora qo'ng'izga bersak. Ular o'rmon o'rtasidagi maydonning chekkasidagi o't-o'lanlar orasiga kirib olib, hamma hayvonlar bolalarini o'ynayotganida kuzatsin – qaysi hayvonning bolasi ularga ma'qul bo'lsa, biz o'sha hayvon bolasini shoh etib tayinlaymiz, deb kirpining tikonlariga olma qadab, ma'qul ko'ringan hayvonning bolasiga berishni tayinlashibdi. O'sha hayvonning bolasi shu daqiqadan boshlab bizga shoh etib tayinlanadi, deyishibdi. Ularni yo'lga kuzatishibdi va bu masalani hal qilish uchun ularga uch kun muhlat berishibdi. Oradan uch kun ham o'tibdi. Yana bir-ikki kun poylashibdi. Lekin kirpi bilan qo'ngizdan darak yo'q emish. Xavotirlana boshlashibdi. Qayerda qolib ketishdi ekan, yana biror kattaroq hayvonlar ko'rmay yanchib ketishmadimikin, – deb o'tirishganida eshikdan kirpi bilan qo'ng'iz ko'rinishibdi. Kirpining tikonlarida olma hali sanchilib turganmish. Ular hayron bo'lib turishgan ekan kirpi bilan qo'ng'iz birin-ketin gapga tushib ketishibdi:

Kirpi: Men ayiqpolvonning bolasini kuzatdim. U shunday

qo'polki, har gal ag'darilganda boshqa hayvon bolalarining oyog'i yoki qo'lini bosib olayapti.

Qo'ng'iz: Men tulki bolasini kuzatdim. U shunday ayyorki, boshqa hayvon bolalarini aldab-aldeb ketayapti.

Kirpi: Men ilonning bolasini ham kuzatdim. U boshqa hayvon bolalari bilan o'ynayotganida ularni chaqib olay, chaqib olay deb harakat qildi. Menga uning harakatlari yoqmadi.

Qo'ng'iz: ...

Kirpi: ...

Kirpi va qo'ng'izning hamma javoblarini tinglagan keksa hayvonlar: Endi nima maslahat berasizlar, – deb so'rashibdi.

Kirpi: Mening bolam biram ixcham, biram aqli, biram yumshoqki, hayvonlar shohi bo'lsa arziydi, – debdi.

Qora qo'ng'iz: Ixchamlidka mening bolamga teng keladigani yo'q. Xavf-xatar yaqinlashadigan bo'lsa, u yerni teshib, yashirinib olishi mumkin. Aqli, chiroqli, oppoq, – debdi va kirpining tikonlaridagi olmaga yopishibdi. Kirpi esa olmani bergisi kelmabdi. Natijada olma majaqlanib, mayda-mayda bo'lib ketibdi.

Keksa hayvonlar hayron bo'lib: Yo tavba, kirpi bolasini yumshog'im, qora qo'ng'iz oppog'im deydi-ya, – deyishibdi. Shuning uchun xalqimizda «Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga», «Qora qo'ng'iz bolasini oppog'im, kirpi yumshog'im, degan ekan» kabi maqollar tez-tez tilga olinib turadi.

Biz xizmat taqozosi bilan ayollarning hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida Qashqadaryo viloyatida bo'ldik. Ko'pdan-ko'p ayollar, oilalar bilan suhbatlashdik, ularning muammolari, turmush tarzi, huquqiy, tarbiya masalalari bilan qiziqdik.

Shunday oilalarning birida ularning taklifiga binoan bo'lishga to'g'ri keldi. Bu xonardon o'ziga anchagini to'q bo'lib, oilada 3–4 yoshlari chamasidagi shiringina bir qiz farzand bor ekan. U salom berib, xonaga kirib keldi. Hammamiz alik olib, unga yuzlandik. Qizaloq oyisidan nonga sariyog' surib berishni

so‘radi. Oyisi bir burda non olib, unga sariyog‘ surib, qiziga uzatdi. U nariroq borib, nonning yog‘ini yalab, yana yog‘ surib berishini iltimos qildi. Onasi nonga yana yog‘ surib berdi. Uchinchi bor kelganida xonadon sohibasi qiziga yog‘ surib berdi-da, uning qo‘lidan ushlaganicha siltab xonadan chiqarib yubordi. Bundan achchig‘i chiqqan qizcha nonni biz o‘tirgan xonaga qarab uloqtirdi. Non gilamning ustiga kelib tushdi. Biz bilan gaplashib o‘tirgan qizchaning onasi o‘rnidan turib, shaxdam qadamlar bilan borib qizining yuziga bir shapaloq urdi. Qizcha yig‘lab qoldi. Haligi ayol suv, sochiq olib kelib, gilamning non tushgan joyini arta boshladi. Biz qizaloqning yig‘isidan anchagacha dilimiz xufton bo‘lib o‘tirdik. Gilamni yuvib-artib bo‘lgan ayol yonimizga kelib, choy quyib berayotib: Endi bu yog‘ tekkan joy dog‘ bo‘lib qoladigan bo‘ldi. Gilamni ximchistkaga bersam ketarmikan. Essiz, agar yog‘ ketmasa, gilam xorijnniki edi, – dedi. Hammamiz lol qoldik. Biz bu ayolning: «Sen hamma narsadan aziz nonni yerga otadigan bo‘ldingmi», – deb qiziga dakki berdi-da, bu oilada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilayotgan ekan, degan xayollar bilan o‘tirgan edik. Biz kechagina shu ayol ishtirokida o‘tkazgan suhbatlarimiz, ma’ruzalarimizning oiladagi tarbiya boshi bo‘lmish bu ayolimizga ozgina bo‘lsa ham nafi tegmaganligidan xafa bo‘ldik. Shuncha say-harakat, vaqt, asabning bu ayol uchun daxlsiz qolganligidan achindik.

Nima uchun bunday? Nima uchun tarbiya, ma’naviyat borasida har qadamda olib borilayotgan zahmatli mehnat ba’zi toifa yoshlari, oilalarimiz uchun besamar ketadi? Endi o‘sib kelayotgan, mustaqil hayotlarini boshlayotgan boshqa zamondoshlarimiz uchun esa tarbiya borasida berilayotgan bunday bilimlar ularning ongiga suv va havodek singib ketadi, ma’naviyatining yanada yuksalishiga olib keladi.

Hamma gap har bir farzandga oila deb atalmish muqaddas uyada berilayotgan tarbiyada, unga bo‘lgan e’tiborda. Oilani

kichkina bir ijtimoiy, ma'naviy me'morchiлик maskaniga qiyos qilish mumkin. Bu maskanda uning xizmatchilari bo'lmish ota va ona tomonidan hammaning diqqat-e'tiborini tortadigan, hammani zavqlantiradigan, hamma havas qiladigan zamonga hamnafas holda tobora chiroj ochib boradigan ma'naviy inshoot yaratib borilishi mumkin, va aksincha, o'z holiga tashlab qo'yilgan, zamonning ko'rkini buzadigan, unga ijtimoiy dard keltiradigan ma'naviy xaroba ham «hadya» qilishi mumkin.

Shu o'rinda quyidagi qiyoslamani keltirish maqsadga muvofiqdir. Bolari va qovoqari bir xil ozuqa – shakardan biri bol, biri zahar yaratganidak, ota-ona ham bir xil biologik zot – odamdan jamiyatga naf beradigan inson ham, jamiyat uchun g'am-tashvish keltiradigan inson ham o'stirishi mumkin. Lekin farzandning o'zi zehnli, aql-farosatli, bilimga chanqoq bo'lib, ma'naviy barkamolligi uchun qayg'uradigan bo'lsa, u birovning masalahatini, pand-nasihatini quloqqa oladi, har bir yaxshi narsadan o'ziga ijobiy fikr oladi, o'zidagi ba'zi bir kamchiliklarni yo'qotishga harakat qiladi. Bunday insonlar o'z baxtlarini o'zları yaratadilar. Ammo o'zida hech narsa bo'lmagan, ota-onasidan biron-bir ma'naviy xamirturush olmagan farzand uchun har qanday ma'naviy o'git, tanbeh ortiqcha, besamardir. Biz yuqorida tilga olgan ayolni 'ham shunday insonlar toifasiga kiritish mumkin. Bunday insonlarni faqat hayot tarbiyalashi mumkin, xolos.

Yosh ota-onalar zimmasiga farzand tarbiyasi kabi o'ta yuksak vazifa yuklanar ekan, eng avvalo, ularning o'zları axloqan pok, keng dunyoqarashli, ma'naviy boy, tarbiya bobida tinmay izlanuvchan va harakatda bo'lishlari, bu masalaga o'ta jidiylik bilan qarashlari, sinchkov va e'tiborli bo'lishlari lozim. Umumiyligi, siyosiy, huquqiy, kasbiy bilimlarni egallab borishlari bilan birga pedagogika, psixologiya, biologiya fanlari bo'yicha ham o'z bilimlarini oshirib borishlari va olingan bilimlarni amalda qo'llab borishlari kerak bo'ladi.

## **2.16. Er-xotinning oiladagi bir-biriga munosabati, yurish-turishlari komil farzand tarbiyalashning amaliyotidir**

Oilada farzandlarimiz ota-onalarining bir-birlariga bo‘lgan munosabatlariga qarab izzat-hurmatni, muomalani o‘rganib boradi. Ota-onalarimiz bir-birlariga mehrli bo‘lsalar, shirin muomala qilsalar bolalar ham shunga ko‘nikma hosil qilib, shunday muomalaga o‘rganadilar. Agar turmush o‘rtog‘imizni ishga kuzatayotganda «Yaxshi borib keling, adasi» yoki ishdan qaytganlarida «ishga yaxshi borib keldingizmi, adasi» deb tabassum bilan kuzatib qo‘ysak va kutib olsak, oiladagi o‘g‘il-qiz farzandlarimiz ham onaning bu harakatini ko‘rib, otasiga hurmati oshadi. Ota-onani hurmat qilish kerakligini tushunib boradi.

Afsuski, hamma oilalarda ham shunday o‘zaro hurmat va mehr-oqibat mavjud emas. Ba’zi oilalarda erni hurmat qilish o‘rniga ularga hukmron bo‘lish, ularni «o‘z izmiga solish»ga bo‘lgan intilish holatlari ham uchraydi. Hatto «bo‘ysinmaydigan» erlarini o‘z ayollik mavqeyidan «foydalanib» o‘n besh sutkaga qamatgan «onalar»ni ham uchratamiz. Bu bilan «topqir» ayollarimiz go‘yoki o‘z erlarining ta’zirini berib qo‘ymoqchi bo‘ladilar. Bunday oilada arning xotinga bo‘lgan hurmati, mehri susayib boradi, hatto bora-bora esa yo‘qoladi. Endi er o‘z xotinidan topmagan hurmatni, mehrni boshqalardan qidira boshlaydi va natijada oila mustahkamligiga putur yetadi. Agar er surunkasiga ichib, har kuni oilaning tinchligini buzadigan bo‘lsa, buni ma’lum darajada tushunish mumkin. Lekin bu holda ham boshqa yo‘l topish mumkin. Ahyon-ahyonda ichib keladigan bo‘lsa, arning o‘sha kungi kayfiyatini buzmasdan, shirin muomala qilib ko‘ngliga qarash lozim. Bolalar oldida turli ortiqcha gaplar bilan eringizning obro‘sini to‘kmang. Ertasiga o‘ziga kelganida yotig‘i bilan, baqirmay-chaqirmay bafurja gaplashish mumkin. Masalan,

«Kechagi holatingizdan bolalar oldida juda uyaldim. Sizga bunday holatda yurish yarashmas ekan. Axir bolalar bizga qarab hayotni o'rganishadi, hayotda o'zlariga yo'l tanlaydilar. Biz ularga o'rnak bo'lishimiz kerak. Bolalar katta bo'lishayapti» deyish mumkin. Bunda, agar fahm-farosati bo'lsa, eringiz ahvolni tuzatish kerak ekanligini tushunadi.

Ba'zi bir ayollarimiz borki, ular erlaridan ozgina ko'proq topganlarini minnat qiladilar. «Endi kosang oqarib qoldimi, cho'ntagingga pul tushib, semirib qoldingmi, pulli boyvachcha bo'lib, ichadigan bo'lib qoldingmi?» kabi so'zlar bilan bolalari oldida erini haqorat qiladi, uning obro'sini to'kadi. Natijada bolalar otani hurmat qilmaydigan, aytganini qilmaydigan, gapini ikki qiladigan bo'lib qoladilar. Onalari otasini yomonlayverishi evaziga bolalarda otaga nisbatan nafrat paydo bo'ladi. Endi ahyon-ahyonda, to'y-tomosha yoki biron-bir uzrli sabab bilan ichadigan er alamidan har kuni ichadigan bo'ladi va kelib xotinini uradigan, so'kadigan, haqorat qiladigan odat chiqaradi.

Faraz qilaylik, er do'stlarini uyga taklif qildi. Ammo bu tasodifiy taklif ayolga yoqmaydi. Chunki bir qancha ishlarni mo'ljallab qo'ygan yoki mehmonlarni kutib olish uchun imkoniyat yo'q. Natijada mehmonlar xursandlik bilan kutib olinmaydi. Bu holdan arning asabi qo'zg'aydi. Mehmonlar kuzatilgandan keyin esa xotinining «ta'zirini» beradi.

Bu hol boshqacha, yaxshi natija bilan tugatish ham mumkin edi. Fahm-farosatli ayol bunday hollarda oilaning borini oshirib, yo'g'ini yashirib, mehmonlarni ochiq chehra bilan erining hurmatini joyiga qo'yib kutib oladi va kuzatadi. Mehmonlar ketgandan keyin, vaziyatga qarab, er-xotin bir-birlariga qulq solgan holda, qanday ish tutish kerakligi haqida kelishib olishlari mumkin.

Masalan, uy bekasi bunday deyishi mumkin: «Adasi, mehmonlarni olib kelishdan oldin uyda u-bu narsa bormidi, deb

o‘ylab ko‘rsangiz yaxshi bo‘larmidi? Uyda mehmon kutishga oziq-ovqat yetarli emas ekan, qo‘shnidan olib chiqishga majbur bo‘ldim. Bundan buyon do‘stlaringizni uyga taklif qiladigan bo‘lsangiz, ogohlantirsangiz. Ikkovlashib mehmonni yaxshi kutib olish choralarini ko‘ramiz. Bo‘lmasam uyalib qolamiz». Bunday suhbatdan keyin er xotinning haq ekanligini tushunadi va bundan buyon xotini bilan bamaslahat ish tutishga harakat qiladi. Do‘stlari bilan suhbatda ularning: xotining juda ajoyib ayolda, uyingga qay mahal borsak ham ochiq chehra bilan kutib oladi. Tasodifan borib qolsak ham xotiningga hech malol kelmaganmiz», – degan gaplarini eshitib, xotiniga bo‘lgan mehri yanada ortadi, uni yana ham hurmat qiladigan bo‘ladi. Oradagi sevgi-muhabbat, oila rishtalari mustahkamlanadi.

Hayotda uchraydigan yana bir holatni olaylik. Aytaylik, turmush o‘rtog‘ingiz oyog‘i og‘rib, issig‘i chiqib, ishdan vaqtli qaytdi. «Buni qarang, Hilolaxon», – deb oyog‘iga chiqqan yarani sizga ko‘rsatdi. Siz yarani ko‘rib, ijirg‘andingiz: «Voy-bo‘y, shu arzimagan yarani menga nega ko‘rsatasiz? Do‘xtirga borsangiz bo‘lmaydi-mi?», Sizning bunday munosabatingiz, gaplaringiz turmush o‘rtog‘ingizning qalbini shunday yaralandiki, lol bo‘lganidan sizga so‘zsiz boqib qoldi. Nahotki, jufti halolim deb bir yostiqqa bosh qo‘ygan xotinim mendan shunchalik jirkansa. Og‘irroq kasal bo‘lib qolsam-chi, unda nima bo‘ladi», – deb sizdan mehri soviy boshlaydi. Keyinchalik siz o‘ylamay aytilgan bir og‘iz so‘z bilan paydo qilgan qalb yarasini davolash uchun butun umringizni sarf qilishga to‘g‘ri kelishi mumkin. Shunda ham agar bu ijobiy natija bersa.

Aksincha, mana bunday holatni tasavvur qilaylik.

Voy, Anvar aka! Issig‘ingiz chiqib shuncha qiyalsangiz ham yuraverdingizmi? Qani keling-chi, – deb mehribonlik bilan birinchi yordam ko‘rsatsangiz va do‘xtirga albatta chiqishlarini aytsangiz, bundan buyon bu masalaga har kuni qiziqib borsangiz, olam guliston. Turmush o‘rtog‘ingiz endi har kuni

ishdan keyin uyga shoshiladigan, sizni qo‘msab turadigan bo‘ladi. Siz uchun esa bundan ortiq baxt bo‘lmasa kerak!

Oila qurgan har bir yigit-qiz, er-xotin bir-birini «Mehr» deb atalmish malham bilan oziqlantirib tursa, unga suyansa, uni e’zozlasa, ulardan baxtli odamning o‘zi bo‘lmaydi.

Ra’noxon ismli kelnimiz yuqori harorat bilan yotib qoldi. Ishdan kelgan Anvarjonning oldiga zo‘rg‘a chiqib salom berdi. Alik olgan Anvarjon: «Ovqat bormi?», – deb so‘radi. Ra’noxon tobi bo‘limgani, shuning uchun ovqat qilolmaganini tushuntirdi. Anvarjon: Mana yuribsiz-ku, ovqat qilib qo‘ysangiz bo‘lmaydimi, – deb jahl aralash g‘udrandi. O‘zi oshxonaga kirib, ikkita tuxumni qovurdi-da, o‘tirib tamaddi qildi. Anvarjonning bundagi har bir xatti-karakati, gapida zarda, kinoya, viqor, mensimaslik alomatlari sezilib turar edi. Ovqatlanib bo‘lgan Anvarjon Ra’noning oldiga kirib: Dasturxonni yig‘ishtirib qo‘yishga yararsiz?, – desa, bu Ra’noning qalbiga sanchilgan xanjar emasmi?

Buning o‘rniga Anvarjon har kuni xursand holda tabassum bilan kutib oladigan turmush o‘rtog‘ining ahvolini ko‘rib; Ie, Ra’no, nima bo‘ldi? Yoting, bezovta bo‘lmang. Dori ichdingizmi? Ovqatlandingizmi?, – deb batafsil hol-ahvol so‘rab, sochlarni silab, erkalab qo‘ysa, Ra’no kasalini ham unutadi. . Turmush o‘rtog‘ining kelishiga ovqat qilib qo‘yolmaganidan xijolat bo‘ladi. Bu bilan Anvarjon o‘z turmush yo‘ldoshini shirin so‘z, qalb mehri bilan davoladi. Endi Ra’no Anvarjonning kelishiga bir emas, ikki xil ovqat tayyorlaydi. Sizning bergen mana shu ma’naviy ozuqangiz tufayli u qanot chiqarib uchadi. Barcha ishlarni bitmas-tuganmas kuch-g‘ayrat bilan qiladi. Haqiqiy mehribon turmush o‘rtog‘i borligidan, toleidan xursand bo‘ladi, hayotdan mammun bo‘lib yashaydi. Endi uning suyanadigan tog‘i bor. Suhbatlashish uchun dilkash yori bor. Qiynalgan paytlarida elkadoshi bor. Dunyoda undan baxtli ayol yo‘q!

Shu o‘rinda A. R. Beruniyning ayollar haqida bundan o‘n birinchi asr ilgari aytgan quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: «Ayollar olmosga o‘xshaydi. Olmos olmos bo‘lguncha necha-necha charxlardan o‘tadi, qanchadan-qancha mashaqqatlarga chidaydi. Natijada qirralari shunday ishlov topadiki, yaraqlaganida ko‘zni oladi. Olmos shu tariqa qimmatli toshga aylanadi». Ayollar tortgan mashaqqatlari, sabr-qanoatlari evaziga shunday bahoga sazovor bo‘ladilar. Qizlarimiz ham borgan xonadonlariда aqlilik, zukkolik va kamtarlik bilan ish ko‘rsalar, ulardan baxtli ayol bo‘lmaydi.

Beruniy o‘zining «Hindiston» asarida «Hech bir xalq oilanikoh munosabatlaridan holi emas», – deydi. Oila qurishdan avval qiz va yigit bir-birlarini ko‘rishlari, yoqtirishlari, bir-birlariga qalban mehr qo‘yib, so‘ng oila qurishga rozilik bildirganlari ma’qul. Chunki, bu qalban yoqtirish, ya’ni boshqacha aytganda, ikki yurakning bir-biriga nisbatan «jiz» etishi keyingi oilaviy tashvish va mojarolarning silliq o‘tishiga yordam beradi, hayotda uchraydigan turli qiyinchilik va to‘sislarni yengib o‘tishda kuch-quvvat bag‘ishlaydi.

Islomda bu masalada quyidagi g‘oya bayon qilinadi. Nikohdan oldin kelinga mahr berish shartligi, kuyov bo‘lmishning ijtimoiy ahvoli yaxshi bo‘lmasa, u holda mahrni qisman bo‘lsa ham berish kerakligi nazarda tutilgan.

Shariatda mahr bu nikoh oldidan ayolning ko‘nglini olish, uning qalbida kuyovga nisbatan mehr uyg‘otish maqsadida, shaxsan kelin bo‘lmishning o‘ziga berilishi lozim bo‘lgan sovg‘alardir. Ular shirinliklar, taqinchoqlar, ro‘mol yoki matolardan iborat bo‘lishi mumkin. Ular orasida shirinlikning albatta bo‘lishi kerakligi nazarda tutilgan.

Mahr berish islomda sunnat hisoblanadi. Janobi Rasululloh salollohu vasallam qizlari Fotimani bo‘lajak kuyovi Aliga berayotganlarda kuyovning mahr bergen yoki bermaganligini so‘rab bilganlar.

Beruniy yozadi: Ey, qizim. Sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan, sen bo'lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'l, u osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tut, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi oliyjanob bo'ladi. Osmon shifoli yomg'iri bilan yerni ko'kartirgani kabi, u ham o'z mehru shafqati bilan seni xushnud etadi... Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlar eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda, sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma... Yaxshisi sen u bilan xushmuomalada, shirin so'zli bo'lgin... Bu ishing har qanday sehr-jodudan yaxshidir. Suvdan tez-tez foydalangin. O'zingga xushbo'y narsalar bilan oro ber. Pokizalik hamisha yo'ldoshing bo'lsin...

Beruniyning bu pandu nasihatlari o'ninchи asrga tegishli bo'lishiga qaramay, ular hozirgi kunda ham oila qurish oldida turgan har bir qiz uchun baxtli turmush qurish kaliti bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

## **2.17. Oila-yoshlarda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning -muhim omili**

Odobning elementar ko'rsatkichlari oilada shakllana boradi. O'zingdan kattalarga salom ber, ovqatdan oldin qo'lingni tozalab yuv, ovqatning oldini kattalar boshlab beradi, kattalar turganda kichiklar yuqoriga chiqib o'tirmaydi... Xuddi shuningdek, uyga kelgan mehmonga qilgan muomalangiz, mehmonlar ketgandan keyin u haqda bildirgan fikrlaringiz hamma-hammasi bola uchun andaza. Ota-onalarning o'zлари bir-biriga gap qaytarsa, betga chopar bo'lsalar, bolalar ham bunday muomalani tabiiy deb qaraydilar. Oilada tarbiyaviy muhit sog'lom bo'lsa, ota-onsa, aka-uka opa-singil bir-birini hurmat qilsa mehribon bo'lishsa, biri ikkinchisiga yordam bersa, bu odatlar asta-sekin ko'nikmaga aylanadi va avlodlarga ham

uzatiladi. Agar ota-onaning o'zi gapini o'ylab gapirmaydigan, befarosat bo'lsa, tutimi ozoda bo'lmasa, bu oilada tarbiyalangan qiz ham, o'g'il ham befarosat, uy tutimiga befarq bo'lib tarbiyalanadi. Xalqimizda «Onasini ko'r-u, qizini ol, molini ko'r-u bo'zini ol» degan maqol bejiz aytilmagan.

Talabalar bilan amaliyot davrida bir ochiq sudda o'tiribmiz. Ikki yosh turmush qurishganiga bir yil-u ikki oy bo'lgan. Yigit 21 yosh, qiz 19 yosh. Sudda bu ikkala yoshning qonuniy nikohlarini bekor qilish masalasi ko'rilmoxda. Ularga savollar berila boshlandi.

– Siz turmush o'rtog'ingizni ko'rib, yoqtirib turmush qurbanmisiz?

– Ha.

– Siz-chi?, – deb yigitdan so'rashdi.

– Ha, – dedi yigit. Lekin hozir nafratlanaman. Xotinsiz o'tsam o'taman, ammo bu bilan yarashmayman. Halitdan shunday qabihlik qilsa, oqibati nima bo'ladi?

Kelinga qarasak, u yum-yum yig'lab o'tirardi. Ajralish sababi quyidagicha bo'lgan ekan. Yigit ertalab turib qarasa, o'miga tariq sochilib qolibdi. Hayron bo'lgan yigit ertalab nonushtada xotiniga qarab, o'miga tariq sochilib qolganini aytadi. Onasi: Bolam, cho'ntak-po'ntagingda bo'lsa, to'kilib qolgandir-da. Yigit hayron bo'lib, ajablanib, o'ylanib ishga ketibdi. Ertasi kuni yana shu hol takrorlanibdi. Nonushta paytida yigit buni yana onasiga aytgan ekan, onasi xafa bo'libdi: «Bolam, men sizlarning yotoqxonalaringga kirmasam. Kechqurun yotishdan oldin uyoq-buyog'ingni qara. Men qayoqdan bilay qayerdan to'kilganini». Ertasi kuni yigit yotish oldidan o'mini yaxshilab tekshiribdi. Hamma yoq joyida – hech qanday tariqdonachalari yo'q. Qiziq, qayerdan to'kilib qolishi mumkin, deb fikran o'ylab yotgan yigit tongga yaqin yuziga mayda-mayda narsalarning tushayotganidan uyg'onib ketibdi. Sapchib o'rnidan turib qarasa, tepasida xotini tariq sochayotgan ekan. Yigit xotinining

u yuziga, bu yuziga shapaloq bilan uribdi.

Yigit sudda: «Halitdan bunday ishlarni qilgan ayol keyinroq bundan battarini qiladi. Men bu ayolga bo‘lgan ishonchimni, mehrimni yo‘qotdim. Menga berilgan ikki muhlatning ikkalasida ham uzoq o‘ylab, shunday qat’iy qarorga keldim», – deb o‘z fikrida turib olgan edi.

Kelindan so‘ralsa, u ko‘zlar to‘la yosh to‘rt oylik homilasi borligi, kechirishini so‘rab, yigitga termilar, lekin yigit qarorim qat’iy deb o‘jartik qilar edi. Nega bunday qildingiz, deb kelindan so‘ralganda u: «Onam ozgina tariq, yarim kilo novvot, bir quti choy, yarim kilo magiz, erkaklarning yangi ichki kiyimi olib keldilar. Mana bu tariqni ering uxlab yotganida uch kun ustidan sepasan, novvotni mana bu choydan damlab, ichiga soLIB ichirasan, magizdan yedirasan. Shularning hammasini qilsang, ering «gah» desang qo‘lingga qo‘nadigan, hamma aytganlaringni qiladigan bo‘ladi, dedilar. Men tariqni uchinchi kun sepayotgan edim. Jasur akam bilib qoldilar ...», – deb bo‘lgan gapni hikoya qilib berdi.

Bu holatni ko‘rib, qizining tinchgina yaxshi yashayotganiga shukur qilmagan onaga nisbatan nafratimiz qo‘zidi. Bir-birini ma’qul ko‘rgan, yaxshigina yashayotgan yosh oilaga o‘zining ma’naviy qashshoqligi, befarosatligi, kaltabinligi tufayli qilgan xatosi oqibatida bu ona o‘z qizining baxtiga zomin bo‘ldi. Uning ustiga qiz ham sakkizinchи sinfni bitirib, biron-bir kasbni egallash uchun o‘qishga kirmay yoki biron-bir hunarning egasi bo‘lmay, onasining sotuv ishlariga ko‘maklashib yurgan. Muloqotda bo‘lib yurgan odamlarning ham turish-turmushidan, mahalladagi boshqa oilalardan, turmush voqeя va hodisalaridan xulosa chiqarmagan, hayotni kuzatmagan. Kitob o‘qish, o‘zining dunyoqarashini, ma’naviy bilimlarini oshirish, o‘z ustida ishslashdan uzoq bo‘lgan. Natijada, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish darajasiga ko‘tarilmagan. Oqibati esa o‘zingizga ayon. Agar qiz ozgina bo‘lsa-da, mustaqil fikr yuritganida, men usiz

ham yaxshi yashayapman. Jasur akam sezib qolsalar menga bo‘lgan ishonchlari yo‘qoladi, – deb onasi olib kelgan o‘sha novvot, choy, magizlarini ro‘zg‘orga ishlatib, «tariq muolijasi»ni qilmaganida edi bu mojarolar bo‘lmagan bo‘lar edi. «Boshingga ne kelsa tilingdan va o‘zingdan ko‘r», – deydi ulug‘ allomamiz Alisher Navoiy. Uyimizdagи xursandchilik, xafachilik – hamma-hammasi faqat o‘zimizdan.

Kaykovus o‘g‘li Gilonshoh uchun yozgan «Qobusnoma» asarida quyidagi hikoyat bor. Bir kuni shoh tush ko‘ribdi. Tushida 32 tishining 31 tasi tushib ketganmish. Og‘zida bittagina tishi qolgan emish. Shoh bu tushining ta‘birini saroydagi donishmandlardan, ulamolardan so‘rabdi. Bir donishmand tushini quyidagicha ta‘birlabdi: Ey, shohim, bu tushingiz yaxshi tush emas. Uning ta‘biri quyidagicha. Sizning qarindosh-urug‘laringiz, farzandlarингиз, xotiningiz o‘lib ketar ekan. Bitta o‘zingiz qolar ekansiz, – debdi. Bu ta‘biri eshitgan shoh darg‘azab bo‘lib, hamma qarindosh-urug‘lar, farzandlarim, xotinim olamdan o‘tib ketsa, men yashab nima qilaman, – deb jahli chiqib, jallodni chaqiribdi va haligi donishmandning boshini tanidan judo qilishni buyuribdi. Farmon bajarilibdi. Shohning tushini ta‘biridan ko‘ngli to‘lmabdi. Boshqa donishmandlarni ham jalb qilib, tush ta‘biri bilan yana qiziqibdi. Ammo yuqoriðagi donishmandning boshi tanidan judo bo‘lganini ko‘rib, donishmandlardan birortasining ham tushning ta‘birini aytishga yuragi dov bermabdi. Saroydagi ulamolar, donishmandlar bu vaziyatdan chiqish uchun rosa o‘ylashibdi. Oxiri shunday qarorga kelishibdi. Shaharning chekkasida bir donishmand yashaydi. Bir o‘zi turadi. Shunga xabar beraylik. O‘sha bizni qutqazishi mumkin. O‘sha donishmandni topib, unga bo‘lgan voqeani tushuntirishibdi. Donishmand ularning suhabatlarini tinglab, takliflariga rozi bo‘libdi. Donishmandni saroya olib kelishibdi. U shoh huzuriga kamtarona, salom bilan kirib: shohim, ko‘rgan tushlaringiz muborak bo‘lsin. Bundan

yaxshi tush bo‘lishi mumkin emas. Buni qarangki, hamma qarindosh-urug‘laringiz, oila a’zolaringiz – hamma-hammasi uzoq umr ko‘rishar ekan. Ammo ularning hammasidan ham uzoq umr ko‘radigani o‘zingiz ekansiz, shohim, – debdi. Bunday shirin so‘z, kamtarlik bilan nazokatli, nafis bayon qilingan ta’birdan shohning ko‘ngli ko‘tarilib, xursand bo‘libdi. Ulamolariga zar to‘n va bir lagan oltin olib kelishlarini buyuribdi. Shunday qilib, shirinzabon, topqir donishmand sovg‘a-salomlar bilan kulbasiga qaytibdi. Oradan bir qancha yillar o‘tibdi. Xalq tinch, xotirjam yashayotgan ekan. Saroy xabarchilari shoh navbatdagi yurishda zafar qozongani, juda katta boyliklar bilan qaytayotgani, bir qancha shaharlarni bosib olgani haqida xabar berishibdi. Uch kundan keyin shoh shaharga yetib keladi. Shaharda qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y beriladi, – deb e’lon qilishibdi. Hamma to‘yga tayyorgarlik ko‘rishni boshlab yuboribdi... Keksa shohning olti yoshli o‘g‘li bo‘lib, u dadasini juda yaxshi ko‘rar, dadasing kelishini intazorlik bilan kutar edi. Shoh ham nihoyatda xursand. Vatanga oshiqar, tezroq jigarlarini ko‘rishni istardi. Ayniqsa, merosxo‘ri Junjuni juda sog‘ingan edi. Dadasing kelishini sabrsizlik bilan kutayotgan Junju hammadan oldin dadasini ko‘rmoqchi bo‘lib, hovlidagi katta yong‘oq daraxtining ustiga chiqadi. Ko‘rmayapman, ko‘rmayapman, deb tobora daraxtning tepasiga chiqaveradi va kichik bir shoxga oyog‘ini qo‘yib, atrofni kuzata boshlaydi. Shunda birdan shox sinib, Junju yiqilib tushadi va til tortmay o‘ladi. Bu hodisani ko‘rgan va eshitganlar nihoyatda iztirob chekadilar, Yig‘lagan ham yig‘laydi, yig‘lamagan ham yig‘laydi... Butun shahar motamda. Hamma mulzam. Shohning esa shaharga kirib kelishiga yaqin qolgan. Kim bu mudhish xabarni shohga yetkazadi. Hech kimning yuragi dov bermas zdi. Chunki bundan bir necha yil oldin tushiga bergen ta’biri yoqmaganligi uchun bir donishmandning boshini tanasidan judo qilganligi hali hech kimning esidan chiqmagan, bu mudhish

xabarni eshitgandan keyin shoh g'azab o'tida bir necha kishining boshini tanidan judo qilishi tayin edi. Saroydag'i ulamolar, donishmandlar o'ylanib, o'sha bir vaqtlar ularni mushkul ahvoldan qutqazgan donishmandni eslashibdi. Uch-to'rt kishi bo'lib, o'sha donishmandni qidirib topib, ahvolni tushuntirishibdi. Donishmand shoh qachon shaharga kirib keladi, – deb so'rabi. Ertaga, – deyishibdi ulamolar. U holda men ertaga saharda tayyor bo'lib turaman, meni shahar tashqarisidagi shoh kirib keladigan yo'lga chiqarib qo'yinglar, – debdi. Ulamolar donishmandning aytganini qilib, saharda yo'qlashibdi. Nihoyatda juldur kiyimda keksa donishmand qo'lida setori bilan yo'lga hozirlana boshlabdi. Ulamolar bir setorga, bir donishmandga qarab, hayron bo'lishibdi. Donishmandni shahar tashqarisidagi yo'lda qoldirib, o'zлari shaharga qaytishibdi. Donishmand speshingacha kelmagan shohdan xavotirlanib turgan ekan, uzoqdan chang-to'zon ko'tarilib, ularning kelayotganiga ko'zi tushibdi. Yo'lning bir chekkasiga o'tib, setorda nihoyatda bir mungli kuyni chalib o'tiraveribdi. Kuuning ohangi uzoq-uzoqlarga eshitilar, hamma uning g'amgin nolalari ta'sirida sekin-asta donishmandga yaqinlasha boshlabdi. Shoh donishmandning oldiga yetib kelganida otdan tushib, bu juldur kiyim kiygan keksa bizning zafarimizdan xabari yo'q shekilli, deb o'ylab: Ey, otaxon, nechun bunday g'amgin kuyni chalib o'tiribsiz, axir biz zafar bilan qaytdik, butun shahar to'yga tayyorgarlik ko'rayapti. Siz nechun bu yerda o'tiribsiz?, – debdi. Ey shohim, uch kun bo'ldiki, ichimizga chiroq yoqsa yorishmaydi, – deb ko'zлari – to'la yosh bilan: Suvlar boshdan loyqalansa, tindiruvchi kim bo'lar, daraxt tubdan qulasa, turg'izuvchi kim bo'lar, shohim?, – debdi. Shoh: Suvlar boshdan loyqalansa, tindiruvchi Junju bor, daraxt tubdan qulasa, turg'izuvchi Junju bor, – debdi. Donishmand: Suvlar boshdan loyqalansa, tindiruvchi Junju yo'q endi, daraxt tubdan qulasa turg'izuvchi Junju yo'q endi, – debdi. Buni eshitgan shoh

tushunibdiki, yolg‘iz merosxo‘ridan ayrılgan. Shu sabab hamma motamda, iztirobda ekanini tushungan shoh oh urib, alam va dard bilan shaharga kirib kelibdi. Keksa donishmandning o‘zi ham qattiq iztirob chekkanidan kasal bo‘lib qolibdi. Saroy ulamolari va donishmandlar keksa donishmandga saroyga yaqin joydan kichik bir joy sotib olib berishibdi va unga oyoqqa turib ketganicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatishibdi.

Donishmand shu tariqa o‘zining aql-farosati, teran idroki, chuqur mulohazasi bilan bir qancha odamlarni boshini tanasidan judo qilishdan asrab qolgan ekan.

Agar farzandlarimizda yoshu-keksaga ma’qul bo‘ladigan, mehrlilik, shirinzabonlik, ochiq chehralik, inson dilini og‘ritmaslik, shirin muomala qilish kabi fazilatlar kurtagini yoshligidan yozdirsak, allalar, rivoyatlar dostonlar, hikoyalar, maqollar, insonlarda bir-biriga mehr uyg‘otuvchi pandu-nasihatlar berib borish va o‘qib berish orqali ularning o‘zları ustida mustaqil ravishda tinmay ishlashlari uchun sharoit va imkoniyat yaratib borsak, tarbiya borasidagi ko‘zlangan maqsadga erisha boramiz. Eng avvalo, bunday fazilatlar biz ota-onalarning o‘zlarida bo‘lmog‘i lozim.

■ Farzandlardan, yoshlardan, umuman insonlardan mehr kutgan odam, eng avvalo, o‘zi boshqalarga mehr ulashishi zarur.

■ Oilada ota-onalar bir-birlarini hurmat-izzat qilishsa, bolalar ham bir-birlarini va ota-onasini hurmat-izzat qiladilar.

■ Til shirinligi, so‘zni hurmat qilish, fahm-farosat bilan so‘zlash, so‘z chegarasini anglash kabi fazilatlarni bolada yoshlikdan shakllantirib borish lozim.

■ Beobro‘ bo‘imaslik uchun «Til – aql tarozisi» degan iboraga amal qilgan holda, qaysi gapni qayerda so‘zlash lozimligini unutmaslik kerak.

Oiladan so‘ng farzandlarimiz mакtabda, oliy dargohlarda hamda hayotni kuzatish orqali tafakkurini, fahm-farosatini, aql-idrokini sayqallab, o‘tkirlashtirib boraveradi. Jamiyatimiz talabi

ham, baxtli bo'lish kaliti ham shunda.

Quyidagi pedagogik masalani tahlil qiling va javobini belgilang.

Ahyon-ahyonda bir-birlarini unga yomonlashadi. Katta kelin bunga qanday qarashi kerak.

a) yomonlagan kelinga qo'shilib, ikkinchi kelinni yomonlashi kerak;

b) befarq bo'lishi kerak;

d) har ikkalasining gapini tasdiqlab, o'zini yaxshi ko'rsatish uchun birini ikkinchisiga yomonlashi kerak;

e) kelinlarni tinglab bo'lgach, birini ikkinchisiga maqtashi, hozirgina sizni maqtab, yaxshi ko'rishi aytib o'tirgan edi, – deb bir-biriga mehrlarini oshirishi kerak.

### **3. OTA-ONALARING OILADA KOMIL INSONNI TARBIYALASHDAGI ROLINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

Har bir ishning o‘ziga xos, ma’lum qonun-qoidalari bo‘lganidek, bola tarbiyasining ham o‘ziga xos bir qator muhim qonun-qoidalari bor, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta’minlaydi va ular quyidagilar:

- Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- Tarbiyaning hayot va mehnat bilan O‘zbekistonning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo‘lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog‘lanishi;
- Shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- Tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;
- Tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamliligi hamda birligi;
- Tarbiyada o‘quvchilarning yoshi va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Ota-bobolarimiz farzand o‘sтирар ekan, ularning xulq-atvorlariga, gap-so‘zlariga, kishilar oldida o‘zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrashib, o‘z maqsadlarini qanday so‘zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma’lum. Chunonchi, Qur’oni karim oyatlari mazmuni, Hadisi sharif, Sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning manbai bo‘lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini qamrab olgan. U go‘daklarni emizishdan tortib, qanday kiyintirishgacha, ovqatlanish odobidan tortib, ko‘cha-kuyda, kattalar qoshida o‘zini qanday tutish lozinligigacha

barcha jihatlarni ko'rsatib bergen. Eng asosiysi, islomiy odob farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchi, kattalarni, ayniqsa, ota-onani hurmatlash ruhida tarbiyalashni shart qilib qo'ygan.

«Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar!», «Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi», deyiladi hadisda. Yana bir hadisda esa: «Mo'min kishiga berilgan narsalarning eng yaxshisi chiroyli xulqidir», •deyilgani bejiz emas. Bobokalonlarimiz hamisha barkamol inson shaxsini tarbiyalashga intilganlar va o'z farzandlari, mahalla yoshlari va butun jamiyatning tarbiyalı bo'lishi uchun kurashganlar.

O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e'tibor bergen. Buning natijasida asrlar davomida aqlu zakovatga, qomusiy bilim va qobiliyatga ega bo'lган buyuk allomalarimiz yetishib chiqib va olamga tanildi. Bu allomalar oilada ota-onalarning bola tarbiyasiga alohida e'tibori yuzasidan fikrlarini o'z asarlarida keltirib o'tishganlar.

Odatda o'g'il bola otasiga, qizlar esa onasiga o'xshashga, ulardagi yaxshi xislatlarni o'ziga singdirishga harakat qiladi. Ota ham, ona ham bolani tarbiyalashga birgalikdagi o'z hissalarini qo'shadilar. Ona g'amxo'r, mehribon, ko'ngilchan uy bekasi bo'lsa, ota kuch-qudrat, jasurlik qattiqqo'llik va adolat ramzi. Ota ham, ona ham bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy kamoloti uchun barobar javobgar, chunki ularning birdan-bir maqsadi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Ana shu jarayonning muvofaqqiyatli bajarilishi ko'p o'rinda ota-onaning obro'siga bog'liq. Oiala a'zolari o'zaro hurmatni o'rniga qo'yishlari, birlarini uchun jon kuydirishlari, yaxshi munosabatda bo'lishlari kerak. Oilada hamisha samimiyat va ko'tarinki ruh hukmron bo'lsa, oila a'zolarining kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi.

Oilada har bir bolaning tug'ilgan kunlarini kichik dasturxon

atrofida nishonlash ham bolaning qalbida «Ota-onam menga nisbatan befarq emas ekan» degan ijobiy tushunchalar paydo bo'ladi hamda oilada milliy an'analarning yuksak axloqiy muhiti shakllanishiga imkon yaratiladi. Masalan, to'y marosimlari, yubiley kechalari yoki oila a'zolaridan birining mukofotlanishi, ma'lum sohada yaratilgan ixtiroga bag'ishlangan oilaviy tantanalar oila an'analari jumlasiga kiradi. Bu albatta milliy tarbiyaning yanada shakllanishiga imkon yaratadi.

Ota-onalar bolalarining kelajagini o'ylab, ularni ilk yoshligidan mehnatga o'rgatib chiniqtirib boradilar, to'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham mehnatdir. Ma'lumki, har bir oilaning o'z xo'jaligi bo'ladi va u o'z xo'jalogini sof, halol mehnati bilan yuritadi. Oila davlatmand bo'lsa, bu hol oila a'zolari yaxshi va baxtli hayot kechirayotganini, iste'mol buyumlarini ko'proq xarid qilayotganini, o'z ehtiyojlarini ko'proq qanoatlantirayotganini bildiradi.

Har bir bola oilaning teng huquqli a'zosidir. Demak, u oila xo'jaligining ishtirokchisidir. Shu bilan birga biz bolalarimizni faqat oila xo'jaligini yuritishga qobiliyatli kishilar qilib tarbiyalabgina qolmay, shuningdek, butun jamiyat xo'jaligini, ham tejab-tergab yuritadigan sadoqatli fuqarolar qilib tarbiya qilmog'imiz lozim. Ko'pincha ota-onalar bolalarining hamma narsasi muhayyo bo'lishi, ya'ni yaxshi yeb-ichishi, yaxshi kiyinishi, katta bo'lganda uy-joyli bo'lishi haqida o'ylaydilar. Bularning hammasini farzandlariga cheksiz mehribonliklaridan va ularni behad sevganliklaridan qiladilar. Bolalarini deb o'zlarining eng zarur ehtiyojlarini qondirishni ham chetga surib qo'yadilar, lekin buni bola esiga ham keltirmaydi va hatto sekinsta o'zini hammadan ortiq, mening istagim ota-onam uchun qonun, deb o'ylashga odatlanadi.

Bu tarbiyaning noto'g'ri va zararli yo'li bo'lib, bunda ota-

onalarning o'zлari ko'проq zahmat chekadilar. Bizningcha, ota-onalar o'z farzandlarini mehnatsevar va tejamkor qilib tarbiyalashi uchun quyidagilarga amal qilishlari kerak.

1. Bola o'z ota-onasining qayerda ishlashini va nima ishlab chiqarishini, bu ishlab chiqarishning butun jamiyat uchun qanday ahamiyati borligini bilishi kerak. Umuman, bola ota-onasi ishlab, topib keltiradigan daromadning katta va foydali ijtimoiy mehnat evaziga olinadigan ish haqi ekanini mumkin qadar ertaroq tushunishi lozim.

2. Bolani oila budjeti bilan mumkin qadar ertaroq tanishtirish lozim. U otasi va onasining qancha maosh olishini bilishi kerak. Bola ota yoki onasining nimaga muhtoj ekanligini, bu muhtojlikning qanchalik zarurligini bilishi zarur, u oilaning boshqa a'zolari ehtiyojini yaxshiroq qondirish uchun o'zining ba'zi ehtiyojlaridan vaqtincha kechishga odatlantishi kerak. Oilaning umumiy ehtiyojiga doir masalalarni muhokama qilishga bolani ko'проq jalb qilish lozim.

3. Agar oilaning moddiy sharoiti juda yaxshi bo'lsa, bolaning o'z tengdoshlari oldida bunday yaxshi sharoit bilan g'ururlanish va maqtanishiga odatlantirmaslik kerak. Bola oilaning boyligidan o'zgalar oldida gerdayishga hech qanday asos yo'qligini tushunishi zarur.

4. Ota-onalar bolalarining halol, rostgo'y va sofdillikka odatlanib borishlarini diqqat bilan kuzatishlari kerak. Ular hech narsani boladan atayin yashirmsliklari va shu bilan birga begonaning qimmatbaho buyumi uning ko'z o'ngida yotgan bo'lsa ham, so'roqsiz olmaslikka o'rgatishlari zarur. Havas keltiradigan har xil narsalarni atayin bolaning ko'z o'ngiga qo'yib, uni ana shu narsalarga beparvolik bilan suyuqlik qilmay qarashga o'rgatish lozim.

5. Oilada tejamkorlik va ehtiyyotkorlik tarbiyasini to'g'ri tashkil etib, eskirib qolgan narsalarni yaxshilab ta'mir qilib, yangisini sotib olish vaqtini cho'zish va shu yo'l bilan ota-onalar

yoki oilaning boshqa a'zolari topgan pulning ma'lum qismini tejab qolish mumkin bo'ladi. Shuning uchun bolani yoshligidan boshlab narsalarni ehtiyyot qilishga odatlantirish lozim. O'z oila xo'jaligini yaxshi yuritmoqchi bo'lgan kishi ro'zg'or buyumlarining juda ham eskirib qolishiga yo'l qo'ymasligi, ularni o'z vaqtida tuzattirishi, bozorda yoki do'konda tasodifan ko'rib qolgan narsasini sotib olavermay, balki haqiqatan ham kerak bo'lgan narsani sotib olishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarga ham shu odatni singdirib borish kerak.

6. Bola faqat o'z xonardonidagi buyumlarnigina ehtiyyot qilib qolmay, balki boshqa kishilarning buyumlarini va ayniqsa, ko'pchilik foydalanadigan, jamoat buyumlarini ham o'zining, ota-onasining va jamiyatda mehnat qilayotgan mehnat ahlining xizmati evaziga barpo etilgan sifatida tushunib, qabul qilib ehtiyyot qiladigan bo'lishi lozim.

7. Tejab-ter gab ish ko'rish odatlarini bolada mumkin qadar ertaroq shakllantirmoq, tarbiyaviy ongiga singdirmoq darkor. Odat bu har kuni eslatish yo'li bilan hosil qilinadi. Shu yo'l bilan bolada buyumlarni tejab-ter gab tutish istagini doimo rag'batlantirib turish kerak.

8. Pulni tejab-ter gab sarflashga o'rgatish, ayniqsa, muhimdir. Bunday xarajatlarning ro'yxati bolaning yoshiga va oilaning budgetiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Deylik, boshlang'ich sinflarda o'qiyotgan bola uchun taxminan quyidagicha ro'yxat tuzsa bo'ladi: daftар, kitob sotib olish, yo'l kira, butun oila uchun non, sut, sariyog',sovun sotib olish, o'zi va ukasiga ruchka olish. Bola katta bo'lgan sari, bunday xarajatlar ro'yxati ancha kattaroq va murakkabroq bo'lib borishi lozim.

Oilada ota-onalar o'z farzandlarining mehnatsevar, tejamkor va ehtiyyotkor kishilar bo'lib etishishlarida o'zlari namuna bo'lishlari kerak. Bu tarbiya ishlari uchun juda muhim omillardan sanaladi.

### 3.1. Ota-onani hurmat qilgan elda aziz

Farzand ota-onan qo‘lidagi omonatdir, uning dili esa nafis gavharga o‘xshaydi. Gavharga har xil naqshlar solish mumkin bo‘lgani kabi bola diliga, qalbiga ham ma’naviy-axloqiy tarbiya bo‘yicha ota-bobolarimiz me’rosi va zamon talabiga mos tarbiya muhitini gavharcha bitilgan naqsh sifatida kiritish, turli fikrlar naqshini solish mumkin. Bola qalbi toza yer kabidir, unga qanday urug‘ sepilsa o‘sha urug‘ unadi. Shuning uchun ota-onan bu ishda o‘zaro hamkor bo‘lib, uning diliga yaxshilik urug‘ini sepmoqlari lozim. Shu o‘rinda bir hikoyatni keltirish o‘rinlidir. Bir kishi yig‘ilishda ota-onan haqida va’zonlik qilayotgan paytda bir qariya o‘rnidan turib, yig‘laganicha: «Ey mavlono, otasining soqolidan tutib, boshiga kaltak bilan urgan farzand haqida nima deysiz?» – deb so‘rabdi. Shunda u «Otasi uni nima ishga o‘rgatgan ekan?» – deb so‘rabdi. U esa: «Eshakni ijaraga berishga»-deb javob beribdi. «Ayb uning otasida, – debdi unga, bolani yoshligidan ilm o‘rganishga jalg qilganida va yaxshi kishilar suhbatiga yuborganda undan bunday ish sodir bo‘lmash edi. Ota bunday ish qilish o‘rniga eshakni ijaraga berishga o‘rgatibdi. Natijada bola eshakni jilovidan tortib, boshiga cho‘p bilan urishga o‘rganib qolgan. U o‘z otasining soqolini eshakning jilovi, deb o‘ylab tortgan, boshiga esa eshakning boshi deb yog‘och bilan tushirgan» – debdi.

Xalqimizda qadim-qadimdan ota-onani olamda eng ulug‘, mo‘tabar, eng muqaddas zot, deb biladi. Qur’oni karim, Hadisi shariflarda hamda son-sanoqsiz hikmatlar, rivoyatlarda ota-onanining farzand uchun qanchalar qadr-qimmatli, mehribon, vafodor, sodiq, g‘amxo‘r, madadkor, murabbiy, moddiy va ma’naviy tayanch ekanligini qayd etib, ularni umrbod e’zozlash, izzat-hurmat qilish, qadriga yetish, «boshiga ko‘tarib yurish», «qo‘ltig‘iga kirib» suyanch, tayanch, hamkor, hamdard, hamnafas bo‘lish, ularning gapini yerda qoldirmaslik, pand-

nasihatlariga quloq solish va amal qilish, yomonlikni ravo ko'rmaslik, dilini og'ritmaslik, aksincha, yaxshilik va faqat yaxshilik qilib, bergen tuz-nasibasini oq sutini oqlab, har jihatdan rozi qilib, olqishu duosiga sazovor bo'lish. Ularning boshlangan ishlarini, an'analarini davom ettirish nihoyatda zarur ekanligi qayta-qayta uqtiriladi.

Farzand ota-onan uchun qanchalar shirin va aziz bo'lsa, ota-onan ham bolaga shunchalar shirin va azizdir. Ota-onan go'yo mustahkam qo'rg'on, seni doim xavf-xatardan saqlab turadi. Boshingni tog', yuragingni sher qilgan ham ota-onaning farzand deb chekkan zahmati shunchalarki, umr bo'yi uning xizmatini qilsang ham uzolmaysan, mana bir hikoyat: Musoviya ibn Hayyida aytdilarki, Rasullohdan: «Ey Rasulloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?» – deb so'radim. «Onagga», – dedilar. Men shu savolni uch marotaba qaytarsam ham Rasulloh; «Onagga», – deyaverdilar. To'rtinchı marta so'raganimda, «Otangga, yaqin bo'lgan qarindoshlaringga», – dedilar (Hadisdan).

Bir kishi payg'ambar alayhissalom huzuriga kelib: «Yo Rasulloh mening onam necha yildirki, ko'zları ojiz, qo'l oyoqlari shol bo'lib qolgan. Ularni yuvintirish, kiyintirish, ovqatlantirishdan tortib barcha yumush holatlarigacha boqish mening zimmamda. Qayerga desalar yelkamda ko'tarib olib boraman, hatto bir necha bor haj safariga olib borib, muqaddas Ka'bani ziyorat qildirib ham keldim. Mana shu xizmatlarim bilan meni tug'ib, tarbiyalab, voyaga yetkazganlariga munosib javob bergen bo'la olamanmi?» – deb so'rabdi. Shunda payg'ambarimiz bunday javob qilibdilar: «Yo'q. Agar onangning umrini oxirigacha shu tarzda xizmatida bo'lsangda, uning senga qilgan xizmatlarini o'ndan birini ham qaytara olmaysan. Chunki u seni go'dakligingdan tarbiyalar ekan, tangridan mudom sening sog'ligingni, umring uzun bo'lishini tilagan. Sen esa bu xizmatlaringni: «Uch-to'rt kuni bormi-

yo‘qmi, farzandlik burchimni ado etib, duosini olib qolay», deb qilmoqdasan».

Farzandlar ota-onaga mehribon bo‘lib, hol-ahvoldidan doim xabar olib tursa, siylasa, ko‘nglini topib shod etsa, o‘g‘il-qizi ham undan ibrat olib, keksalarni hurmatlaydigan baodab farzand bo‘lib o‘sadi. Insonga ota-onamizdek azizu noyob zotlarni qaytarib topib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda bir hikoyatni keltirib o‘tishni lozim deb topdik: Bir keksa kampirning yakkayu yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, u ulg‘aygach, xotinining so‘ziga kirib onasiga ovqat berganda turtar, so‘z aytganda jerkar, validasiga hech ro‘shnolik ko‘rsatmas ekan. Vaqt qazosi yetib, ona vafot etibdi, o‘g‘li esa el yurt o‘rtasida obro‘-e’tibor topmoqchi bo‘lib, onasi tobuti ustida bosh urib yig‘labdi. Har ma’rakasida qozon-qozon osh damlab elga osh yediribdi. Bir kun ona o‘g‘lining tushida yig‘lab nola qilibdi: – Ey bolam, men uchun endi aziyat chekib, har xil ma’rakalar qilmay qo‘ya qol, men jannatdaman, – debdi.

«Qobusnama» muallifi Kaykovus ham ota-onani hurmat qilishga chaqiradi. Ota-onamizdek azizu noyob zotlarni qaytarib o‘tishni lozim deb topdik: Bir keksa kampirning yakkayu yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, u ulg‘aygach, xotinining so‘ziga kirib onasiga ovqat berganda turtar, so‘z aytganda jerkar, validasiga hech ro‘shnolik ko‘rsatmas ekan. Vaqt qazosi yetib, ona vafot etibdi, o‘g‘li esa el yurt o‘rtasida obro‘-e’tibor topmoqchi bo‘lib, onasi tobuti ustida bosh urib yig‘labdi. Har ma’rakasida qozon-qozon osh damlab elga osh yediribdi. Bir kun ona o‘g‘lining tushida yig‘lab nola qilibdi: – Ey bolam, men uchun endi aziyat chekib, har xil ma’rakalar qilmay qo‘ya qol, men jannatdaman, – debdi.

«Qobusnama» muallifi Kaykovus ham ota-onani hurmat qilishga chaqiradi. Ota-onamizdek azizu noyob zotlarni qaytarib o‘tishni lozim deb topdik: Bir keksa kampirning yakkayu yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, u ulg‘aygach, xotinining so‘ziga kirib onasiga ovqat berganda turtar, so‘z aytganda jerkar, validasiga hech ro‘shnolik ko‘rsatmas ekan. Vaqt qazosi yetib, ona vafot etibdi, o‘g‘li esa el yurt o‘rtasida obro‘-e’tibor topmoqchi bo‘lib, onasi tobuti ustida bosh urib yig‘labdi. Har ma’rakasida qozon-qozon osh damlab elga osh yediribdi. Bir kun ona o‘g‘lining tushida yig‘lab nola qilibdi: – Ey bolam, men uchun endi aziyat chekib, har xil ma’rakalar qilmay qo‘ya qol, men jannatdaman, – debdi.

«Qobusnama» muallifi Kaykovus ham ota-onani hurmat qilishga chaqiradi. Ota-onamizdek azizu noyob zotlarni qaytarib o‘tishni lozim deb topdik: Bir keksa kampirning yakkayu yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, u ulg‘aygach, xotinining so‘ziga kirib onasiga ovqat berganda turtar, so‘z aytganda jerkar, validasiga hech ro‘shnolik ko‘rsatmas ekan. Vaqt qazosi yetib, ona vafot etibdi, o‘g‘li esa el yurt o‘rtasida obro‘-e’tibor topmoqchi bo‘lib, onasi tobuti ustida bosh urib yig‘labdi. Har ma’rakasida qozon-qozon osh damlab elga osh yediribdi. Bir kun ona o‘g‘lining tushida yig‘lab nola qilibdi: – Ey bolam, men uchun endi aziyat chekib, har xil ma’rakalar qilmay qo‘ya qol, men jannatdaman, – debdi.

«Qobusnama» muallifi Kaykovus ham ota-onani hurmat qilishga chaqiradi. Ota-onamizdek azizu noyob zotlarni qaytarib o‘tishni lozim deb topdik: Bir keksa kampirning yakkayu yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, u ulg‘aygach, xotinining so‘ziga kirib onasiga ovqat berganda turtar, so‘z aytganda jerkar, validasiga hech ro‘shnolik ko‘rsatmas ekan. Vaqt qazosi yetib, ona vafot etibdi, o‘g‘li esa el yurt o‘rtasida obro‘-e’tibor topmoqchi bo‘lib, onasi tobuti ustida bosh urib yig‘labdi. Har ma’rakasida qozon-qozon osh damlab elga osh yediribdi. Bir kun ona o‘g‘lining tushida yig‘lab nola qilibdi: – Ey bolam, men uchun endi aziyat chekib, har xil ma’rakalar qilmay qo‘ya qol, men jannatdaman, – debdi.

Ota-onani hurmatini joyiga qo‘ymoq farzand uchun ham farz, ham qarz, qobil farzand ota-onan shuhratini ko‘taradigan ishlarga qo‘l uradi, ularni ranjitadigan narsalardan o‘zini tiyadi. Har qanday ishga qo‘l urishdan oldin ota-onan maslahati, rizoligini olishga intiladi. Ota-onan bilan hisoblashgan farzand hayotida qoqilmaydi, ishi o‘ngidan keladi, omad kulib boqadi, ota suyganni el suyadi, deyishadi. Ota-onaga behurmatlik, aka-uka, opa-singillarini mensimaslik, o‘z qadr-qimmatini yerga urish, qolaversa, o‘z baxtiga zomin bo‘lishdir. «Farzandning burchi ota-onaga mehribonlik, itoatkorlik, qariganda suyanchiq bo‘lib, ular shuhratini ko‘tarish», – deb ta’kidlanadi «Qobusnom»da. Ba’zi ota-onalar kasallik yo qarilik natijasida bolalarning moddiy himoyalariga muhtoj bo‘lsalar, boshqalari bunga ehtiyoj sezmaydilar. Ammo bundan qat’i nazar, hamma ota-onan bolasini har doim ko‘rib, uning orzu-istiklariga, intilishlariga sherik bo‘lgisi keladi. Agar farzand biror sabab bilan boshqa yoqqa ketsa, ota-onan bu ayriliqni og‘ir kechiradi. «Bolamga nima bo‘ldi ekan, tani-joni sog‘mikan?», – deb ming tashvish tortib xavotirda bo‘ladi.

Shuning uchun farzandlar ham ota-onan haqida: ya’ni «Otamiz oilaning uzog‘ini yaqin va yo‘g‘ini bor qilish uchun doimo harakatda bo‘ladi. U bizning yashashimiz uchun uy-joy hozirlaydi. Kiydirish uchun kiyim-kechak topadi. Ichishimiz va yeyishimiz uchun ovqat topish payida bo‘ladi. Boringki, har bir oilaning ravnaqi uchun birinchi galda harakat qiladigan kishi otadir. Ota-bobolarimiz biz uchun ter to‘kib harakat qilishni, qo‘lidan kelgan barcha yaxshiliklarni biz uchun muhayyo qilish yo‘lida jon-jahdi bilan mehnat qilayotganliklarini bilishimiz buning shukronasi uchun ularga itoat qilish, aytganlarini qulqoq qoqmay bajarishimiz, otamiz charchagan onda va yordam kerak bo‘lgan paytda darhol yordamga shoshilishimiz, farzandlik burchini o‘tash uchun hamisha shay turishimiz kerak. Onalarimiz esa bizlarni voyaga yetkazish uchun mehru

muhabbatini ayamasdan, oromidan kechib, kecha-kunduz uqlamay, tarbiyamiz bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Xafa bo‘lib qolsak yoki ko‘nglimiz bir oz ranjib qolsa, huzur-halovatini yo‘qotgan ham ona. Bog‘bonsiz biror daraxtning mevasi yaxshi bo‘lmaydi. Ona esa biz uchun bog‘bondir. U doimo bizni parvarish qilish payidan bo‘ladi» – deb doimo o‘ylashlari, jon kuydirishlari va ularning qilgan xizmatlarini bilishlari kerak.

Buni fahmlagan har qanday bola o‘z ota-onasini barcha narsadan ustun qo‘yadi va hamsha hurmatini qiladi. Aqilli farzand bir daqiqa bo‘lsa ham ona mehrini esdan chiqarmaydi, kichkina ishga qo‘l urganda ham ota-onani bundan voqif qilib, uning roziliginini oladi, aytgan so‘zlariga quloq solib, maslahatlariga amal qiladi, har vaqt ota-onani minnatdor qilishga urinadi. Voyaga yetgan bolalar yaxshi tarbiya olib, biror kasb egallab olganlaridan keyin har vaqt ota-onalari oldiga kelganlarida bir vaqtlar, ya’ni ayniqsa, shu onasidan sut emib katta bo‘lganlarini, uning quchog‘ida parvarish topganlarini o‘ylab, hech qachon onaga qattiq gapirmaydilar, yumshoq so‘zlar bilan uning ko‘nglini oladilar. Ota-onaning bir vaqt o‘zlar uchun chekkan jafolarini ko‘z o‘nglariga keltirib, shu chekkan jafo va mehnatlarini ozgina bo‘lsada, oqlashga urinadilar, ularning dil roziliginini olib, bir umr shodmon qiladilar.

Keksalik uy fayzli bo‘ladi, deyishadi xalqimiz. Ha, ular ro‘zg‘orning qutbarakasi. Xalqimiz asrlar davomida yaratgan yaxshi odatlar, hayot saboqlarini yoshlarga o‘rgatuvchi, qadrlab avloddan-avldodga uzatuvchi ham shu kattalar. Yoshlarni yo‘lga solib, qancha-qancha xatolardan saqlab kelayotganlar ham shu mo‘tabar keksalardir. Ularni har doim qadrlash yoshlarning insoniy burchi.

Imom al-Buxoriy «Al-adab al-mufrad» asarida ham farzandning ota-onaga nisbatan munosabatlariiga batafsil to‘xtalib o‘tib shunday deydi: Abdulloh ibn Abbosdan rivoyat qilinadi: «Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan

ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Alloh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan bittasini ziyorat qilsa, unga jannatning bir eshigini ochadi. Bola ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha Alloh taolo undan rozi bo‘lmaydi» deydilar. Shunda bir kishi «Agarda ota-onalar bolaga zulm qilsa, bola nima qilishi kerak?» – deb so‘radi. Abdulloh: «Agar ular bolaga zulm qilsalar ham bola ularni ranjitmasligi kerak», – dedilar.

Ayni paytda ota-onaning haqqini ado etish har bir inson farzandi uchun ham farz, ham qarz sanaladi. Bu borada imom al-Buxoriy hazratlari keltirgan quyidagi hadis ibratlidir:

Abu Burda ibn Abi Muai al-Ash’ariyning aytishlaricha, Abdulloh ibn Umar bir yamanlik odəm o‘z onasini opichlab, xonai Ka’bani tavof qildirib yurganini ko‘rdilar. U odam quyidagi baytni ohang bilan o‘qirdi:

**Onai zorim uchun bo‘ynimni eggan tevaman,**

**Tevaga mingan onam horsalar ham men charchamam.**

U shuni o‘qib turib Abdullohga qaradi-da: «Ey Abdulloh ibn Umar, mana shu xizmatim bilan men onamning haqqini ado qila oldimmi?»-deb so‘radi. «Yo‘q, bu xizmating seni tug‘ish vaqtida onangni qiy nab turgan to‘lg‘oqlarining bittasiga ham barobar emas», dedi. Keyin Abdulloh ibn Umar xonai Ka’bani tavof qildilar va maqomi Ibrohimga borib ikki rakat namoz o‘qib olib menga qarab: «Ey, Abu Musa al-Ash’ariyning o‘g‘li! Mana shu yerda o‘qiladigan ikki rakat namoz o‘zidan ilgarigi gunohlariga kafforot bo‘ladi», – dedilar.

Abu Murra aytadilar: «Marvon ibn al-Hakam Madinadan biror joyga safarga ketganda o‘z o‘rniga Abu Hurayrani qoldirib ketardi. Abu Hurayra Zul-Hulayfada turib, o‘zlarini bir xonada, onalari boshqa xonada yashardi. Abu Hurayra qachon o‘z xonalaridan tashqariga chiqadigan bo‘lsalar, onalarining eshigi oldiga kelib salom berardilar-da: «Meni yoshligimda tarbiyat qilganingiz uchun sizga Alloh Taoloning rahmati bo‘lsin», – der

edilar. Onalari ham u kishining salomlariga javob qaytarib: «Katta bo‘lganiningda menga yaxshilik qilayotganing, roziligidagi olayotganing uchun senga ham Alloh Taoloning rahmati bo‘lsin», -der edilar. Abu Hurayra tashqaridan qaytib kelganlarida ham ona-bola o‘rtasida shu muomala takrorlanardi».

Shuningdek, ota-onani so‘kmaslik, ularning duosini olish, hattoki, ota-onsa vafotidan keyin ham ularga yaxshilik qilish to‘g‘risidagi hadislarni alohida ta’kijdash joiz.

Abu Usayd hikoya qiladilar: biz Rasulloh huzurlarida edik, shu vaqtida bir kishi: «Yo Rasulloh, ota-onamning hayot vaqtlarida qilgan yaxshiliklarimdan tashqari, ularning vafotidan keyin yana nima qilsam shu yaxshiligidam davom etadi?» – deb so‘radi. Rasululloh: «To‘rtta narsani qilib yursang, ularga qiladigan yaxshiligidam davom etavergan bo‘ladi. 乌arning birlamchi, ota-onang haqqiga duo qilasan va gunohlarini kechirmakni Alloh Taolodan so‘raysan, ikkilamchi, ularning nasihat va shar‘iy vasiyatlarini amalga oshirasan, uchlamchi, ularning do‘stilarini hurmatlaysan va to‘rtlamchi, qavm-qarindoshlar bilan ular tufayli qaror topgan qarindoshlik aloqalarini uzmaysan», – dedilar.

Ota-onaning duosini olmagan har bir farzandning ikki dunyosi obod bo‘lmaydi. Ayniqsa, ona farzandni qarg‘asa yoki bolasining nojo‘ya qilgan ishlaridan norizo ohangda gapirsa ham ijebat bo‘ladi. Masalan, Mahmud az-Zamaxshariy yoshligida be‘lib o‘tgan bir voqeani quyidagicha keltiradi: «Kunlardan bir kuni u bir chumchuqni tutib olib oyoqlarini ip bilan maqkam bog‘ladim. Biroq chumchuq qo‘limdan chiqib ketib, devor orasiga (inga) kirib berkindi. Men uni indan tortib chiqarib oldim. Oyog‘iga bog‘langan ipning siqishi natijasida qushning oyog‘i uzilib (kesilib) tushdi. Bundan onam qattiq xafa bo‘lib «Sening bu qilgan ishingga Allohnинг albatta jazosi bo‘ladi deb koyidilar». Ma‘lumki, Zamaxshariyning bir oyog‘i cho‘loq bo‘lib, u butun umr yog‘och

oyoqda yurgan. Uning cho‘loqligi sabablari haqida tarixchilar turli rivoyatlarni keltirib, bunga onasining qarg‘ishi sabab bo‘lgan deb ta’kidlaydilar.

Ota-onalarga hayot mazmuni, beminnat duogo‘y, maslahatgo‘y, farzandlarini to‘g‘ri yo‘lga boshlab boruvchi yorug‘ mash‘al hisoblanadi. Hech bir ota-onalarga yomonlik tilamaydi. Hatto sovuq shamolni ham ravo ko‘rmaydi. Uni jon pardasida asrab-avaylab parvarish qiladi. Modomiki shunday ekan, farzandlar ham ana shunday munis, mehribon, oqilu dono ota-onalarga muvofiqu munosib bo‘lmoqliklari va bir umr xizmatlariga shay bo‘lib turmoqlari lozimdir.

Biz o‘zbek millatiga xos bo‘lgan bag‘ri keng xalqmiz. Agar ota-onamiz 110 yoshga kirgan bo‘lsada, biz 90 yoshga to‘lgan bo‘lsak ham ularning oldida biz yosh farzand hisoblanamiz. Shuning uchun ota-onalar farzand uchun eng yaqin va eng mehribon insonlar hisoblanadi. Onalarimiz uchun biz doim bolamiz, uning o‘ziga, so‘ziga, mehriga zormiz. Onalar shirin so‘zlari, tiganmas mehri va qalbi nuri bilan bir parcha etdan barkamol insonni tarbiyalaydilar. Ular ko‘zining nurini, sochining qorasini yoshlik husnini farzandlariga baxshida etib, surriyotlari uchun qiyinchiliklarga tayyordir. Insoniyat hayotida onaning o‘rni qanchalik yuksak bo‘lsa, otaning roli ham shunchalik beqiyosdir. Har bir ota farzandi siymosini o‘zining yoshligini, umrining bahorini va orzu umidlarini ko‘rishni istaydi.

Ota bu oila va farzandlar tashvishini ortmoqlab borayotgan karvon, umri mehnat bilan o‘tib, oila dasturxonini nozne’matlarga to‘ldirayotgan qadoq qo‘lli dehqon. Ota oila bilan jamiyatni bog‘lab turuvchi ma’naviy ip, oila a’zolarini jamiyat qonun-qoidalariga mos ruhda tarbiyalovchi murabbiy.

Farzandning burchi va mas’uliyati masalasi milliy va diniy an’analarda davlat tomonidan qabul qilingan qonunlarda ham o‘z ifodasini topgan. O‘zini xalq oldida burchli, mas’uliyatli deb

bilib, ota-onasini unutgan shaxsni ma'naviyatli inson deb bo'lmaydi. Umuman inson zotida vatanga, jamiyatga, xalqiga hurmat ota-onaga bo'lgan hurmatdan boshlanadi. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida shaxsning obro'-e'tibori o'z ota-onasiga munosabati bilan belgilanib kelgan. Ota-onani qarovsiz qoldirgan, ularga azob berib, haqoratlaganlar «oqpadar» deyilgan. O'zbeklarda «oqpadar» degan so'z juda og'ir haqoratdir, jamiyatning nafratiga duch kelishning ifodasidir. Oqpadarlardan ota-onagina emas, balki barcha qarindosh urug'lar, butun jamoatchilik yuz o'giradi.

Ota-onasi dunyoga keltirgani uchungina emas, balki ne-ne mashaqqatlarni ko'rib, turmushning og'ir yengilliklariga bardosh berib, tarbiyalab insoniylik darajasiga ko'targani uchun ham mo'tabardir. Otaning bosiq va mehribon nigohini, peshonamizni silab erkalagan qadoq qo'llarini, onaning kechalar uqlamay beshik oldida aytgan allalarini dunyodagi hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Dunyodagi eng noyob go'zallik ham ota-onasi tafti oldida xiralashib qoladi.

Shuning uchun ota-onaning farzandga nisbatan saksonta haqqi bor. Ularning qirqtasi tiriklik vaqtida va qolgan qirqtasi o'lgandan keyin amalga oshiriladi. Tiriklik chog'idagi qirqta haqining o'ntasi tanga, o'ntasi tilga, o'ntasi dilga va o'ntasi molga taalluqlidir.

Tanga taalluqli bo'lgan o'nta haq ota-onaga hamma vaqt hurmat ko'zi bilan qaraladi, qilma deb buyurgan ishlari qilinmaydi, ularning maslahati va roziligesiz hech bir ishga qo'l urmaydi, yana ular sen o'tirgan joyda hozir bo'lsalar, sen darhol o'rningdan turib kutib olasan, ular o'tirgan bo'lishsa, sen oyoqda tik turasan, ular ruxsat qilishgandagina o'tirasan. Ular o'tiradigan o'ringa sen o'tirma. Yo'lda birga ketayotganda ularning oldilariga o'tib olma. Agar tuproqli, loyli, suvli yoki umuman xavfli joy kelgandagina o'tib olishing mumkin. Ularning oldida ochiq chehra bilan o'tir. Qovog'ingni solma,

xo‘mrayib qarama, chaqirganlarida esa yugurib bor.

Ammo dilga “taalluqli bo‘lgan o‘n narsa shundan iboratki, birinchi–ularga rahmu shavqat bilan qara. Ikkinci–ularga doimo qo‘lingdan kelgancha yaxshilik qil. Uchinchi–sening shodliging ularning xursandchiligi bilan bo‘lsin. To‘rtinchi–ular g‘am tortsalar sen ham qayg‘ur va ularning dardiga malham bo‘lish yo‘lini qidir. Beshinchi–ular ortiqcha gapisalar ham o‘zinga malol olma. Oltinchi–ular tanbeh bersalar xafa bo‘lish o‘rniga xursand bo‘l. Yettinchi–ularga qancha yaxshilik qilmagin va haqlarini ado qilmagin ularning dillari zarracha ozor topishini o‘zing uchun or deb bil. Sakkizinchi–ularning qanday niyatlari bo‘lsa o‘sha niyatlarga yetishlari uchun harakat qil. To‘qqizinchi–ular qanchalik uzoq umr ko‘rsalar shunchalik quvon. O‘ninch–qanchalik dardli bo‘lsa shunchalik ko‘nglini olishga urin.

Ammo tilga taalluqli bo‘lgan o‘ntasi shundan iboratki, birinchi–ularga muloyim muomala qil va doimo tavozeda bo‘l. Ikkinci–ularga baland ovoz bilan gapirma. Uchinchi–ularga ko‘p gapirma va qo‘pollik qilma. To‘rtinchi–ularning otini aytib chaqirma. Beshinchi–ular gapirayotganlarida so‘zlarini bo‘lma. Oltinchi–ularning aytganlarini rad qilma. Yettinchi–ular falon ishni qil, deb aytsalar sen yo‘q deb javob qilma. Sakkizinchi–ular qichqirib gapisalar ham sen past ovozda gapir. To‘qqizinchi–ularning gaplariga oh-uh deb xitob qilma...

Molga taalluqli bo‘lgan o‘nta narsa quyidagilardan iborat: birinchi–o‘zingga kiyim–kechak qilishdan avval ota-onaga qilib ber. Ikkinci–ularga o‘zing yeydigan taomlardan shirinroq taom qilib ber. Uchinchi–bir dasturxonidan ovqatlanayotganingda taomlarning yaxshisini ularning oldiga surib qo‘y. Hikoya qilishlaricha, Hannon ibn Atiya o‘z onasi bilan bir dasturxonidan ovqat yeyishga qo‘rqib turar ekan. U doimo: «Onamning ko‘zi tushgan va endi yemoqchi bo‘lib turgan mevasini bilmasdan ey qo‘ysam, onamning ko‘ngliga biror narsa kelsa, men esa

gunohkor bo'lib qolsam, unda holim nima kechadi, men qo'rqaman» der ekan. To'rtinchi-qanday narsani sotib olish istaklari bo'lsa o'sha narsani sotib olib ber, chunki sen yosh bo'lgan paytingda nimani xohlasang ular ham sotib olib berishgan. Beshinchi-imoratlarini yaxshila va uni jihozlab ber. Oltinchi-so'ramasalar ham pul ber, chunki ular buni oshkora ayta olmasliklari mumkin. Yettinchi-ularga: «Topgan-tutgan narsalarim sizlar uchun, nimaniki xohlasalaringiz bemalol olaveringlar, hammasini o'zingiznikidek ko'ringlar» degan so'zlar bilan oradagi uyalish va tortinishni yo'qot. Sakkizinchi-agar ulardan uzoqroq yerda turilsa, goh-goh mehmonga taklif qilib, izzat-hurmatini joyiga qo'yish kerak. To'qqizinchi-ota-onangning do'stlarini ham hurmat qil, bu ishing bilan sening ota-onang o'z do'stlari oldida yuzlari yorug' bo'ladi...

Ammo ota-onal o'lgandan keyin qil'mishi kerak bo'lgan qirqta haq-huquqlarga quyidagilar kiradi: birinchi-o'likni zudlik bilan dafn etish choralarini ko'rish, chunki o'likning izzati uni tezda dafn etishdir. Ko'mishdan avval jasadni yuvishni va kafanlashni unutma. O'zing dodu fig'on qilib yig'lama va o'zgalarning ham shunday qilishlariga yo'l qo'yma.

Ota-onal dafn etilgandan keyin ularning ziyoratlariga tez-tez chiqib tur. Agar haftada bir marta ziyoratga chiqishni odat qilib olsang ulug' kishilar yo'lini tutgan bo'lsan. Boshqalarning o'lgan ota-onalarini yomon so'zlar bilan yodga olmaginki, ular ham sening ota-onangni shunday yodga olmasinlar. Hikmatli kitoblarida aytishicha, kimki o'z ota-onasini o'lgandan so'ng yomon so'zlar bilan yodga olsa, u mal'un kishidir.

Ota-onal vafot etgandan so'ng uning you do'stlarini uyingga taklif etib, ular bilan birga ota-onang xotirasini yodga ol, ota-onang yaxshi ko'rgan ovqatlardan tayyorlab, taklif etilgan birodarlariga nisor et!

Ota-onaga itoat etish bilan birga ularga chin dildan ishonish va barcha sohada sirdosh deb fahmlash ham lozim. Chunki

bolalarga nisbatan ota-onan ko‘pni ko‘rgan, aql va tajriba hosil qilgan va yaxshi-yomon yo‘lni bilgan bo‘ladi. Shuning uchun ota-onan bolalariga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib, nasihat va maslahatlar berishi, bolalari esa unga amal qilishlari kerak.

Ota-onanining so‘zlariga ishonmagan, ulardan o‘zini aqlli va ishbilarmon deb hisoblagan bolalar ko‘pgina qiyinchiliklar va har xil ofatlarga duchor bo‘ladilar. Chunki ishonchsizlik odamda aldov va yolg‘onchilikni tug‘diradi, yolg‘onchilik esa barcha qabihlikni yuzaga chaqaradi. Birovga yolg‘on gapirish eng buyuk ayb bo‘lishi bilan birga ota-onani aldash esa eng yaramas odatdir. Ota-onani g‘aflatda qoldirish, har bir ishning haqiqatidan bexabar qoldirish ota-onan uchun zo‘r uqubat va haqoratdir. Bolalar qiyin ahvol va og‘ir kulfatga duchor bo‘langanlarida o‘z ota-onalarini bundan ogoh qilsalar ota-onan o‘zining aqli, tajribasi bilan bu qiyin holatdan chiqish yo‘lini ko‘rsatib beradilar.

Hayotda xoh kichik bo‘lsin, xoh katta bo‘lsin, biror bolaga qarab: «Buni ota-onangdan yashir, ularga aytma», – desa, u do‘sit emas, balki dushmandir. Bunday odamni ko‘rgan bola undan qochib ketishni o‘ylashi kerak. So‘zning qisqasi shuki, har bir farzand o‘z ota-onasini o‘z ahvoldidan, qilayotgan ishidan voqif qilish bilan birga ularning pandu nasihatlariga quloq solishi va amal qilishi zarur. Ularning yaxshi ishlaridan ibrat olishi, tajribalaridan hayotda foydalanishlari kerak.

Har bir bola biror tasodif tufayli birorta xatoga yo‘l qo‘ysa, darhol bu xatoni to‘g‘rilashga kirishishi, butun kuch-qudratini ishga solib, o‘zini oqlashga, ikkinchi marta bunday ishga qo‘l urmaslik uchun jon-jahdi bilan kurashtish lozim.

Xalqimizda «**Otangga rahmat**» degan so‘z juda ko‘p ishlataladi. Otasini ranjitib, keyin pushaymon bo‘lgan bir kishining aytib bergen voqeasi hamon esimda va u quyidagicha eslaydi: «O‘smirlig yillarim edi. Nima bo‘ldi-yu, bir kuni nogahon nojo‘ya so‘z tufayli otamning dilini ranjitib qo‘ydim.

Bir ozdan so‘ng uyimga keldim, qilgan aybimni o‘ylab, ko‘zlarimga yorug‘ dunyo tor bo‘lib ketdi.

Endi qanday qilib otamdan kechirim so‘rash yo‘lini izlay boshladim. Otam uyimiz oldidagi yo‘l bo‘yiga mevali daraxt o‘tzazayotgan edi. Men o‘zimni go‘yo otamga qarashayotgan tutib, yonida kuymalana boshladim. Ammo u mening kelganimni sezmaganday o‘z ishi bilan ovora edi. Otam mening kelganimga parvo qilmaganiga parvo qilmagani sayin ezilib borardim. Nihoyat, sukunatni buzish maqsadida so‘z boshladim:

– Ota, nega hamma joyga mevali daraxt ekaverasiz?

Shunda u:

– Bolam, noqobil farzanddan ko‘ra mevali dāraxt ham yaxshida, – deb javob berdi.

Otamning bu javobi yuragimga o‘qdēk qadalgandi. Nahotki, shu mevali daraxtcha bo‘lolmagan bo‘lsam?.. To‘g‘ri, otam meni kechirdi. Keyinchalik imkon qadar ularning dilini og‘ritmaslikka harakat qildim. Mana, oradan ancha yillar o‘tib ketdi. Otam bu foni yunyon tark etib, boqiy dunyoga rixlat qildi. Ammo ekkan o‘sha olma daraxtlari bugun g‘arq pishib hosilga kirdi. Gohida uyda turib ko‘chadan o‘tgan odamlarning ekkanga rahmat, degan so‘zları qulog‘imga chalinib qoladi. Shunda men o‘yga tolaman: oxirgi marta qachon «Otangga rahmat», degan so‘zini eshitdim. Ba’zan kechalari uyqum qochadi, ko‘chaga chiqib o‘sha daraxtni otamni quchganday quchaman va: «Otam avliyo ekan», deyman shivirlab».

Sharq pedagogikasi an'analarida ota-onaga munosabatning axloqiy asoslarini keltirib o‘tish mumkin: Farzandning ota-ona oldidagi odoblari shundayki, farzand ota-ona nima desa diqqat bilan qulop soladi, ularning oldiga tushib yurmaydi, o‘tirgan uyning tomiga chiqmaydi, nimaniki buyursalar va buyurgan narsalari gunoh va xiyonat bo‘lmasa jonu dil bilan bajaradi. Ular o‘tirgan joylaridan tursalar u ham irg‘ib turadi, chaqirsalar labbay, deb javob beradi, ularni xursand qilishga hamisha

orzumand bo‘ladi; ularni oldida ta’zim bilan turadi, qilgan ishlarini minnat qilmaydi, ota-onaning qilgan ishlari uchun achchiqlanib, ularga xo‘mrayib qaramaydi, ruxsatsiz safarga ketmaydi.

Ba‘zi bermehr farzandlar ota yoki onasini keksalar uyida yashash ancha tinch, u yerda shifokorlar ota-onamizning holidan tez-tez xabar olib turishadi, deyishadi. Bu fikrlar milliy ma’naviyatimizga, diniy qadriyatlarimizga butunlay ziddir. Keksaygan odamga yaxshi kiyim, yetarli oziq-ovqat emas, balki ko‘proq farzandlarning mehr-oqibati kerak. Keksalarning dardi uchun farzandlarning shirin so‘ziyu, nabiralarning kulgisidan, sho‘xligidan ortiqroq shifo bo‘lmasa kerak. Odam keksaygan chog‘ida o‘zini yakkalangan, jamoat e’tiboridan chetda qolayotgan kishi sifatida his qila boshlaydi. Keksalar ko‘proq e’tiborga, shirin so‘zga, mehr-oqibatga ehtiyojmand bo‘lib qoladilar.

Alisher Navoiyning quyidagi misralarini keltirish mumkin:

**Boshni fido qilg‘il ota boshig‘a,  
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a.  
Tun-kuningga aylagil nuri posh,  
Birisin oy ayla, birisin qo‘yosh.**

Shunday ekan ota-onani rozi qilgan farzandlardangina el rozi bo‘ladi.

Yaxshi farzandlarning xayrli ishlari hayotdan ko‘z yumgan ota-onalarning ham ikkinchi umridir. Marhum ota-onaning ruhini behisob molu dunyo bilan emas, balki mehnatsevarlik, halollik, mehr-muruvvatlilik, xayr-ehsonlilik, el-yurtning hurmatiga sazovor bo‘lish bilan shod etish mumkin. Sahovatsiz, gumroh, mehr-muruvvatni, xayri ehsonni bilmaydigan baxil boylar o‘tmishda ham bo‘lgan, bundaylar hozir ham bor. Ular pul topib aql topmagan kishilardir. Aql iymon, insof bilan

bog‘langanida ma’naviyat darajasi ko‘tariladi. Xarom yo‘l bilan pul topganlar halol umr surgan ota-onaning nomiga ham isnod keltiradi. Odamlar, falonchi yaxshi odam edi, bolasi nomard bo‘libdi, deydilar. Katta-katta boylar ham bu dunyodan o‘tadi, boyligi bir kun sovuriladi. U dunyoga biror narsa olib ketib bo‘lmaydi. Ularni dunyoga keltirib, tarbiyalagan ota-onasining nomi ham kishilar yodidan ko‘tariladi. Yaxshi tarbiya topib, halollik bilan elda obro‘ orttirgah kishilar esa o‘z nomini ham ota-onasi xotirasini ham abadiylashtiradi. Bu – marhum ota-onalarga qobil farzand baxsh etgan ikkinchi umrdir.

Aka-ukalar, opa-singillarning ahil, bamaslahat ish qilishi, qarindosh-urug‘lar bilan inoq, hamjihat bo‘lishi ota-onalar orzusidir. Ota-onalar farzandini emas, balki barchasining baxtini, tinchligini o‘ylaydi. Bunday vaziyat esa ko‘p ma’noda aka-ukalarning, qarindosh-urug‘larning hamkorligiga, hamdardligiga bog‘liq. Shu sababli ham ota-onalar ko‘zi ochiq vaqtida bolalari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga, qarindosh-urug‘lar bilan ham aloqani yaxshilashga harakat qilishadi.

Milliy an’analarga asoslangan ahil oilalarning a’zolari sog‘lom, bardam bo‘lib, hayotning barcha og‘ir, yengil damlarida bir-biriga tayanch bo‘lganlar, bir-birini qo‘llab-quvvatlaganlar, ahillik bilan baxt-saodatli yashaganlar. Aka-ukalar, opa-singillar, qarindosh-urug‘lar o‘rtasida molu-dunyo talashib, nizolar kuchaygan uydan baraka ham, mehr-oqibat ham ketadi. Oqibatsizlikka o‘zaro yovlashishga olib keladi. Ota-onalar tirik vaqtidayoq farzandlar noahil bo‘lishi, molu-dunyo talashib janjallahishi ular uchun katta baxtsizlikdir. Qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi yaqinlik, mehr-oqibatlilikni, hamkorlik va hamdardlikni saqlash ham farzandlik burchiga kiradi. Shuning uchun ham ota-onalar oldidagi burch va mas’uliyat bir daqiqa ham inson xotirasidan ko‘tarilmasligi lozim.

Farzandlar ota-onaga itoat etib, har bir fursatini ularning

rizoligisiz o'tkazmasliklari lozimdir. Har bir saodatli va aziz farzand ota-onasini kayfiyatini rozilik belgisi bilan xandon qiladi, ota-onasini xursandchiligin o'ziga keladigan yaxshilikning debochasi deb biladi. Najot eshigining kaliti va saodat gulzorining nasimi ota-onasini tufayli hosil bo'ladi. Farzand o'stirishdan muddao shulki, ular imkon boricha ota-onasini xizmatini qilish va hech qachon ularga uyat va sharmandalik keltirmasliklari, uyat va sharmandalik ota-onanining farzandga bo'lgan mehru muhabbat oynasini g'uborlashtiradi. Bunday yomon farzanddan begonalarni yaxshiroq deb hisoblaydilar.

### 3.2. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash

Oila jamiyatning muhim darajadagi mustaqil guruhchasi bo'lishiga qaramasdan, uning taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib boradi. Shuning uchun oila va oilaviy munosabatlarga mavjud ijtimoiy tuzumning siyosiy, huquqiy va axloqiy tizimi va diniy urf-odatlari jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Aniqrog'i, oilaning mazmuni, xususiyatlari, vazifalari, oilaviy munosabatlarining xarakteri, jumladan, oiladagi bola tarbiyasi mavjud ijtimoiy tuzumdagi iqtisodiy, siyosiy, mavkuraviy munosabatlari bilan ham belgilanadi.

Oila, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda benihoya katta vazifani o'taydi. Chunki bola tug'ilganidan boshlaboq oila jamoasida bo'lib va u yerdagagi turmush tarzi, ko'nikmalar, an'ana va urf-odatlar asosida voyaga yetishi tufayli oiladagi muhit, jumladan, ma'naviy-axloqiy muhit va unda qaror topgan tartib-qoidalar bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy tarbiyada bolani shaxs sifatida tan olish juda muhimdir. Buning uchun **shaxs** deganda nimani tushunamiz, unga qanday ta'rif beriladi? **Shaxs** – bu o'zidan tashqarida taassurot qoldirish qobiliyatiga ega ekanligini tan olishdir deyilsa, yana bir allomalar o'z mehnatimga tarixiy madaniyat nuqtayi nazaridan

qaraladigan bo'lsa, u holda men fikrlayman, demak, men insonman, ya'ni shaxsman deydi. Demak, shaxs – bu insonning o'z-o'ziga, o'zga kishilarga, jamiyatga, atrof-muhitga, o'z zamonasidagi narsa hodisalarga bo'lgan qarashi, insonning xatti-harakatida, uning faoliyatida ifoda etilgan munosabatlar yig'indisidir.

Kichkina chaqaloq, dastlab boshini-sarak-sarak qilib, nimadir yoqmaganligini bildirganda, yoki yo'q, men o'zim degan iborani ishlatganida, u o'zini tanitadi, o'zligini bildiradi, o'zi ham atrofdagi narsa va hodisalarni yangidan kashf etadi. O'smir ham yaxshilik va yomonlik bilan to'qnashib, ulardan birini ongli ravishda, ma'lum mulohazaga borib tanlab olganda, o'ziga yoqmagan xatti-harakatlardan nafratlansa, maqsadiga yetishish yo'lida to'siqlarni bartaraf etish uchun kurash olib borganda u o'zini shaxs sifatida namoyon etadi.

Oilaviy tarbiyada shaxsni shakllantirishning muhim tomoni bor. U ham bo'lsa, har bir ota-onasini kuchli, irodali, aqli va qobiliyatli bo'lib o'sishini orzu qiladi. Kuchli shaxs bo'lish uchun esa bolada o'z-o'zini anglash mavjud bo'lishi kerak. Bolani shaxs bo'lib yetishishini muhim tomonlaridan biri ham o'z-o'zini anglash, o'zining «Men»ini namoyon etishdir.

Faylasuf I.Kant, o'z-o'zini anglash–axloqiylik va ma'naviy mas'uliyatning zarur shartidir, deb hisoblagan edi. Chamasi, o'z-o'zini anglash tuyg'usi bizni faol xizmat ko'rsatishga da'vat etadi, lekin bunday faoliyat odamni qayerga olib borishi ko'p jihatdan u kishi qanday hayotiy-axloqiy qoidalarni o'ziga dastak qilib olganligiga bog'liqdir. Bunday shaxslar tabiatan yaxshilikka intiluvchan bo'ladilar, o'zlarini qiynab bo'lsa ham yomonlikka nisbatan keskin kurash olib boradilar va g'alabaga erishmaguncha bu kurashni to'xtatmaydilar.

Oilada eng yaxshi va oliyjanob an'analar ruhida tarbiyalangan bola o'zini anglashga, o'zligini ko'rsatib, o'z shaxsini namoyon etishga harakat qiladi. Uning oldida

shafqatsiz taqdirning zarbalariga mayuslik bilan bo‘ysinub, ulardan orqaga qarab chekinish kerakmi yoki qiyinchiliklarga qarshi kurashib, uni yengib chiqishmi-qaysi biri sharaflı va oljanob degan savol ko‘ndalang bo‘lib turadi. Xuddi shunda bolada yaxshilikka muhabbat, yomonlikka nisbatan nafrat tug‘iladi va hayotining asosi axloqiy tamoyiliga aylanib qoladi.

Ota-onalarning bolalar ruhiyatini yaxshi bilmasligi, oilada o‘z farzandlarini erkatalib o‘sirishlari hamda ularni haddan tashqari asrab-avaylab ardoqlashi oilada bola xulqini buzilishiga olib keladigan omillardandir. Bunday tarbiyalangan bolalar va o‘smirlarda xulq o‘zgarishi ko‘rinishlari tez shakllanib, mustaqil fikr yuritish va moslanuvchanlik qobiliyatları yaxshi rivojlanmaganligi tufayli, ular unchalik murakkab bo‘lmagan oddiy nizoli vaziyatlardayoq o‘zlarini yo‘qotib quyadilar.

Ruhshunos olim G‘.B.Shoumarov o‘zining «**Muhabbat va oila**» kitobida oila va oilaviy munosabatlar, oilaviy nizolar, oilalarning ajralish sabablarini tahlil qilar ekan, uning asosiy sabablari oilada o‘zaro munosabatning barqaror emasligi, erxotinning intim munosabati haqida tushunchaga, bilimga ega emasligida degan xulosaga keladi. Shuningdek, tadqiqotchi oilalarning tinch-totuv yashashida o‘zaro qovushishni asosiy o‘ringa qo‘yadi va uni 3 turga bo‘lib o‘rganadi: a) biologik; b) psixologik; d) sotsiologik qovushishlar. Bu qovushishlarning har biriga ta’rif berib, o‘zining munosabatini bildirib o‘tadi. Mazkur qovushishlar bilan birga pedagogik qovushish, ya’ni oila a’zolarining o‘zaro bir-birini to‘g‘ri tushunishi, ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi oila mustahkamligini ta’minlashda muhim o‘rin tutishini muallif e’tibordan chetda qoldirmagan. Ma’naviy-axloqiy qarash, tushuncha, faoliyat oila poydevorini mustahkamlashning asosiy zamini bo‘lib hisoblanadi.

Oilada farzandlarga nisbatan turlicha munosabatlar mavjudligi kuzatilmoqda. Jumladan, «avtoritar» munosabat.

Bunda ota-onaning obro'si hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oilada shaxslararo munosabatlarda teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik kamaya boshlaydi. Oila a'zolarining yurish-turishi, xatti-harakati bir qadar cheklab qo'yiladi. Ota-ona tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy metodi jazolashdan iborat bo'lib qoladi. Natijada farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr-muhabbat hissi asta-sekin yo'qola boshlaydi. Keyinchalik bu tuyg'u ota-onadan uzoqlashish, begonalashishga olib keladi. Oiladagi munosabatlar bolalarni qoniqtirmaydi, natijada ular odamovi, tund, ichimdagini top kabi xarakter xislatlarini o'zida tarkib toptira boshlaydi. Shu sababdan oila a'zolarining ruhiy dunyosida simpatiya (yoqtirish), empatiya (hamdardlik), samimiylilik, xayrixohlik kabi insoniy his-tuyg'ular juda sust kechadi. Ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysinishga asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy ta'sir qo'rqaq va irodasiz shaxslarning shakllanishiga olib keladi.

Oilaviy tarbiyada kattalarning hurmatini, kichiklarning izzatini o'z o'rniga qo'yish singari milliy-ma'naviy qadriyatlarga e'tibor berish zarur. Inson hayotida ikki bor katta pedagogik xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Birinchisi—bolalar hali yosh deb, ularga ishonmaganida, ikkinchisi—keksalarni qari deb, ularni chetga surib qo'yishganida. O'zbek milliy tarbiyasida bu axloqiy xislatlarga katta ahamiyat beriladi, uni oilada ham doimo ta'kidlab turiladi. Chunki, avlodlar vorisligi xuddi shunda ko'rinadi. Ota-onalarning farzandlarga, farzandlarning ota-onalarga g'amxo'rliги ana shu axloqiy fazilatda bilinadi.

Ota-onaning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati bolaga ko'rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillaridan biriga aylanishi mumkin. Masalaga chuqurroq yondoshadigan bo'lsak, gap faqat ota-onalarni bolalarga bo'lgan mehr-muhabbatidan tashqari, ayni vaqtida ota-onalarning bir-biriga bo'lgan muhabbatlari xususida boradi. Ko'pgina amaliyotchi-pedagoglar tajribasidan

ma'lumki, ota-onalarning o'zaro muhabbatidan, ulardan ko'ra farzandlari ko'proq bahramand bo'lar ekanlar. Hamda hech qanday pedagogik chora va tadbirlar uning bolaga ko'rsatadigan ta'rifining o'rnini bosa olmas ekan. Ota-onalarning o'zaro munosabatlari qanday bo'lishiga bola aslo befarq qaray olmaydi, u qanchalik yosh bo'lmasin bari bir hamma narsani juda yaxshi ko'rib, uning murg'ak qalbi ota-onalarining muomalalarini sezib turadi.

Birinchi farzand ko'rish ishtiyoyqidagi ota farzand ko'rsam chekishni tashlayman, chunki chaqaloqning oldida chekish mumkin emas, degan orzu-xayol qilgan bo'lsa, bu zararli odatni tark etishi mumkin. Chunki ota kelajakda o'z farzandlariga man etadigan narsani o'ziga ham man etishi-bu chinakam axloqiylik hisoblanadi. Avlodlar davomiyligini taqozo etadigan irsiy ehtiyojning kuch-qudratini inkor etib bo'lmaydi. Ana shu biologik ehtiyoj tufayli ota-onalar ham o'z-o'zini tarbiyalashga majbur bo'lib qoladi. Xuddi shu yerda avlodlarning o'zaro ta'sir namoyon bo'ladi. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mohiyati va uning tarixiy zarurati ham shundan kelib chiqadi.

Bola tarbiyasida nima asosiy, yetakchi, hal qiluvchi ekanini ko'rish juda muhim. Bolaning miyasiga go'dakligidanoq o'zgalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish, jamiyat manfaatini, fuqaroviy manfaatni shaxsiy manfaatidan ustuvor ekanligini uning ongiga singdirib borish ayni muddao bo'ladi. Oilaviy tarbiya mahorati bolada uni o'rab turgan dunyon, fuqaro va vatanparvar sifatida ko'rish va anglab yetishni o'rgatishda ko'rinishi. Toki, bola o'z atrofida, o'z yonida bo'layotgan voqeja va hodisalarga befarq qaramaydigan bo'lsin, bolaligidanoq boshqalarning quvonchi va tashvishiga sherik bo'lsin, ko'nglidan o'tkazsin. Shunda, boladagi fuqarolik hissi axloqiy qadriyat sifatida uning tabiatiga singib ketadi. Fuqaroviylik hissini bola ongida shakllantirish uni ma'naviy-

axloqiy tarbiyalashning bugungi kungi asosiy mezoni bo‘lib qolayotganligini to‘la his qilish oilaviy tarbiyada muhim ahamiyatga egadir.

Ba‘zi ota-onalar bolalarning ichki ruhiy ehtiyojlari, qiziqishlarini hisobga olmay, biz aytgan ishnigina qilasan, biz ko‘rsatgan yo‘ldangina borasan, deyishlari mumkin. Bunday talab ham unchalik to‘g‘ri emas, albatta, farzand ota-onaning gapiga qulq solishi kerak. Lekin hamma ishni faqat ular aytganidek qilib bajarish ham qiyin. Jamiyat ma’naviy kamolotining muhim bir tomoni shundaki, ulg‘ayib, hayot saboqlarini o‘zlashtirib, oqu-qorani tanigan, ilmli, bilimli yoshlar ota-onaning hayot mazmuni, axloq va odob to‘g‘risidagi ancha eskirib qolgan tasavvurlariga ham ta’sir etadilar. Biroq vaqt kelganda yetuk farzandlar ham keksaygan ota-ona dunyoqarashini o‘zgartirishi, boyitishi mumkin. Agar farzandlar ma’naviy kamolotining shakli va darajasi jihatdan aynan ota-onalarning o‘zidek bo‘lib qolaversa, u vaqtida jamiyat taraqqiyoti sekinlashadi yoki to‘xtab qoladi. Farzandlar ota-onalarining eng yaxshi, ulug‘vor fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirishi va rivoj toptirishi lozim.

«Qobusnomda»da ota-onalarning qator vazifalari sanab o‘tiladi. Ular quyidagilardan iborat: 1) Bolaga yaxshi ot qo‘ymoq; 2) Oqil va mehribon enagaga topshirish; 3) To‘ytomosha qilib, sunnat to‘y o‘tqazish; 4) O‘qish-yozishni o‘rgatib, kasb-hunar va ilmli qilish; 5) Harbiylar ahlidan bo‘lsa, sipohiylikni o‘rgatish.

Ma’lumki, azaldan ota-onalarimiz bolalarni xo‘jalik ishlari bilan tanishtirib, oilaning kirim va chiqim ishlarini ularga o‘rgatib kelishgan. Shu tarzda, bolada oilaning moddiy ahvoli haqida tasavvur hosil bo‘lishiga e’tibor berilgan. Shuningdek, o‘zbek oilalarida bolalarga ro‘zg‘or buyumlarini ehtiyojlab, asrab-avaylash lozimligi uqtirib kelingan. Masalan, bola bexosdan biror buyumni sindirib qo‘ysa, darrov darg‘azab bo‘lib

ketmasdan «ehtiyot bo'lmaning uchun sindirding, endi yangisini olish uchun pul sarflashga to'g'ri keladi» deb bosiqlik bilan dashnom bergenlar. Bunday muomala qilish bolaga kuchli ta'sir qilishi tabiiy edi.

Chunki bolaga bu so'zlar tez ta'sir qilishi va o'ylantirishi tabiiy. Yoki bolam, sen bu idishni sindiribsan. Bo'lgan ish bo'ldi, ammo meni xafa qiladigani shundaki, uni menga onamlar meros qilib qoldirgan edi deyishgan. Bunday so'zlar bola ongiga tez singadi va bu gaplarni bola qadriyat sifatida qabul qiladi.

Hayotiy tajribada bolalarni amaliy hisob-kitobga, oqilona omilkorlikka o'rgatishning yana bir usuli mavjud. Bu ota-onalarning u yoki bu nasihatlarni o'zlari nomidan aytmasdan, balki «mana shunday qilishni otamlar yoki onamlar aytardilar men esa ularning gaplarini qaytarmasdan bajarardim» degan iborani qo'shib gapirishlari ham katta tarbiyaviy samara bergen.

Oilada bolalarni insoniylik ruhida tarbiyalashda qo'llaniladigan eng xarakterli usullardan biri, xalq donishmandlarining axloq va odob yuzasidan aytildigan hikmatli so'zlari-maqollarini u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo'lgan muammo sifatida ishlatalishidir. Aniqrog'i, axloq va odob masalalariga bag'ishlangan xalq maqollarining naqadar hayotiy ekanligini ma'lum ertak orqali aytib berilishidir. Ko'pchilik ertak va dostonlarda ota-onada va keksalarning turmush tajribalarini ifodalash bilan birga yoshlarni unga bevosita amal qilishlariga undaydigan maslahat va pand-nasihatlar ham asosiy o'rnlardan birini egallaydi.

Ayniqsa, o'zbek xalqi o'rtasida kundalik ehtiyojga aylangan amaliy san'at turlaridan o'ymakorlik, zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, kulolchilik, maishiy buyumlar yasash, milliy liboslarni tikish kabilar o'zbek oilalarida, birinchidan, moddiy ehtiyojni qondirish bo'lsa, ikkinchidin, farzandlarni kasb-korga o'rgatishda, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelingan. San'at bolalarda

go'zallikni his qilish tuyg'ularini shakllantiradi. Xalq orasida hanuzgacha saqlanib kelgan va xalq ustalari tomonidan davom ettirilayotgan amaliy san'at va hunarmandchilik turlari milliy o'zligimizni anglash, milliy hayot tarzimizni davom ettirish uchun katta ahamiyatga ega. Oilada bolalarga bularni chuqur his qilishga, xalq amaliy san'ati sohalarini atroflicha o'rganishga sharoitlar yaratish lozimki, bu o'z navbatida farzandlarimizni nozik didli, o'tkir farosatli, ma'naviyatli qilib tarbiyalash bilan kelajakda kasb-korli, hunarmand qilib tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy musiqa va mumtoz qo'shiqlar muhim rol o'ynaydi. Chunki, barchaga ayonki, musiqa tarbiya manbayidir. Har bir millatning musiqasi ma'lum darajada uning hayot va turmush tarzini, davrini aks ettiradi. Demak, o'zbek milliy musiqasi xalqimizning turmushini, uning quvonchlarini, orzu-istiklari va hayot tashvishlarini o'zida mujassamlashtirgan. Musiqa bola qalbiga insoniylik, nozik did, nafosat, estetika, ota-onaga, vatanga va boshqa shu kabi ijobjiy hislarni singdiradi.

Oilada ota-onalar bolalarga mehmonnavozlik bilimlarini o'rgatish bilan birga, bevosita mehmonda o'zini qanday tutish, ovqatlanish, so'zlashish odoblarini ham o'rgatib boradilar. Ayniqsa, ovqatlanish odobini o'rgatishlari juda muhimki, bu birinchidan, bolaning salomatligini ta'minlasa, ikkinchidan, me'yoriga qarab ovqatlanishga o'rgatadi, uchinchidan, badnafslikdan qaytaradi, to'rtinchidan esa tejamkorlikka odatlantiradi. Oilada bolalarni ovqatlanish va dasturxon atrofida o'tirishga o'rgatishdagi tarbiyaviy vazifalardan biri, bolaning har bir xatti-harakatini kuzatib turish va xatolarini tuzatib borishdan iborat. Agar bolaning har bir harakati ota-ona tomonidan kuzatilib, qilingan xatolari o'z vaqtida tuzatib borilmasa, bola bilan biron joyda mehmonga borilganda yoki uyga mehmon kelganda ota-onasini uyaltirib qo'yishi mumkin.

Dasturxonga qo‘yilgan shirinliklarga damba-dam qo‘l uzataversa, olishga ruxsat bermasangiz xarxasha qilaversa, bunday holat avvalo ota-onani, atrofdagilarni va mezbonlarni xijolatga qo‘yadi.

Umuman farzand tarbiyasi eng og‘ir va sharaflı jarayon ekan, xuddi ana shu narsa, ya’ni ota-onalarning orzu-umidi an’ana sifatida avloddan-avlodga o‘tib keladi. «Men bolamni deyman, bolam bolasini deydi» – degan ibora ham bejiz aytilmagan. Farzand ota-ona qarzini to‘la uza olmaydi, balki bu qarzni bolalarga berib qutilishi mumkin. An’ananing pedagogik talqinini xuddi shu tarzda tushunmoq lozim.

### **3.3. Ota-onalarda g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarni shakllantirish vositalari**

Kommunizm mafkurasi islom diniga qarshi kurash olib borib, o‘sha hududda yashayotgan barcha xalqlarni tashqi xabar voqeliklardan ixotalab qo‘yishning kuchli mexanizmini amalga oshirdi. O‘z hukmronligini saqlab qolish maqsadida odamlar ongiga tanazzulga yuz tutayotgan sotsialistik tuzum mafkurasini tinimsiz singdirib, manqurtga aylantirishga harakat qildi. Shu yillar davomida ota-bobolarimiz qoldirgan boy madaniy milliy meros o‘rgatilmas, o‘rgatilganda ham boshqacha talqin qilinar edi.

Ijtimoiy pedagogikada «Ijtimoiy rollar nazariyasi» bor. Shu nazariyadan o‘zbek turmushiga nazar tashlasak. Unga ko‘ra har bir odam muayyan vaziyatda muayyan rolni bajaradi. Masalan, do‘konda-xaridor, to‘y-marakada mehmon-mezbon, oilada ota-oni yoki o‘g‘il, qiz va boshqa xizmatni bajaradilar. Hozirgi millat, vatan himoyasi bizdan ogohlilik, kurashchanlikni kutmoqda. Demak, hozirda har birimiz bu kurashchanlikni namoyon qilishga tayyor bo‘lmog‘imiz kerak. Bunga bizni mafkuraviy tarbiya maxsus o‘rgatmog‘i lozim. Misol:

yoshlarimiz o'zlariga «Dini islomni o'rgataman» degan kishining asl niyatini birinchi muloqotdayoq bilib, unga nima deyish, nima qilishning yaxshi mashqidan o'tishlari kerak. Ya'ni «Mafkurasi mustahkam o'zbek» sifatidagi milliy vazifamizni a'lo bajarishimiz dushmanning niyatlarini, rejalarini, dasturlarini buzadi. Umidsiz, niyatsiz, dastursiz dushman esa uyidan chiqmaydi. Bizga tahdid solmaydi. Boshqa, mafkurasi zaif, birlashmagan millatlarni, mamlakatlarni izlaydi.

Pedagogika tarixida oilalarga g'oyani singdirishning juda ko'p namunalari uchraydi. Masalan, sobiq sovet tuzumi oila pedagogikasidan o'z maqsadlarida ustalik bilan foydalandi. U o'zbek oilalarining «eski odatlarini yo'qotish» shiori ostida milliy g'ururni, milliy mustaqillik g'oyasi, uning kurashchilarini mafkuraviy yanchish maqsadida minglab ma'rifiy-siyosiy oqartuv bo'limlarini ochdi. Oilalar tafakkurini sovetlashtirishga ilmiy asosda yondashuv ularning manfur maqsadlariga tezroq yetkazdi: sovet dekretlari, partiya dasturi, Konstitutsiya targ'ibotlarini shahar, qishloqlarda yurib tushuntirishlar, teatr, konsert, ko'rgazma, ma'ruzalar, kino, qiroatxonalarni ishga solishdi. «Qizil choyxonalar», klublar, siyosiy suhbat, distup, kechalar, jangovor varaqalar, kinolektoriy, og'zaki jurnallar kabi targ'ibot-tashviqotning yuzlab shakllaridan foydalanib, makkor sho'ro o'z mafkurasini oilalar ongiga singdirdi. Yillar o'tsa hamki mafkuraviy tarbiyaga e'tibor bo'shashmadi. Hozir esa **bir tomonidan**, ana shunday maxsus vositalar bilan chuqur singdirilgan eskicha tafakkurni isloh qilish, **ikkinchini tomonidan** esa yangi tahdidlar – diniy aqidaparastlik g'oyalariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish oila pedagogikasiga oid kuchli tizimni taqozo qilmoqda.

Yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishda oila pedagogikasi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

\* siyosiy, milliy mafkuraviy qadriyatlarni o'g'il-qizlar tafakkuriga singdirishning oilaviy tarbiya dasturini yaratish;

\* yosh ota-onalarni mafkuraviy tarbiyaga g'oyaviy va uslubiy tayyorgarliklarini kuchaytirish;

\* oila pedagogikasining falsafa siyosatshunoslik, tarix, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, ma'naviyat, huquqshunoslik, milliy istiqlol g'oyasi fanlari bilan amaliy hamkorligiga erishish;

\* oila tarbiyasi bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar mavzularida milliy mafkuraviy tarbiya yo'nalishiga asos solinishi;

\* oilada mafkuraviy tarbiyaning milliy va umuminsoniy yutuqlarini umumlashtirish;

\* mahallalarda mafkuraviy tarbiyaning aniq, mukammal, eng muhim – amaliy ijtimoiy pedagogik dasturini ishlab chiqib, hayotga tatbiq qilish kerak.

Ma'lumki, o'zini «hamkor», «birodar», «haqiqiy musulmon», deb bilgan ba'zi qora niyatli kuchlar go'yoki o'zlaricha «beg'araz yordam» ko'rsatmoqchi bo'ldilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov «Biz dastlab bu odamlarni din yo'liga yurgan, xudo yo'lida bizga xolisona yordam berayotgan kishilar, deb qabul qildik. Aksariyat odamlarimiz ularga nafaqat dasturxonini, balki bag'rini ham keng ochdi»- degan edi.

Xalqimizning soddaligidan foydalanib o'sha «dindosh» va «millatdosh», «beg'araz yordam» niqobi ostida ham g'o'r yoshlarimiz ongini zaharlab o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshiruvchi kuch sifatida shakllantirishga urindilar. Ular o'z niyatları yo'lida machitu madrasalar qurib berishga tayyor ekanliklarini ko'rsatib, puch va'dalar evaziga e'tiqodi ojiz ayrim yoshlar o'z tomonlariga og'dirib olindi.

Vaholanki, ota-bobolarimiz aql-idrokini yovuzlik qo'liga tutqazmaslikka harakat qilganlar, uni ma'naviyat, iymon-e'tiqod, insof va diyonat bilan boshqarishga alohida e'tibor berganlar. Bu tamoyil xalqimiz ruhi, dahosini ifodalovchi o'lmas qadriyatlar bilan ajdodimiz, sohibqiron Amir Temurning

sog'lom ma'naviyat mahsuli bo'lgan «**Kuch adolatda**» degan shiori milliy g'oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan, mamlakat birligini ta'minlash, markazlashgan davlat barpo etish, ayniqsa, uni odillik bilan boshqarishda ma'naviy-mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bois Temur saltanatida ilm-ma'rifikat yuksak qadrlangan, insonning sha'ni, or-nomusi e'zozlangan, insori va uning mol-mulki davlat muhofazasiga olingan, qaroqchilik, o'g'rilikka qarshi kurashilgan edi.

Sohibqiron Amir Temur o'z hikmatlarida yoshlardan tarbiyasida, to'g'ri yo'lni tanlashga ahamiyat bergen: «Farzandlarim! Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin. Orangizga nifoq tuxumlari ekilmasligi uchun ko'p diqqat va ogoh bo'ling» – deydi.

Yoki ayollarning og'ir jismoniy ishlardan ozod qilinganiga e'tibor bering. Aytaylik, yordamchisi yo'q biron ayol suv oladigan chelakni darvoza tashqarisiga chiqarib qo'ysa, shu joydan o'tgan mo'min-musulmonlar chelakni olib, unga suv to'ldirib shu joyga qo'yib ketishar edi. Do'konlarga baqqollar umuman qulf osishmasdi. Bularning hammasi o'sha zamonda hayot iymon va e'tiqod, insof va diyonat talablari bilan boshqarilganligini, odamlar ana shu yuksak tuyg'ular bilan yashaganini ko'rsatadi.

Yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalashda oila mafkurasi, ma'naviyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra oilaning muqaddasligi, ota-onasi va farzandning burchi, tejamkorlik, sabr-qanoat, o'zaro muamola munosabatlari, uy tutish, mehnat tarbiyasiga ham ahamiyat beriladi.

**Shu sababli yoshlarni tarbiyalashda ota-onaning vazifalariga:**

– oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-onasi har tomonlama

o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vataniga mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;

– farzandlariga chuqur axloqiy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;

– farzandlarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

– farzandlarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy-axloqiy tomonlarini shakllantirish;

– sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish kabilar kiradi.

Bu haqda psixologiya fanlari doktori, professor Vasila Karimova «Ham jismonan, ham ma'nan va ruhan sog'lom odam turli g'alamislarning kirdikorlariga uchmaydi, o'z yurti, Vatani va xalqi manfaati yo'lida halol mehnat qiladi» – deydi.

Maqsadli oilaviy tarbiya shaxsni shakllantirishning boshqa omillaridan sifat jihatdan shu bilan farq qiladiki, tarbiyalovchi oila o'z oldiga ongli sur'atda ma'lum bir maqsad qo'yadi va shu maqsadga erishish uchun intilib, uni amalga oshirish vositalarini topadi. Tarbiya shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish bilan turli odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy munosabati hisoblanadi.

G'oyaviy tarbiyada tarbiyalanuvchilarning rivojlanishini yoshini, tipologik va individual xususiyatlarini hisobga olinishi qator pedagogik muammolarning oldini oladi. Masalan: g'oyaviy jihatdan bilimi sust bo'lgan ota-onalar farzandiga tarbiya berishda xatoliklarga yo'l qo'yishadi va natijada bola yoshi osha borgan sari ota-onadan uzoqlasha boradi hamda o'smirlik davrida buzg'unchi g'oyalarga nisbatan moyilligi kuchayib boradi. Ayrim ota-onalar bolani fiziologik yoshini hisobga olmaydi va bu xato-kamchiliklarni ularning o'zları

anglashmaydi. Shu bilan birga oilaviy sharoiti nochor bo‘lgan bola ota-onadan norozi bo‘lib, 14–15 yoshga yetganda oilasi, ota-onasidan turli kamchiliklar topib, ayblay boshlaydi, ya’ni unda muxolif fikr tug‘iladi. Bu norozilik kayfiyatni ulg‘aygan sari jamiyatga, davlatga qarshi buzg‘unchi g‘oyalarga aylanishi mumkin.

Ota-onalar, farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch kuchaytirib, buzg‘unchi g‘oyalarning oldini olishi zarur. Oilalarda o‘tkazgan suhabatlarimizdan biri (2000-yil 10-dekabr. Samarkand viloyati, Qo‘shrabot tumani)da Tirkash aka bolasiga noto‘g‘ri ayb qo‘yib ota-onaga nisbatan ishonchini so‘ndirmaslik kerakligi haqida gapirdi:

— Xotinimdan «men qo‘ygan joyda pul yo‘q, kim oldi? — deb, so‘radim. Xotinim olmaganligini aytib, o‘g‘limdan so‘rabdi. O‘g‘lim ham «olganim yo‘q» deganida, onasi «Otang olmasa, sen olmasang, men olmasam unda pulni kim oladi» debdi. O‘g‘lim, nima uchun menga ishonmay, o‘g‘riga chiqarayapsiz?» — deb xafa bo‘libdi. Men notovon, pulni adashib boshqa joyga qo‘ygan ekanman, o‘g‘lim uni ko‘rmagan ham ekan.

Mana shu ota-onada tomonidan yo‘l qo‘yilgan arzimas xato kamchilik bolada odamga nisbatan ishonch tuyg‘usining so‘nishiga, unga ishonadigan odamlarni ko‘chadan izlashga olib keladi.

Ota-onalarning g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirish bilan oilada farzand tarbiyasi bo‘yicha quyidagi ishlarni ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkin:

1. Aqliy tarbiya – bolada milliy istiqlol g‘oyasiga nisbatan ijobiy fikrlarni hosil qilish.

2. Axloqiy tarbiya – axloq ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Axloq tamoyillari xalq ommasi tomonidan uzoq vaqt davomida shakllangan halollik, rostgo‘ylik, oddiylik, kamtarinlik, o‘ziga talabchanlik, oilada bir-birini hurmat qilish, bolalar tarbiyasi

to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish kabi axloq normalarini o‘z ichiga oladi.

3. Estetik tarbiya–shaxsning estetik did va ideallarini shakllantirish, uning voqelik va san’at asarlarini badiiy idrok etish, san’at sohasida mustaqil ijod qilish qobiliyatini o‘stirish, go‘zallikdan lazzatlanish va go‘zallik kashf etishdir.

Har qanday narsaning ham me’yorda ko‘p yoki kam bo‘lishi, ushbu jarayonning buzilishiga olib keladi. Oila tarbiyasida o‘ta darajada nasihatgo‘ylik bolaning ota-onadan bezishiga va buzg‘unchi g‘oyalarning ta’siriga berilib ketishiga olib keladi. Ayniqsa, hozirgi zamon yoshlariga o‘zaro teng huquqli shaxslar sifatida ular bilan muamola qilish maqsadga muvofiqdir.

O‘smir dunyoni zo‘r qiziqish bilan osoyishta holda o‘rganadi, dunyoga baho beradi va unga o‘z muncsabatini belgilaydi. U odamlar bilan faqat o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun emas, balki nazariy jihatdan o‘zlashtirgan va kishilarining xulq-atvoriga hamda ijtimoiy hodisalarga murosasiz ravishda, odilona baho berishda amal qilinadigan tamoyillar nuqtayi nazaridan ham muomalada bo‘ladi. U ko‘pincha hamma narsaga tanqidiy ko‘z bilan qaraydi. U yaxshi ko‘rgan kishilarining nuqsonlarini ko‘rib, qayg‘uradi. Har qanday qalloblik va munofiqlik uni g‘azablantiradi.

### **Ota-onsa bilan o‘siprin bola o‘rtasida cheklov bo‘lmashligi uchun:**

- ular farzandlarining o‘zlariga nisbatan ishonchini suiiste’mol qilmaslik;
- yoshiga qarab bolada g‘oyaviy, diniy tushunchalarni shakllantirib borish;
- arzimas xato uchun bolani qattiq urishib jazolamaslik;
- bolani tengdosh do‘stilari oldida izza qilmaslik;
- bolani do‘stilariga nisbatan mumkin qadar moddiy jihatdan kam qilmaslik;
- bolaga shaxs sifatida muomala qilish lozim.

Buzg'unchi g'oyalalar bola ongida paydo bo'lishining ilk ko'rinishlari, ota bilan ona o'rtasidaga salbiy munosabatlar, urush-janjal, ajralish sabab bo'ladi. Bolaning oldida ona-otasini yomonlasa bolada buzg'unchi g'oya, otaga nisbatan nafrat paydo bo'ladi. Bu buzg'unchilik asta-sekinlik bilan avj olib maktab, mahalla, hattoki davlat darajasidagi holatga aylanishi mumkin. Masalan: ayrim o'g'il bolalar otasiga qo'l ko'taradi, hattoki o'z otasini uyidan haydab chiqaradi, qariyalar uyiga olib borib tashlashadi. Bu yoshlikdan bola salbiy holatlarni ko'rishi natijasida paydo bo'lgan buzg'unchi g'oyalalar mahsulidir. Albatta bunday holda onaning ijobiy tarbiyaviy usullari o'z natijasini berishi kerak:


- ona mehr beruvchi;
- to'g'ri yo'lga yo'naltiruvchi;
- bilim beruvchi;
- jasurlikka yo'naltiruvchi;
- maqsadga yo'naltiruvchi;

- ma'rifatga boshlovchi va boshqa fazilatlari bolani buzg'unchi g'oyalardan himoya qilib, uni barkamol inson bo'lib yetishishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Muhim masalalardan biri oilaning o'zini buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishning metodlaridan oqilona foydalanishga bog'liq.

### **3.4. Ota-onalar g'oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirish metodlari**

XXI asr boshini mafkuraviy yangi tahdidlar va ilmiy-tekhnologik asosga qurilgan targ'ibotlar kurashi davri, deb ham atash mumkin. Bu borada M.Saidov: «G'arb olamida keng tarqalgan **egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik** falsafasidir. Egotsentrizm xudbinlikning bir ko'rinishi bo'lib, faqat o'zini, o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslikni bildiradi. Insoniyatga yetkazadigan zarari

nuqtayi nazaridan bu illat jaholat va aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi. Hozirgi kunda G'arb dunyosida erkinlikni niqob qilib olgan ayrim kimsalar nafaqat bizning milliy an'analarimizni, balki barcha xalqlar uchun qadrli bo'lgan insoniylik aqidalariga to'g'ri kelmaydigan turli buzg'unchiliklarni ommaviy axborot vositalari orqali ochiqdan-ochiq keng targ'ib etayotganini ko'rib turibmwiz» – deydi. Chunki sho'ro davrida biz ko'rgan targ'ibot-tashviqot, mafkuraviy kurash usullari hozirgi sharoitda o'zgacha natijalarni beradi. Bizga tahdid solayotgan mafkuralar ularning o'zlari, maqsad, vosita, usullari ham kuchli moliyaviy ta'minlangan puxta, ilmiy-texnologik asosda olib borilmoqda. Bu jihatdan ularning targ'iboti oldingi mafkuraviy kurash usullariga o'xshaydi. Faqat g'oya, maqsad o'zgargan.



*I-rasm.* Yoshlarga buzg'unchi g'oyalarni singdirishga mo'ljallangan dunyoviy, siyosiy mafkuraviy tahidlar.

Yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan radikal qarashlar, an'analarimizga mutlaqo yot ekstremistik va terroristik g'oyalarni-yu jamiyatimizga kirib kelishini bartaraf etuvchi yana bir qudratli vosita mavjud. Bu insonparvar, tinchliksevar, ma'rifatparvar va bunyodkor milliy-diniy qadriyatlarimizdir.

Ko'r-ko'rona taqliddan xalos bo'la olgan insongina diniy e'tiqodning haqiqiy mazmun-mohiyatini belgilovchi mezonnarni topa biladi. Haqni nohaqdan ajratish uchun inson ixtiyorida uchta usul bor: birinchisi-jami jonzotlarga xos bo'lgan sezgi a'zolari, ikkinchisi-faqat odamga xos aql orqali amalga oshiriladigan nazariy mulohazalar va uchinchisi-ishonchli naql-axborlar. Ushbu usullar kundalik pedagogik muammolarni hal etishda juda qo'l keladi. Quyidagi jadvalda mazkur metodlar ko'rsatilgan.

## MAFKURAVIY TARBIYA METOD VA VOSITALARI

<b>Metodlar</b>	<b>Mazmuni, qo'llanish jahasi</b>	<b>Izoh</b>
G'oyalar bahsi, jamoaviy izlanish	Yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini oshirish, ularning mafkuraviy immunitetni shakllantirish, kurashchanlikni oshirish. «G'oyalar bahsi» usulida har bir kishi yangi, konstruktiv fikrni aytishi kerak va eng maqbuli rag'batlantiriladi.	
Bahs	Bahs-munozara bo'yicha qaramaqarshi fikrlar asosida yuzaga kelgan eng oqilona xulosaga kelishdir.	
Jamoaviy izlanish	Mafkuraviy kurash hamda qaramaqarshi kurashga oid muammolar izlab topiladi va eng maqbul yechimi taklif qilinadi.	

G‘oyalar bahsi	Turli muammolarning yechimini topish.	
Radio, televideniye, gazeta, jurnal, maqolalar.	Shaxsni g‘oyaviy tarbiyalash, ongini mafkuraviy jihatdan egallashdir. Radioda tarbiyaviy eshittirish, masalan, ertak, ma’rifiy va ma’naviy, rivoyatlar bo‘lsa, televideniyeda bevosita tarbiyaga oid ko‘rsatuqlar va eshittirishlar berilib, bolani qanday tarbiyalash ko‘rsatilib va eshittirib boriladi. Tarbiyaning bu vositasi har kimga har xil ta’sir qiladi, kimgadir eshitishdan ko‘ra ko‘rish va kimgadir, ko‘rishdan ko‘ra gazeta va jurnaldan o‘qib tushunish va hokazo.	
Muloqot, munosabat, ertak, afsona, rivoyat, o‘tmish qadriyatlari, sa’nat va adabiyot. Oilada o‘yinchoqlar, rasmlli kitob, multfilm. Monolog, dialog, bahs-munozara, kuchli nutq, hissiy ta’sir, imo-ishora.	Muloqot-yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, ota-bola o‘rtasidagi samimiyl fikrlar, o‘qituvchi bilan o‘quvchi, talaba va o‘qituvchi orasida so‘zlashuvlar tushuniladi.	

Oilada sog'lom muhitni qaror toptirish murakkab jarayon bo'lib, u bir qator moddiy hamda ma'naviy omillar ta'sirida vujudga keladi. Oilada sog'lom muhitni qaror toptirish muammosi azaldan tadqiq etib kelingan va mazkur muammo ijtimoiy munosabatlar mazmun jihatdan chuqurlashib va murakkablashib borayotgan bir sharoitda ijtimoiy-gumanitar fanlarning tadqiqot obyektlaridan biriga aylanmoqda. Asriy hayotiy tajriba, shuningdek, maxsus tashkil etilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra oilada sog'lom muhitni qaror toptirishda quyidagi omillar yetakchi o'rinni tutadi:

- oilaning moddiy ta'minoti;
- oila budgetidan oqilona foydalanish borasida tajribaga egaligi;
- oila a'zolarining maishiy turmush darajasi;
- oilaning qo'shimcha daromad manbayiga egaligi;
- oilaning demokratik tamoyillari va o'zaro hurmat asosida boshqarilishi;
- oila a'zolarining fiziologik, psixologik xususiyatlari;
- oila a'zolarining qiiziqlishi bilan ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik;
- oila a'zolarining ijtimoiy kelib chiqishi hamda kasbiy faoliyatlar o'rtasidagi mutanosiblik;
- ota-öna ruhiy xususiyatlarining bir-biriga uyg'un kelishi;
- farzandlar tarbiyasini tashkil etishda yagona yondashuvning qaror topishi;
- oilada mehnat taqsimotining adolatli tashkil etilganligi;
- oila a'zolarining ma'lumotlilik darajasi;
- oila a'zolari o'rtasida yagona hayotiy maqsadning mavjudligi;

Hozir dunyoda hukm surayotgan mafkuraviy bo'ron mustaqillik yillarda bizning yurtimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Fuqarolarimiz ongidagi g'oyaviy sarosimalik holatidan foydalangan bir qancha siyosiy ekstremistik guruqlar o'zlarining

yovuz maqsadlariga erishish uchun O'zbekistonga nisbatan g'oyaviy huruj boshladilar. Bu ishda esa ekstremistlarning asosiy diqqat-e'tibori oilada yoshlarimiz ongini yovuz g'oyalalar bilan zaharlashga qaratildi. Ular o'zlarini go'yoki «islom dini jonkuyarlari», «chin musulmon» qilib ko'rsatib, mohiyat e'tibori bilan ezgulik manbayi bo'lgan dinimizni niqob qilib olib, yoshlarimiz ongiga yovuz va buzg'unchi mafkuralarni singdira boshladilar va afsuski ular bunga qisman erishdilar. Yoshlarimiz qo'llari bilan bir necha qo'poruvchilik harakatlarini amalga oshirdilar. Natijada begunoh yurtdoshlarimiz qurban bo'ldilar. «Vahobiylik», «Hizbut-tahrir» kabi diniy ekstremistik oqimlarning asosiy maqsadi haqiqatan ham dinni poklash, islomning asl mohiyatini tushuntirish emas, balki yurtimiz yoshlarini O'zbekiston Respublikasi konstitutsion tuzumiga qarshi qilib qo'yish, mintaqada ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni vujudga keltirish, yurtimizni mafkuraviy jihatdan o'z ta'sir doiralariga kiritish, yoshlarimizda Respublikamizni nurli kelajagiga ishonchsizlik hissini qo'zg'otish kabi vazifalar bosh maqsad qilib olingenligi hammamizga ma'lum.


Sho'rolar shunday o'ziga xos g'oyaviy bo'shliqni yaratib, din niqobi ostidagi siyosiy ekstremistik guruhlarni vatanimizga, aniqrog'i yoshlarimiz ongi, qalbiga yot va buzg'unchi g'oyalarni singdirish uchun imkoniyat yaratdi. Dinning asl mohiyati, uning jamiyatdagi o'rni haqida tasavvurga ega bo'lмаган yoshlarimiz ularning «dinni tozalash», «Islom xalifaligini o'rnatish» kabi balandparvoz gaplarini haqiqat sifatida qabul qilib ularga ergasha boshladilar. Natijada ko'plab yoshlarning ongi va qalbi yovuz g'oyalalar bilan zaharlandi va ular diniy ekstremistik oqimlarning maqsadlari yo'lida xizmat qila boshladilar. Afsuski, bugungi kunda ham yovuz niyatli oqimlarning yoshlarimiz ongini zaharlashga bo'layotgan urinishlari davom etmoqda.

Bunday salbiy hodisalarning oldini olish uchun yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

Zero, mafkuraviy immunitetning mavjudligi yoshlarimizning turli yovuz g‘oyalari ta’siriga tushib qolmasligiga zamin bo‘la oladi.

Mafkuraviy immunitet bu inson ongingin tashqaridan kirib kelgan milliy taraqqiyot yo‘limizga zid bo‘lgan har qanday g‘oyalarga qarshi tura olish qobiliyatidir.

Shu o‘rinda masalaning bir muhim jihatiga e’tibor berish zarur deb hisoblaymiz. Oilada yoshlarimiz ongi va qalbini egallash uchun tashqi kuchlar tomonidan bo‘layotgan kurash asosan diniy yo‘nalishda ekanligi ma’lum. Shuni hisobga olib ota-onalarning g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirish ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lgan siyosiy ong, ilmiy dunyoqarashini o‘stirishga katta e’tibor berishimiz zarur. Chunki ota-onalarda aynan siyosiy ong, ilmiy dunyoqarashdagi ayrim muammolar tufayli siyosiylashgan turli diniy g‘oyalari jamiyatimizga kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu masalaga ayni chog‘da ilmiy falsafiy yondashish nazarda tutilmoqda. Ya’ni ota-onalarga, avvalombor, dinning kelib chiqishi, odam hayoti va jamiyatda tutgan o‘rni, uning asl mohiyati, dinning pirovard maqsadi va vazifalari, jahondagi mavjud dinlar, ularning o‘zaro umumiyligi va farqi, hozirgi kunda diniy ta’limotlardan qanday maqsadlarda foydalanish zarurligi haqidagi chuqur ilmiy asoslangan bilimlarni berish kerak. Toki, ota-onalarimiz dinning asl mohiyatini, uning ijtimoiy ma’rifiy vazifasini anglab yetsinlar. Ota-onalarning g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirish evaziga yoshlarni zararli diniy ekstremistik oqimlar ta’siriga tushib qolmasliklariga zamin yaratiladi, dinning ijtimoiy mohiyatini tushunib yetgan yoshlarimizda tolerantlik, ya’ni diniy bag‘rikenglik paydo bo‘ladi.



*2-rasm.* Ota-onalarga g'oyaviy-tarbiyaviy bilimlarni singdiruvchi omillar.

Ota-onalarning g'oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirishda ta'lif muassasalari, mahalla va jamoatchilik hamkorligi ulkan ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ota-onalarga o'z faoliyatini **birinchidan**, ota-onalarga avvalambor, farzandi ta'lim oladigan maktabi, mahalladagi oqsoqollar va uning atrofidagi o'rtoqlaridan uning xulqini o'rganishdan boshlashi kerak. Bundan tashqari, maktab fan o'qituvchilari bilan doimiy aloqada bo'lib turish, tarbiyaviy soatlarni namunaviy yo'lga qo'yilishi, bolalarni turli to'garaklarga jalb etish kabi muhim jihatlarni nazorat qilish kerak.

Bundan tashqari sinf rahbari ham o'quvchining uy sharoiti bilan yaqindan tanish bo'lmoq'i lozim. Buning uchun o'quv yilining boshidayoq sinf rahbari ma'lum reja asosida har bir

o‘quvchining ota-onasi, uy sharoiti, o‘quvchi shaxsi, ya’ni uning tug‘ilgandan boshlab o‘ziga xos tomonlarini, masalan, injiqmim-nima uchun, o‘jar yoki qaysarmi-nima uchun kabi tomonlarini o‘rganmog‘i, salomatligiga doir ma’lumotlarni aniq bilib olishi lozim. Bundan tashqari, o‘quvchining dars tayyorlashga sharoiti, uyda buni kim nazoratga oladi, o‘quvchining ota-onasiga, mehnatga munosabati, uka yoki akalariga nisbatan muomalasigacha o‘rganish zarur.

**Ikkinchи tomondan.** Ota-onalardan maktab bilan doimiy aloqada bo‘lishligiga erishish kerak. Ota-onalardan mafkuraviy tarbiyaning qaysi fanga qiziqishi kuchli ekanligini oldindan o‘rganib, uni shu fan yuzasidan bo‘ladigan to‘garaklarga albatta qatnashishi zarurligini bolaga uqtira olishi va shu yo‘lda doimiy nazoratni o‘rnatishi lozim. Bu esa juda zarur jihatdir. Bularning barchasi farzandi, ya’ni o‘quvchi tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda eng samarali va muhim omillardandir.

Ota-onalardan mafkuraviy tarbiyaning qaysi fanga qiziqishi kuchli ekanligini oldindan o‘rganib, uni shu fan yuzasidan bo‘ladigan to‘garaklarga albatta qatnashishi zarurligini bolaga uqtira olishi va shu yo‘lda doimiy nazoratni o‘rnatishi lozim. U to‘garak rahbarlari bilan aloqani mustahkam ushlagan holda bola taqdiri uchun doimiy qayg‘urishga odatlanishi ham kerak. Ota-onalardan mafkuraviy tarbiyaning afzal tomonlarini tushuntira olishi ham zarurdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida oilaviy tarbiya masalalariga e’tibor yanada kuchayib, dolzarb mavzuga aylanmoqda. Oilalardan mafkuraviy tarbiyaning eng muhim omillaridan biridir. Chunki avlodlarimiz tajribasidan ma’lumki, oila-jamiyatning negizi bo‘lib hisoblangan va ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Bu tayanch tajribalar albatta oilada astasekinlik bilan asosan bobolar o‘giti, momolar maslahatlariga ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Bizga ma’lumki, yoshlar ongiga milliy mafkura g‘oyalari tushunchalari ongli ravishda, mafkuraviy bo‘sliqsiz muntazam singdirib borilsa,

albatta, ularda jamiyat, inson manfaatlari to‘g‘risidagi ijobiy fikr va g‘oyalar o‘z samarasini beradi. Bunda ota-onalarning g‘oyaviy tahdidlarga bo‘lgan munosabatini o‘rganish va uni ijobiy tomonga o‘zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **3.5. Buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashda oilaning o‘rnii .**

Farzandining tarbiyasi bilan qiziqmagan, yetarlicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatmagan ota-onalar O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining 47-moddasi bilan ayblanadilar. Unda: Bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, voyaga yetmagan bolalarning ma’muriy huquqbuzarlik sodir etishga olib kelishi eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi» – deyiladi.

Yosh avlodni g‘oyaviy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy-madaniy tarixiy an‘analari, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali pedagogik shart-sharoitni vujudga keltirish, jamiyatning umumiy hamda pedagogik madaniyatini oshirish mamlakatimizda ma’rifiy-mafkuraviy ishlarni takomillashtirishda oila, mahalla, ta’lim muassasalarining birqalikdagi faoliyatining asosiy maqsadidir. Jumladan, oilada sog‘lom muhit, milliy ruh va o‘zbekona turmush tarzini barqaror qilish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o‘rnak bo‘lish, bolalarda ota-onasiga, vataniga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, o‘zaro hamkor bo‘lish, oilada g‘oyaviy tarbiyani yaxshilash, oila a’zolarining huquq va burchlarini anglab etishlari va ularga rioya qilishlarini ta’minlash, farzandlarga chuqr dunyoviy bilim asoslarini berish, ma’rifatli, madaniyatli shaxs bo‘lib yetishishini

ta'minlash, rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga kirisha oladigan, kasb-hunar iqtisodiy turmushlarini farzandlar ongiga singdirish; bolalarni aqlan-jismonan sog'lom bo'lishi uchun iqtisodiy-ijtimoiy muhit yaratish; ularda mustaqil fikrlashni qaror toptirish ota-onalarning muhim vazifalaridandir. Oilada bolalarni istiqlol g'oyalari, milliy mafkura asosida tarbiyalash, bolaning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtayi nazardan yondashgan holda maqсадli tashkil qilish, mavjud iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zaruriy sharoit yaratish, farzandlarni ta'lim muassasalari, mahalla, jamoatchilik oldidagi vazifalarini to'la ado etishga qonuniy javobgar ekanligini his qilish; ota-onalar o'zlarini pedagogik va psixologik bilimlarini muntazam oshirib borishga mas'uldirlar.

Insonning oilada shakllangan ilk mafkurasi, iymon-e'tiqodi, odobi, milliy oriyati va vijdoni, g'urur-iftixori, aql-zakovati, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib, xalq irodasi, o'zaro totuvlik va hamkorlik rishtalari bilan uyg'unlashib, jamiyatda sog'lom munosabatlarning shakllanishi, milliy istiqlol g'oyalarining mustahkamlanishiga olib keladi. Mahalla shu tariqa shaxs va jamiyat munosabatlaridagi muhim bog'lovchi vosita, xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an'analarini ifoda etgan holda, oila ulkan g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya o'chog'i vazifasini bajaradi. Keksalarning pand-nasihatlari, shaxsiy ibrati, ijtimoiy pedagogik munosabatlar misolida milliy istiqlol g'oyalarining amaliy ahamiyati ortib boradi.

Milliy istiqlol g'oyasi-butun O'zbekiston oilalarining birgalikda insonparvar, farovon demokratik jamiyat qurishda har bir insonning munosib ishtirokini ta'minlash bo'yicha qilgan azmu-qarori ifodasidir. Inson, oila, mahalla, mehnat jamoalari, davlat manfaatlari, ularni bog'lab turuvchi ijtimoiy-siyosiy tizimlar milliy istiqlol g'oyalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Aytib o'tish lozimki, hozirgi kunda ayrim oilalarda huquqni muhofaza qiluvchi idoralardan qochib yurgan shaxslarga

uylarini berish hollari uchraydi. Bunday xonadonlarda turli diniy ekstremistik, terroristik tashkilot a'zolari o'z faoliyatlarini yurgizadilar.

Bu borada mahalla fuqarolari yig'ini, keng jamoatchilik o'z hududlarida istiqomat qilib kelayotgan yoshlarning turli buzg'unchi oqimlar ta'siriga tushib qolganligini huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan aniqlab, o'zaro hamkor va hamjihatlikda faoliyat ko'rsatib, jinoyatni oldini olishga harakat qilishlari lozim. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, har bir ota-onan o'z farzandining barkamol, halol va pok inson bo'lib tarbiya topishiga har tomonlama mas'uldir. Shunga qaramay, ba'zi bir ota-onalar turli buzg'unchi oqimlarga berilib, ularning yolg'lon g'oyalariiga aldanib, diniy ekstremistik, xalqaro terroristik guruhlarni tayyorlash lagerlariga borib, jangarilik ruhida tarbiya topayotgan farzandlari bilan bir qatorda jinoyatga sherik ekanliklarini anglab yetmaydilar.

Insoniyat o'z tarixida qancha urush ko'rgan, qancha qurban bergan bo'lsa, bular-yovuz g'oyalarning paydo bo'lishi, targ'ib qilinishi, millionlab kishilarni shu g'oyalalar bilan avval xulq-atvor motivlarining shakllanganligi natijasida qo'llariga quroq berilganidan boshlangan.

Buzg'unchi g'oyalalar targ'iboti odamlar, millatlarning tinchligini buzgan.

O'tmishdan islom dini niqobi ostida o'z manfaatlari sari kurash olib borgan, turli xunrezliklar va buzg'unchiliklarga sabab bo'lган voqealar ko'plab uchraydi. Jumladan, Abu Ali ibn Ali Tusiy-Nizomulmulk o'zining «Siyosatnoma» («Siyar ul-mulk») asarida bu fikrimizni isbotlovchi ayrim voqeliklar haqida xabar beradi. Holbuki, uzoq yillar saljuqiylar saroyida vazirlik lavozimida ishlab kelgan va «Nizomulmulk» nomi bilan mashhur bo'lган bu davlat arbobining o'zi ham islomda yot bo'lган fisqu fasod qurboni bo'ldi. U yollanma qotil Aku Tokurtig'idan o'lim topgan.

«Qadim zamonlarda xorijiylar (dindan qaytganlar) bo‘lgan va ular davlatga yashirincha yomonlik qilib, har bir ovozaga qulqoq solib, mayda ishlarga ham aralashib yurardilar. Xudo o‘zi saqlasnu, mabodo davlatga biror zarar tegib qolsa, bu itlar yashiringan joylardan chiqib, davlatga qarshi yurish qilib qo‘llaridan kelgan yomonlik va bo‘hton ishlarni qiladilar. Ular garchi so‘zlarida muslimmonlikka da’vogar, haqiqatda esa kofirlar fe’li va ishlarini qiladilar. Ularning botinlari zohirlariga qarshi, so‘zları amallariga ziddir! Muhammad alayhissalom dinda bulardan yomonroq dushman yo‘q» – deb yozadi Nizomulmulk.

Demak, bundan deyarli o‘n asr ilgari, undan oldin, keyin ham xalq manfaatlaridan «haqiqiy muslimon» niqobi orqasida yashiringan bunday kishilar o‘z shaxsiy manfaatlarini ustuvor qo‘ygan. Payt poylab turib hujumga o‘tgan.

Bunyodkor g‘oyalalar targ‘iboti esa shaxsni yuksaltirgan, yaxshilik g‘alabasini ta’minlagan. Biroq bu g‘alabalar taraqqiyot, millatlar uchun qimmatga tushgan. Tarix aqidaparastlik, diniy fanatizm, terrorizm, bosqinchilik, fashizm, shovinizm, jaholatparastlik, bolshevizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarni ko‘rdi, bildi. Ayniqsa, 90-yillarning boshiga kelib «vahobiylik», «hizbut-tahrir», «akromiylik», «tavba» kabi turli zararli g‘oyalarga asoslangan kuchlar va harakatlar avj ola boshladi.

Masalan, vahobiylik islom g‘oyalari siyosiy tus berib, din nomidan ish yuritib, go‘yoki islomni Payg‘ambar davridagi «asl holatiga qaytarish», ya’ni uni tozalash, barcha muslimonlarni islomning yashil bayrog‘i ostida birlashtirish kabi g‘oyalarni ilgari surdi.

Vahhobiylik mustaqillik arafalarida ilk yillardagi oilalardagi g‘oyaviy bo‘shliqdan ustalik bilan foydalanishga intildi. Dastlab joylardagi masjidlarning imom-xatibligi, keyinroq esa mamlakat diniy idorasining nufuzli lavozimlari uchun kurash boshlanib,

O‘zbekistonni islom respublikasi deb e’lon qilish, mintaqamizda xalifalikni tiklash rejasini amalga oshirmoqchi bo‘ldi.

Buzg‘unchi g‘oyalardan yana biri–fashizm edi. Bu g‘oyaning manbayi–gitlerning «Mening kurashim» deb nomlangan kitobi hisoblanadi. Natsizmning «ommaviy psixologik qirg‘in quroli» yaratildi. Uning amaliyoti nazariyasidan oldin paydo bo‘ldi. Ya’ni «Xalq ta’limi vazirligi», «Xalq ta’limi va targ‘iboti vazirligi»ga aylantirildi. Vazirlik gitlerchilar Germaniyasi mafkuraviy hayotining barcha sohalarini total qamrab oldi. Shior «Yagona imperiya, yagona xalq, yagona Fyurer» bo‘lishi kerak edi. Fashizm o‘z pedagogikasini yaratdi. Gitler yoshlarga yovuz, zolim va talabchan bo‘lish kerakligi xususida tarbiyani singdirdi.

Nemis askarlariga «qo‘l uzatsa yetadigan» darajada (targ‘ibot orqali) baxtli istiqbol ko‘rsatildi. Xullas, fashizm–yuzlab millatlarga mansub millionlab insonlarning yostig‘ini quritgan, hali ham tortayotgan yovuz g‘oya ana shunday yovuz ijtimoiy-pedagogik mexanizm targ‘ibotga qurildi. Toki buzg‘unchi g‘oyalar hozir, O‘zbekiston Respublikasi atrofida tahdid solib turgan ekan, ayrim yoshlarni ularning targ‘ibot-tashviqot girdobiga tortib ketgan ekan, ularga qarshi qulay pedagogik tizim asosida birgalashib kurashish bugungi kunning eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mafkuraviy kurashlar yurtimizda kuchaygan 1999–2001-yillarda odamlar orasida «da’vat», «da’vatchilar» degan ibora ko‘p ishlatiladigan bo‘lib qoldi. «Da’vat» so‘zi o‘z ma’nosiga zid tarzda ishlatila boshlandi. Oilalarda, marosim, to‘y, hashamlardan tortib, azagacha, hatto ayollarga tegishli ayrim mavliyatlarga ham «da’vatchi» taklif qilinadigan bo‘ldi. Kim tomonidan, qayerda yozilgan noma'lum «da’vat» magnit yo‘zuvlariagi ayrim irodasi, bilimi bo‘sh hamyurtlarimiz «da’vat»ning mag‘zini chaqib-chaqmay, xalqimizning orasida turli mish-mishlar tarqatib, tashviqot qildilar.

Aslida islomda da'vatni Alloh taboraka bayon qilib qo'ygan: «Oralaringizda yaxshilikka (islomga) da'vat qiladigan, ibodatga buyuradigan va isyon-gunohdan qaytaradigan bir jamoat bo'lzin. Ana o'shalar najot topguvchilardir» – ya'ni da'vatda biror insoniyatni yaxshilikka chaqiradigan, xayrli ishlarga buyuradigan, noplak yo'llardan qaytaradigan, ijobiyligi, ijtimoiy pedagogik vazifani bajaruvchi kishilar da'vatchi deb ataladi.

Diniy aqidaparastlik targ'iboti pedagogikasida «jihad» tushunchasi ham faol qo'llaniladi. Jihod (arab–lug'aviy: g'ayrat qilish) ilk islom davridan buyon reaksiyon ahamiyat kasb etib, talonchilik va bosqinchilikni diniy oqlash niqobi bo'lib kelgan. Islomning hozirgi zamon nazariyotchilari «jihad bosqinchilik urush emas, balki mudofaa urushidir. Dinni tinch yo'l bilan targ'ib qilish usulidir», deb uni oqlashga urinmoqdalar, ba'zi musulmon mamlakatlarida xalq ommasining mustamlakachilarga qarshi kurashlari ham ayni hollarda jihad nomi bilan atalmoqda. «Shahid»larni ana shu g'oyalar asosida ishontirilib qurol o'mida ishlatilmoqda. Vahobiylar esa «jihad» shioridan mavjud demokratik tuzumga qarshi Islom davlatini tuzish uchun foydalanmoqdalar.

Ularning pedagogik maqsad va vazifalarida buzg'unchi tarbiyaning:

- boshlang'ich: umumiyligi ma'rifiy va xayriya faoliyati, ya'ni ommaga islom g'oyasini singdirish;
- tashkiliy: guruhlarga jalb qilingan a'zolarni jangovar kurash usullariga o'rgatish, mujohitlar tayyorlash kabi usullari uchraydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Biroq hanuzgacha buni buzishga intilayotgan «hizbut-tahrir» va boshqa buzg'unchi, harakatlar o'z g'ayriqonuniy targ'iboti bilan mashg'ul bo'lib, o'zlarining qonunga xilof xatti-harakatlari bilan jamiyatdagi barqarorlikni

buzishga intilmoqdalar. Ularda yoshlarni diniy fanatizm va ekstremizm ruhida tarbiyalashning ko‘p usullari mavjud. Bularda’vat, ishontirish, varaqva va mish-mish tarqatish usullaridir. Ular fuqarolar o‘rtasida, da’vat etish va shaxs munosabatlarini keskinlashtirishga qaratilgan xatti-harakatlarini keng miqyosda amalga oshirimoqdalar. O‘z g‘arazli maqsadlarini ko‘zlab, hokimiyatning qonuniy faoliyat ko‘rsatayotgan organlari va mansabdor shaxslarga xalq o‘zi aziz bilib, tanlab, saylab olgan rahbariga va ular olib borayotgan oqilona siyosatga qarshi ig‘vo, fitna va bo‘hton tarqatishga zo‘r berib harakat qilmoqdalar.

Fundamentalizm, ekstremizm, terrorizm jamiyatda qabul qilingan hech bir mutaraqqiy qonun-qoidalarga to‘g‘ri kelmaydigan harakatlarni ifodalaydi. Terrorizm esa hokimiyatni yoki biror bir g‘arazli maqsadlar uchun kurashning qo‘rqitib kurashish usulidir. U ham o‘zining mafkurasiga ega.

**Terrorizm** mafkurasi umuminsoniy manfaatlarga zid. U eski tarix sahifalarida qolib ketgan xalifachilikni tiklash g‘oyasiga zo‘r berib, turli millat va elat vakillari yashayotgan mamlakatimiz ijtimoiy sohasining turli jabhalarida milliy istiqlol mafkurasi ruhiyati bilan yashayotgan va mehnat qilayotgan xalqimizning qalbiga va ongiga buzg‘unchi g‘oyalarni singdirishga harakat qilmoqda.

**Terrorizm** – bu zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlari (qotillik, hujum, bosib olish, qo‘rqitish, irodasini susaytirish)ni o‘zida namoyon etadi. Shu jumladan, U.Ubaydullayev ham terrorizmnинг quyidagi umumlashgan ta’rifini berib: «Terrorizm bu-ma’lum siyosiy maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan, tinchlikka, fuqarolar xafsizligiga va hayotiga zo‘ravonlik ishlatish yoki qo‘llash xavf-xatarini tug‘dirishdir» – degan edi.

Shuni e’tirof etish kerakki, bugungi kunda terrorizm va diniy aqidaparastlik razil va qabih amallarini taraqqiyotimizning hamma sohalarida keng qo‘llanilayotgan kompyuter tarmoqlariga ham kiritmoqda. XX asrning so‘nggi o‘n yilligida

xalqaro kompyuterning kurrai zamin bo'ylab keng yoyilishida ulkan siljishlar kuzatildi. AQSH mudofaa mahkamasining oddiy bir loyihasidan boshlangan bu tizim bugungi kunda butun dunyoni bir-biriga chambarchas bog'lab turibdi.

O'zbek oilalarida internetga ulangan kompyuter soni tobora orta bormoqda. Internet insoniyat uchun cheksiz imkoniyat va qulayliklar yaratdi. U xususan, axborot va kommunikatsiya jarayonlarini misli ko'rilmagan darajada tezlashtirdi. Behisob fazilatlari bilan bir vaqtda bu mo'jiža ayrim jiddiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Dunyo mamlakatlari xavfsizligi jiddiy tahdid sifatida qaralayotgan ana shunday muammolardan biri sayberterrorizm sanaladi. Sayberterrorizm (bu atama kiberterrorizm deb ham qo'llaniladi) internet tarmog'i orqali amalga oshiriladigan elektron qo'poruvchilikdir.

O'z-o'zidan tushunarligi, sayberterrorizm internet olamidagi yangi hodisa. Sayberterrorizm bu-terrorchilikning bir turi bo'lib kompyuterlar tizimiga hujumlar uyushtirish, internet orqali muayyan hukumat yoki mamlakatga qarshi qo'poruvchilik ruhidagi axborotlarni tarqatish, shuningdek, diniy, irqiy, ruhiy yoki shu kabi omillar asnosida birikkan turli kuchlar tomonidan muayyan mamlakat yoki mintaqada ijtimoiy notinchlik keltirib chiqarish kabi qator faoliyatlarni qamrab oladi.

Hozir deyarli hamma terrorchi guruhlar internetda o'z saytlariga ega va ular ayni vositadan o'z g'oyalarini yoyish, o'zaro axborot almashish va boshqa maqsadlarda keng foydalanmoqda. Bunday guruhlarning internet orqali qo'poruvchiligi ham xuddi odatdagি terrorchilik harakatlari kabi yo siyosiy-ijtimoiy, yo diniy-etnik yoki boshqa da'volar ostida amalga oshiriladi. Masalan, Kaliforniyadagi terrorizm va noan'anaviy urush amallarini tadqiq etish markazi mutaxassislari internetdagи terrorchi guruhlarni quyidagi turlarga ajratadi: diniy, etnomillatchi ayirmachilar, inqilobchilar, ekstremist kuchlar.

Islomni asli holida saqlab qolishga qaratilgan harakat Yevropada fundamentalistlar, Markaziy Osiyoda aqidaparastlar yoki ekstremistlar, deb ataladi.

**Fundamentalizm** so‘zi asli lotinchadan kelib chiqqan bo‘lib, asos yoki poydevor ma’nosini bersa-da, aqidaparastlik tushunchasi unga mos keladi. Biror narsaning asosi, jumladan, dinning asosi yoki poydevori. Ular milliy ong sohasida islomni millatchilikka qarshi qo‘yadilar, ya’ni musulmonlar qaysi millatdan bo‘lishiga qaramay, jamiyatda islom aqidalariga so‘zsiz amal qilishi kerak, ijtimoiy ong sohasida esa musulmonlar jamoasi a’zolari, ummatlar teng huquqli, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas, degan konsepsiyani ilgari suradilar.

Diniy aqidaparastlik ko‘r-ko‘rona ishonish, e’tiqod asoslangan dalilsiz, isbotsiz qoida, ishonch bilan aytilgan fikr yoki qattiq ishonilgan mulohazaga asoslanadi. Shu sababli aqidaparast odamlar ko‘r-ko‘rona ishonuvchi, aqidalarga yopishib olgan, dogmatizm tarafdori sifatida qaraladi. Chunki dogma-bu tanqidiy tekshirmay, ko‘r-ko‘rona qabul qilingan qonun-qoida, fikr-mulohaza, aqidadir. Shuning uchun ham aqidaparast dogmalar, aqidalarga asoslangan tafakkur, eskirgan, qotib qolgan nazariy qonun-qoidalarga tanqidiy ko‘z bilan qaramay, unga ko‘r-ko‘rona ishonadi va amal qiladi.

Demak, diniy aqidaparastlik aqidaning o‘zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo‘jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so‘zma-so‘z talqiniga asoslangan e’tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo‘yadigan, muayyan diniy e’tiqod shakllanishining boshlang‘ich davrida belgilangan barcha yo‘l-yo‘riqlarning qat’iy va og‘ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo‘llaniladigan istilohdir.

Diniy ekstremizmning asli ma’nosi nima? Ekstremizm so‘zi

aslida frantsuzcha-lotinchadan kelib chiqqan bo‘lib, o‘ta keskin fikrlarning bildirilishi va qattiq tadbirlarning qo‘llanilishi yoki keskin fikr va choralarni yoqlovchi, keskin choralarga tarafdarlik ma’nolarida qo‘llaniladi.

Bunday keskin fikrlar sog‘lom yoki nosog‘lom bo‘lishi mumkin. Shu sababli jamiyat uchun nosog‘lom ma’nodagi keskin chora va fikrlarni yoqlovchilarni ekstremistlar yoki ba’zi ma’noda jaholatparastlar ham deb atashadi.

Diniy ekstremizm faqat islom o‘lamiga tegishli bo‘lib qolmay, balki dunyodagi barcha dinlarga mansubdir. Ayniqsa, o‘rtalarda xristian ruhoniylari «muqaddas kitoblarida belgilangan har qanday aqidalarga qarshi chiqish Xudoning irodasini buzish demakdir», deb uqtiriladi. Har qanday norozilik «qo‘rslik», «takabburlik ifodasi» deb hisoblanadi va bu eng mudhish gunohdir, deb e’lon qilingan edi. Cherkov kuchli bo‘lishiga qaramay, shaharliklar va dehqonlar orasida cherkov ta’limotiga qarshi chiquvchilar ko‘paya bordi.

Yoshlarni o‘z domiga tortayotgan har xil yot g‘oyaga qarshi kurash bugungi kunda avj oldirilmoqda. Bu borada professor Tilab Mahmudov o‘z fikrlarini bildirib: «Mustaqillik mafkurasiga zid bo‘lgan diniy ekstremistik g‘oyalalar pirovardida jinoiy ishlarni sodir etishgacha olib keldi. Tarixdan ma’lumki, avvalo to‘plar otilib, so‘ngra g‘oyalalar jangi bo‘lmagan. Aksincha, avval miyalar qizigan, tafakkur etilgan, ma’lum dunyoqarash shakllanib, mafkuraviy kurash maydonga chiqqan. Yaxshimi, yomonmi mafkuraviy bo‘hton dastavval yoshlarni o‘z domiga tortadi. Yoshlarsiz har qanday mafkura, dunyoqarash, g‘oyalalar bir qadam siljimay qoladi. G‘oyalarni kuchaytiruvchi, to‘ldiruvchi va ularga qalb beruvchi yoshlardir. Shuning uchun barcha zamonalarda jamiyat va davlat, o‘z oldiga ma’lum maqsad qo‘ygan guruh, jamoa, oqim, mazhab va sektalar birinchi navbatda yoshlarning ongini egallashga harakat qiladi» – deydi.

Yoshlarni har xil buzg‘unchi g‘oyadan himoya qilish uchun

oila, ta'lim muassasasi, mahalla hamkorligida bugungi kunda mavjud buzg'unchi g'oya bilan sug'orilgan oqimlarning asl basharasi, ularning maqsadi hamda bu g'oyalarning yoshlarga, jumladan, jamiyatga keltiradigan zararini to'la tushuntirish, suhbat va boshqa metod, usullaridan foydalanib, kurashish bu ilmiy-pedagogik asosga qurilgan bo'lishi kerak.

#### **4. OTA-ONALAR VA YOSH OILALARGA MASLAHAT**

Bitta edingiz, ikkita bo'lganiningiz muborak.

Sizni ona bo'lishdek shunday *ulug'* bir sharafga na o'lchab, na tasvirlab bo'lmas saodatga yetkazgan, yangi mehmon poyiga poyondoz to'shash baxtiga yaqinlashtirayotgan Tangriga beedad shukur!

Endi siz bo'lajak onasiz. Ona eng avvalo o'zi sog'-salomat bo'lishi kerak. Uning xatti-harakati, yurishi yoki ko'p uplashi, jizzakiligi yoki og'ir bosiqligi, hamma-hammasi homilaga ta'sir qiladi degan fikrlar bizga qadimdan ma'lum. Hozirgi kunda yapon apparatlarida homila holatlari tadbiq qilinyapti.

Laboratoriya tajribasida onani alohida xonaga joylashtirib, osoyishta sharoit yaratildi. Xonada «cho'li iroq» musiqasi yangradi. Homila bu musiqadan orom olib tinch yotayotgani kuzatildi. Zamonaviy sho'x shovqinli musiqa yangradi. Homila bu musiqadan bezovta bo'la boshladi. Musiqaning homilaga ta'sirini UZD apparati orqali kompyuter ekranida ko'rib hayratga tushdik. Demak, onalarimiz bekorga farzandlariga alla aytishmas ekan.

Alla ohangi homilani ruhan osoyishta, og'ir-bosiq, ongli bo'lishiga yordam berar ekan. Momolarimiz bekorga homilador onaga barmog'ingni qirqib ber, desa qirqib berish kerak degan mubolag'a gaplar zamirida juda katta ma'no yotadi. Demak, homilador ayol ko'ngli nima tusasa, olma, anor, shirinlik, achchiq-sho'r kabi taomlarni albatta topib berish kerak degani.

Homilador ayolning siqilishi, surinkasiga istirob chekish, asabiyashish homilaga ta'sir qilishi isbotlandi.

Hatto onaga berilayotgan taomni halol-haromligiga ham katta

e'tibor berish kerakligi haqida ma'naviy manbalarda yoritilgan.

Masalan, Amir Temur o'g'lini uylantirgandan keyin, qirq kun chilla saqlatib yoshlarning qo'shilishlariga ruxsat bermagan. Qirq kun o'tgach o'g'liga quyidagicha nasihat qiladi: O'g'lim, bizga kelnimizning ota-onalari uni halol yoki harom taom bilan boqganmi yo'qmi qorong'u. Shuning uchun uning tanasidan shu paytgacha iste'mol qilgan oziq-ovqatlarining barchasi qirq kun mobaynida yangisiga almashadi. Shundan so'ng sizlar qo'shilishingiz mumkin, deb qirq kundan so'ng, endi ruxsat beraman, deb ruxsat bergen va quyidagilarni nasihat qilgan:

Eng avvalo ozoda bo'l, yaxshilab tahorat qil so'ng chillaxonaga kirgach Allohdan niyatingni to'liq so'rab iltijo qilginki, Insho Alloh niyatlarining ijobat bo'lg'ay, deb, quyidagi fikrlarni bayon etadi: Albatta oila qurishdan maqsad avlodlarimiz davomiyligini ta'minlash. Oilamiz chirog'ini so'ndirmaslik. Ona yurt yangi himoyachisini dunyoga keltirish, yurt kamoliga – kamol qo'shuvchi shijoatli, jasur, aqli merosimiz davomchisini dunyoga keltirishdir. O'g'lim. Sen bugun chillaxonada Tangriga iltijo qilib niyatingni to'liq so'ra.

– Ey Tangrim. Menga shunday farzand berginki, uning umri chinor umridek uzun bo'lsin, deb so'ra.

– Ey Allohim, menga shunday farzand berginki, aqli Muhammad Payg'ambarimizdek zukko bo'lsin, deb so'ra.

– Ey Allohim, menga beradigan farzandingning husni malikai Xusnioboddek go'zal qilib berginki do'st-dushman oldida yuzim yorug' bo'lsin, deb so'ra, degan o'gitlari bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotgan emas.

Hozirgi tibbiyot nima uchun farzandlar orasidagi yosh uch yil bo'lishi kerakligini ilmiy o'rgandi.

Natija quyidagi xulosalarni berdi:

Birinchidan, ayollar 20–33 yoshda eng sog'lom, kuch-qudratga to'la, fiziologiyasi bemalol farzandga oziq-ovqatni kerakligicha yetkazib beradigan mahsuldor payti bo'ladi.

Farzand tug‘ilgandan so‘ng bu yoshdagi onalar yana o‘zlarini tiklab oladilar.

Farzandlar orasi uch yil bo‘lsa, birinchì farzand onadan yetarli oziq-ovqatni oladi va sog‘lom baquvvat bo‘lib ulg‘ayadi. Ammo shu uch yil orasida yana homila paydo bo‘lsa, yangi bo‘sangan ayol organizmi o‘ziga ham, farzandiga ham ozuqa yetkazib berolmay o‘zini tiklashga qiynalib qoladi. Natijada ona ham bola ham nimjon bo‘lib, ~~tez~~ kasallikka chalinuvchan bo‘lib qolishadi. Shuning uchun farzandlar orasidagi 2,5–3 yosh farqi onaning ham, farzandning ham salomatligi garovidir.

Erkaklar 18–45 yoshlarida, ayollarning 18–33 yoshlaridagi davri eng mahsuldor, kuch qudratga to‘la hech qanday (ular ichmasa, chekmasa va boshqa spirtli narsalar surunkasiga iste’mol qilmasa) nuqsonsziz farzand ko‘rishadi.

Ba’zi hollarda 35–40 yoshlarda farzand ko‘rgan onalarimiz fiziologiyasi yaxshi saqlangan bo‘lsa, ya’ni ularning biologik quvvatlari baquvvat bo‘lsa, erkakda ham xuddi shu holat bo‘lsa bola sog‘lom, aqli tug‘ilishi mumkin. Ammo ayol ham erkak ham shu yoshda bo‘lib, ularning fiziologiyasida qarish, stress kuchli kechgan holatlari bo‘lsa, farzand, to‘la qonli tug‘ilmaydi.

Ayol organizmi bunday ozuqani homila uchun to‘la-to‘kis ta’minlab bera olmaydi. Natijada farzand biror nuqson bilan tug‘ilishi mumkin.

## YOSHLARNI OILAGA TAYYORLASH

Eng avvalo yoshlarga oila muqaddas ekanligini ta’kidlaymiz. Oilan qurishdan oldin men oilani boshqara olamanmi? Ota yoki onalik vazifasini bajarishga tayyormanmi? – degan savollarga javob berish kerak. Shu savollarga qoniqarli javob bera olsangiz keyin oila qurishingiz mumkin. Uylanish yoki turmushga chiqish bekinmachoq o‘yini emas, bugun o‘ynab ertaga tashlab ketadigan. Bir umr birga yashashni ko‘z oldingizga keltirib,

«Yetti o'lchab bir kes» maqoliga amal qilib keyin bir qarorga kelishingiz talab qilinadi.

Xalqimiz bekorga «Ko'z ochib ko'rganim ko'z qorachig'im, keyingi ko'rganim loyu-balchig'im», deb aytmagan. Chuqur mulohaza, surushtirish, uchrashishdan so'ng ma'qul ko'rib oila qurdingizmi endi bu oilani muqaddas biling. Iloji boricha uni asrab-avaylab, unga xiyonat qilmaslikka, vafodor ayol yoki er bo'lishga intilish kerak.

Yoshlarimiz bugungi kun statistik ma'lumotlariga qaraganda oz muddat ichida oila qurishganlardan keyin, xarakterimiz bir-birimizga to'g'ri kelmyapti, bir-birimizni tushuna olmyapmiz, degan da'veni qilyaptilar.

Oila qurbanlariga ikki-uch yil bo'lga yosh oilalarni ikkiga ajratib statistik ma'lumotlar yig'ildi.

**Birinchi tip** oilalar o'zлari topishgan, sevib-sevilishgan, o'z xohishlari bilan oila qurban yoshlari.

**Ikkinci tip** oilalar kattalar, ota-onalari, qon-qarindosh urug'lar orqali topilgan, bir-birini ilk bor ko'rib ma'qul topgan, o'z xohishlari bilan oila qurban yoshlari.

Statistika shuni ko'rsatdiki, bu ikki tur oilaning birinchi turida ajralishlar ko'proq.

Olib borilgan mutaxassis kuzatuvi psixologik analiz va sintez tadqiqot ishni quyidagicha yakunladi:

O'zi topgan, sevib-sevilgan yoshlari o'zlarining yaxshi, go'zal faqat ijobiy tomonlarini bir-birlariga ko'rsatganlari tufayli, bu yoshlari shu yaxshi fazilatlariga mehr qo'yib, bir-birlarining ijobiy tomonlariga ko'nikma hosil qilib o'rgangan yoshlardir.

Ular oila qurbanlaridan so'ng, bir-birlarining visoliga erishgach, endi salbiy qiliqlarini yashirib yurishga hojat yo'q deb yashiringan nuqsonli qiliqlari va fe'lllarini yuzaga chiqaradi. Bu qo'shilмаган fe'llarga o'rganмаган, kutмаган yoshlari orasida ajrashishlar ko'proq.

Ikkinci tip oila yoshlari bir-birlarini yaxshi bilmaganligi, yaxshi va yomon fe'llariga ko'nikma hosil qilmagan, hammasini endi ko'rayotganligi uchun bir-birlariga o'rganib oila shunaqa bo'lar ekan deb o'rganib, ko'nikib ketishgan yoshlardir.

Bunday oilalarda ajralish soni kam. Shu o'rinda shoh Kaykovus «Qobusnoma» asarida o'g'liga shunday nasihat qiladi; Uylanmagan o'g'linga, turmushga chiqmagan qizni olib bergin, deydi. Agar uylangan o'g'ilga turmushga chiqmagan qizni yoki uylanmagan o'g'ilga turmushga chiqqan qizni olib bersang ular oldingi xotiniga yoki eriga hozirgi erini solishtirib kamchilik topaveradi:

Eri – oldingi xotinim ozoda edi, so'zлari muloyim edi va hokazo desa;

Xotini – birinchi erim mard edi, orzu havasli edi, siz qurimsoq ekansiz va hokazo davolarni qiladilar.

Ular birinchi turmush o'rtog'inining kamchiliklarini emas, yutuqlarini eslaydilar.

Bu muammolarni hal qilishda allomalarimiz, xalqimiz va ota-onalarimizning hayotiy saboqlariga asoslanib ish ko'rsak foydadan holi bo'lmaydi.

Milliy va umuminsoniy xalq tajribasi allomalar asarlari, ota-onalarimiz va bugungi hayot tajribasi ideal sevgi bo'lishi mumkin emasligini, sevgi-muhabbat har bir shaxsda individual bo'lishini isbot qildi. Har bir shaxs o'zining intellektual saviyasiga, dunyo qarashiga, o'zining qalbiga va maqsadiga qarab turmush o'rtog'i tanlashi mumkin. Tanlagan turmush o'rtog'inining yutuqlariga (saxiy, mehribon, mard va orzu havasli) suyanib, salbiy fazilatlarini (so'kadi, ahyon-ahyonda ichadi va chekadi) kechirib yashashga muhabbat deyiladi.

Hech qanday nuqsonlari yo'q turmush o'rtoq qidirgan yigit-qizlar turmush o'rtoqsiz qolib ketishi mumkin. Eng asosiysi tanlagan juftingiz (xoh qiz, xoh o'g'il bola bo'lsin) sog'lom, bir-biriga mehrli, uyim-joyim deydigan, qo'li to'g'ri, qalbida

shukuri va etiqodi bor bo'lsa, sizning boshingizga baxt qushining qo'ngani shudir.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ko'rsatilganidek yigit yoshi 18, qiz yoshi 17 ga to'lganda ixtiyoriy ravishda oila qurishlari mumkin. Ammo bugungi kunning ma'naviy, iqtisodiy, ijtimoiy, sotsial talablari bu yoshda oila qurbanlarni (oila a'zolari qo'llamasa) toliqtrib, bir qancha ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy muammolarni keltirib chiqaradi. Bugun qizlar 20–22 yoshdan, yigitlar 25–27 yoshdan oila mas'uliyatlarini his qilib oila boshqarishga tayyor bo'layaptilar.

Tajriba va tadqiqotlar erkak va ayol o'rtasidagi yosh ikki yoshdan sakkiz yoshgacha bo'lsa mahsuldar, bir-birini yaxshi tushungan, oilaviy mojarolar kam bo'lishini ko'rsatdi. Er-xotin yoshlari teng bo'lsa, bir-birining so'ziga quloq tutishi, hurmat qilishi va bir-birini e'zozlashi sust. Erkak yoshi ayol yoshidan 8–10 yosh yuqori bo'lsa, ularning dunyo qarashlarida keskin farq bo'lib, birini qiziqtirgan muammolari, ikkinchisini qiziqtirmaydi. Yoshlarida keskin farqlari (10–15 yosh) bo'lgan er-xotinlar, agar ayol o'z ustida ko'p ishlagan, o'qigan bo'lsa bunday, bir-birini tushunib olgan oilalar kamchilikni tashkil etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayol ham erkak ham hayotni ko'p kuzatgan bo'lsa, ko'rganlardan o'ziga ijobjiy xulosa chiqara olgan.

O'qigan kitoblarini uqqan va uni hayotda qo'llab olgan, mehri, qalbi pok iymonli e'tiqodli yigit-qizlarning suratlari chiroyli bo'lmasalarda, siratlarining go'zalligi uchun hamma yoqtiradi. Ularni ko'zlariga surib, qalblari ila xaridor bo'ladilar. ularning chiroyi, mansabi, boyliklari yuqoridagi fazilatlar oldida hech narsani hal qilmay qoladi.

Bu o'rinda quyidagi rivoyatni hikoya qilish o'rinli bo'lsa kerak.

Qadimda bir shohning o'n to'rtta xotini bo'lib, ularning barchasi tagli-taxtli kazo-kazolarning qizlari (biri vazirning, biri

qo'shni shoh yoki sultonning qizlari) edi. Kunlarning birida xotinlaridan biri shohning saroyiga emas, haramga borayotganligini sezib qolibdi. Ishonch hosil qilish uchun yana bir hafta shohni kuzatibdi. Bu hol takrorlangach shohning xotini darg'azab bo'lib, haramdag'i kanizaklarni pardozlaguvchi enagani chaqirib buyuribdi, agar bugun shoh yana saroyga emas, haramga yo'l olsa, u holda o'sha shohni maftun qilgan kanizakning hollariga shunday zahar bilan ishlov berginki, shoh kanizakni bag'riga bosib hollaridan o'pich olaman deganda zaharlanib o'lsin deb buyuribdi.

Bu so'zlarni harir parda orqasidan G'ulom (erkak xizmatkor) eshitib qoldi. G'ulom kuni bilan istirobda yuribdi. Bu voqeani shohga yetkazsa, begoyim boshini tanasidan judo qiladi. Yetkazmasa 40 yillik tuz-namak haqqi, vijdoni qiynalibdi. Ey Xudo, debdi G'ulom bugun shohim haramga emas saroyga qaytsinlarda deb, Allohga iltijo qilibdi. Ammo dunyo tashvishlaridan horigan shoh qaramga qarab yo'l olibdi. Uni kuzatib yurgan G'ulom ham haramga kelib shohning kirgan kulbasini tirqishidan kuzata boshladi. Shoh oromda xontaxta, xonatlas ko'rpancha, (qadimda xonlar ishlatganlari uchun shunday atalib kelgan) kanizak muloyim iboli jilmayib shohning qo'liga mehr bilan suv quyar edi. Shu payt kanizakning bir o'rim sochi oldiga tushib ketgani, uni shoh mehr bilan olib kanizakning orqasiga ohista tashladi va kanizakni mehr bilan bag'riga bosib o'pich olmoqchi bo'lganida G'ulom shartta eshikni ochib, shohim bu mumkin emas dedi. Bu holatdan g'azablangan shoh «jallod!» deb, xitob qildi.

G'ulomning boshini tanasidan judo qilinglar, deb buyurdi.

G'ulom esa shohim bir qoshiq qonimdan keching deb, bo'lgan voqeani so'zlab beribdi.

Darrov malika va enagani keltirishibdi. Shoh shu gap rostmi, deb so'rabdi. Bu gaplarni eshitgan malika G'ulomga tuhmat qilibdi. Yo'q, debdi u malika shohim men Sizning jufti

halolingiz bo'lsam, yaxshi niyatlar bilan bir yostiqqa bosh qo'ysam-u, sizga nisbatan bunday pastkashlik qilamanmi? Aslida kanizakning o'zi G'ulom bilan yuradi debdi. Xangumang bo'lib qolgan shoh darg'azab bo'la boshlabdi. Bu holatni ko'rgan G'ulom – shohim yana oxirgi bor bir qoshiq qonimdan kechsangiz buyuring enaganing surmadoni falon joyda keltirishsin debdi. Darov surmadonni keltirishibdi. Enagadan surmadan yalab ko'rsatishni so'rabdi. Enaga esa buni rad qilibdi. Enaganing qarshilik ko'rsatishlariga qaramay uning qo'l oyoqlaridan ushlab surmadan yalatgan ekan, enaga bandalikni bajo keltiribdi. Bu holatni ko'rgan shoh yonidan qochayotgan malikani qirq otning dumiga bog'lab sahroga qo'yib yuborganligi haqida yoziladi.

G'ulomini ozod qilgani, o'zi esa kanizakka uylanganligi haqida hikoya qilinadi. Hikoyaning xulosasi shunday yakunlanadi.

Agar turmush o'rtog'ingizning tagi-taxti, kelib chiqishi, boyligi bo'lsa-yu, ammo u ayolda siz xohlagan mehr, uni dil qumsab sog'inish, qalb xaridorligi ila talpinish holatlari bo'lmas ekan, yurakni majbur qilib bo'lmaydi, deb hikoya qilinadi.

Oila qurmoqchi bo'layotgan yosh yigit qizlarimizdan shuni iltimos qilamiz.

Oila muqaddas – uni asrab avaylash kerak. Er-xotin o'z jufti halollariga shunday mehr ko'rsatishlari kerakki, ular boshqa hech kimdan bunday mehr topa olmasin. Har doim er-xotin bir-birlarining mehrlariga talpinib yashashi kerak. Bunday inoq, mehr-oqibatli, fayzli xonadonda dunyoga kelgan farzand kamolatli bo'ladi.

### «Avliyoni hatlab o'tma!»

**1-masala.** Maosh olgan Ravshanjon bozordan shirinlik va ho'l meva olib, uyiga qaytdi. Qo'lidagi paketi bilan darvoza oldidagi onasining xonasiga kirmay to'g'ri o'zlari turadigan uyga o'tib ketdi. Bu holatni ko'rgan onaning ko'ngli o'ksib, o'g'lidan ranjidi.

## **Kelin bu vaziyatda qanday ish tutishi kerak?**

A) paketdagи narsalarnи ko‘rgan bolalariga ham ularni bermay olib qo‘yishi va keyin o‘zimiz yeymiz deyishi kerak;

B) taqsimchaga mevalardan solib, bolalaridan qaynonasiga berib yuborishi kerak;

D) Oyijon! O‘g‘lingiz maosh olgan ekanlar – bizlarga ilinib, bozor qilib chiqibdilar. Shuni o‘zingiz taqsimlab, rejalab bersangiz, deb paketni oldilariga olib chiqib, maslahatlarini olishi kerak.

To‘g‘ri javob (d) tahlili. Kelinimiz bu harakatlari bilan ham bolalarida mehr-muruvvat, kattalarga hurmat hissini tarbiyalaydi, ham turmush o‘rtog‘i hurmatiga sazovor bo‘ladi, ham qaynonasining mehrini qozonadi, uning qalb duosini, roziliginu oladi. Bu farzandlar uchun juda katta tarbiyaviy saboq, namuna bo‘ladi. Xalqimiz «Taomning oldini ota-onangga ber o‘zing ham oldini yeysan», – deb bejiz aytmagan.

## **«Ota-ona eng tabarruk zotlar!»**

**2-masala.** Botiraling xotini tug‘ruqxonada – u qizlik bo‘lgan. Bu voqeadan xursand bo‘lgan Botirali keksa onasini urintirmay o‘zi tovuq sho‘rva qildi. Uyda qari onasidan boshqa hech kim yo‘q. Boshqa ishlarga alahsib, hayallagan Botirali kelib ovqatdan xabar olsa, u qaynayverib juda kam qolibdi.

## **Botirali qanday yo‘l tutishi kerak?**

A) onasiga hech narsa demay, bor sho‘rvani quyib, tug‘ruqxonaga olib borishi kerak;

B) oyi, siz non-choy bilan tamaddi qilib turing, tug‘ruqxonadan kelgandan keyin biron narsa qilib beraman, deb bor sho‘rvani tug‘ruqxonaga olib borishi kerak;

D) oyi, sho‘rva qaynayverib, juda mazali bo‘libdi. Keling issiqligida ichib oling, deb hech narsani bildirmasdan oyisiga loyiq sho‘rva quyib berishi, qolganini boricha tug‘ruqxonaga olib borishi va vaziyatni turmush o‘rtog‘iga tushuntirishi kerak.

## **«Ishni rejalah – muvaffaqiyat garovi!»**

**3-masala.** Ertalab vaqtli turgan Durdona sport kiyimini topa olmay, darsdan kech qoldi. O'qituvchisi uni darsga kirishiga ruxsat bermadi. Xafa bo'lgan Durdona uyiga qaytdi va voqeani uydagilarga tushuntirdi.

### **Oila a'zolari bunga qanday munosabatda bo'lishlari kerak?**

A) Dadasi: Mening qizimni darsga kiritmaydigan domla kim ekan, deb maktabga yo'l oldi;

B) Buvasi buvisiga: har gal sumkasiga sport kiyimlarini solgan solmaganligini nazorat qilib tursang bo'lmaydimi?

D) Buvisi: Xafa bo'lma, bolam, deb nabirasining boshini siladi va shirinlik berib, bugundan boshlab har gal o'zim sport kiyimlaringni sumkangga joylab qo'yamen, dedi;

E) Oyisi: Ra'noxon bundan buyon har kuni qizining dars qilgan, qilmaganligini tekshirib, dars jadvaliga qarab ertasiga sumkasini tayyorlab qo'yishini nazorat qiladigan bo'ldi. Buning natijasida qizi asta-sekin o'zi mustaqil ravishda dars qiladigan, sumkasini ertangi kunga tayyorlab qo'yadigan va darsga kechikmaydigan bo'ldi. Boshqa ishlarda ham mustaqil ravishda o'z faoliyatini o'zi rejelaydigan bo'ldi.

### **«Bola – bola-da!»**

**4-masala.** Lola tepadan murabbo olayotganida mushugiga o'ralashib, uni to'kib qo'ydi.

### **Oila a'zolari bunga qanday munosabatda bo'lishlari kerak?**

A) Lolaga uyda mushuk saqlamasligini aytib, unga tanbeh berishlari kerak;

B) Lolani koyib, shira bo'lgan gilamni o'ziga tozalattirishlari kerak;

D) Buvisi mushukni urib-haydab, Lolani erkalagan ko'yi unga boshqa shirinlik berishi va gilamni o'zi artib olishi kerak;

E) Onasi Lolaga bundan buyon narsalarni ehtiyot bo'lib olishi lozimligini ukdirishi, unga boshqa shirinlik berishi

hamda gilamni birgalikda tozalab qo'yishlari kerak.

**«Ko'rgazmalilik – eng yaxshi ta'lim-tarbiya vositasi!»**

**5-masala.** 1-sinf o'quvchisi Anvar uyga vazifa – «a» harfining yozilishini o'rganmoqda. Lekin uning yozuvlari biri ikkinchisidan xunuk chiqmoqda.

**Bunday vaziyatda oila a'zolari qanday yo'l tutishlari kerak?**

A) Buvisi: o'qituvchi yozib berganini ko'rsatib, shunga qarab yozaver, deyishi kerak;

B) Dadasi: Anvarning qo'lidan ushlab, «a» harfining yozilishini qunt bilan ko'rsatishi kerak;

D) Opasi: «husnixat» daftarini olib, «a» harfining yozilishini qunt bilan og'zaki tushuntirishi kerak.

**«Ochlikka chidash mumkin, lekin adolatsizlikka chidab bo'lmaydi!»**

**6-masala.** Aka dars qilayotganda ukasi oyoq tagida «g'ing-g'ing»lab mashinasini o'ynayverdi. Akasi bir-ikki bor ukasiga boshqa uyga chiqib o'ynashini iltimos qildi. Ammo uka quloq solmadi. Jahli chiqqan aka ukasini mashinasini olib, eshikdan uloqtirdi. Bundan xafa bo'lgan uka: akam urdi, – deb onasiga yig'lab bordi. Ona kichik o'g'lining gapiga quloq solib: kap-katta yigit kichik bolani urdingmi, – deb koyidi va bir shapaloq urdi. Bu holatni ko'rgan kichik o'g'li xursand. Ona ham kichik o'g'lining yuzidagi tabassumdan boshi osmonga yetgan holda uydan chiqib ketdi.

**Masala ona tomonidan adolatlari hal qilindimi?**

**Javob:** Bu yerda akaning ham axloqiy, ham huquqiy normalari poymol qilindi. Masala adolatlari hal qilinmadni. Aka uka orasida mehrsizlik munosabatlarining paydo bo'la boshlashiga birinchi zamin yaratildi. Ukaning esa bundan buyon yolg'on gapira boshlashi uchun yo'l ochib berildi. Bunday holatlar bir necha bor takrorlansa, aka: ota-onam mendan ko'ra kichkina ukamni yaxshi ko'rар ekan, – degan xulosaga keladi.

Adolatsizlik zamirida aka ichimdagini top deydigan, oiladagilarga va aka-ukalariga bemehr bo‘lib tarbiyalana boshlaydi. Agar ona qani, yurchi o‘g‘lim, – deb aka va ukani yuzlashtirib, haqiqatni, ya’ni akaning urmaganini aniqlaganida, ukaning tuxmat qilayotganini bilib, o‘z vaqtida chora ko‘rganida edi aka-ukalar orasida mehr, ishonch, bir-birini hurmat qilish, aldamaslik, qilgan aybini tan olib ish ko‘rish kabi ko‘nikmalarni oilada shakllantirgan bo‘lar edi.

### «Xudbinlik – katta illat!»

**7-masala.** Bir hovlida ikki aka-uka istiqomat qilishadi. Aka o‘g‘liga mashina o‘yinchoq xarid qildi. O‘g‘li esa mashinani hovliga olib chiqib, o‘ynay boshladи. Buni ko‘rgan ukaning o‘g‘li men ham o‘ynayman deb o‘yinchoqqa yopishib, uni tortib oldi. Bolalar janjallahib qolishdi. Bu holatni ko‘rib turgan ovsinlarning kattasi o‘yinchoqni o‘z o‘g‘liga olib berdi.

Masala katta ovsin tomonidan adolatli hal qilindimi?

**Javob:** Katta ovsin o‘g‘lini huquqiy normalarga asosan to‘g‘ri himoya qildi, chunki o‘yinchoq uning o‘g‘liniki edi. Ammo axloqiy normalar nuqtayi nazaridan uning tutgan yo‘li noto‘g‘ri. Buning oqibatida aka-ukalar orasida begonalik, mehr-oqibatning yo‘qolishi, molparastlik kabi illatlar va munosabatlarning kelib chiqishiga sharoit yaratildi. Bu masalada ham hayotiy vaziyat katta ovsin tomonidan adolatli hal qilinmadи. Agar katta ovsin: voy, o‘g‘lim, nega unday qilasan. To‘g‘ri, o‘yinchoq seniki, ammo uni ukangga ham bergin, ertaga u ham seni velosipedida uchiradi. Aka-ukalar bir-biriga mehrli bo‘ladi, bir-biridan hech nimani ayamaydi. U akam bor deb xursand bo‘lsa, sen ukam bor deb xursand bo‘lasan. Axir sizlar bir-birlaringga jigansizlar-ku, deb ikkalasini ham erkalatib, yarashtirib qo‘yanida edi, masala adolatli hal qilingan bo‘lar edi. Farzandlar esa onadan olgan bu alqash va mehr gashtini tanasida his qilar, uning ko‘zga ko‘rinmas ruhiy ozuqasidan bahramand bo‘lgan bo‘lar, o‘zgalar ham mehrga muhtoj

bo‘lishini, hayot mazmunining asosi insonlarning bir-biriga bo‘lgan mehridan iborat ekanligini tushungan bo‘lar edilar.

**«Tarbiyadagi kichik nuqson katta fojiaga olib kelishi mumkin!»**

**8-masala.** Ota o‘g‘lining yetuklik attestatini olishi va 16 yoshga to‘lishi munosabati bilan ziyofat berdi. U o‘ziga va o‘g‘liga qadah to‘ldirdi. O‘g‘lini, bugungi baxtli kuni bilan tabriklab, unga qadah uzatdi. \*Bu voqeaga oila a’zolari quyidagicha munosabatda bo‘ldilar.

A) Dadasi: o‘g‘lim, muborak yoshing, mustaqil hayotga qadam qo‘yishing bilan tabriklayman! Shu munosabat bilan bir qadah ko‘taraylik;

B) Buvisi: Jon bolam, sen spirtli ichimliklarga o‘g‘lingni o‘rgata ko‘rma. Hech qachon ichmasin – martabasi ulug‘ bo‘ladi.

D) Buvasi: Mayli, dadangning so‘zi yerda qolmasin. Do‘stlari oldida uni izza qilma. Qadahni urishtirib, bir ho‘plab bera qol;

E) Oyisi: O‘g‘lim, dadang senga qadah uzatib, bu spirtli ichimliklarning qanchalik zararli ekanligini bilish yoki bilmasligingni sinab ko‘rmoqchi, – deb o‘g‘li va eriga qarab qo‘ydi.

**«Rahbar – eng avvalo inson!»**

**9-masala.** Nuroniy bir mo‘ysafid nufuzli bir tashkilot rahbarining huzuriga tortinibgina kirib: Assalomu alaykum, o‘g‘lim. Kirmsam mumkinmi? – deb murojaat qildi. Rahbar:

A) Va alaykum assalom, keling, deb o‘tirishga taklif qildi va o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘ldi;

B) Assalomu alaykum, bemalol kiravering, deb o‘tirishga joy ko‘rsatdi va ishini bir daqiqaga yig‘ishtirib, mo‘ysafiddan holahvol so‘rab bo‘lgach, kelishining maqsadi bilan qiziqli va masalaning murakkabligiga qarab ish tutdi;

D) Ishdan bir zumgina ko‘z uzib, bosh irg‘ab salomlashdi va imo-ishora bilan o‘tirishga joy ko‘rsatdi. So‘ngra ishini davom

ettirgan holda chol bilan kelishining maqsadi haqida gaplasha boshladi.

### «Aql yoshda emas – boshda!»

**10-masala.** Yangi kelin bo'lib tushgan Zarifaxonning tug'ilgan kuni. Bu xonadonda hech kimning tug'ilgan kuni qutlovsiz qolgan emas. Ishdan vaqtli qaytgan Anvarjon qo'lida gul, bir kiyimlik atlas va bir quti konfet bilan xursand holatda uyga kirib keldi. Unga peshvoz chiqqan suyukli yori Zarifani qutlug' ayyomi bilan tabrikladi.

Shu kuni ertalab uyga Anvarjonning turmushga chiqqan singlisi ham kelgan bo'lib, u oyisi bilan oshxonada gaplashib o'tirardi. Singlisining tug'ilgan kunida Anvarjon xizmat safarida bo'lgan, safardan yaqinda kelgan va shu sababli uni tug'ilgan kuni bilan tabriklay olmagan edi.

Anvarjonning singlisi va onasiga be'etiborligidan ularning kayfiyati tushib ketganligini ko'rgan Zarifaxon qanday oqilona yo'l tutsa, millatimizda asrlar davomida tarkib topgan oilaviy munosabatlarning muqaddas qonun-qoidalalariga muvofiq ish ko'rgan va o'zining aqliy va ma'naviy barkamolligini namoyon qilgan bo'ladi?

A) Qayinsinglisini gul bilan tabriklab, qolgan sovg'alarni o'zida qoldirsa;

B) Qayinsinglisiga atlas kiyimlikni berib, gul va konfetni o'ziga qoldirsa;

D) Bu oilada hech kim tug'ilgan kunida qutlovsiz qolmaganligini anglagan Zarifaxon chopib uyiga kirib ketadi va sepidan bir kiyimlik qayinsinglisiga munosib kiyimlik olib chiqadi. Feruzaxon, biz Sizga mana bu sovg'ani olib qo'ygan edik. Ammo akangiz xizmat safarida bo'lgani uchun sizlarnikiga bora olmadik. Yaxshi bugun o'zingiz kelib qoldingiz. Kech bo'lsayam ayyomingiz bilan tabriklaymiz, – deb yuzlaridan o'pib qo'yadi va sovg'ani beradi. Gulni vazaga solib, stolga qo'yadi. Konfetni qaynonasiga uzatib: oyijon, o'zingiz :abarruk

qo'llaringiz bilan bizga konfet ulashing, sizga o'xshab pirubadavlat bo'lib yuraylik, – deb erkalanadi.

### «Mehmonning oldida mushugingni pisht dema!»

**11-masala.** Mehamonlar bilan band bo'layotgan Nasibaxonning oldiga qizchasi 2–3 bor noniga yog' surib berishini so'rab kirdi. U mehmonlarning oldiga kirganida mehmonlardan birining: «Voy, bu qiz juda shirin ekan-da, ko'ylagini qarang chiroylilagini», + degan maqtovlari yoqib, uning mehmonlarning oldiga yana kirgisi kelardi. qizi Ra'no onasining non ustiga surib bergen yog'ning o'zinigina yaladi-da, mehmonlarning oldiga yana kirdi. Jahli chiqqan onasi uni jerkib berdi va qo'lidan ushlab siltaganicha mehmonlarning oldidan olib chiqib ketdi. Ra'noning yeb turgan qo'lidagi noni mehmonxonadagi gilamga tushib qoldi. Birozdan keyin Ra'noning yig'lagan ovozi eshitildi. Qo'lida latta va chelakda suv bilan kirgan Nasibaxon qizi tushirib qoldirgan nonning yog'idan gilamda qolgan dog'ni artishga tushib ketdi va «Yog'ning dog'i qolmasmikan, gilam chet elniki edi», deb qo'ydi.

**Ona bu yerda qanday tarbiyaviy va ma'naviy xatolarga yo'l qo'ydi? U ushbu holda qanday yo'l tutishi kerak edi?**

A) «Mehmon kelganda hadeb kiraverding. Nima, yog' ko'rмаганмисан?», – deb koyishi kerak;

B) «Meni mehmonlarning oldida rosa uyaltirding. Yog' eging kelsa, oshxonada yemaysanmi? Aqling yo'qmi? U gilamning necha pul turishini bilasanmi?», – deb urushishi kerak;

D) «Ona qizim, uyga mehmon kelganida ularning oldiga kirib, salom berib, keyin chiqib ketish kerak. Mehmonlarning oldiga qayta aylanib kirish kerak emas. Mehmonlarning oldidagi narsalardan yeging kelsa, oshxonada stol ustida turibdi, ana shulardan olib yegin. Undan keyin – agar birov seni maqtasa, taltayib ketmagin. Uning o'miga bundan ham yaxshi, odobli qiz bo'lishga harakat qil».

## **«Ota-onang yomon bo‘lsa, bog‘lab boq!»**

**12-masala.** Yangi kelin turmush o‘rtog‘i, qaynota va qaynonasi bilan birga yashaydi. Kelinning turmush o‘rtog‘i kuni bilan ishda. Kelin esa uyda. Hali u bahona, hali bu bahona qaynona kelinini yoqtirmay tez-tez janjal ko‘taradi. Kelinning turmush o‘rtog‘i bu janjallarga aralashishni yoqtirmaydi. Kelin va kuyov sevib turmush qurishgan, bir-birini sevishadi, munosabatlari juda yaxshi.

**Oiladagi bu holatda kelin qaynonasi bilan qanday muomalada bo‘lishi kerak? Oiladagi ruhiy holatni yaxshi tomonga o‘zgartirish uchun bu oilada qanday munosabatlarni qaror toptirishi kerak?**

A) Kelin janjal chiqqanda qaynonasiga: «Men o‘g‘lingizga yalinib tegkanim yo‘q. Meni o‘zingiz topib, holi-jonimga qo‘ymay kelin qilgansiz. Endi yomon bo‘lib qoldimmi. Men qanday bo‘lsam shundayman. Bilganingizni qiling», – deb har gal orani ochiq qilishi kerak;

B) Janjal chiqqanda kelin qaynonasidan baland kelib, uning boshqa janjal chiqarmasligiga harakat qilishi kerak;

D) Kelin har gal janjal chiqish sababini o‘rganib, tahlil qilib, ulardan qaynonasi bilan bo‘ladigan kelgusi munosabatlari uchun xulosa chiqarishi kerak. Qaynonasining xarakterini o‘rganishi, shunga qarab muomila qilishi, qaynotasi, turmush o‘rtog‘i bilan maslahat qilishi, qaynonasidan o‘tgan bo‘lsa kechirishi, o‘zining kamchiliklarini tuzatib, o‘zidan ayb o‘tganda albatta qaynonasidan kechirim so‘rashi, uning hurmatini joyiga qo‘yishga harakat qilishi kerak.

## **«Tejamkorlik boylikka boylik qo‘shadi!»**

**13-masala.** Avaz mактабда futbol o‘ynayotganida uning ketasi biroz yirtildi. Keyingi hafta darslarga tayyorlanayotib, ketasining yirtig‘ligi esiga tushgan Avaz yangi keta olib berishlarini aytib xарxasha qila boshladi. Avazga ketani yaqinda olib berishgan bo‘lib, u hali yap-yangi edi.

## **Oiladagilar qanday yo'l tutishlari kerak?**

A) Onasi: ketang yirtilgan bo'lsa, men nima qilay? Bor, dadangga ayt yangisini olib bersin;

B) Dadasi: hamma narsaga men balogardon. Bir-ikki gall jismoniy tarbiyangga bormasang bormabsan. Vaqtim bo'lganda yangisini olib beraman;

D) Buvasi: qani, bolam, menga ketangni ko'rsatchi. Ha, sal yirtilgan ekan-ku. Yangisini nima qilasan. Menga ip, igna, ko'zoynagimni ham olib kelgin, hozir buni boplaymiz, deb nabirasi bilan birga ketasini tikishdi.

### **«Baxt mol-dunyoda emas!»**

**14-masala.** Gapdan gap chiqib, qaynona-kelin aytishib qolishdi. qaynona: «O'g'lim uchun men sizni kelin qilib yuribman. O'g'limga ichim achiydi. Agar menga qolsa, sizni bir kun ham unga xotin qildirmas edim. Ota-onangiz past odamlar ekan – na bir arzigulik tilla narsalaringiz bor, na bir mebelni yaxshi qilishmagan, qilgan sarupolari bir tiyinga qimmat», – deb kelunga ta'na toshini yog'dirdi. Bundan dili vayron bo'lgan kelin kechqurun ishdan qaytgan eriga bor gapni ochib soldi. Oilada noxush holat paydo bo'ldi.

### **Oila a'zolarining bunda bildirgan quyidagi munosabatlarini tahlil qiling:**

A) Eri: «Nega xafa bo'lasan, oyim bor gapni aytibdi. Onang menga ham yalchitib kiyim qilmagan-ku», – deb battar xotinining dilini xufton qildi;

B) qaynota xotini va o'g'liga: «O'zlarining nimani qoyil qilib qo'yibsizlar. Kelin yo oilamiz baxtli bo'lsin, o'zidan-o'zi ko'pay-sin, avlodimiz davom etsin, qariganda huzur-halovatini ko'raylik, deb oldikmi yo uning moli uchun oldikmi? Birovning aziz bolasini o'rtaga olib, nega uni xafa qilasizlar? Qo'lidan kelgan xizmatini qilib yuribdi. Ikkalangning ham hurmatini joyga qo'ysa, o'zi oydek bo'lsa, aqli-hushi joyida bo'lsa. Yana nima kerak senlarga. Mol-dunyo hech qachon insonga do'st bo'lgan

emas. Tinchlik-omonlik, mehr-oqibat bo'lsa, hamma narsa bitadi. Peshonasiga bersin. Sizlarni shunchalik pastkashlikka borasizlar deb o'ylamagan edim. Bundan buyon bunday noma'qulchilikni ko'rmay».

### «Qaynona-kelin – oilaning nozik bo'g'ini !»

**15-masala.** Adolatning qayinisinglisining to'yi yaqin. U bir kuni institutdan kelsa, qaynonasi Adolatga salomda qo'ygan, yaqinda eshik va ayvonga osib qo'ygan 10 metrlik pardasining yo'qligini ko'rdi. qaynonasidan so'rasha, u pardalarni qizining yuklariga qo'shib, kuyov tomonga berib yuborgan ekan.

**Adolat qaynonasiga bu holatda qanday munosabat bildirishi kerak? Qaynona bu yerda qanday ma'naviy xatoliklarga yo'l qo'ydi?**

A) Nega bergen narsangizni yana qizingizga berib yubordingiz? Mendan bir og'iz so'rasangiz bo'lmasmidi? Peshonam sho'r bo'lmasa, shunday qashshoq oilaga kelin bo'lib tusharmidim?

B) Qizim, jon bolam, o'zingiz bilasiz, quda tomon to'yni tezlashtiraylik deyishayapti. Shuning uchun xarid qiladigan narsalar ko'payib ketdi. Hammasini sotib olishga qo'lim kaltalik qilyapti. Haddim sig'ib sizning pardalaringizni berib yubordim. Kelsangiz uzr so'rab o'zingizga tushuntiraman deb, o'tirgan edim;

D) Kelin: mayli, oyijon, sog'-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik, mehr-oqibat bo'lsa, qolgan hamma narsa topiladi. Barnoxon baxtli bo'lsinlar. Hammamiz xursand bo'lib, yo'qlab borib-kelib yuraylik.

### «Bola boshidan!»

**16-masala.** Toparman-tutarman ota hali balog'atga yetmagan o'g'lidan pulini ayamas, u bilan gaplashganda faqat boylik, pul topish haqida gapirar va unga buning ba'zi yo'llarini ham o'rgatgan bo'lar edi. Bir kuni uyga otaning obro'i ziyoli do'stlari mehmon bo'lib kelib qolishdi. Ular mehmonxonada

chaq-chaqlashib gaplashib o‘tirishganda, birdan erkatoy o‘g‘li ruxsatsiz, salomsiz kirib kelib qoldi. Xijolat bo‘lgan ota o‘g‘liga: «Ie, mehmonlarga salom qani, o‘g‘lim», – dedi. O‘g‘li: «O‘rtoqlaringiz o‘zingizga o‘xshagan boy biznesmenlarmi? 25 so‘mlik salom beraymi, 50 so‘mlik salom beraymi yoki 100 so‘mlikmi?» Ota nufuzli do‘stilarining oldida o‘g‘lining kutilmagan bunday savollaridan yer yorilsa-yu, yerga kirib ketgudek izza bo‘ldi.

Otaning o‘g‘liga bergen «tarbiya»sini tahlil qiling. Bunday o‘ziga to‘q oilalarda farzand tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

**17-masala.** 15 yoshga to‘lishi nishonlanayotgan Tohir mehmonlardan sovg‘a qabul qilar, ammo bu galgi sovg‘alar unchalik qimmatli, dabdabali emas edi. Bundan ko‘ngli to‘limgan Tohir mehmonlar ketganidan keyin o‘zлari yig‘ilishib o‘tirishganda dadasiga dedi: «Dada, og‘aynilaringiz amaldaligingizda katta-katta sovg‘alar qilishar edi. Amaldan tushganingizdan keyin olib kelgan sovg‘alarini qarang». Tohirning bu fikriga oiladagilar quyidagicha munosabat bildirdilar:

A) Ona: to‘g‘ri, uyalmasdan ko‘tarib kelgan sovg‘alariga o‘laymi. Shu sovg‘alar bizga munosibmi? Yeb-ichganiga ham arzimaydi. Undan ko‘ra olib kelmay qo‘yaqolishmaydimi?

B) Buvi: Mayli, bolam, sovg‘aning katta-kichigi bo‘lmaydi. Shunchalik olib kelganlariga rahmat de. Dadang ham bundan buyon ular bilan shu sovg‘alariga qarab muomala qiladi;

D) Buva: (o‘g‘liga) Bolam, senga ming marta aytganman, tug‘ilgan kunlarni oilaviy o‘tkazaylik, deb. Bolalaringni ham shunga o‘rgatishing kerak. Ko‘nikishsin shunga. Ana shunda ular boshqalardan sovg‘a kutmaydi. Qolaversa, sovg‘a – bu olib keluvchining himmati. Sovg‘aga qarab muomala qiladigan odam yaxshi odam bo‘lmaydi. O‘zing ham birovga sovg‘a beradigan

bo'lsang, chin yurakdan ber. Minnat qilma. Bergan sovg'angni nasiya deb bil. Uning orqasidan biror narsa kutma. Ana o'shanda xotirjam bo'lsan, ko'ngling orom oladi. Amalga keladigan bo'lsak, u qo'lning kiri – hozir bor, ertaga yo'q; hozir yo'q bo'lsa, ertaga bo'ladi. Buning uchun eng muhimi – amaldaligingda odamlarning ko'nglini qoldirma, qo'l ostingdagilarga e'tiborli bo'l, ularni hurmat-izzat qil, adolatli bo'l, toki amaldan tushganingdan keyin ham ular sening hurmatingni joyiga qo'yadigan bo'lishsin, obro'-e'tiboringga putur yetmasin.

### «Qush uyasida ko'rghanini qiladi!»

**18-masala.** Shuhratning yolg'iz o'g'ilchasining tili chiqqan – biram shirin-ki! Shuhrat o'zi bolaligida sho'x o'sgan, uning ustiga otasiz katta bo'lgan bo'lib, ba'zi mahalla bolalariga qo'shilib tarbiyasi buzildi. Shu sabab uylanganidan keyin ham bosilmadi. Ba'zan xotini bilan san-manga borib qolishganda og'zidan bodi kirib, shoddi chiqar, hech kimni pisand qilmas, birovga quloq solmas edi. Bir kuni uyga Shuhratning do'stlaridan biri kelib qoldi. Ular gaplashib o'tirishganida Shuhratning hovlida qo'shnilarining bolalari bilan o'ynayotgan o'g'li ularning biri bilan urishib qoldi. Jazavaga tushgan o'g'li Shuhratning qo'y-qo'yiga qaramasdan haligi bolani urar, tili endi chiqqan bo'lishiga qaramasdan oldi-orqasiga qaramasdan so'kar, muomalaga ko'nmas edi. Bundan xijolat bo'lgan Shuhratning o'rtog'i ketish taraddudiga tushdi. Uning esiga Shuhrat bilan bo'lgan ba'zi o'tmish xotiralari tushdi.

**Shuhratning o'rtog'i ketgandan keyin bu voqeani oila a'zolari quyidagicha qarshiladilar:**

A) Dada: yashavor, ota-o'g'il! Boplading o'rtog'ingni. Bo'sh kelma – bo'shashsang hammadan kaltak yeysan. Zo'r bo'lsang hamma seni hurmat qiladigan bo'ladi. Shunday bo'lsin – katta bo'lsang qahramon bo'lsan!

B) Buvi: bolam, senga har doim o'g'lingni taltaytirverma,

oqibati yomon bo'ladi, deyman. Boshqalarda ham o'g'il bor, faqat senda emas. Undan keyin, sen bolaligingni tashla. Endi o'zing ham farzand katta qilyapsan. Oxirini o'yla;

D) Qo'yavering, oyi. Katta bo'lsa, esi kirib qoladi. Hali yosh-ku, nimani biladi. Ayb qo'shnining o'g'lidan o'tgan-da, bo'lmasa bunaqa qilmas edi.

### «Bolani qanday rag'batlantirishni bilish lozim?»

**19-masala.** Bir kuni o'g'lining maktabdan «besh» baho olib kelganidan xursand bo'lgan Adhamjon o'g'liga cho'ntagidan 50 so'm chiqarib bera turib: «Bitta besh olganing uchun 50 so'm, qani nechta besh olar ekansan» – dedi. Shundan buyon o'g'li har bir besh olgani uchun dadasidan 50 so'm olib turadigan bo'ldi. Bora-bora o'g'lining beshlari ko'payib ketdi. Bundan shubhalangan oyisi o'g'lining kundaligini tekshirsa, baholarga o'qituvchining imzosi qo'yilmagan: baholarni o'g'lining o'zi qo'yib olayotgan ekan.

Bu voqeadan keyin oilada quyidagi mojarolar va gaplar bo'ldi:

A) Dadasi o'g'li aldagani uchun uni savalay ketdi;

B) Ona: kim o'rgatdi senga bunday ko'zbo'yamachilikni? Uning o'rniga yaxshi o'qisang bo'lmaydimi. Biz senga hamma narsani muhayyo qilib berayotgan bo'lsak. Hammani sharmanda qilding;

D) Buvi: endi bunday qilmaydi. Bilmay qolgan-da, bir gal kechiring, oyisi;

E) Buva: o'g'lim, bolangga mehrni ham, qattiq qo'llikni ham bilib qilgin. Ikkinchidan, bolani bunday yo'l bilan rag'batlantirish kerak emas. Uning ko'zbo'yamachilik qila boshlaganiga o'zing aybdorsan. Yana uni urasan. Bunaqada uni ta'magir qilib qo'ysan, nima ish qilsa ham narsani biror narsaning evaziga qiladigan bo'lib qoladi. Buning o'rniga eng avvalo o'g'ling biron-bir yaxshi ish qilsa, uni maqta, boshini silab, erkalat. Bundan o'zingning xursand ekanligingni ayt.

Shunday ish qilgan bola kelajakda katta odam bo'ladi, de. Ana o'shanda bola astoydil, aldamasdan, chin ko'ngildan yanayam yaxshi ishlar qilishga intiladi. Sendan maslahat so'raydigan bo'ladi, suhbatdoshing bo'ladi. Bundan keyin bu qilgan xatoingni qaytarma.

«**Tarbiyachi eng avvalo o'zi tarbiyalangan bo'lishi lozim!»**

**20-masala.** Adabiyot darsida o'qituvchi yo'qlama qilayotganda darsga kech qolgan talaba eshikni ochib, kirishga ruxsat so'radi. O'qituvchi talabaga qarab, uning ismi-familiyasini so'radi. Talaba o'zining ismi-familiyasini aytди. O'qituvchi birdan istehzoli kulib: Ota-onang ism quriganday senga shu ismni qo'ygan ekan-da, – dedi va o'tirishga ruxsat berdi. Talaba nima deyishini va nima qilishini bilmay, noiloj joyiga borib o'tirdi. Darsning qanday o'tganini bilmadi. Bir necha kun o'ziga kelolmay yurdi. Ayniqsa, bu so'zni o'qituvchi-tarbiyachidan eshitganini hech bir qolipga sig'dirolmay, bir umrga bu «ziyoli»dan qalbida qora dog' qoldi.

O'qituvchining ma'naviy qiyofasini baholang. O'z nomi, kasbiga loyiq bo'lgan o'qituvchi, mohir pedagog bunday vaziyatda o'z vazifasini qanday qilib ado etgan bo'lar edi?

«**Farzand-zurriyotlaringizning barchasini teng ko'ring!»**

**21-masala.** Abdug'ani akaning ikki o'g'li bo'lib, ulardan kichigining qizi bilan kattasining ikkinchi o'g'li bir kunda tug'ilgan. Nabiralarimni bir xursand qilay deb Abdug'ani aka o'g'il nabirasiga o'yinchoq mashina oldi. Qiz nabiramga nima olsam ekan, deb pulini chandalab ko'rsa, arzigulik biron narsa olishga yetmaydigan. Attang, o'yinchoqni olmasdan ikkalasiga ham biron-bir shirinlik olib qo'ya qolsam bo'lar ekan, deb o'yladi-da, qiz nabirasiga bir talay xo'rozqand oldi. Uyga kelgandan keyin ikkala nabirasini ham suyib, ularga olib kelgan narsalarini berdi. Qiz nabira bolalarga xos ishtaha bilan xo'rozqndlarni eb bo'ldi-da, mashinaga yopisha ketdi. Ularni

yarashtirolmay halak bo‘lgan qizaloqning onasi xunobi chiqib, qaynotasidan xafa bo‘ldi va: «U nabirasi o‘g‘il bola bo‘lgani uchun unga mashina olib bergan-da», – deb ko‘ngliga o‘ksik oldi.

Qaynota qanday yo‘l tutganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi?

A) «Pulim kam edi, shuning uchun biriga o‘yinchoq, ikkinchisiga shirinlik olib qo‘yaqoldim», – deb bo‘lgan gapni keliniga tushuntirishi kerak;

B) «Qiz bolaga qolgan pulimga loyiq nima olishni bilmadim. Shuning uchun qiz bola shirinlikni yaxshi ko‘radi deb unga xo‘rozqand ola qoldim», – deyishi kerak;

D) Ota-onha barcha farzandlarini, zurriyotlarini teng ko‘rishi lozim: Ularning hech qaysi birini biron-bir narsada kamsitmasligi, barcha munosabatlarda adolat tarozisi bilan ish ko‘rmog‘i lozim. Mazkur holda qaynota oldindan pulini chamalab, ikkala nabirasiga ham jinsiga qarab biron-bir narsa yoki bir xil shirinlik olishi kerak edi. Shunda ikkala nabirasi bir-biri bilan talashmagan, kelinlar xursand bo‘lgan va tabiiyki, bundan qaynotaning ham ko‘ngli joyiga tushgan bo‘lar edi.

**22-masala.** Nigoraning turmush o‘rtog‘i Jamshid bilan dunyoqarashlari turlicha: Nigorani qiziqtirgan narsa Jamshidga begona, Jamshid yoqtiradigan narsalarga Nigora beparvo. Shu sabab ko‘pincha orada janjal bo‘lib turadi. Keyingi vaqlarda bu janjallar qo‘ydi-chiqdi haqidagi gaplarga borib taqaladigan bo‘lib qoldi. Orada ikkita farzand bor.

**Bu yoshlar bundan buyon qanday yashashlari kerak?**

A) Inson dunyoga ikki marta kelmaydi. Ajralish haqida sudga ariza berib, hayotlarini boshqatdan boshlashlari kerak;

B) Nigora bolalarni olib alohida yashashi, farzandlarining tarbiyasi bilan o‘zi shug‘ullanishi, Jamshid esa ularga moddiy yordam berib turishi kerak;

D) Dunyoqarashlarining turlicha bo‘lishlariga qaramasdan

murosa qilishlari, kelishishlari, har biri o'zida bo'lgan yaxshi narsalarni sekin-asta yotig'i bilan boshqasiga singdirishi, yomonini yo'qotishga harakat qilishi lozim. Vaqt bu sa'y-harakatlarning bekorga ketmasligini, kelajakda ular birvarakayiga, kutilmaganda meva bera boshlashlarini ko'rsatadi. Bu mevalar ularning bora-bora bir-birlarini tushuna boshlashlari, bolalarining qanotlariga kirib, ularning hurmat-izzatlarini joyiga qo'yadigan yaxshi farzandlar bo'lib yetishishlari, o'zлари esa jamiyatda o'z o'rinalarini topishlari, baxtli bo'lishlaridan iboratdir. Oilani buzib, boshqa hayot qurishdan iborat ikkinchi yo'l esa ularni tushkunlik botqog'iga, baxtsizlik botqog'iga botiradi. Har biri uchun ham ikkinchi turmush o'ylaganlaridek rohat-farog'atdan, jannatdan iborat emasligi, ularning xom xayol, sarob ekanligi ayon bo'ladi. Chunki jamiyatda har tomonlama dunyoqarashlari bir-biriga mos keladigan, bir-biriga har tomonlama aynan mos bo'lgan insonlarning o'zi mavjud emas. Tabiatning o'zi shunday yaralgan. Tabiatni o'zgartiraman degan odamning o'zi telbadir. Bas, shunday ekan har bir hayotdan umidi bor inson ko'z ochib ko'rgani bilan muomalada bo'lib, oyog'inining tagiga emas, balki kelajakka qarab qadam tashlashi, aql bilan ish ko'rishi, atrofga nazar tashlashi, hayotni kuzatishi, undan xulosa chiqarishi, kattalarning gapiga qulq solishi, o'z qobig'iga o'ralib qolmasligi lozim. Aks holda o'zini-o'zi baxtdan mahrum qilgan, faqat o'zini emas, balki o'zining kaltabinligi tufayli mutlaqo beayb bo'lgan, farishta bo'lib, umid bilan dunyoga kelgan boshqa insonlarning hayotini badnom qiladilar. Bu bilan o'zлари yashab turgan jamiyatning inqirozi uchun «hissa» qo'shgan bo'ladilar. Inson esa jamiyatda faqat shirin orzu-o'ylari, ezgu ishlari bilan yashamog'i lozim.

**«Bo'lalarni tushunish katta mahorat talab qiladi!»**

**23-masala.** Mustaqillik bayrami munosabati bilan ikkinchi sinf o'qituvchisi Ra'noxon o'quvchilarga yodlash uchun she'r

bo‘lib berayotgan edi. Bobir bilan Bahrom militsioner haqidagi she’rga talashib qolishdi. Ra’noxon qancha izlamasin militsionerlar haqida boshqa she’r topa olmadи.

### O‘qituvchi vaziyatdan qanday chiqishi kerak?

A) Biriga she’rni yodlashga berib, ikkinchisiga she’r aytilayotganda militsionerning safda yurishini mashq qilib berishini topshirishi kerak;

B) Biriga she’rni yodlashga berib, ikkinchisiga majburiy ravishda boshqa she’rni yodlashga berishi kerak;

D) Bolaning ko‘ngli nozik. Ularning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini, o‘qituvchiga bo‘lgan mehrlarini so‘ndirmaslik uchun ularning ikkalasiga ham boshqa o‘zlariga yoqadigan she’rni yodlashga berishi yoki militsionerlar haqidagi she’rni ikkalasiga ham yodlashga berishi va birgalikda ayтиb berishlarini topshirishi kerak.

**«Tarbiyatagi kichkina xato keyinchalik katta jinoyatga olib borishi mumkin!»**

**24-masala.** Kunlardan bir kun Botir o‘ynab yurganida qо‘shnisining tovug‘i ularning pichanxonasiга tuxum qо‘yib yurganligini bilib qoldi. Yugurib borib yig‘ilib qolgan tuxumlarni oldi-da, oyisiga olib borib ko‘rsatdi. Oyisi: Mayli, qо‘yaver, qо‘shnimiz bilib o‘tiribdimi tovuqlarining qayerga tuhum qо‘yib yurganligini. Qaytanga yaxshi bo‘pti. Bilib qolgunlaricha har kuni o‘zinga bittadan pishirib beraman, – debdi. Shu ko‘yi Botir har kuni tovuqni poylaydigan, tuxumlarini oyisiga olib kelib beradigan bo‘ldi. Ona shu tarzda Botirning bundan boshqa ham mayda-chuyda «toparmanligi»ga e’tibor bermay, aksincha, buni rag‘batlantiradigan bo‘ldi. Natijada yillar o‘tib, Botir kunlarning birida katta «ish»ga qо‘l urdi va jinoyat kursisiga o‘tirdi.

**Ona farzandining dastlabki «yoshlik qoqilishi»ga nisbatan qanday yo‘l tutishi kerak edi?**

A) Qо‘shnisidan kechirim so‘rab, farzandi olib kelgan

tuxumlarni olib borib berishi va voqeani tushuntirishi kerak edi;

B) Farzandiga: mayli olgan tuxumlarining yarmini qoldirib, qolganlarini qo'shnimizga olib chiqib bergin-da, voqeani tushuntir. Lekin bundan buyon bunday ish qilmagin, – deyishi kerak edi;

D) Farzandiga quyidagilarni uqdirish kerak: Olgan tuxumlarining darov qo'shnimizga olib borib ber. Bu qilgan ishing yaxshi emas. Ular ham tovuqlariga don berib, suv berib, senga o'xshagan bolalarini boqib, katta qilaman, deb yurishibdi. Ikkinchidan, birovning ignaday bo'lsa ham narsasini o'zlariga bildirmay olish – o'g'irlilik bo'ladi. Birovning o'zlariga kerak yoki kerak emas narsasini so'rab olish esa tilanchilik bo'ladi. Har bir narsani o'zing mehnat qilib topishing kerak. Ana o'shanda u shirin va qadrli, berminnai bo'ladi. O'zing esa mehnatga o'rganasan. Mehnat insonni ko'klarga ko'taradi, o'g'irlilik esa botqoqqa botiradi.

**«Farzandingizni yaxshi ishlari uchun rag'batlantirib boring»**

**25-masala.** O'rtoqlari bilan har kuni quvnab o'ynaydigan Nigora bugun o'ynagani chiqmadi, chunki oyisining mazasi qochib, uyida isitmalab yotar edi. Nigora: qanday qilib oyimga yordamlashsam ekan, – deb o'ylar edi. Ammo u ovqat qilishni hali bilmas, yig'ilib qolgan bir talay kirni kecha oyisi yuvib qo'ygan edi. Nihoyat nimalarnidir reja qilib, ishga unnay ketdi. Chala qilib uyni supurdi. qo'lining kiri bilan nari-beri qilib piyolalarni yuvdi. Oyisiga choy qo'ydi. Qizining ivirsilab taqirtuqir qilib yurganidan xavotirlangan ona o'midan turib, uni navbatdag'i ish ustida ko'rdi. Onaning bu vaziyatda qiziga bo'lgan munosabati:

A) Uyni ham shunaqa supuradimi, qizim? Bu – piyolalarni yuvGANINGMI yoki yuvMAGANINGMI?

B) Piyolalarni o'zi yuvib qo'ydi. qiziga: hech narsaga tegma, tuzalGANIMDA o'ZIM qilaman. Bor, sen o'ynayver, – dedi;

D) Voy, asal qizim, katta bo'lib qolibsan-ku. Sen menga choy qo'yib, uylarni supurib, yordamchi bo'lib qolganingga shukur. Faqat-chi, qizim, piyolalarmi yuvishdan oldin qo'lni yaxshilab yuvib olish kerak. Keyin uy supurganda bir chetdan, tozalab supuradi. Xo'pmi, qizim? – deb qizining peshonasidan o'pib qo'ydi.

**«Inson xotirasi muqaddasdir!»**

**26-masala.** Hosiyat opa olamdan o'tganlaridan keyin uning tilla taqinchoqlariga talashib, arazlashib qolgan ikki qizi, onalarining qarindosh-urug'lar yig'ilib, o'tkazayotgan ma'rakalaridan biriga kelmadı.

**Bundan xijolat bo'lgan kenja qiz qanday yo'l tutishi kerak?**

A) Kelmasa-kelmas deb o'zлari o'tkazaverishlari kerak;

B) Borib opalarini murosaga keltirishga harakat qilishi, tilla taqinchoqlarni qanday taqsimlash haqida maslahatlashib olishlari kerak;

D) Opalarining oldiga borib, bu ishlarining noma'qul ekanligini tushuntirishi, bunday qilsalar el-yurt oldida nomusga qolishlari, onalarining ruhi-poklari bezovta bo'lishini, sha'nlariga dog' tushishini aytishi, ma'rakalarni o'tkazib bo'lgandan keyin bu masalani sharoitga qarab bafurja hal qilish mumkinligini ukdirishi kerak.

**«To'g'ri maslahatni olmagan – nodon!»**

**27-masala.** Shoira qishloqdan keldi-yu, o'zgardi-qoldi. O'ziga bino qo'yadigan, dugonalarini mensimaydigan bo'lib qoldi. Uning oldiga tanish-bilish yigitlari tez-tez kelib turadigan, uzoq qolib ketishadigan, xonadosh dugonalarining dars qilishlari, dam olishlariga xalaqit beradigan bo'lishdi. Bundan xabar topgan kurs rahbari Shoiraga murabbiyga xos bosiqlik bilan ehtiyyotkorona maslahat berdi. Shoira bunga javoban: Men sizning fanningizdan va boshqa fanlardan yaxshi o'qiymenmi, dars qoldirmaymanmi, jamoat ishlarida

qatnashamanmi, bo'ldi-da. Qolgani meni shaxsiy ishim bo'lsa kerak, – deb javob berdi.

**Kurs rahbari bunga qanday javob berishi va qanday chora-tadbirlar ko'rishi kerak?**

A) haqiqatda Shoira yaxshi o'qiydi. Uning ustiga yuqori kurs talabasi. O'z shaxsiy hayotini qurish haqida o'ylashi kerak.

Shuning uchun Shoiraga hech narsa demaslik kerak;

B) Shoiraxon, to'g'ri, yaxshi o'qiysiz, hamma ishda faolsiz. Lekin tanish-bilish yigitlaringiz bilan xonada emas, tashqarida gaplashganingiz ma'qul, – deb maslahat berishi kerak;

D) Yaxshi o'qiganingiz, jamoat ishlarida faol qatnashganingizning o'zi yetarli emas. Qiz bola iffatli, hayoli, iboli bo'ladi. Ota-onangiz sizni o'qishga yubora turib, taqdiringizni biz pedagoglar, tarbiyachilarga ishonib topshirgan. Biz sizning ham ta'limingiz, ham tarbiyangiz uchun javob beramiz. Qolaversa, bu bizning akalik, ota-onalik, insoniylik burchimiz. Shuning uchun maslahatlarimizga qulqoq ossangiz, o'zingizning foydangiz, o'zingizning baxtingiz. Buni hozir tushunmasangiz, keyin tushunasiz. Bunaqa hayotga yengil qaramang. Keyin kech bo'ladi, singlim. O'shanda afsuslanishning hojati yo'q. Agar bunday noma'qulchiliklarni davom ettiraveradigan bo'lsangiz, ota-onangizga bu haqda ma'lum qilaman va masalangizni kurs majlisiga qo'yaman.

**«Oilada farzandlar orasidagi mehnat taqsimotiga e'tibor bering!»**

**28-masala.** Yakshanba kuni. Nasiba opa qizlari bilan uyda. Katta qizi kir yuvmoqda. Kichkina qizi televizor tomosha qilib o'tiribdi. Nasiba opa osh dam yeganini, uni suzishini aytdi. Katta qizi kirlarini hali bo'limgaganini, uni chayib, osish kerakligini aytdi. Nasiba opa nima qilishi kerak?

- A) qizi kirlarini chayib, yoyib bo'lishini kutishi kerak;
- B) Kichik qizi bilan ikkalovi oshni suzib yeyaverishlarini, katta qizi kirini bo'lsa, o'zi oshini solib yeyaverishini aytishi kerak;
- D) Kichik qiziga: tur, qizim, opangning kirlariga chayishib, yoyishib yubor. Birgalikda tez bo'lasizlar. Singlisi opasiga yordamchi bo'lishi kerak. Keyin hammamiz birgalikda ovqatlanamiz, deyishi kerak.

**«Qaynona - kelin munosabatlari – oila mustahkamligini belgilovchi omillardan biri!»**

**29-masala.** qaynona kelinlarining o'zaro inoq emasliklarini, ularning tez-tez janjallahib qolishlari, uyda ham, ko'chada ham bir-birlarining g'iybatlarini qilishlaridan bag'ri ezildi. Bu holning sabablari nimalardan iborat bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrlaringiz.

**Kelinlarning o'zaro munosabatlarini yaxshilash omillari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?**

A) Qaynona kelinlarining qaysi biri oldiga kelib, ikkinchi kelinini yomonlasa, u ham kelinining gapini ma'qullar, ustiga-ustak o'zi ham arzigan-arzimagan kamchiliklarini gapirib, qo'shilishar edi. Natijada kelinlar bir-birlarining oldida tobora yomon otliqqa chiqib borar, uchrashganda bir-birlarining kamchiliklarini yuzlariga solishar, orada janjal ko'tarilar edi;

B) Kelinlar yaxshi tarbiyalanmagan, ma'naviy qashshoq oiladan bo'lib, uning ustiga kattalarning maslahatiga qulqoq osishmas, o'z bilganlaridan qolishmas, «Men sendan kammi», – degan qabilida ish tutishar edi. Qaynonaninng kelinlariga bir xil munosabatda bo'lmasligi, ularni bir-biridan ajratishi, boshqalarning kelinlarini maqtab, o'zining kelinlarini ularning oldida kansitishi ham bu mashmashalarga qisman sabab bo'lar edi;

D) Qaynona kelinlari uchun dono maslahatchi bo'lishi, ularni o'z qizidek ko'rishi, barchasiga birdek munosabatda bo'lishi,

kamchiliklarini yashirib, yaxshi tomonlarini oshirib, rag'batlantirib borishi, kelinlarining biri ikkinchisining kamchiliklarini aytib, yomonlaydigan bo'lsa, inson kamchiliksiz bo'lmasligi, borini kechirib, murosa qilish kerakligi, hamma gap o'zaro mehr-oqibatda, hurmatda ekanligini tushuntirishi, uydagi gapni ko'chaga chiqarmasligi, oilaning siri muqaddas ekanligini ukdirishi, kelinlarining o'zaro inoq bo'lishlariga har tomonlama ko'maklashishi, uy yumushlari taqsimotida odil bo'lishi lozim. Buning uchun esa har bir qaynona turmush masalalari bobida ziyoli bo'lishi, o'qib-uqqan, hayotni ko'p kuzatgan, oqil mulohazali, mustaqil fikrga ega bo'lishi lozim.

**«Farzandingizni yoshligidan halollikka o'rgating!»**

**30-masala.** Bolangiz yugurbanicha ko'chadan kirib keldi, qo'lida chiroyli mashinacha. Bu o'yinchoq o'rtog'i Bobirniki, ko'chada unutib qoldirgan. Bolangiz: o'yinchoq meniki bo'laqolsin, oyijon, uyda o'zim o'ynayman, – dedi. Sizning munosabatingiz.

A) Juda chiroyli ekan, mayli, yashirib qo'yaqol. Uning boshqa mashinalari ko'p;

B) Biroz vaqt o'ynagin-da, keyin olib chiqib ber. Birovning narsasini olishga o'rghanma. U sening narsangni olsa, yaxshi bo'ladimi? Buning o'rniga narsalaringni, o'yinchoqlaringni yaxshi asrab, birgalikda o'ynanglar. O'shanda yaxshi o'rtoq bo'lasizlar. Katta bo'lganlaringda bir-birlaringga yordam beradigan bo'lasizlar. Yaxshi odamlar shunaqa bo'lishadi.

**«Bolalariningizni narsalarni ehtiyyot qilib, asrashga o'rgating!»**

**31-masala.** Ruchkasini yo'qotib qo'ygan Jamshid mактабга ketish oldidan opasi Masturaning ruchkasini talashib, sindirib qo'ydi. Ikkaloviga ham ruchkalarni yaqinda olib berishgan edi. Oila a'zolarining bu holatga bo'lган munosabatlari.

A) Opasi Jamshidni kaltaklab ketdi;

B) Dadasi: Bitta ruchka bir haftaga yetmaydi. Bo'ldi endi

ruchka olib bermayman. Nima qilsang qilaver, – deb jahl bilan ishga chiqib ketdi;

D) Oyisi: Jamshid, o‘g‘lim, talashganingda nima bo‘ldi endi – butun ruchka sindi. Opangdan yaxshilab so‘raganingda u ruchkasini berib turar edi. Mana endi yana ikkita ruchka olishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun hamma narsani avaylab tutish kerak. Ana o‘shanda men bilan dadangning oyligi tejaladi. Tejalgan pulga o‘zlaringga boshqa narsalar olib beramiz.

### «Noz-ne’matni uvol qilmang!»

**32-masala.** Qumri xola kelini Lolaning piyolasida toza ichilmay qolgan shakarni ko‘rib: Bolam, piyolangizning tagida shakar qolibdi, tozalab ichib qo‘ysangiz bo‘lardi, uvol bo‘ladi, – dedi. Bunga kelinining javobi:

A) Voy-bo‘y, shu ozgina shakar bilan boy bo‘lib qolamizmi? Yuvib tashlayvering;

B) Shakar tugab qoladi, deb qo‘rqayapsizmi? Dadamga aytaman, bir qop shakar olib kelib beradi;

D) Xo‘p, oyijon, uzr, shoshib turgan edim-da, deb choy quyib ichib qo‘yishi kerak.

### «Sepli kelin bo‘lma, epli kelin bo‘l!»

**Masala 33.** Umida opa qo‘snnisiniidan kayfiyati buzilib chiqdi. qo‘snnisi kelinining saruposi, tilla taqinchoqlari, to‘ylarida qilingan tog‘oralarni aytib, rosa maqtandi. Umida opaning keliniga onasi aqlii bitta zirak ham qilmagani, sarupolarining ham tayini yo‘qligini eslab, ichidan o‘kindi. O‘zini qo‘yarga joy topolmay, oxiri o‘g‘liga yorildi. Keliniga va uning oilasiga nisbatan achchiq gaplar qildi.

**Umida opaning tutgan yo‘lini baholang. Bu vaziyatda o‘g‘il qanday yo‘l tutishi lozim?**

A) O‘g‘il onasi aytgan gaplarini xotini bilan muhokama qilishi kerak;

B) O‘g‘il onasiga: Oyi, keliningizni o‘zingiz yoqtirib, orzu-

havas bilan kelin qilgan bo'lsangiz, hurmatingizni joyiga qo'yayotgan bo'lsa, xizmatingizni qilayotgan bo'lsa, shu kerak emasmi, sizga. Saruposi mundoqroq bo'lsa, nima bo'pti. Saruposi ming yaxshi bo'lganda ham ikki-uch yilda tugaydi. Keyin nimasi bilan maqtanadi shu qo'shningiz? Undan ko'ra kelining fazilatlarini maqtasin. O'mak bo'ladi boshqa kelinlarga. Sizning keliningiz bu tomondan hech' boshqa kelinlardan qolishadigan joyi yo'q. Siz ham ming maqtansangiz arziydi keliningiz bilan qayoqdagi gaplarni gapirib yuribsiz. Shukur qiling, oyi. Keliningiz bilan yaxshimisiz. Eng muhimi shu. Qolgan narsalar tinch-omonlik, sog'-salomatlik, xotirjamlik bo'lsa, topiladi;

D) Umida opa qo'shnisining gaplari jan xafa bo'lmasdan, ko'nglini keng tutishi, «ha, bor ekan, ota-onasi qilibdi, yo'q bo'lsa nimani qilar edi. Hammasi baxtli bo'lsin, qo'sha qarishsin, uvali-juvali bo'lishsin. Bizning kelinimizning saruposi beriroq bo'lsa ham, kelnim, aylanay, tilla. Meni qo'yarga joy topolmaydi. Og'zidan bol tomadi. Ota-onasi juda yaxshi tarbiya bergen ekan qiziga, baraka topsin. O'g'lim ham juda xursand», – deyishi kerak edi.

### «Sevgini asrang!»

**34-masala.** Rustamjon kursdoshi Dildorani yaxshi ko'rdi. Dildoraning ota-onasi yakka-yu yagona qizlari bo'lishiga qaramasdan, uni, yoshlari bir-birlarini yaxshi ko'rganlari uchun, Xorazmdan Farg'onaga kelin qilib uzatishdi. Oradan bir yil o'tgach Dildora o'g'illi bo'ldi va o'qishidan akademik ta'tilga chiqib, Farg'onaga ketdi. Rustam esa o'qishda qoldi. Ancha vaqt o'tgandan keyin Dildora shaharga kelganida, kursdoshlari Rustamning boshqa bir qiz bilan yurayotganini aytishdi. Buni eshitgan Dildora katta janjal ko'tardi va hech nimani surishtirmasdan Farg'onaga borib, o'g'lini olib, Xorazmga ota-onasining oldiga ketib qoldi.

Rustamning ota-onalari qanday chora ko‘rishlari kerak? Dildoraning tutgan yo‘lini qanday baholaysiz? Bunday voqealar sodir bo‘lmasligi uchun qudalar qanday chora-tadbirlar ko‘rishlari kerak edi?

A) Rustamning ota-onalari bo‘lgan gapning oxiriga yetishlari, o‘g‘ilining xato qilganligini tushuntirishlari, qudalarinikiga borib, ular bilan kelishib, kelinlarini olib kelishlari kerak va o‘g‘li bilan kelinlarining bir joyda bo‘lishlarini ta‘minlashlari kerak;

B) Dildora bu gapni eshitgandan keyin, uni har tomonlama surishtirishi, Rustam bilan bafurja gaplashishi va oilaning buzilmaslik choralarini ko‘rishi kerak;

D) Qudalar farzand tug‘ilgandan keyin ko‘payishgan oilaning bir joyda bo‘lishini ta‘minlashlari, ularning hol-ahvoli, turmushlaridan xabardor bo‘lib turishlari kerak edi.

**«Yoshlar muhabbatiga to‘sqinlik qilmang ularning baxtiga zomin bo‘lasiz!»**

**35-masala.** Ikki yosh bir-birini chin dildan yaxshi ko‘rishadi. Lekin ularning turmush qurishlariga ota-onalari norozi. Shunda ular qochib ketishga qaror qilishdi. Bunga siz qanday qaraysiz?

A) Ikki yosh bir-birini yaxshi ko‘rishar ekan, ular turmush qurishga qat’iy ahd qilganlaridan keyin, eng avvalo, bu haqda ota-onalariga ma’lum qilishlari lozim. Bir umrga qilinadigan bu ahdu paymon puxta o‘ylanib, har tomonlama maslahatlashilib amalga oshirilishi lozim. Ota-onalar yoshlarning qalb amrlariga qarshi ish tutmasliklari kerak. Bu borada e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan eng asosiy masala ikki yoshning baxtli bo‘lishidir. Har qanday yechim shu massalaning ijodiy hal qilinishiga qaratilmog‘i lozim. Albatta, yoshlar «yoshlik» lariga borib adashishlari mumkin, ehtiroslariga, aldamchi hissiyotlariga, subyektiv baholarga berilishlari mumkin. Ota-onalar, qon-qarindosh, mahalla ko‘y

bu sohada yoshlarga odil, samimiy maslahatchi, ko'makchi, yo'l ko'rsatuvchi bo'lishlari lozim;

B) Agar ota-onalar yoshlarning turmush qurishlariga u yoki bu sabablarga ko'ra norozi bo'lsalar, bu holda yoshlarning ularning roziligesiz turmush qurishlarini ma'lum sharoitlarda bir qadar yoqlash mumkindir. Lekin masalaning bunday yechimi yoshlarning to'la qonli baxtli bo'lishlari uchun mavjud imkoniyatlarning aksariyat qismini yo'qqa chiqaradi. Yoshlarning harakati katta qiyinchiliklar bilan mazmunsiz kechadi. Quda-andalik munosabatlari buziladi. Orada noxush holat, vaziyat yuzaga keladi. Shu sababli masalani iloji boricha ota-onalarning, qavmu-qarindoshning roziligi bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

**«Transportda yurishning ham o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud!»**

**36-masala.** Yigit bilan qiz yo'lida taksi to'xtatishdi. Ular taksiga qanday o'tirishlari kerak?

A) Yigit haydovchining oldiga o'tirib, qizning orqaga o'tirishini aytishi kerak;

B) Taksining orqa eshigini ochib, qizni o'tqazib, o'zi haydovchining oldiga o'tirishi kerak;

D) Taksining orqa eshigini ochib qizni o'tqazib, keyin uning yoniga o'zi o'tirishi kerak, chunki taksi yo'lida yana yo'lovchi oladigan bo'lsa, orqa o'rindiqqa o'tirgan yo'lovchi, agar qiz taksiga yigitdan keyin o'tirsa, begona kishi bilan yonma-yon o'trib qoladi.

**37-masala.** Shoirani qimmatbaho ko'yak kiyib kelgani uchun sinf rahbari darsdan chaqirib oldida, uyiga borib, boshqa oddiy kiyim kiyib kelishini aytди. Bu holatga oila a'zolarining munosabatlari?

A) Dadasi qiziga: o'qituvchingning sening kiygan kiyiming bilan nima ishi bor ekan? Bor mакtabга boraver. O'qituvchining bekor aytibdi;

B) O'yisi: qizimni qanday kiyintirish mening ishim. Sinfidagi ba'zi qizlarga o'xshab, qizim matabga bir pullik kiyimda borsinmis?

D) Buvisi nabirasiga: O'qituvching to'g'ri aytibdi, qizim. Matabga o'zingni ko'z-ko'z qilgani bormaysan, bilim olgani borasan. Ikkinchidan, boshqa o'rtoqlaring oldida sening ajralib turishing yaxshi emas. Ularning ota-onalarining qizlarini senga o'xshab kiyintirishlariga imkoniyatlari bo'lmasligi mumkin. Bundan ularning ko'ngli o'ksiydi. Demak, bu bilan sen ularni xafa qilgan, qalbini cho'ktirgan bo'lasan. Shuning uchun o'qituvchining aytganini qilib, matabga oddiyroq kiyimlariningni kiyib bor.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. –T.: «O'zbekiston», 1998.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, // «Muloqot». – T.: 1998, 5-son.
3. Avesto–tarixiy-adabiy yodgorlik. – T.: «Sharq», 2001.
4. Ashirov A. Bizga meros marosimlar // Markaziy Osiyo madaniyati, 2001-y. oktabr.
5. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'ravev, Vatan tuyg'usi. – T.: «O'zbekiston», 1996.
6. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Ikki jildi, 1 jild. – T.: «O'qituvchi», 1995.
7. Kalila va Dimna. – T.: Adabiyot va san'at. 1987.
8. Forobiy. Risolalar. –T.: «Fan» 1975;
9. Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993.
10. Forobiy. Risolalar. –T.: «Fan», 1974.
11. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u-bilik. –T.: «Fan», 1990.
12. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'mni va roli. –T.: «Fan», 1993;
13. Ibn Arabshoh, Amir Temur tarixi, 1-2 jildlar, –T.: «Mehnat», 1992

14. Temur tuzuklari. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, T. 1991.
15. Amir Temur o‘gitlari. –T.: «Navro‘z», 1992.
16. Alisher Navoiy. Hayrotul-abror. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. –T.: 1989.
17. Sulton Izzat. Navoiyning qalb daftari. –T.: 1969. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
18. Oyina. –T.: «Akademiya», 2001.
19. Alimova D. Oila poydevori haqida risola (asarning ikkinchi nashriga kirish so‘zi). Fitrat. Oila. –T.: «Ma’naviyat», 2000.
20. Fitrat A. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. –T.: «Ma’naviyat», 2000.
21. Кубадинский П. Долг с семейным и общественным. Перевод с долг. «Москва» «Юридическая литература». 1988.
22. Vatan tuyg‘usi. –T.: «O‘zbekiston». 1996.
23. Oila, ma’naviyat va ijtimoiy hayot. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. –T.: 1998.
24. Xusain Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tarihati. – T.: 1994.
25. Sher A. Axloqshunoslik. – T.: 2003.
26. Fotimaxon Sulaymon Qori qizi. Ayollarga xos masalalari. – T.: Mavarounnaxr. 2003.

27. Ali Muhammad. Men ko‘rgan Amerika. Jahon adibiyoti, 1998, 7-son.
29. To‘raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta’lim - tarbiya haqida. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
30. Oila psixologiyasi, Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darslik, prof. Shoumarov G.B. tahriri ostida – T.: «Sharq», 2003.
31. Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – T.: 1997.
32. Тощенко Ж.Т. Сотциология. Общий курс. 2-е изд., доп. И перераб. –М.: Прометей, Юрайт, 1999.
33. Giddens Entoni. Sotsiologiya – T.: «Sharq». 2002.
34. Oila psixologiyasi. «Sharq», –T.: 2003.
35. B.Shoumarov, Sh.B.Shoumarov. Muhabbat va oila. –T.: «Ibn Sino» 1994.
36. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: «Meros», 1992.
37. Qur’oni Karim. «Niso» surasi, 34-oyat. «Cho‘lpon». –T.:
38. Amir Temur Hikmatlari. «Sog‘lom avlod uchun» jurnali, 2002-y. sentabr, 9-son.
39. Karimova V. Sog‘lom bo‘lish mas’uliyati. «Oila» jurnali 2005-yil, 2-son.
40. Umirzakova R. «O‘zbekistonda oila mustahkamligining sotsial omillari» nomzodlik dissertatsiisi avtorefarati. –T.: 2006.

41. Najmidinova K. «Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rnini» nomzodlik dissertatsiisi avtorefarati. –T.: 2006.
42. Saidov M. Erkin va farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo‘lmaydi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2006-yil 7-yanvar.
43. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. T. 1995-y. «Adolat» nashriyoti. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
44. Nizomulmulk. «Siyosatnoma» «Fan», –T.: 1991 yil.
45. Qur’oni Karim. «Oli-Imron» surasi 130-oyat. «Cho‘lpon». –T.:
46. Ubaydullayev U.A. «Xalqaro terrorizm: tarixi va zamonaviy muammolar». –T.: «Universitet» nashriyoti – 2002.
47. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. «Sharq», –T.: 2001.
48. Алимасов В.А. Особенности развития культурно-просветительских учреждений в условиях перехода Узбекистана к рыночным отношениям. Автореф.дисс. докт. филос. наук. – Т.: 2001.
49. Е.Бобомуродов. Духовное обновление общества и изменения общественной психологии молодёжи Узбекистана (Сотсиально-философский анализ) Автореф.

дисс. д-ра филос. наук. – Т.: 1997.

50. Юнусов А.М. Демократизация общества и взаимодействие национального и общечеловеческого в развитии духовных тсенностей. Автореф. дисс. д-ра филос. наук. – Т.: 1995;

51. Jabborov I. O‘zbeklar: turmush va madaniyati.

52. Азимова Д.С. Национальное, региональное и общечеловеческое в культуре народов Центральной Азии в условиях независимости. Автореф. дисс. докт. филос. Наук. – Т.: 2000.

53. B.Shoumarov, Sh.B.Shoumarov. Muhabbat va oila. –Т.: «Ibn Sino» 1994.

54. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. – Т.: «O‘zbekiston», 1998.

55. Amir Temur Hikmatlari. «Sog‘lom avlod uchun» jurnali, 2002-y. sentabr. 9-son.

56. Karimova V. Sog‘lom bo‘lish mas’uliyati. «Oila» jurnali 2005-yil 2-son, 9-bet.

57. Saidov M. Erkin va farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo‘lmaydi. «Xalq so‘zi», 2006-yil 7-yanvar.

58. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. –Т.: 1995 y. «Adolat» nashriyoti.

59. Nizomulmulk. «Siyosatnomalar» «Fan», –Т.: 1991-yil. 35-b.

60. Qurg'oni Karim. «Oli-Imron» surasi 130-oyat.  
«Cho'lpox». -T.: -540 b, 63-b.
61. Ubaydullayev U.A. «Xalqaro terrorizm: tarixi va  
zamonaviy muammolar». -T.: «Universitet» nashriyoti – 2002.  
15-b.
62. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. «Sharq», -T.:  
2001-y. 66-b.

# MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>1. BUYUK AJDODLARIMIZ IJTIMOIY FAOL SHAXSNING SHAKLLANISHIDA OILA TARBIYASINING AHAMIYATI HAQIDA</b>	
1.1. Oila tarbiyasining tarixiy ildizlari va manbalari ...	6
1.2. Farzand tarbiyasiga oiladagi sotsial omillarning ta'siri.....	33
<b>2. OILADA IJTIMOIY-IQTISODIY, MA'NAVIY- AXLOQIY, HUQUQIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI</b>	
2.1. Oila, uning mazmuni va vazifalari .....	46
2.2. Ota-onaning farzand oldidagi va aksincha farzandning ota-onsa oldidagi burchlari .....	48
2.3. Oila a'zolarining huquqlari .....	49
2.4. Qaynonanining burch va vazifalari .....	50
2.5. Oila tejamkorligi – mustahkam, farovon oila qurish garovi .....	56
2.6. Farzandlar orasida meros taqsimoti masalalari ....	60
2.7. Farzand tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi .....	61
2.8. Ijobiy o'rnak – farzand tarbiyasining muhim omili .....	64
2.9. Ota-onaning farzand tarbiyasida bamaslahat ish tutishi va bir xil ta'sir ko'rsatishi .....	65
2.10. Ota-onsa farzand oldida hech qachon bir-birlarini obro'sizlantirmasliklari haqida .....	69
2.11. Farzandga beriladigan mehribonlik bilan unga bo'lgan talabchanlikning me'yorini bilish .....	73
2.12. Bolaga beriladigan jazo bilan rag'batlantirishning o'mni va me'yorini bilish .....	83
2.13. Bolani ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalash	

to‘g‘ri tarbiyaning muqaddimasidir .....	86
2.14. Tarbiyaning asosi oilada shakllanadi .....	90
2.15. Me‘yordan ortiq ko‘rsatilgan mehribonlik nomehribonlik bo‘lib qaytadi .....	95
2.16. Er-xotinning oiladagi bir-biriga munosabati, yurish-turishlari komil farzand tarbiyalashning ama-liyotidir .....	102
2.17. Oila-yoshlarda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning muhim omili .....	107

### **3. OTA-ONALARNING OILADA KOMIL INSONNI TARBIYALASHDAGI ROLINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

3.1. Ota-onani hurmat qilgan elda aziz .....	120
3.2. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash ....	135
3.3. Ota-onalarda g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini shakllantirish vositalari .....	143
3.4. Ota-onalar g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirish metodlari .....	150
3.5. Buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashda oilaning o‘mi .....	159

### **4. OTA-ONALAR VA YOSH OILALARGA MASLAHAT**

4.1. Yoshlarni oilaga tayyorlash.....	172
Adabiyotlar ro‘yxati.....	205

## СОДЕРЖАНИЕ

Введение .....	3
<b>1. ЧЕЛОВЕЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ВЕЛИКИХ ПОКОЛЕНИЙ СОЦИАЛЬНО АКТИВНЫХ И ИХ РОЛЬ В ВОСПИТАНИИ СЕМЬИ</b>	
1.1. Исторические корни и ресурсы семейного воспитания.....	6
1.2. Социальные реакции при воспитании ребёнка в семье.....	33
<b>2. ВЫПОЛНЕНИЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, ДУХОВНО-КУЛЬТУРНЫЕ, ПРАВОВОЙ ВОСПИТАНИИ В СЕМЬЕ И ИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ</b>	
2.1 Семья, его работа и цель.....	46
2.2. Обязанности родителей перед детьми и наоборот обязанности детей перед родителями.....	48
2.3. Права членов семьи .....	49
2.4. Задача и обязанность тёщи.....	50
2.5. Экономика семьи – это построить долгую и крепкую семью.....	56
2.6. Задача разделения имущества перед детьми...	60
2.7. Семья при воспитании ребёнка, школа и совместно с общиной.....	61
2.8. Положительный пример – главная цель при воспитании ребёнка.....	64
2.9. Согласованное воспитание родителей ребёнка с друг другом и их одинаковое реакция.....	65
2.10 Родители никогда не должны унижать друг друга перед детьми.....	69
2.11 Знать предел спроса и милосердия при воспитании ребёнка.....	73
2.12 Знать место и предел награды и наказания	

при воспитании ребёнка.....	83
<b>2.13 Цель и правильное воспитание ребёнка в духе уважения родителей.....</b>	<b>86</b>
<b>2.14 Основы воспитания развиваются в семье.....</b>	<b>90</b>
<b>2.15 Лишнее милосердие приведёт к большому не милосердию.....</b>	<b>95</b>
<b>2.16 Взаимоотношение между супругами, воспитание детей в семье.....</b>	<b>102</b>
<b>2.17 При воспитание молодых является символ и опоры для семье молодежных.....</b>	<b>107</b>
<b>3. ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ ЯВЛЯЕТСЯ НЕОБХОДИМОЙ ЗАДАЧЕЙ СЕГОДНЕШНего ДНЯ</b>	
<b>3.1. Кто уважает своих родители его ценит народ.....</b>	<b>120</b>
<b>3.2. Воспитать в семье разумных и дисципли- рованных детей.....</b>	<b>135</b>
<b>3.3. Средство формирования идеально-воспита- тельных знаний у родителей.....</b>	<b>143</b>
<b>3.4. Методы повышения идеально-воспитательных знаний у родителей.....</b>	<b>150</b>
<b>3.5. Место семьи в борьбе против разрушительных идей.....</b>	<b>159</b>
<b>4. СОВЕТЫ РОДИТЕЛЯМ И МОЛОДЫМ СЕМЬЯМ</b>	
<b>4.1. Подготовка молодых к семейной жизни.....</b>	<b>172</b>
<b>4.2. Список литературы.....</b>	<b>205</b>

## THE CONTENTS

<b>Introduction . . . . .</b>	<b>3</b>
<b>1. HUMAN DEVELOPMENT OF GREAT GENERATIONS SOCIALLY ACTIVE AND THEIR ROLE IN EDUCATION OF FAMILY</b>	
1.1. Historical roots and resources of family education . . . . .	6
1.2. Social reactions at education of the child in family.....	33
<b>2. SOCIALLY - ECONOMIC, SPIRITUALLY - CULTURAL, RIGHT EDUCATION IN FAMILY AND THEIR PEDAGOGICAL BASES OF PERFORMANCE</b>	
2.1 Family, its mean and purpose.....	46
2.2. Duty of the parents before children and on the contrary duties of children before the parents.....	48
2.3. Right of the members of family .....	49
2.4. Task and duty the mother -in - law.....	50
2.5. The economy of family is to construct long and strong family.....	56
2.6. Task of division of property before children .....	60
2.7. Family at education of the child, school and together with a community.....	61
2.8. Positive example - overall objective at education of the child.....	64
2.9. Coordinated education of the parents of the child with the friend by the friend and their identical reaction .....	65
2.10 The parents never should humiliate each other before children.....	69
2.11 To know a limit of demand and mercy at education of the child.....	73
2.12 To know a place both limit of the award and	

punishment at education of the child.....	83
2.13 Purpose and correct education of the child in spirit of respect of the parents.....	86
2.14 Bases of education develops in family .....	90
2.15 The superfluous mercy will result to large not to mercy.....	95
2.16 Mutual relation between the spouses, education of children in family.....	102
2.17 At education young is the symbol and support for family youth.....	107

### **3. THE EDUCATION CHILDREN TO FAMILY HAS THE LARGE MEANINGS IMPORTANCE IS TASK OF TODAY**

3.1. Who respects the parents it appreciates the people.....	120
3.2. To bring up in family reasonable of children.....	135
3.3. Means of formation ideologically – education of knowledge at the parents.....	143
3.4. Methods of increase ideologically – education of knowledge at the parents.....	150
3.5. Place of family in struggle against destructive ideas.....	159

### **4. ADVICE TO THE PARENTS AND YOUNG FAMILIES**

4.1. Preparation young to family life.....	172
4.2. The list of the literature.....	205

## QAYDLAR UCHUN



**I.ALQAROV, R.MAMATQULOVA, X.NORQULOV**

## **SHAXS VA OILA TARBIYASINING PEDAGOGIKASI**

**Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2009**

<b>Muharrir:</b>	M.Mirkomilov
<b>Texnik muharrir:</b>	A.Moydinov
<b>Musahhih:</b>	M.Hayitova
<b>Kompyuterda sahifalovchi:</b>	N.Hasanova

Bosishga ruxsat etildi 14.07. 2009. Bichimi  $60 \times 84 \frac{1}{16}$ .  
«Timez Uz» garniturasi. Offset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 14,25. Nashriyot bosma tabog'i 14,0.  
Tiraji 1000. Buyurtma № 110.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da  
chop etildi.

100003, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-10-210-1



9 789943 102101